O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT
INSTITUTI

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYADA KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMOLAR, ILG‘OR TAJRIBA VA ILMIY-AMALIY YECHIMLAR

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami

Toshkent – 2025

UDK: 343.9+343.85(575.1) (063)

BBK 67.5

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi 8-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazilgan bosma va elektron shaklda tarqatilishga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir:

Sh.O. Azim – O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik

Taqrizchilar:

X.T. Odilqoriyev – O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, professor

R.A Matchanov – O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori (DSc), podpolkovnik

Nashrga tayyorlovchilar:

M.A. A’loxonov, A.A. Xamidov, B.N. Normurodov, U.J. Choriyev, A.T. Jo‘rayev.

Z 26

Zamonaviy kriminologiyada kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning dolzarb masalalari: muammolar, ilg‘or tajriba va ilmiy-amaliy yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari *(2025-yil 27-noyabr)* / T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. 290 bet.

Mazkur to‘plamda zamonaviy kriminologiya nuqtayi nazaridan kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning dolzarb masalalari yoritilgan bo‘lib, raqamli muhitda sodir etilayotgan jinoyatlarning kriminologik tavsifi, ularning kelib chiqish omillari, kiberjinoyatchilikning oldini olish va fosh etishda yuzaga kelayotgan muammolar, shuningdek, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi va ularni milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

To‘plam huquq-tartibot organlari ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, olimlar, tadqiqotchilar va amaliyot xodimlari, mustaqil izlanuvchilar, talabalar hamda kursantlar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori va 2025-yil 30-apreldagi PQ-153-son qarori ijrosi doirasida o‘tkazildi.

Maqola va tezislar mazmuni hamda faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir.

© O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025-y.

KIRISH SO‘ZI

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim, bank-moliya tizimi, elektron tijorat, sog‘liqni saqlash hamda kundalik ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Biroq raqamli transformatsiya jarayoni bilan bir qatorda axborot xavfsizligi tahdidlari, kiberhujumlar va kiberjinoyatchilikning turli ko‘rinishlari ham sezilarli darajada kuchaymoqda. Internet va raqamli platformalardan noqonuniy foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, onlayn firibgarlik, bank kartalari bilan bog‘liq jinoyatlar, zararli dasturlar tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiya hamda masofadan turib sodir etiladigan boshqa turdagi huquqbuzarliklar kiberjinoyatchilikka qarshi kurashni zamon talabiga mos ravishda takomillashtirish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda.

Kiberjinoyatchilikning o‘ziga xos jihati shundaki, u ko‘pincha trans-chegaraviy xarakterga ega bo‘ladi, anonimlik va tezkorlik omillari hisobiga jinoyatni aniqlash hamda isbotlash jarayonini murakkablashtiradi. Jinoyat sodir etish vositalarining doimiy yangilanib borishi, raqamli dalillar bilan ishlashdagi texnik va protsessual muammolar, kadrlar salohiyatini oshirish, axborot resurslarini muhofaza qilish hamda institutsional hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi masalalar kriminologiya va huquqni qo‘llash amaliyotining kun tartibidagi eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda faqatgina jazolash choralariga tayanib qolmasdan, kompleks profilaktika, risklarni boshqarish, kriminologik prognozlash, aholining raqamli savodxonligini oshirish va zamonaviy texnologik yechimlarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiya aynan shu ehtiyoj va dolzarblikdan kelib chiqib tashkil etildi. Konferensiya doirasida zamonaviy kriminologiyada kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning muammolari, uning shakllanish omillari va tendensiyalari, raqamli muhitda jinoyat sodir etuvchi shaxslarning kriminologik tavsifi, kiberjinoyat qurbonligi *(digital victimization)* hamda ushbu yo‘nalishda profilaktika va tezkor-tergov faoliyatini takomillashtirishga doir masalalar keng muhokama qilindi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va ilg‘or amaliyot namunalarini o‘rganish, ularni milliy sharoitga moslashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, kiberxavfsizlikni ta’minlashda davlat

organlari, nodavlat sektor va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Ushbu materiallar to‘plamida jamlangan ilmiy maqolalar va ma’ruzalar kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning dolzarb masalalarini nazariy va amaliy jihatdan yoritib beradi. Xususan, to‘plamda kiberjinoyatchilikning tasnifi va tipologiyasi, jinoyatchilikka ta’sir etuvchi kriminogen omillar, raqamli dalillar bilan ishlash, kiberjinoyatlarni aniqlash va fosh etishning zamonaviy usullari, preventiv choralar, shuningdek, normativ-huquqiy bazani rivojlantirish hamda idoralararo axborot almashinuvi samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan. Alohida qayd etish lozimki, to‘plamda raqamli kriminologiya, big data tahlili, sun’iy intellekt asosida kriminologik monitoring va prognozlash, onlayn muhitda xavf indikatorlarini aniqlash kabi innovatsion yondashuvlar ham ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Ishonchimiz komilki, mazkur konferensiya materiallari kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga yaqinlashtirish, zamonaviy kriminologik yondashuvlarni keng joriy etish hamda malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga munosib hissa qo‘shadi. To‘plamdan o‘rin olgan g‘oyalar, xulosalar va tavsiyalar huquqni muhofaza qiluvchi organlar, axborot xavfsizligi bo‘yicha mas’ul tuzilmalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta’lim tashkilotlari va soha mutaxassislari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Konferensiya ishida faol ishtirok etgan barcha olimlar, amaliyot xodimlari, ekspertlar hamda hamkor tashkilotlarga samimiy minnatdorlik bildiramiz. Bildirilgan ilmiy fikrlar, muhokamalar jarayonida ilgari surilgan tashabbuslar va tavsiyalar kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning ilmiy-amaliy asoslarini mustahkamlashga, mamlakatimizda raqamli xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishga hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga xizmat qiladi, deb ishonamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik

B.E. Berdialiyev

KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLAYDIGAN IJTIMOIY MUNOSABATLARNI XALQARO HUQUQ NORMALARI ASOSIDA MILLIY QONUNCHILIKNI TARTIBGA SOLISH

Azim Shuxrat Obid o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD), polkovnik

Annotatsiya. Maqolada kiberjinoyatchilikka qarshi axborot xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarni xalqaro huquq normalari asosida milliy qonunchilikda tartibga solish masalalari tahlil qilinadi. Unda BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi qoidalari, ularning huquqiy mazmuni hamda O‘zbekiston jinoiy qonunchiligi bilan uyg‘unligi qiyosiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, milliy qonunchilikni takomillashtirish, kiberjinoyatlarga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatchilik, axborot xavfsizligi, xalqaro huquq normalari, BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, milliy qonunchilik, jinoyatlarni kriminallashtirish, raqamli dalillar, transmilliy jinoyatchilik.

Abstract. The article analyzes the issues of regulating social relations ensuring information security against cybercrime in national legislation based on the norms of international law. It comparatively highlights the provisions of the UN Convention against Cybercrime, their legal content, and compatibility with the criminal legislation of Uzbekistan. Scientific and practical proposals will also be put forward to improve national legislation and introduce effective legal mechanisms against cybercrime.

Keywords: cybercrime, information security, norms of international law, UN Convention against Cybercrime, national legislation, criminalization of crimes, digital evidence, transnational crime.

Globallashuv va axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi sharoitida O‘zbekiston yangi chaqiriq va tahdidlarga duch kelmoqda. Bu vaziyat axborot xavfsizligini ta’minlashga kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur yondashuv keng qamrovli masalalarni o‘z ichiga oladi, jumladan davlat va tijorat ma’lumotlarini himoyalash, muhim infratuzilma xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish hamda kiberhujumlarga bardoshlilikni oshirish kabi masalalarni qamrab oladi.

Ushbu tobora kuchayib borayotgan tahdidlarga javoban xalqaro hamjamiyat kiberjinoiy xatti-harakatlarni jinoyat-huquqiy talqin qilish, aniqlash va ularga qarshi himoyalanish bo‘yicha yagona yondashuvlarni ishlab chiqishni jadallashtirdi. Bu ko‘p tomonlama sa’y-harakatlarning natijasi o‘laroq, 2024-yil 24-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining kiberjinoyatchilikka qarshi 79/243-sonli Konvensiyasi qabul qilindi. Ushbu konvensiya axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda sodir etiladigan muayyan jinoyatlarga qarshi kurashishda va og‘ir jinoyatlarga oid elektron shakldagi dalillarni almashishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan *(bundan keyin – BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi deb yuritiladi)*, Konvensiyaning asosiy maqsadi kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashishning universal huquqiy asosini yaratishdan iborat.

BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi qabul qilingan Konvensiyasining huquqiy tabiati uning ishtirokchi davlatlar uchun muayyan turdagi qilmishlarni kriminalizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni jadallashtirish va jinoiy kiber ko‘rinishlarga qarshi samarali kurashish uchun zarur bo‘lgan protsessual mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha majburiyatlarni keltirib chiqaradigan ko‘p tomonlama majburiy xususiyatini belgilaydi. U yuqori texnologiyalar sohasida xalqaro jinoyat huquqini yanada ijobiy rivojlantirishning asosiy elementi sifatida namoyon bo‘ladi, milliy yurisdiksiya chegaralariga ega bo‘lmagan jinoyatlarga qarshi kurashishning universal huquqiy mexanizmini ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo barcha 193 davlat tomonidan yakuniy versiyasini ovoz berishsiz konsensus asosida ma’qullash orqali qabul qilingan bo‘lib, 2025-yil 25-oktyabrda Vetnamning Xanoy shahrida

bo‘lib o‘tgan tantanali marosimda imzolash uchun ochildi. Birinchi kuni 65 ta davlat, shu jumladan O‘zbekiston ham ushbu konvensiyani imzoladi. BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasini imzolash imkoniyati 2026-yil 31-dekabrgacha saqlanib qoladi va 40 ta ishtirokchi davlat tomonidan ratifikatsiya qilinganidan so‘ng 90 kun o‘tgach kuchga kiradi.

BMTning Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasini imzolash va O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishi amaldagi jinoyat, jinoyat-protsessual va boshqa sohalardagi qonunchilik normalarini sinchkovlik bilan va chuqur o‘ylab qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Buning sababi, transmilliy kiberjinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha harakatlarni birlashtirish vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu maqsadga Konvensiyaga a’zo mamlakatlar qonunchiligini unifikatsiya qilish orqali erishish mumkin. Bunday unifikatsiya II bob “Kriminallashtirish”da nazarda tutilgan barcha davlatlar uchun umumiy bo‘lgan jinoyat tarkiblari uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi normalarni qabul qilish va milliy qonunchilikka kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Konvensiya ishtirokchi davlatlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq muayyan qilmishlarni jinoiylashtirish, jinoyat tarkibining elementlarini yaratish uchun yetarli talablarni belgilash imkonini beradi. Bu nafaqat O‘zbekiston jinoyat qonunchiligini uyg‘unlashtirishga, balki, bo‘shliqlarning oldini olishga, har qanday jinoiy xatti-harakatlarni tartibga solishga yordam beradi. Shuningdek, milliy qonunchiliklardagi jinoiy-huquqiy normalarning sezilarli farqlanishiga yo‘l qo‘ymaslikka imkon yaratadi. Aks holda, bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida samarali kurashish bo‘yicha xalqaro hamkorlikda jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin.

Umumiy jinoyatlar tarkibi elementlarining zaruriy belgilari aniqlangan minimal to‘liq ro‘yxat “Kriminallashtirish” deb nomlangan II bobda keltirilgan.

Bunday umumiy tarkibli jinoyatlar qatoriga quyidagilar kiradi: 1) Noqonuniy kirish *(7-modda)*; 2) Noqonuniy ushlab olish *(8-modda)*; 3) Elektron ma’lumotlarga ta’sir ko‘rsatish *(9-modda)*; 4) Axborot-kommunikatsiya tizimiga ta’sir ko‘rsatish *(10-modda)*; 5) Qurilmalardan noqonuniy foydalanish *(11-modda)*; 6) Axborot-kommunikatsiya tizimidan foydalangan holda qalbakilashtirish *(12-modda)*; 7) Axborot-kommuni-

katsiyatizimidanfoydalanganholdaoʻgʻirlashyokifiribgarlik*(13-modda)*; 8) Internetda bolalarga nisbatan jinsiy zoʻravonlik yoki ularni jinsiy ekspluatatsiya qilish sahnalari aks etgan materiallarni joylashtirish bilan bogʻliq jinoyatlar *(14-modda)*; 9) Bolaga nisbatan jinsiy jinoyat sodir etish maqsadida tazyiq oʻtkazish yoki ishonch munosabatlarini oʻrnatish *(15-modda)*; Shaxsiy tasvirlarni roziligisiz tarqatish *(16-modda)*; Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish *(17-modda)*.

Milliy jinoyat qonunchiligi uchun jinoyatlarning umumiy tarkiblarining taqdim etilgan roʻyxati minimal darajada yetarli hisoblanadi. Chunki, 4-moddada shunday deyilgan: “Ishtirokchi davlatlar ishtirokchi boʻlgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa qoʻllaniladigan konvensiyalari va protokollarini amalga oshirishda, ular ushbu konvensiyalar va protokollarga muvofiq jinoyat deb tan olingan huquqbuzarliklar, agar axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda sodir etilgan boʻlsa, ichki qonunchilik boʻyicha ham jinoiy huquqbuzarlik deb hisoblanishini ta’minlaydilar”.

Konvensiyaning 7–16-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar tarkibi “asosiy” hisoblanadi, ya’ni ular majburiy jinoyatlar boʻlib, ularni sodir etish natijasida olingan daromadlarga nisbatan BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasining 17-moddasida koʻrsatilgan jinoyatlar sodir etilishi mumkin.

BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi normalarini Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi normalari bilan qiyosiy-mazmuniy tahlil qilish xalqaro-huquqiy hujjatdagi koʻrsatmalarning aksariyati davlat ichki jinoyat huquqida amalga oshirilganligini ta’kidlash imkonini beradi.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrdagi “Axborotlashtirish va ma’lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq Jinoyat kodeksiga kiritilgan “XXI bob. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” *(keyingi oʻzgartirish va qoʻshimchalar bilan)* amalda BMTning Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasining 7–11-moddalarida nazarda tutilgan barcha jinoiy huquqbuzarliklarni qamrab oladi.

Konvensiyaning 13-moddasida nazarda tutilgan jinoiy huquqbuzarliklar JK 165-moddasi *(tovlamachilik)*, JK 167-moddasi 3-qismi “g” bandi *(o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish)*, JK 168-moddasi 3-qismi “g” bandi *(firibgarlik)*, JK 169-moddasi 3-qismi “b” bandi *(o‘g‘rilik)* bilan tartibga solinadi.

BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasining 14 va 16-moddalarida nazarda tutilgan bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik yoki jinsiy ekspluatatsiya sahnalari aks etgan materiallarni Internet tarmog‘iga joylashtirish va roziligisiz intim tasvirlarni tarqatish bilan bog‘liq jinoyatlar JKning 130-moddasida *(pornografik mahsulotlarni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish)* qisman jinoiy javobgarlikka tortiladigan qilmishlar sifatida nazarda tutilgan.

Konvensiyaning 17-moddasida nazarda tutilgan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish JKning 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi bilan deyarli bir xil *(jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish)*.

Jinoyat qonunchiligining ayrim boshqa normalarida “telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish” konstruktiv yoki kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida nazarda tutilgan *(JK 103-moddasi 2-qismining “g” bandi – o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish; JK 103[1]-moddasi 2-qismi “v” bandi – o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash)*; JK 130[1]-moddasi – tazyiq o‘tkazish, zo‘ravonlik yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish; JK 139-moddasi 2-qismi – tuhmat; JK 140-moddasi 2-qismi – haqorat qilish; JK 141[2]-moddasi – shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish; JK 141[3]-moddasi – shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining intim tomonlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni oshkor qilish; JK 149[1]-moddasi 2-qismi “g” bandi – mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish; JK 168-moddasi 3-qismi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini omma oldida haqorat qilish yoki unga tuhmat qilish; JK 188[1]-moddasi – pul mablag‘larini va *(yoki)* boshqa mol-mulkni jalb etishga doir qonunga xilof faoliyat; JK 244-moddasi 2-qismi “b” bandi – ommaviy tartibsizliklar; JK 244[1]-moddasi 3-qismi “g” bandi – jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish; JK 244[5]-moddasi

2-qismi – karantin va boshqa xavfli yuqumli kasalliklarning tarqalishi to‘g‘risida haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni tarqatish; JK 244^{6}-moddasi – yolg‘on axborot tarqatish; JK 151^{1}-moddasi 1 va 2-qismlari – giyohvand moddalar, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud bunday moddalar yoki zaharli moddalarning noqonuniy muomalasi; JK 273-moddasi 3-qismi “d” bandi – giyohvand moddalarni, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni sotish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar, shuningdek ularni sotish; JK 274-moddasi 1 va 2-qismlari – giyohvand moddalarni, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud bunday moddalarni iste’mol qilishga jalb qilish; JK 278-moddasi 3-qismi – telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i provayderlarining qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish uchun tegishli dasturiy ta’minotni uzatish, ko‘paytirish, tarqatish xizmatlarini ko‘rsatish.

Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan tartibga solish mavjud bo‘lgan taqdirda ham, amaldagi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, unga tuzatishlar kiritish va xalqaro huquq normalarini jinoyat qonunchiligiga transformatsiya qilish orqali yetarli darajada implementatsiya qilish bo‘yicha puxta ish olib borish zarur.

Birinchidan, terminologik nomuvofiqliklarga barham berish va tushunchalar tizimini tuzatish kerak. BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasida qo‘llanilgan atamalardan foydalanish lozim, biroq milliy jinoiy huquq qonunchilik texnikasining an’anaviy usul va uslublarini qo‘llash majburiy shart bilan.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Jinoyat kodeksidagi bo‘shliqlarni bartaraf etish va amaldagi Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida nazarda tutilmagan qilmishlarni jinoiylashtirish lozim. Masalan, Konvensiyaning 14-moddasi 1-bandining *(a)-(c)* kichik bandlariga muvofiq jinoyat deb topilgan harakatlarni moliyalashtirish, axborot-kommunikatsiya tizimidan foydalangan holda hujjatlarni qalbakilashtirish *(Konvensiyaning 12-moddasi)*

kabi jinoyatlarni kiritish, shuningdek, boshqa normalar bo‘yicha ba’zi mazmuniy nomuvofiqliklarni ham bartaraf etish zarur.

Uchinchidan, BMTning Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasida “jiddiy jinoyatlar” tushunchasi to‘rt yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki undan ham og‘irroq jazo chorasi bilan jazolanadigan qilmishlar sifatida talqin qilinishini inobatga olib *(Konvensiyaning 2-moddasi “h” bandi)*, axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar uchun belgilangan sanksiyalarni qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, Jinoyat kodeksiga jazo chorasi sifatida ilgari chiqarib tashlangan mol-mulkni musodara qilishni qaytarish maqsadga muvofiqdir. Biroq, uni jinoiy jazo sifatida emas, balki majburiy tibbiy choralar bilan bir qatorda boshqa jinoiy-huquqiy chora sifatida qaytarish lozim.

O‘zbekistonning amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida “maxsus musodara” deb nomlanuvchi qoida mavjud bo‘lib, u mahkumdan jinoyat sodir etish quroli va vositasi bo‘lgan muayyan buyumlarni, boshqa ba’zi narsalarni, shuningdek, jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan pul va boshqa qimmatliklarni olib qo‘yishni nazarda tutadi. Biroq, bunday musodara o‘zining yuridik tabiatiga ko‘ra jinoyat-protsessual chora hisoblanmaydi va shu sababli jinoyat qonunchiligida boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir chorasi sifatida o‘z o‘rnini topishi lozim.

Mol-mulkni musodara qilishning aynan shunday maqomi BMTning Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi mazmunidan ham kelib chiqadi. Unda 2-moddaning “v” bandida “musodara qilish sud yoki boshqa vakolatli organ qaroriga ko‘ra mol-mulkdan uzil-kesil mahrum etishni anglatadi” deb ta’kidlangan. Shu bois, O‘zbekiston Jinoyat kodeksida mol-mulkni musodara qilishni boshqa jinoiy ta’sir chorasi sifatida qayta joriy etish, maxsus jinoyat-protsessual musodara qilish tushunchasini mazmun jihatidan boyitish va uni Jinoyat-protsessual kodeksidan chiqarib tashlash maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashish va axborot xavfsizligini ta’minlash zamonaviy davlatlar uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiya-laridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarning transmilliy xususiyat kasb etishi milliy huquqiy choralarni xalqaro huquq

normalari bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Bu borada BMTning kiberjinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi universal huquqiy asos sifatida muhim o‘rin tutadi.

Maqolada o‘tkazilgan tahlillar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligida kiberjinoyatchilikka oid ko‘plab normalar xalqaro standartlarga mos ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim terminologik nomuvofiqliklar, jinoyat tarkiblaridagi bo‘shliqlar hamda sanksiyalarni qayta ko‘rib chiqish zarurati mavjudligi aniqlandi. Xususan, ayrim qilmishlarni jinoiylashtirish, mol-mulkni musodara qilish institutini jinoiy-huquqiy ta’sir chorasi sifatida qayta joriy etish hamda kiberjinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarini Konvensiya talablariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, milliy qonunchilikni takomillashtirish jarayonida xalqaro huquq normalarini mexanik tarzda ko‘chirish emas, balki ularni milliy huquqiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Natijada, ushbu maqolada bildirilgan ilmiy xulosalar va takliflar O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatchilikka qarshi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish hamda raqamli muhitda huquqiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. United Nations. Convention against Cybercrime (UN General Assembly Resolution 79/243). – New York, 2024.
4. Wall D. Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age. – Cambridge: Polity Press, 2007.
5. Grabosky P. Cybercrime and Society. – Oxford: Oxford University Press, 2022.

FUQAROLAR MA’LUMOTLARINI HIMOYA QILISHDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA KRIPTOAKTIVLARDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH

Allanov Orif Menglimuratovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU “Kiberxavfsizlik va kriminalistika” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Murodov Ma’murjon Ma’rupovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU “Kiberxavfsizlik va kriminalistika” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ayollar tomonidan axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan o‘g‘irlik va firibgarlik jinoyatining kriminologik tavsifi, o‘ziga xos xususiyatlari va ularning oqibatlari, jinoyatga ta’sir etuvchi omillar va uni oldini olishda yangicha yondashuv ochib berilgan. Shu o‘rinda, ayollar jinoyatini sodir etishda motivi, maqsadi, sababi, holatlari, va uni sodir etishdagi ishtiroki doirasida ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning alohida kriminologik tavsifi keng yoritilgan. Unda ayol va erkak jinoyatini sodir etishdagi farqlarni mavjudligi uni o‘ziga xos kriminalistik belgilarini ilmiy o‘rganish, uni boshqa jinoyatlarning kriminologik belgilaridan farqlari qiyosiy tahlil qilingan va olingan natijalarga tayangan holda hulosalar taqdim qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kiberjinoyatchilik, kibertahdid, kiberhimoya, kiberfiribgar, kibero‘g‘ri, kriminologik tavsifi, motiv va maqsadi, jabrlanuvchi, profilaktik mexanizm.*

Abstract. *This article reveals the criminological characteristics of the crime of theft and fraud committed by women using information technology, its specific features and consequences, the factors influencing the crime, and a new approach to its prevention. In this regard, a separate criminological description of crimes committed by women within the*

framework of their motivation, purpose, cause, circumstances, and participation in the commission of crimes by women is widely covered. The presence of differences in the commission of crimes by women and men, the scientific study of its specific forensic characteristics, a comparative analysis of its differences from the forensic characteristics of other crimes, and conclusions based on the obtained results are presented.

Keywords: *cybercrime, cyber threat, cyber defense, cyber fraud, cyber thief, criminological description, motive and purpose, victim, preventive mechanism.*

Hozirgi davrda axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgani sari shaxsga doir ma’lumotlarning huquqiy ahamiyati, ularni normativ-huquqiy hujjatlar orqali muhofazasini ta’minlash hamda himoya qilishga bo‘lgan e’tibor ham ortib bormoqda. Raqamli ma’lumotlar katta rol o‘ynaydigan bugungi dunyoda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Shaxsga doir ma’lumotlar” tushunchasi ma’lum bir shaxsni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan yoki ushbu shaxsni aniqlashga imkon beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish masalasi nafaqat texnologik, balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Chunki, raqamli maydonda har kuni milliardlab ma’lumotlar almashinuvi sodir bo‘lmoqda va bu jarayonda fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlash masalasi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Axborotning raqamli shaklda qayta ishlanishi, saqlanishi va uzatilishi natijasida shaxsiy ma’lumotlarning noqonuniy yig‘ilishi, tarqatilishi yoki o‘zgartirilishi xavfi kuchaymoqda. Shu sababli davlatlar ham, xalqaro tashkilotlar ham bu borada qat’iy me’yoriy-huquqiy tizimni shakllantirishga intilmoqda.

Shaxsga doir ma’lumotlar – inson haqidagi har qanday ma’lumotlardan iborat. Shaxsga doir ma’lumotlar asosan uchta turga bo‘linadi:

- umumiy ma’lumotlar;
- maxsus ma’lumotlar;
- biometrik ma’lumotlar.

Umumiy ma’lumotlar qatoriga insonning ismi, familiyasi, pasport

ma’lumotlari va boshqa shaxsiy hujjatlaridagi qaydlar, tug‘ilgan sanasi va joyi, elektron pochta manzili, yashash manzili, o‘qish va ish joylari, oilaviy, ijtimoiy va mulkiy holati, qaerda ta’lim olgani, qaysi kasb egasi ekanligi, daromadi qanchaligi kabi ma’lumotlar kiradi.

Telefon raqamlari faqat egasining ism-familiyasi bilan birga qayd etilgan hollardagina shaxsga doir ma’lumotlar toifasiga mansub bo‘ladi. Transport vositasining davlat raqami, kommunal, turar joy xo‘jaligining hisob raqami kabilar esa shaxsga doir ma’lumot hisoblanmaydi. Chunki, ulardan birinchisi bevosita avtomobilga tegishli bo‘lsa, ikkinchisi uy-joyga taalluqlidir.

Maxsus ma’lumotlar deganda, shaxsning irqiy va milliy mansubligi, siyosiy, diniy va falsafiy qarashlari, sog‘ligining holati, maishiy hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlar tushuniladi.

Biometrik ma’lumotlar insonning shaxsini aniqlash imkonini beradigan fiziologik va biologik xususiyatga ega shaxsiy ma’lumotlardir. Masalan, shaxsning DNK namunasi, ovozi, ko‘z qorachig‘i, barmoq izlari, yuz qiyofasi, bo‘yi, vazni bilan bog‘liq ma’lumotlar shular jumlasiga kiradi.

Shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlari *(Personally identifiable information – PII)* – bu ma’lum bir shaxsga bog‘liq bo‘lgan va ushbu shaxsni aniqlash yoki uning shaxsiyatini o‘g‘irlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan har qanday ma’lumotdir. Masalan, ijtimoiy sug‘urta raqami, to‘liq ism-sharifi, elektron pochta manzili yoki telefon raqami[4].

Odamlar ish va shaxsiy hayotlarida axborot texnologiyalariga tobora ko‘proq boglanib qolgani sari, tashkilotlarga beriladigan shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlari miqdori ham ortmoqda. Masalan, kompaniyalar mijozlarining shaxsiy ma’lumotlarini bozorni tushunish uchun yig‘adi, va iste’molchilar xizmatlarga ro‘yxatdan o‘tish yoki onlayn xarid qilish uchun o‘z telefon raqamlari va uy manzillarini osongina berishadi.

Shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlarini bo‘lishishning foydalari ham bor, chunki, bu bizneslarga mijozlarning ehtiyojlari va xohishlariga mos mahsulot va xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi. Masalan, navigatsiya ilovalarida aniqroq qidiruv natijalarini ko‘rsatish. Biroq, tashkilotlar tomonidan to‘plangan shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlarining ko‘payishi kiberjinoyatchilarning diqqatini tortadi.

Xakerlar shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlarini shaxsiyat o‘g‘irligi qilish, qora bozorda sotish yoki ransomware *(ruxsatsiz shifrlash)* orqali garovga olish uchun o‘g‘irlaydi. IBM kompaniyasining 2024-yilgi “Ma’lumotlar buzilishi xarajatlari” hisobotiga ko‘ra, global miqyosda ma’lumotlar buzilishining o‘rtacha moliyaviy xarajati 4,88 million AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 10% ga oshgan. Shaxslar va axborot xavfsizligi mutaxassislari ushbu hujumlar fonida ma’lumotlar maxfiyligini saqlash uchun murakkab IT va huquqiy muhitda harakat qilishlari kerak.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita identifikatorlar. Shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlari (PII) ikki turga bo‘linadi: *to‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatorlar* va *bilvosita identifikatorlar*.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatorlar – bu shaxsga xos va noyob bo‘lgan ma’lumotlar bo‘lib, masalan, pasport raqami yoki haydovchilik guvohnomasi raqami kiradi. Odatiy holda, bitta to‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikator shaxsni aniqlash uchun yetarli bo‘ladi.

Bilvosita identifikatorlar esa noyob emas. Ular shaxsga oid umumiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, masalan, irqi yoki tug‘ilgan joyi. Bitta bilvosita identifikator shaxsni aniqlay olmaydi, ammo ularning bir nechtasining kombinatsiyasi orqali aniqlash mumkin. Masalan, AQSh fuqarolarining 87% faqatgina ularning jinsi, ZIP kodi va tug‘ilgan sanasi orqali aniqlanishi mumkin.

Shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlarini *(PII)* himoya qilish bir necha muhim jihatlarni ta’minlaydi. Avvalo, bu shaxsning sha’ni va daxlsizligini saqlash imkonini beradi, ya’ni har bir insonning shaxsiy hayotiga hurmat ko‘rsatadi va noxush aralashuvlardan himoya qiladi. Shuningdek, PII ni himoya qilish moliyaviy firibgarlik va shaxsiy ma’lumotlar o‘g‘riligini oldini olishga yordam beradi. Chunki, kiberjinoyatchilar tomonidan o‘g‘rilangan ma’lumotlar moliyaviy zarar va boshqa muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ma’lumotlarni himoya qilish huquqiy javobgarlikdan qochish imkonini beradi, ya’ni qonunlar va me’yorlarga rioya qilishni ta’minlaydi. Shu bilan kompaniyalar va tashkilotlarni jarimalardan himoya qiladi. Oxirgi jihat sifatida, PII ni himoya qilish ishonchli raqamli muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa foydalanuvchilar va mijozlar uchun xavfsiz va barqaror onlayn muhitni yaratadi.

Kriptoaktivlardan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar. 2025-yilning yarmi mobaynida kriptojinoyatlar miqdori jiddiy oshib, *2,17 mlrd AQSh dollari miqdoridagi o‘g‘irliklar* qayd etildi. Bu raqam 2024-yildagi jami yo‘qotishlardan ham katta. Eng yirik va eng ta’sirli hodisa – *Bybit birjasiga qilingan 1,5 mlrd dollarlik hujum,* taxminan barcha o‘g‘irliklarning *69%* ni tashkil etdi. Shu bilan birga, DeepStrike tahliliga ko‘ra, nolegal tranzaksiyalar joriy blokcheyn hajmining juda kichik qismini, ya’ni *< 1%* ni tashkil qilmoqda.

Kriptoaktivlarda pul yuvish uchun jinoyatchilar asosan *stablecoin-larni* tanlayapti. Chainalysis ma’lumotlariga ko‘ra, noqonuniy tranzak-siyalarning *63%* ini USDT, USDC va boshqa barqaror aktivlar tashkil qiladi. Bu tendensiya shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilar tez va nazoratsiz tarzda moliyaviy oqimlarni harakatlantirish uchun barqaror tokenlardan foydalanmoqda. Shuningdek, 2024-yilda noqonuniy manzilga yuborilgan kriptoaktivlar hajmi taxminan *40 mlrd* dollarni tashkil qilgan *(ba’zi manbalarda 51 mlrdgacha)*, bu jinoyatlarning hajmi va murakkabligini ko‘rsatadi.

O‘tgan yillarga nisbatan o‘sish ham aniq ko‘zga tashlanadi: 2025-yilning birinchi yarmi uchun o‘g‘irlangan qiymat 2022-yilning shu davriga nisbatan *17%* ga yuqori. Bu ko‘rsatkich jinoyatchilik faolligining qaytadan oshayotganini va yirik, yuqori darajadagi hujumlarning markazlashgan xizmatlarga asoslanganligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, *“fizik hujumlar” “wrench attacks”* ham ko‘paymoqda. Raqamlar shuni ko‘rsatadiki, kriptoaktiv egalariga nisbatan zo‘ravonlik, majburlash va hatto yaqinlari yoki xodimlari ustidan bosim o‘tkazish holatlari oshib bormoqda. Bu esa raqamli jinoyatlar nafaqat onlayn, balki, real hayotda ham xavfni oshayotganini anglatadi.

Umuman olganda, 2025-yil kriptoaktivlardan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar uchun yangi bosqichga aylandi. Yuqori qiymatli hujumlar, stablecoin orqali pul yuvish va “og‘ir” jinoyat shakllari xavf modelini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Shu bois, kriptoaktivlar tizimida *oldini olish strategiyalari* muhim, chuqur xavfsizlik auditi, real vaqtda tranzaksiyalarni monitoring qilish va foydalanuvchilarni xabardor qilish orqali zaifliklarni kamaytirish mumkin.

O‘zbekistonda kriptojinoyatlar va ularni tartibga solish mexanizmlari. So‘nggi yillarda kriptoaktivlar global moliyaviy tizimning ajralmas qismiga

aylandi. Ularning iqtisodiyotga kirib kelishi bilan birga, kriminal faoliyatlar uchun qo‘llanilishi ehtimoli ham ortdi. O‘zbekiston respublikasida ham jadal raqamli transformatsiya jarayonida ushbu sohada qat’iy tartibga solish choralarini ko‘rmoqda. 2024–2025-yillarda qabul qilingan yangi qonunlar, kuchaytirilgan jazo choralar va maxsus operatsiyalar mamlakatning kriptojinoyatlarga qarshi pozitsiyasini aniq ko‘rsatib berdi.

2024-yil aprel oyidan boshlab, O‘zbekistonda noqonuniy kriptoaktiv aylanishi hamda ruxsatsiz mayning faoliyati uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralari kiritildi. Bu o‘zgarishlar mamlakatning kripto bozori ustidan nazoratni kuchaytirish va moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. 1-jadvalda keltirilganidek, ma’muriy javobgarlik sifatida 15 kungacha hibs yoki jarimalar belgilangan bo‘lsa, takroriy yoki “maxsus katta miqyosdagi” jinoyatlar uchun 3–5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi. Shu bilan birga, jinoyat haqida o‘z vaqtida xabar berib, tergovga yordam bergan shaxslar javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi ham belgilangan. Bu esa profilaktik mexanizm sifatida ahamiyatlidir.

1-jadval.
Huquqbuzarlik turi uchun jazo choralari

Huquqbuzarlik turi	Ma’muriy jazo	Jinoiy jazo	Izoh
Noqonuniy kriptoaktiv aylanishi	Jarima yoki 15 kungacha ma’muriy qamoq jazosi	Takroriy yoki katta miqyosda sodir etilganda 3–5 yilgacha qamoq jazosi	Aylanma hajmi va zarar miqdoriga qarab belgilanadi
Ruxsatsiz mayning	Jarima	Qayta sodir bo‘lganda jinoiy javobgarlik	Energiya talabi yuqori bo‘lgan noqonuniy mayninglar eng ko‘p uchraydi
Tergovga yordam berish	—	Javobgarlikdan ozod etish	Profilaktik mexanizm sifatida qo‘llanadi

Kriptojinoyatlarning real ko‘lamini tushunish uchun Toshkentda 2025-yilda o‘tkazilgan “Safe Cyberspace” operatsiyasi e’tiborga loyiq.

Tergov doirasida “DECENT” platformasi orqali noqonuniy kripto aylanmasi bilan shug‘ullangan guruh qo‘lga olingan. Ushbu jinoiy guruh 8 oy davomida *180 milliard so‘mga yaqin*, ya’ni *16 million AQSh dollariga teng* tranzaksiyalarni amalga oshirgan. Operatsiya davomida 38 ta mobil telefon va 1000 ga yaqin bank kartasi musodara qilingan. Ushbu faoliyat Jinoyat kodeksining 278-8-moddasi – “Kriptoaktivlar aylanishi qonunini buzish, guruh tashkil etish” – bo‘yicha baholanib, jinoyatchilarga 3–5 yilgacha qamoq jazosi tahdid qilmoqda. Bu voqea kriptoaktivlar orqali pullarni yuvish, qora iqtisodiyotni moliyalashtirish kabi xavflar qanday real tahdidlarga olib kelishini yaqqol ko‘rsatdi.

Moliyaviy nazorat. O‘zbekiston respublikasi kriptojinoyatlar bo‘yicha tergov va jinoyatlarni isbotlash jarayonlarini ham takomillashtirdi. “Kriptoaktivlarni musodara qilish, saqlash va o‘tkazish” bo‘yicha maxsus yo‘riqnoma qabul qilinib, prokuratura va tergov organlari ishini standartlashtirishga erishildi. Musodara qilingan kriptoaktivlar bilan ishlash jarayoni yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilishi belgilangan. Bu esa kriptoizlanishlarning aniqlik va qonuniyligini ta’minlaydi. Shuningdek, mamlakatda AML *(Anti-Money Laundering – pul yuvishga qarshi kurash)* talablari kuchaytirilib, kriptoaktivlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi provayder*(Crypto Asset Service Provider – CASP)*lar uchun mijozlarni identifikatsiyalash, risklarni baholash va shubhali operatsiyalarni xabar qilish majburiyati joriy qilindi. Financial Action Task Force *(Pul yuvishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash bo‘yicha moliyaviy choralar guruhi)* – FATF baholariga ko‘ra, O‘zbekiston kriptoaktivlar orqali noqonuniy daromadlarni aniqlash va musodara qilish bo‘yicha yetarlicha mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining kriptoaktivlar sohasidagi tartibga solish siyosati shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat raqamli iqtisodiyotning tezkor rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, uning ortidan kelayotgan jinoyatchilik va kiberxavflarga qarshi tizimli, oldindan o‘ylangan choralarni ko‘rmoqda. Qonunchilikni kuchaytirish, nazorat mexanizmlarini standartlashtirish, jinoyatlarni aniqlash va isbotlash jarayonlarini raqamlashtirish, shuningdek, kiberjinoyatlarning yangi shakllariga nisbatan javob choralarini ishlab chiqish O‘zbekistonning bu sohada barqaror, xavfsiz va xalqaro talablarga mos tartibga solish modelini shakllantirishga intilayotganini

tasdiqlaydi. Bu yondashuv nafaqat jinoyatlar sonini kamaytirishga, balki aholining kriptotexnologiyalardan ongli va ishonchli foydalanishiga, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2019-yil 2-iyul.
2. ISO/IEC 29100 Privacy Framework. – Shaxsga doir ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha xalqaro standart, 2011–2020.
3. Solove, Daniel J. “Understanding Privacy.” Harvard University Press, 2008.
4. NIST Special Publication 800-122, *Guide to Protecting PII*, 2010.
5. IBM Security. “Cost of a Data Breach Report 2024.” – Ma’lumot buzilishi va kiberxavfsizlik statistikalari.
6. Chainalysis. “Crypto Crime Report 2024–2025.” – Kriptojinoyatlar statistikasi va global tahlil.
7. DeepStrike Analytics. “Blockchain Illicit Transaction Analysis 2025.” – Noqonuniy tranzaksiyalar ulushi bo‘yicha global hisobot.
8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi Qonun. – 2024-yil 20-aprel.
9. Kun.uz. *Toshkentda 180 mlrd so‘mlik kriptovalyuta noqonuniy aylanmasi amalga oshirganlar ushlandi.* https://kun.uz/kr/news/2025/09/04/toshkentda-180-mlrd-somlik-kriptovaluta-noqonuniy-aylanmasini-amalga-oshirganlar-ushlandi
10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. “Kriptoaktivlarni musodara qilish, saqlash va o‘tkazish tartibi bo‘yicha yo‘riqnoma”, 2024-yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. “Kriptoaktivlar aylanishi va CASPlar faoliyati bo‘yicha reglament”, 2024–2025.
12. Financial Action Task Force (FATF). “International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation”. FATF Recommendations, 2023–2024.

KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA PROFILAKTIKANING AHAMIYATI

Husanova Iroda Ilhomjon qizi

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi
“Kiberxavfsizlikni huquqiy ta’minlash” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kiberjinoyatchilikning zamonaviy xavfsizlik tizimidagi o‘rni, uning jamiyatga ta’siri hamda bunday jinoyatlarni cheklashda profilaktik faoliyatning ahamiyati yoritiladi. Raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash bilan bog‘liq yangi turdagi huquqbuzarliklar jinoiy xavfning murakkablashuviga olib kelayotgani sababli, ularni barvaqt oldini olish strategik vazifa sifatida qaraladi. Tadqiqotda kriminologiyaning nazariy yondashuvlari profilaktika mexanizmlarining shakllanishi uchun asos bo‘lishi, profilaktika esa jinoyat sodir bo‘lishiga olib keluvchi omillarni kamaytirishga qaratilgan amaliy jarayon ekani ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada kiberjinoyatlarga qarshi kurashda qo‘llanilayotgan samarali yondashuvlar, mavjud muammolar hamda zamonaviy ilmiy-amaliy yechimlarning ahamiyati ko‘rsatilib, profilaktik faoliyatning raqamli xavfsizlikni mustahkamlashdagi o‘rni asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatchilik, profilaktika, kriminologiya, raqamli xavfsizlik, oldini olish, ilmiy yondashuv, amaliy choralar, jinoyat omillari.

Abstract. This article discusses the role of cybercrime in the modern security system, its impact on society, and the importance of preventive activities in limiting such crimes. Since new types of offenses associated with the widespread use of digital technologies are leading to an increase in the complexity of criminal risks, their early prevention is considered a strategic task. The study analyzes from a scientific point of view that theoretical approaches in criminology serve as the basis for the formation of preventive mechanisms, and prevention is a practical process aimed at reducing the factors leading to the commission of a crime. The article also shows the effective approaches used in the fight against cybercrime, existing problems, and the importance of modern

scientific and practical solutions, and justifies the role of preventive activities in strengthening digital security.

Keywords: cybercrime, prevention, criminology, digital security, prevention, scientific approach, practical measures, crime factors.

XXI asrning jadal raqamlashtirilishi inson faoliyatining barcha sohalarida yangi imkoniyatlar yaratgani kabi, ilgari mavjud bo‘lmagan xavf-xatarlarning paydo bo‘lishiga ham zamin yaratdi. Shularning eng muhimlaridan biri – kiberjinoyatchilikdir. Raqamli muhitning kengayishi bilan bog‘liq turli hujumlar jamiyat, shaxs va davlat xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday vaziyatda jinoyatchilikning oldini olish masalasiga yangicha yondashuv zarur bo‘lib, profilaktika kiberjinoyatlarga qarshi kurashning eng samarali va strategik elementlaridan biriga aylanmoqda.

Kiberjinoyatchilik an’anaviy jinoyatlardan tubdan farq qiladi. Uning asosiy belgilari sifatida chegara bilmasligi, anonimlik, texnik murakkablik va iqtisodiy zarar miqyosining yuqoriligi ko‘rsatib o‘tiladi. Raqamli hujumlar nafaqat shaxsiy ma’lumotlar, balki davlat tizimlari, bank sektori, ta’lim muassasalari va yirik korxonalarni ham nishonga olishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalarning o‘sish sur’ati jinoyatchilarning taktikasi ham tez o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, fishing, mayning, identifikatsiya o‘g‘irlanishi, kompyuter viruslari, DDoS hujumlari, ziyonli dasturlar, raqamli firibgarlik kabi jinoyatlar muntazam yangilanib, oddiy foydalanuvchilar uchun sezilmas darajada xavf tug‘diradi.

Kiberjinoyatchilikning murakkabligi shundaki, hujum ko‘pincha masofadan, shifrlangan kanallar orqali amalga oshiriladi. Jinoyatchining shaxsi, joylashuvi, motivi va izlarini aniqlash an’anaviy tergov usullari uchun ko‘plab qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktikaning hal qiluvchi o‘rni tobora oshib bormoqda.

Kriminologiya jinoyatni, jinoyatchi shaxsni, ijtimoiy omillarni, jinoiy xulqning shakllanish mexanizmlarini o‘rganadigan fan sifatida kiberjinoyatchilikka ham ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur.

So‘nggi yillarda raqamli muhitning kengayishi kriminologiya oldiga yangi ilmiy savollarni qo‘ymoqda:

- kiberjinoyatchilarning psixologik portreti an’anaviy jinoyatchidan nimasi bilan farq qiladi?
- raqamli xulq-atvor modellari qanday shakllanadi?
- virtual makon jinoyat sodir etish motivlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
- internet muhitidagi ijtimoiylashuv jinoyatchilikka moyillikka ta’sir qiladimi?
- kiberjinoyatlar statistikasini qanday tahlil qilish mumkin?

Bu savollar kiberjinoyatchilikni faqat texnik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-psixologik, kriminogen va kriminologik jarayon sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, kiberjinoyatchilikni oldini olish kriminologiyaning amaliy natijalariga asoslanishi kerak.

Profilaktika – jinoyat sodir bo‘lishidan avval uning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, xavfni kamaytirish, huquqbuzarlik sodir etishi ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar, guruhlar yoki muhit bilan tizimli ishlashga qaratilgan jarayon.

Kiberjinoyatchilik sharoitida profilaktikaning vazifalari yanada kengayadi:

1) Axborot savodxonligini oshirish – foydalanuvchilarni raqamli xavflar haqida xabardor qilish;

2) Texnik xavfsizlikni kuchaytirish – himoya dasturlaridan foydalanish, xavfsiz parol yaratish, monitoring;

3) Jamoatchilikni jalb qilish – xabar berish tizimlarini rivojlantirish;

4) Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – kiberjinoyatlarga mos jazo va tartiblarni joriy etish;

5) Xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash – yoshlar, IT sohasidagi shaxslar, onlayn faol foydalanuvchilar bilan suhbatlar, treninglar o‘tkazish.

Profilaktika kiberjinoyatlarga qarshi kurashning eng samarali yo‘li bo‘lib, u texnik choralar bilan cheklanmaydi. Profilaktika ijtimoiy, psixologik, tashkiliy va huquqiy yondashuvlar majmuasidan iborat.

Kiberjinoyatchilikka qarshi profilaktika mexanizmlarining turlari:

1) Umumiy profilaktika: Jamoatchilikka mo‘ljallangan axborot xavfsizligi darslari, internet madaniyatini oshirish, ommaviy targ‘ibot kampaniyalari shular jumlasidandir. Ular keng ko‘lamda raqamli savodxonlikni oshirishga qaratiladi.

2) Maxsus profilaktika: Muayyan guruhlar – maktab o‘quvchilari, talabalar, onlayn biznes egalari, davlat xizmatchilari uchun maxsus o‘quv dasturlari, treninglar, xavfsizlik protokollari ishlab chiqiladi.

3) Individual profilaktika: Jinoyat sodir etishi ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan psixologik suhbatlar, monitoring, maslahatlar, onlayn faoliyatni nazorat qilish kabi choralardan iborat.

Bu uch daraja bir-birini to‘ldiradi va kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

Dunyoning bir qancha davlatlarida kiberjinoyatlarga qarshi kurash bo‘yicha ilgor tajribalar shakllangan. Jumladan, Estoniya davlatida kiberxavfsizlik bo‘yicha markazlashtirilgan boshqaruv tizimi yaratilgan bo‘lib, barcha fuqarolar yagona elektron identifikatsiya (e-ID) orqali davlat xizmatlaridan xavfsiz foydalanadi. Mamlakat X-Road platformasi yordamida turli idoralar o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi shifrlangan tarzda amalga oshiriladi va doimiy ravishda kiberhujumlarga qarshi milliy darajadagi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Yaponiyada esa kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilib, bolalar va yoshlar uchun erta yoshdan raqamli savodxonlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va onlayn xavfsizlik bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari joriy etilgan.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari izchil davom etayotgan bo‘lsada, kiberxavfsizlik sohasida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. So‘nggi 5yil ichida kiberjinoyatlar 68 barobarga ko‘paygan. 2019-yilda 18turda bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 62 turga yetgan. Eng avvalo, kiberhujumlar sonining keskin ortib borayotgani mavjud infratuzilmaning doimiy monitoring va tezkor javob berish imkoniyatlarini kuchaytirishni talab qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina tashkilotlarda axborot tizimlarining zaifliklarini o‘z vaqtida aniqlash, ularni testdan o‘tkazish va himoya qatlamlarini yangilab borish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Yana bir muhim masala – inson omilidir. Foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi, zaif parollardan foydalanishi, noma’lum havolalarga kirishi yoki

shubhali fayllarni yuklab olishi natijasida kiberjinoyatchilar ko‘pincha ijtimoiy injiniring usullaridan muvaffaqiyatli foydalanmoqda. Bu esa davlat tashkilotlari va xususiy sektor uchun qo‘shimcha xavf tug‘diradi. Qonunchilik bazasining to‘liq shakllanmaganligi ham muammolardan biridir. Axborot resurslarini himoya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash va ularni himoya qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lsada, xalqaro standartlar darajasida to‘liq integratsiya qilingan va yagona mexanizmni yaratish hali ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Kiberjinoyatchilikning oldini olish samaradorligini oshirish uchun, avvalo, kriminologik tahlil va statistik monitoring tizimlarini takomillashtirish zarur bo‘lib, bu kiberxavf-xatarlarning real holatini aniqlash va ularning dinamikasini muntazam baholab borish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli xavfsizlik kompetensiyalarini erta shakllantirish maqsadida axborot xavfsizligiga oid bilimlarni umumta’lim maktablaridan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarga izchil integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning institutsional asoslarini kuchaytirish uchun kiberpolitsiya, maxsus tezkor texnik guruhlar va ekspertiza markazlarini rivojlantirish, ularning tashkiliy-huquqiy salohiyatini mustahkamlash talab etiladi. Jamiyatda raqamli madaniyatni oshirish ham profilaktikaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, aholining kibergigiyena bo‘yicha xabardorligini oshiruvchi ma’rifiy dasturlar, treninglar va media tashviqot faoliyatlarini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, kiberjinoyatchilikni oldini olishda yangi ilmiy yondashuv sifatida prognozlashga asoslangan prediktiv xavfsizlik modellarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday modellar sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish algoritmlaridan foydalanib, real vaqt rejimida kiberxatarlar ehtimolini oldindan bashorat qiladi, zarar yetkazilishidan avval ularni neytrallashtirish imkonini yaratadi. Prediktiv tahlilning qo‘llanilishi kiberjinoyatchilikning faqat sodir bo‘lgandan keyingi emas, balki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarni ham aniqlashga xizmat qilib, profilaktika tizimining ilmiy asoslanganligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kiberjinoyatchilik zamonaviy jamiyat uchun jiddiy xavf bo‘lib, uni faqat texnik choralar bilan to‘liq bartaraf etib bo‘lmaydi. Jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktika strategiyasi ijtimoiy, huquqiy,

psixologik va texnik yondashuvlar uyg‘unligini talab qiladi. Kriminologiya ushbu jarayonga ilmiy asos yaratib beradi, profilaktika esa mazkur ilmiy bilim asosida amaliy choralarni shakllantiradi.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurash muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun jamiyatning barcha qatlamlari – davlat idoralari, ta’lim tizimi, xususiy sektor va aholi – birdek mas’ul bo‘lishi lozim. Profilaktikaning samarali amalga oshirilishi raqamli xavfsizlikni mustahkamlaydi, jinoyatchilik tahdidlarini kamaytiradi va barqaror rivojlanish uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudoyqulov M. Kriminologiya. – Toshkent: Akademiya, 2020.
2. Mirzayev S., Abdullayev A. Jinoyat huquqi va kriminologiya asoslari. – Toshkent: TDYU, 2019.
3. Sultonov B., Qosimov J. Kiberxavfsizlik asoslari. – Toshkent, 2021.
4. Долгова А. И. Криминология. – Москва: Норма, 2020.
5. Бекенов А. Киберпреступностъ и кибербезопасностъ. – Москва: Юрайт, 2021.
6. Wall D. S. Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age. – Polity Press, 2007.
7. Holt T., Bossler A. Cybercrime and Digital Forensics. – Routledge, 2020.
8. Clough J. Principles of Cybercrime. – Cambridge University Press, 2015.
9. Goodman M. Future Crimes. – Anchor Books, 2016.
10. UNODC. Global Cybercrime Reports. – BMT, turli yillar.
11. Interpol. Cybercrime Threat Assessment. – Interpol, 2023–2024.
12. O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022.
13. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYA: FANNING MUSTAQIL SOHAGA AYLANISHI VA INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI

A’loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy kriminologiyaning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanish jarayoni hamda uning institutsional rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Unda kriminologiyaning boshqa ijtimoiy-huquqiy fanlardan ajralib chiqishi, ilmiy maktablar va tadqiqot institutlarining vujudga kelishi, shuningdek, zamonaviy kriminologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy kriminologiya, kriminologik siyosat, Kriminologiya tadqiqot instituti, institutsional shakllanish, kriminologiya ixtisosligi.

Abstract. This article analyzes the process of modern criminology’s formation as an independent scientific discipline and the stages of its institutional development. It explores the emergence of criminology as distinct from other socio-legal sciences, the establishment of scientific schools and research institutes, as well as the theoretical and practical significance of modern criminology.

Keywords: modern criminology, criminological policy, Criminology Research Institute, institutional formation, criminology specialization.

Kriminologiya – jinoyatchilikni, uning kelib chiqish sabablari va uni oldini olish yo‘llarini o‘rganuvchi ijtimoiy-huquqiy fandir. Insoniyat azaldan jinoyatga qarshi kurash usullarini izlab kelgan bo‘lsa-da, alohida ilmiy yo‘nalish sifatida “kriminologiya” fani faqat XVIII asr oxiri va XIX asrda shakllana boshladi. Jumladan, 1764-yili italiyalik ma’rifatparvar olim Chezare Bekkaria jinoyat va jazo masalalariga bag‘ishlangan mashhur asarini nashr etgan bo‘lsa, oradan bir asr o‘tib – 1885-yilda Raffaele Garofalo va Pol Topinard ilk bor “Kriminologiya”

atamasini fanga joriy etgan asarini chop etdilar. Ushbu tarixiy bosqichlar kriminologiyani jinoyat huquqidan nisbatan mustaqil, jinoyatchining shaxsiga va jinoyatchilik sabablarini aniqlashga yo‘naltirilgan yangi fan sifatida maydonga keltirdi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, globallashuv sharoitida jinoyatchilikning ko‘rinish va tendensiyalari murakkablashib bormoqda, jinoyatlarga qarshi kurashish faqat huquqiy choralar bilangina cheklanib qolmay, ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda. So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlarda kriminologik tadqiqotlar asosida jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyalari ishlab chiqilib, kriminologiya fani tavsiyalariga asoslangan holda qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ham sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida kriminologiyaga alohida e’tibor qaratilib, uning institutlashuvi tezlashdi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish” ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Shu asosda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy-tashkiliy chora-tadbirlar kompleksi qabul qilinmoqda.

Kriminologiya fanining kelib chiqishi va rivojlanishi *(jahon tajribasi)*: kriminologiya bo‘yicha ilk ilmiy qarashlar jinoiy xatti-harakatga falsafa, tibbiyot, sotsiologiya singari turli fanlar doirasida yondashgan. Masalan, qadimgi yunon faylasuflari jinoyat va jazoni axloqiy nuqtai nazardan muhokama qilishgan, Uyg‘onish davri mutafakkirlari esa jinoyat sodir bo‘lishining ijtimoiy sabablarini anglashga harakat qilishgan. Biroq mustaqil “ilm” sifatida kriminologiya XVIII asrda klassik maktab davrida shakllana boshladi – Chezare Bekkaria va Jeremi Bentham kabi mutafakkirlar jinoyat va jazo masalasini ilk bor yuridik fan doirasidan chiqib, ijtimoiy adolat va foyda-zarar nuqtai nazaridan talqin etdilar.

XIX asrga kelib pozitivistik maktab vakillari kriminologiyani tubdan yangi bosqichga olib chiqdilar. Italiyada Lombrozo, Ferri, Garofalo kabi olimlar jinoyatchilik sabablarini biologik va psixologik omillarda izohlashga urinishib, kriminologiyani “jinoiy antropologiya” yo‘nalishida rivojlantirdilar. Masalan, Ch. Lombrozo jinoyatchilarning jismoniy-anatomik xususiyatlari bilan jinoyatchilikka moyillik o‘rtasida bog‘liqlik izlab, jinoiy xulqni tug‘ma belgilar bilan tushuntirishga harakat qilgan. Shu bilan birga, XIX asr oxirlarida Fransiyada ijtimoiy maktab vakillari

(E. Dyurkgeym va boshqalar) jinoyatchilikni ijtimoiy muhit va turmush sharoitlari mahsuli sifatida o‘rgana boshladilar.

Natijada kriminologiya fanida antropologik va ijtimoiy nazariyalar qarama-qarshi bo‘lsa-da, ularning bahsi jinoyatchilik omillarini har tomonlama yondashuvda tadqiq etishga turtki bo‘ldi. XX asr boshlarida kriminologiya **mustaqil ilmiy intizom sifatida** keng quloch yoydi – AQShda va Yevropada birin-ketin kriminologiya institutlari, universitet kurslari paydo bo‘ldi. Masalan, 1950-yillarda Kembridj universitetida maxsus Kriminologiya instituti tashkil etilgan bo‘lsa, AQShda 1920-1930-yillardan boshlab universitetlarda jinoyatchilikni o‘rganish bo‘yicha dasturlar yo‘lga qo‘yildi. Kriminologiya fani rivojlanishining bu bosqichlari natijasida bugungi kunda ko‘plab davlatlarda kriminologiya bo‘yicha bakalavr, magistr va PhD darajalari berilmoqda, kriminologik tadqiqotlarga ixtisoslashgan markazlar faoliyat yuritmoqda. Xususan, BMT va xalqaro tashkilotlar doirasida ham jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha kriminologik yondashuvlar muhokama qilinib, davlatlar o‘rtasida tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonda kriminologiya:

ilmiy ishlar va normativ hujjatlar: O‘zbekiston hududida kriminologik tadqiqotlar Sovet davrida jinoiy huquq va kriminalistika doirasida olib borilgan bo‘lib, alohida fan sifatida ko‘rilmagan. Biroq 1960-1970-yillarda sobiq ittifoq miqyosida kriminologiya bo‘yicha ilk izlanishlar paydo bo‘lishi ortidan, respublikamiz olimlari ham jinoyatchilik va uning oldini olish masalalariga e’tibor qaratgan. Mustaqillik yillarida esa kriminologiya yangi ahamiyat kasb etdi. 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksi jinoyat tushunchasi va jazolar tizimini yangicha yondashuvda belgilab berdi. Keyinchalik, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun *(2014)* to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyatchilikning oldini olish faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamladi. Ushbu Qonun profilaktika subyektlari va ularning vakolatlarini belgilab, kriminologik chora-tadbirlarning institutsional poydevorini yaratdi.

Shu davrda akademik doiralarda kriminologiya bo‘yicha yangi darslik va qo‘llanmalar yaratilgan. Masalan, 2001-yilda M. Usmonaliyev va Y. Karaketov muharrirligida o‘zbek tilidagi “Kriminologiya” darsligi

nashr etildi. Unda jinoyatchilik nazariyalarining an'anaviy mavzulari bilan birga zamonaviy muammolar *(uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, korrupsiya va h.k.)*ga oid yangi boblar kiritilgan bo'lib, bu o'quv qo'llanma O'zbekiston, Rossiya va boshqa xorijiy davlatlar tajribalarini hisobga olgan holda tayyorlangani qayd etilgan. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, Toshkent Davlat yuridik universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalari tomonidan kriminologiya faniga doir ilmiy ishlanmalar yaratildi. Jumladan, Y.M. Karaketov, M.H. Rustambayev, Q.R. Abdurasulova, M.U. Usmonaliyev, S.B. Xo'jaqulov kabi olimlar jinoyatchilikning turli ko'rinishlari va ularni oldini olish masalalarida tadqiqotlar olib bordilar.

Eng ahamiyatlisi, 2024-yildan boshlab O'zbekistonda kriminologiya mustaqil ilmiy mutaxassislik sifatida rasmiy tan olindi – 12.00.08 *(Jinoyat huquqi, kriminologiya va jinoyat ijroiya huquqi)* doirasidagi maxsus yo'nalish kriminologiya uchun ajratilib, hozirda 12.00.15 – Kriminologiya deb nomlangan ixtisoslik bo'yicha falsafa doktori *(PhD)* va fan doktori *(DSc)* ilmiy darajalari berilmoqda. Bunday o'zgarishlar kriminologiyani nafaqat amaliy faoliyat, balki akademik ilmiy-tadqiqot sohasi sifatida ham rivojlantirishga zamin yaratdi.

Tahlil va natijalar:

Kriminologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi

Kriminologiya fanining shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich kechdi. Ilk bosqich – kriminologiyaning ajralib chiqishiga zamin hozirlagan davr bo'lib, klassik maktab *(XVIII asr oxiri)* va pozitivistik maktab *(XIX asr)* g'oyalari bilan bog'liq. 1764-yilda Ch. Bekkaria tomonidan yozilgan "Jinoyatlar va jazolar to'g'risida" asar jinoyatga yondashuvda inqilobiy burilish yasadi – jazolashning adolatliligi va zarurligi haqida utilitar yondashuv ilgari surildi.

XIX asrda esa italyan kriminologiya maktabi vujudga keldi. 1876-yilda Ch. Lombrozo "Jinoiy odam" nomli asarini e'lon qilib, jinoyatchilarni tug'ma antropologik xususiyatlar orqali tavsiflash nazariyasini ilgari surdi. Unga ko'ra, ayrim shaxslarning anatomo-fiziologik nuqsonlari ularni jinoyatga moyil qilib ko'rsatadi. Lombrozo va uning izdoshlari *(E. Ferri, R.Garofalo)* jinoyatchilikka biologik determinizm nuqtai nazaridan yondashdilar. Shu bilan birga, frantsuz ijtimoiy maktabi *(A. Lakasany,*

G. Tard va boshqalar) jinoyat sabablarini sotsial muhit va ijtimoiy omillardan qidirdi. Bu davr kriminologiya fanida antropologik va sotsiologik yondashuvlarning qarama-qarshi bo‘lgan, lekin bir-birini boyitgan davri edi. Ilmiy bahslar natijasida kriminologiyada jinoyatchilik sabablarining ko‘pligi va murakkabligi tan olindi: jinoyatga individual xarakter xususiyatlari bilan bir qatorda oilaviy tarbiya, iqtisodiy ahvol, ijtimoiy muhit, hatto iqlim va ob-havo omillari ham ta’sir qilishi mumkinligi ilmiy aniqlana boshlandi. Masalan, R. Garofalo 1885-yilda kriminologiya bo‘yicha kitobida jinoyatchilikka ta’sir etuvchi omillar ro‘yxatini tuzib, unga etnik, iqtisodiy, oilaviy, hatto meteorologik omillarnigacha kiritganini ko‘rish mumkin.

Keyingi bosqich – XX asrning birinchi yarmida kriminologiya mustaqil akademik fan sifatida institutsionallashgan davrdir. Bu davrda kriminologiya bo‘yicha tadqiqotlar huquqshunoslikdan ajralib, sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot kabi sohalar bilan integratsiyalashdi.

Dunyoda ilk kriminologiya kafedralari va ilmiy muassasalari paydo bo‘ldi. Jumladan, 1909-yilda Belgiyada professor A. Prins tashabbusi bilan Kriminologiya xalqaro jamiyati tuzildi, 1920-yillarda AQShda Chikago maktabi sotsiologlari shahar jinoyatchiligini tadqiq qila boshladilar. 1924-yilda Vena universitetida Yevropada birinchi Kriminologiya instituti ochildi, 1938-yilda esa Buyuk Britaniyada Kampbell Moriss tomonidan Kriminologiya jamiyati tashkil etildi *(Kelajakda u Kembridj universiteti Kriminologiya instituti negizini tashkil qildi)*.

Ikkinchi jahon urushidan keyin kriminologiya fani yanada kengaydi: 1950-1960-yillarda ko‘plab mamlakatlarda jinoiy jazoni liberallashtirish va qayta tarbiyalash g‘oyalari tarqalishi bilan, jinoyatchini reabilitatsiya qilish, kriminologik profilaktika konsepsiyalari rivojlandi. 1960-1980 yillarda kriminologiyada yangi nazariy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi – konfliktologik *(jinoyatchilikka ijtimoiy nizolar mahsuli deb qarovchi)*, marksistik, feministik, viktimologik va boshqa paradigmalarning paydo bo‘lishi fanni boyitdi. Shu tariqa, kriminologiya multidisiplinar sohaga aylandi: u nafaqat huquqshunoslik va sotsiologiya, balki psixiatriya, kriminologik psixologiya, demografiya, iqtisodiyot kabi tarmoqlarning usul va yondashuvlarini ham qo‘llaydigan integrativ fan bo‘lib shakllandi.

Hozirgi kunga kelib, jahonda kriminologiya fanining institutlashuvi to‘liq amalga oshgan deyish mumkin. Deyarli barcha yirik universitetlarda kriminologiya kafedralari yoki dasturlari mavjud, maxsus ilmiy jurnal va jamiyatlar faoliyat yuritadi. Masalan, AQShda Amerika Kriminologiya Assotsiatsiyasi, Yevropada Yevropa Kriminologlar Jamiyati tuzilgan. Ko‘plab davlatlarda milliiy kriminologiya institutlari tashkil etilgan bo‘lib, ular hukumat uchun jinoyatchilik bo‘yicha tahlillar va tavsiyalar ishlab chiqadi. Xalqaro hamkorlik doirasida BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi *(UNODC)* jinoyatchilikni tadqiq etish va statistik kuzatuvlarni yo‘lga qo‘ygan. Kriminologiya fanining jahon miqyosidagi rivojlanishi uni zamonaviy huquqni muhofaza qilish siyosatining ajralmas qismiga aylantirdi – endilikda biror davlatning jinoyatga qarshi kurash strategiyasi ilmiy kriminologik tahlillarsiz ishlab chiqilmaydi.

O‘zbekistonda kriminologiya fani va uning institutsional rivoji.

Ilk davr *(Sovet merosi)*: O‘zbekistonda kriminologik tadqiqotlarning boshlanishi sobiq Sovet Ittifoqi davridagi kriminologiya rivojiga borib taqaladi. Sovet huquq maktabida kriminologiya odatda jinoyat huquqi va kriminalistika ichida ko‘rib chiqilar, mustaqil ilmiy soha sifatida rivojlanmagan edi. Biroq, 1960-1970-yillarda ittifoq miqyosida kriminologiya bo‘yicha ilk ilmiy markazlar *(masalan, 1963-yilda SSSR Prokuraturasi huzurida Kriminologiya markazi)* tashkil etilishi natijasida, O‘zbekiston olimlari ham ushbu soha bilan shug‘ullana boshladilar. O‘sha yillarda Toshkent davlat universiteti va sobiq IIV Oliy maktabida jinoyatchilik muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar o‘tkazildi. Jumladan, yoshlar jinoyatchiligi, o‘g‘rilik va talonchilikka qarshi kurash, axloqiy tarbiyaning jinoyatchilikka ta’siri kabi mavzularda ilk nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Shunga qaramay, Sovet davrida kriminologiya bo‘yicha maxsus kurs yoki institut mavjud bo‘lmagan – fan yuridik ta’lim dasturlarida cheklangan hajmda o‘qitilgan, xolos.

Mustaqillik davrida kriminologiya ilmiy yo‘nalish sifatida: 1991-yilda mustaqillikka erishilgach, O‘zbekistonning huquqiy tizimini milliylashtirish jarayoni boshlandi. Jinoyat qonunchiligi to‘liq qayta ko‘rib chiqilib, 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi va unga mos ravishda joriy etilgan boshqa huquqiy aktlar jinoyatchilikka qarshi kurashning yangi prinsiplarini belgiladi. Shu kontekstda kriminologiya fani ham

rivojlanish uchun imkoniyatga ega bo‘ldi. 1997-yildan boshlab Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida kriminologiya alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitila boshlandi. Bu yillarda professor M. Usmonaliyev, Y. Karaketov, M. Rustambayev singari olimlar kriminologiya bo‘yicha ilk darslik va qo‘llanmalarni yaratdilar. 2001-yilda chop etilgan “Kriminologiya” darsligi respublikamiz oliy yuridik ta’lim muassasalari uchun muhim voqea bo‘ldi – unda jinoyatshunoslikning asosiy tushunchalari, jinoyatchilikning holati, sabablari, profilaktika choralari ilk bor to‘liq bayon etildi. Ushbu darslikda ta’kidlanganidek, o‘sha paytgacha jahonda to‘plangan kriminologik bilimlar va xorijiy tajribalar tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitiga mos konsepsiyalar taklif etilgan edi.

Normativ bazaning yaratilishi: O‘zbekistonda kriminologik siyosatning huquqiy asoslari 2010-yillar davomida shakllandi. 2014-yilda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun bu borada muhim qadam bo‘ldi. Mazkur Qonunda profilaktika subyektlari *(ichki ishlar organlari, mahalla, ta’lim muassasalari va b.)* va ularning vazifalari aniq belgilandi, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha idoralararo hamkorlik tartiblari belgilab qo‘yildi. 2017-yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, jinoyatchilikning alohida turi – korrupsiyaga qarshi kurashda ilmiy yondashuv zarurligi qayd etildi. Shu tariqa, O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi davlat siyosati bosqichma-bosqich kompleks tus ola boshladi. Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 18-apreldagi PF–5016-son farmoni bilan Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, profilaktikaga ilmiy yondashuvni kuchaytirish masalalari nazarda tutildi. Bu hujjat ijrosi doirasida 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tashkil qilindi. Mazkur Akademiya huquq-tartibotni ta’minlash sohasida, jumladan, kriminologiya va jinoyatchilik profilaktikasi bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, kadrlar malakasini oshirish vazifasini oldi. Keyinchalik, 2018–2021-yillarda Prezidentning qator qaror va farmonlari bilan ichki ishlar organlarining profilaktika borasidagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlar qabul qilindi. Misol uchun, 2018-yilda Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi

kurashishning yangi tizimini joriy etish haqida qaror qabul qilinib, poytaxt miqyosida eksperimental loyihalar amalga oshirildi. Bu jarayonlarning barchasi kriminologiya faniga bo‘lgan talabni oshirdi va uning amaliyot bilan integratsiyalashuvini kuchaytirdi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari asosida, Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy jamoasi bilan muhokamalar o‘tkazgan holda O‘zbekiston kriminologiyasining nazariy asoslarini shakllantirish bo‘yicha **quyidagi ilmiy ta’riflar ishlab chiqildi:**

☑ **O‘zbek kriminologiyasining nazariy asoslari** – bu O‘zbekiston jamiyatida jinoyatchilikning kelib chiqishi, rivojlanishi va namoyon bo‘lish qonuniyatlarini milliy ijtimoiy, huquqiy, madaniy va tarixiy sharoitlar bilan uzviy bog‘liq holda ilmiy asosda tushuntirib beruvchi konseptual qarashlar tizimidir.

☑ **Milliy kriminologik paradigma** – bu O‘zbekistonning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonida shakllanayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash konversiyasini belgilovchi ilmiy-nazariy yondashuvlar majmui bo‘lib, u umuminsoniy kriminologik g‘oyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiradi.

☑ **O‘zbek kriminologiyasining modernizatsiya paradigmasi** – bu an’anaviy kriminologik qarashlarni raqamli jamiyat, global xavflar va yangi jinoyat shakllari sharoitida qayta talqin qilishga asoslangan nazariy yo‘nalishdir.

☑ **Kriminologik determinizmning milliy talqini** – bu jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni O‘zbekiston jamiyatidagi an’analar, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy madaniyat va davlat siyosati bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiluvchi nazariy yondashuvdir.

O‘zbekiston kriminologiyasining nazariy asoslarini shakllantirish bo‘yicha **quyidagi ilmiy tasniflar ishlab chiqildi:**

1. Kriminologik bilimlar manbasiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

☑ **milliy huquqiy amaliyotga asoslangan;**

Ushbu yo‘nalish O‘zbekistonda amalda qo‘llanilayotgan jinoyat qonunchiligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati hamda

sud amaliyoti tahliliga tayangan holda kriminologik xulosalar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

☑ **xalqaro tajribaga tayangan;**

Mazkur tur xorijiy davlatlarda jinoyatchilikka qarshi kurash, profilaktika va reabilitatsiya sohasida to‘plangan ilg‘or ilmiy va amaliy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan.

☑ **qiyosiy-huquqiy tahlilga asoslangan;**

Bu yondashuv turli davlatlar jinoyat-huquqiy va kriminologik modellarini qiyoslash orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlash, shu asosda milliy kriminologiya nazariyasini boyitishni ko‘zda tutadi.

☑ **empirik-tadqiqot natijalariga suyangan.**

Ushbu tur kriminologik tadqiqotlar doirasida olingan statistik ma’lumotlar, so‘rovnoma, intervyu, kuzatuv va tajriba natijalariga asoslangan holda ilmiy xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan.

2. Kriminologik nazariyalarni shakllantirish darajasiga ko‘ra quyidagilarga tasniflanadi:

☑ **umumnazariy *(fundamental)*;**

Jinoyatchilikning mohiyati, sabablari, qonuniyatlari va rivojlanish tendensiyalarini umumiy ilmiy kategoriyalar orqali tushuntiruvchi, kriminologiya fanining nazariy poydevorini tashkil etuvchi nazariyalar majmuasidir.

☑ **sohaviy *(maxsus)*;**

Jinoyatchilikning muayyan turlari, alohida ijtimoiy guruhlar yoki maxsus sohalarda (yoshlar, ayollar, korrupsiya, kiberjinoyatchilik va h.k.) namoyon bo‘lish xususiyatlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan nazariyalardir.

☑ **amaliy-yo‘naltirilgan;**

Kriminologik bilimlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, jinoyatlarni oldini olish, profilaktika va reabilitatsiya amaliyotiga tatbiq etishni maqsad qilgan nazariyalar hisoblanadi.

☑ **prognoz va modellashtirishga qaratilgan.**

Jinoyatchilikning kelgusidagi holati, dinamikasi va xavf tendensiyalarini ilmiy usullar orqali oldindan baholash hamda samarali qarorlar qabul qilish uchun nazariy modellar yaratishga xizmat qiluvchi nazariyalardir.

3. Zamonaviy kriminologiyaning ma'lumotlar bilan ishlash usuliga ko'ra quyidagi turlarga tasniflandi:

☑ **An'anaviy tahlilga asoslangan**

Rasmiy statistika va hisobotlarga tayanadi.

☑ **Big Data-kriminologiya**

Katta hajmdagi ma'lumotlar orqali yashirin qonuniyatlarni aniqlaydi.

☑ **AI-asosli kriminologiya**

Sun'iy intellekt orqali tahlil, prognoz va qaror qabul qilishni qo'llaydi.

4. Kriminologiyaning globallashuv ta'siriga ko'ra quyidagi turlarga ajratildi:

☑ **Milliy kriminologiya**

Asosan ichki ijtimoiy-huquqiy jarayonlar bilan bog'liq jinoyatchilikni qamrab oladi.

☑ **Transmilliy kriminologiya**

Chegaralararo jinoyatlar, migratsiya, kiberjinoyatlar va xalqaro uyushgan jinoyatchilikni o'rganadi.

☑ **Global kriminologiya**

Jahon miqyosidagi xavflar (terrorizm, ekologik jinoyatlar, kiberxavflar)ni tizimli tahlil qiladi.

5. Kriminologiyaning jinoyatchilikka ta'sir etish strategiyasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratildi:

☑ **Reaktiv kriminologiya**

Sodir etilgan jinoyatlarga javob choralarini tahlil qiladi

☑ **Proaktiv kriminologiya**

Jinoyatni sodir etilmasdan oldin aniqlash va oldini olishga qaratilgan.

☑ **Preventiv kriminologiya**

Ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish orqali jinoyatchilik xavfini pasaytirishni ko‘zlaydi

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-yanvardagi PF–10-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kriminologik faoliyatni ilmiy ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-iyuldagi 445-son qarori.

4. Mannheim H. // Comparative Criminology. – London: Routledge, 1965.

5. Sutherland E., Cressey D. // Principles of Criminology. – Philadelphia: Lippincott, 1978.

6. Durkheim E. // The Rules of Sociological Method. – New York: Free Press, 1982.

7. Garland D. // The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society. – Oxford University Press, 2001.

8. UNODC. // Education for Justice: Criminology and Crime Prevention Curriculum. – Vienna, 2021.

9. Kriminologiya *(darslik)*. Mualliflar jamoasi – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 300 b.

10. Wikipedia: Criminology. History of academic criminology bo‘limi.

ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ КРИМИНОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШЕННЫХ ОРГАНИЗОВАННЫМИ ГРУППАМИ

Улугбек Эркинович Ашуров

Начальник управления Генеральной прокуратуры (PhD)

Аннотация. *В статье рассматриваются криминологические особенности киберпреступлений, совершаемых организованными группами. Анализируются факторы, способствующие формированию устойчивых цифровых преступных сообществ, включая высокий уровень анонимности, транснациональный характер деятельности и использование современных технологий шифрования. Рассматриваются типичные модели организации таких групп, их мотивационные и социальные характеристики, а также наиболее распространённые формы преступной деятельности – финансовые атаки, фишинг, взломы, распространение вредоносного ПО и нелегальная торговля данными. Особое внимание уделяется методам выявления и расследования подобных преступлений, а также мерам профилактики и международного сотрудничества.*

Ключевые слова: киберпреступность, организованные группы, криминология, цифровая безопасность, кибератаки, расследование, профилактика.

Стремительное развитие информационных технологий и их повсеместное проникновение во все сферы жизни общества обусловили появление нового вида преступности – киберпреступности. Киберпреступления представляют собой общественно опасные деяния, совершаемые с использованием компьютерных технологий и сетей. Они характеризуются высокой латентностью, трансграничным характером и динамичностью, что создает значительные трудности для их выявления, расследования и пресечения. Актуальность исследования киберпреступности определяется не только ее растущей общественной опасностью, но и необходимостью разработки эффективных мер противо-

действия данному виду преступлений, основанных на глубоком понимании ее природы и закономерностей развития, включая совершенствование правовой базы на национальном и международном уровнях.

С развитием цифровой и компьютерной информации деятельность злоумышленников тоже набирает силу. Преступники шагают в ногу со временем. Проблемным является еще и то, что проявления киберпреступности наблюдаются во всех областях. Это и незаконный оборот наркотических средств, и мошеннические действия при совершении различных операций с денежными средствами, использование обманных методов с целью обогащения и множество других преступлений.[1]

“Киберпреступление – это любое преступление в электронной среде *(сфере)*, совершенное при помощи компьютерной системы или сети, или против них”. К категории “киберпреступление” может быть отнесено следующее:

- неправомерный доступ к компьютерной системе;
- перехват компьютерных данных и взлом паролей;
- незаконное вмешательство в данные или в систему;
- производство, распространение или хранение средств неправомерного использования компьютеров;
- нарушение мер конфиденциальности или мер защиты данных *(фишинг)*;
- компьютерное мошенничество или подлог;
- компьютерные преступления, связанные с использованием персональных данных;
- распространение или контроль распространения вредоносных программ;
- действия, предполагающие использование компьютера в целях причинения личного вреда;
- действия, предполагающие использования компьютера в целях содействия террористическим актам.

[1] Быков В., Нехорошев В., Черкасов А. Совершенствование уголовной ответственности за преступления, сопряженные с компьютерными технологиями // Уголовное право. 2020. № 3. С. 9

Трансграничный характер киберпреступности стал причиной выработки единого международного законодательства, позволяющего государствам скоординировано бороться с нею. В 2001 году была принята Конвенция Совета Европы о киберпреступности – один из главных международных документов, содержащий унифицированные рекомендации по реализации мер, которые необходимо принять для снижения количества преступлений и пресечение возникновения новых, а также предполагающий расширение взаимодействия между странами в борьбе с киберпреступностью. Также Конвенция предполагает расширение взаимодействия между странами в борьбе с киберпреступностью и внесение соответствующих поправок в законодательство отдельных стран, позволяющих более слаженно проводить работу по снижению активности киберпреступников.

В результате киберпреступлений в Узбекистане в 2021—2024 годах были похищены средства граждан на сумму свыше 1,9 трлн сумов. По данным МВД, 98% составляют преступления, связанные с банковскими картами.

В частности, согласно статистическим показателям МВД Республики Узбекистан, за 2024 год в стране было совершено порядка 58 800 киберпреступлений, из которых 97,7 процента связаны с банковскими пластиковыми картами граждан.

Анализ способов совершения киберпреступлений показывает:

- 28,3 процента правонарушений, совершенных через электронные платежные системы, были осуществлены путем получения кода подтверждения с помощью отправки фальшивых ссылок и овладения управлением картой;
- 8,7 процентов преступлений, совершенных через электронные платежные системы, – путем получения предоплаты за товары с помощью различных схем обмана на платформах онлайн-торговли;
- 5,5 процента преступлений, совершенных через электронные платежные системы,
- путем получения кода подтверждения управления банковской картой посредством телефонных звонков.

Кроме того, 3,2 процента были совершены путем привлечения лиц к фальшивым криптобиржам и получения денежных переводов, 8,1 процента – путем вовлечения лиц в фальшивую трейдинговую деятельность и привлечение к ней денежных средств, 2,4 процента – путем оформления онлайн-кредита на имя лица другими лицами, 2,8 – путем несостоятельности банка, наследования и перечисления денежных средств в качестве пожертвований.[2]

В настоящее время статистические данные не являются прочной базой для межстрановых сравнений, но такие данные важны для разработки национальной политики. Более реальную и надежную основу для сравнения выражает опросы на тему виктимизации. Они свидетельствуют о том, что виктимизация частных лиц в результате киберпреступности значительно выше, чем в случае “обычных” форм преступности. Показатели виктимизации в отношении мошенничества с кредитными картами в режиме “онлайн”, кражи персональных данных, ответов на попытку фишинга и несанкционированного доступа к учетным записям электронной почты составляют от 1 до 17 процентов среди пользователей Интернета в 21 стране мира, в отличие от типичных показателей в отношении краж со взломом, ограблений и краж автомобиля, составляющих для этих же стран менее 5 процентов.

Таким образом, можно понимать под киберпреступностью ограниченный круг деяний, направленных против конфиденциальности, целостности и доступности компьютерных систем и сетей и компьютерных данных киберпреступность имеет свои признаки и характеристику, и основополагающим признаком будет являться ее глобальность, помимо умышленного использования компьютера и иных компьютерных средств в криминальных целях. Основываясь только на статистических национальных данных состояния преступности нельзя говорить о том, что данное явление лишь национальная проблема, ведь такая преступность поражает весь мировой уровень жизни. Во многих странах резкий всплеск в

[2] Информация о деятельности Министерства внутренних дел Республики Узбекистан в 2024 году по предупреждению и профилактике правонарушений. URL:https://apiportal.gov.uz/uploads/11/2025/03/18/62ec12c0-728e-8cb1-0732- 2e034563a1c5_media.pdf. (дата доступа: 10.03.2025).

количестве подсоединений к глобальной сети совпал по времени с экономическими и демографическими преобразованиями, ростом разрыва в доходах, сокращением расходов в частном секторе и снижением финансовой ликвидности. На общемировом уровне правоохранительные органы в своих ответах на вопросник отмечают рост уровня киберпреступности в связи с тем, что и частные лица, и организованные преступные группы используют новые возможности для совершения преступлений, руководствуясь стремлением к извлечению прибыли и получению личной выгоды. В ранние года лица, совершающие такие преступления, должны были обладать высокими знаниями и навыками в сфере компьютеризации, но в настоящее время киберпреступления совершают все те, у кого есть доступ в интернет, а именно в теневой интернет. Таким образом, в настоящий момент для совершения киберпреступления более не требуется обладание сложными навыками или знание сложных методов.

Кроме того, признак глобальности раскрывается через негативное явление, которое в криминологии понимается поразному, то есть киберпреступностью называют не только как отдельный вид преступлений,ноисвязываютвкриминологииспрофессиональной, организованной преступностью и как теневой бизнес. Чаще всего одним из отличительных признаков киберпреступности являются получение финансовых благ и выгоды. Почти все преступления, охватываемые диапазоном киберпреступности совершаются для достижения этой цели. Помимо этого, некоторые криминологи определяют некую зависимость между киберпреступностью и организованными группами. Как отмечалось ранее, что организованные преступные группы используют новые возможности для совершения преступлений, руководствуясь стремлением к извлечению прибыли и получению личной выгоды.

Кроме этого, выделяют такие условия и мотивы как доступность, прибыльность и факт удаленности, которые благоприятно влияют на сложность раскрытия таких преступлений. За последние года нельзя не отметить высокую активность в международные и региональные документы в сфере противодействия киберпреступности *(Конвенция Совета Европы о киберпреступности,*

Конвенция о борьбе с преступлениями в области информационных технологий Лиги арабских государств, Соглашение о сотрудничестве государств участников Содружества Независимых Государств в борьбе с преступлениями в сфере компьютерной информации и другие). Конвенция Совета Европы о киберпреступности или Будапештская конвенция была ратифицирована 53 странами.

Стремительное развитие технологий поставило перед правоохранительными органами множество сложностей в борьбе с организованными преступными группировками. Одной из основных трудностей, с которыми сталкиваются правоохранительные органы, является анонимность и шифрование, обеспечиваемые даркнетом и различными каналами связи. Преступники используют эти платформы для безопасного общения, планирования своей деятельности и облегчения незаконных транзакций, что делает чрезвычайно сложной задачу для правоохранительных органов по отслеживанию и перехвату их сообщений. Другой сложностью можно назвать глобальный охват сети Интернет, что создает серьезные проблемы юрисдикционного порядка. Лицо, нарушающее закон, может находиться в одной стране *(в одной юрисдикции)* и в то же время причинять вред обществу в другой стране *(другой юрисдикции)*. Это не только препятствует расследованию и уголовному преследованию, но и создает юридические препятствия при сборе доказательств, выдаче подозреваемых и исполнении судебных решений в различных государствах. Еще одним препятствием является вопрос разных уровней технологических возможностей и ресурсов стран. Это может создать сложности для эффективного сотрудничества. В развивающихся странах может не хватать необходимой инфраструктуры, технического опыта и ресурсов для борьбы со сложными киберпреступными сетями. Этот цифровой разрыв может усугубить проблемы международного сотрудничества, поскольку некоторым странам может быть трудно идти в ногу с развивающейся тактикой и технологиями, используемыми организованными преступными группами.

Исследование показывает, что постоянно развивающийся характер технологий представляет собой серьезное препятствие для правоохранительных органов в борьбе с организованной

преступностью. Инструменты шифрования, глобальный характер Интернета, криптовалюты – все это создает трудности для противодействия преступным группам.

В исследовании А.Л. Осипенко названо три укрупненных типа лиц, осуществляющих противоправную деятельность в глобальных сетях:

- представители традиционной преступности, осознавшие преимущества информационно-телекоммуникационных технологий при осуществлении традиционных посягательств;
- представители хакерского сообщества, обладающие специальной подготовкой и совершающие преступления, возможные только в глобальных компьютерных сетях;
- организованная преступность, все более активно привлекающая для достижения своих целей первые две категории лиц.[3]

По мнению А.Ю. Чупровой, “преступные группы, занимающиеся информационным криминальным бизнесом, можно подразделить на:

- традиционные группы, структура и связи которых аналогичны тем, что действуют и в иных преступных группах;
- виртуальные преступные группы, участники которых объединены друг с другом посредством информационно-телекоммуникационных сетей и не вступают друг с другом в непосредственные личные контакты;
- смешанные группы, участники которых могут вступать в коммуникации как непосредственно, так и исключительно с использованием информационных технологий”.[4]

Не умаляя достоинств приведенных классификаций, все же отметим, что прогнозировавшаяся несколько лет назад экспертами тенденция к размытию граней между хакерскими группами и организованной преступностью сегодня стала явью[5].

[3] Осипенко А.Л. Сетевая компьютерная преступность: теория и практика борьбы / А.Л. Осипенко. – Омск : Ом. акад. МВД России, 2009. – 480 с

[4] Чупрова А.Ю. Особенности групповой преступности в сфере электронной коммерции / А.Ю. Чупрова // Преступность, уголовная политика, закон: материалы Всерос. науч.-практ. конф., Москва, 26–27 янв. 2016 г. / под ред. А.И. Долговой. – Москва, 2016. – С. 40–48

[5] Organizations and Cyber crime: An Analysis of the Nature of Groups engaged in Cyber Crime/ R. Broadhurst, P. Grabosky, M. Alazab, S. Chon // International Journal of Cyber Criminology. –

М. Макгуайр по результатам анализа большой выборки преступных посягательств в IT сфере констатирует, что до 80 % киберпреступлений может быть результатом той или иной формы организованной деятельности. Однако это не означает, что данные группы принимают форму традиционных иерархических организованных преступных групп или что эти группы совершают исключительно цифровые преступления. По мнению исследователя, более вероятно, что традиционные организованные преступные группы стали частью цифрового мира.[6]

А.Ю. Чупровой также выделены ключевые характеристики "виртуальной преступной группы":

- тщательная подготовка к совершению преступления;
- использование сложных способов совершения преступлений;
- распределение ролей при совершении преступлений при равенстве всех ее участников;
- наличие координирующего звена.

Однако автор резюмирует, несмотря на то что на практике зачастую речь идет о совершении преступлений преступным сообществом, объединяющим как группы, существующие в офлайн-пространстве, так и виртуальные группы, согласно букве закона такие сообщества нельзя характеризировать как организованные преступные сообщества ввиду отсутствия устойчивых связей у групп, существующих в киберпространстве, а также по причине единичных фактов участия ее членов в эпизодах преступной деятельности[7]. В результате автор приходит к выводу о целесообразности "оценивать деятельность виртуальных криминальных структур, осуществляющих преступную деятельность в сфере электронной коммерции исключительно в информационно-телекоммуникационных сетях, в частности сети Интернет, как преступления, совершенные организованной группой.

2014. – Vol. 8, iss. 1. – P. 1–20

[6] McGuire M. Organised Crime in the Digital Age / M. McGuire. – London: John Grieve Centre for Policing and Security, 2012

[7] Чупрова А.Ю. Особенности групповой преступности в сфере электронной коммерции / А.Ю. Чупрова // Преступность, уголовная политика, закон: материалы Всерос. науч.-практ. конф., Москва, 26–27 янв. 2016 г. / под ред. А.И. Долговой. – Москва, 2016. – С. 40–48.

Преступные группы демонстрируют различные уровни организации в зависимости от того, направлена ли их деятельность исключительно на онлайн-цели, используются ли онлайн-инструменты для совершения преступлений в реальном мире и едины ли цели у преступной деятельности в Сети и реальном мире. Цифровые технологии в руках даже одного человека, не говоря уже об организованных преступных группах, могут превратиться в небывалое по мощности орудие совершения преступлений[8].

Как справедливо подметил Д. Мэнки, “киберпреступность превратилась в сложную, высокоорганизованную иерархию, включающую лидеров, инженеров, пехоту и наемных денежных мулов”[9].

Отличительными признаками совершаемых ими высокотехнологичных преступлений являются:

- дистанционный характер доступа к объекту посягательства с помощью информационных сетей;
- использование специально разработанных в криминальных целях программных, программно-аппаратных и аппаратных средств преступления;
- обязательное наличие тщательной подготовки к преступлению и действий по сокрытию его следов и активное противодействие расследованию.

Кроме того, преступные группы, активно использующие технологии социальной инженерии в последние годы в России и за рубежом произошло стремительное распространение преступных посягательств, в которых используются технологии социальной инженерии[10]. В силу этого заслуживают отдельного исследования специфические черты лиц, совершающих эти деяния. Для участников преступных групп, специализирующихся

[8] Суходолов А.П. Проблемы противодействия преступности в сфере цифровой экономики / А.П. Суходолов, Л.А. Колпакова, Б.А. Спасенников. – DOI: 10.17150/2500-4255.2017.11(2).258-267 // Всероссийский криминологический журнал. – 2017. – Т. 11, № 2. – С. 258–267.

[9] Manky D. Cybercrime as a Service: a very Modern Business / D. Manky. – DOI: 10.1016/S1361-3723(13)70053-8 // Computer Fraud and Security. – 2013. – Vol. 2013, iss. 6. – P. 9–13. 32.

[10] Поляков В.В. Применение методов социальной инженерии при совершении высокотехнологичных преступлений / В.В. Поляков. – DOI 10.55001/2587-9820.2023.81.15.018 // Криминалистика: вчера, сегодня, завтра. – 2023. – № 3 (27). – С. 175–188.

на применении технологий социальной инженерии, характерна достаточно узкая специализация с выполнением “определенных ролей *(моделей поведения)*”.[11] Эта специализация достигается на этапе подготовки незаконного деяния путем разработки типовых сценариев общения с жертвами посягательства, включающих в себя овладение начальными познаниями в сфере соответствующей деятельности[12], например, знаниями организационной структуры и правил функционирования финансовых организаций или правоохранительных органов, навыками достаточно свободного владения профессиональной терминологией, умением импровизировать в зависимости от развивающейся при общении ситуации. Особая роль отводится работникам коммерческих и государственных организаций, подвергшихся преступному посягательству. Эти работники, и прежде всего те из них, кто не обладает необходимыми знаниями в сфере защиты компьютерной информации, непреднамеренно открывают в корпоративной сети организации заинтересовавшие их фишинговые письма, содержащие вредоносные программы заходят на зараженные веб-сайты в соответствии со специально направленными им ссылками[13] и т.п., тем самым обеспечивая преступникам преодоление средств защиты компьютерной информации. Представляется, что эти лица, не имеющие злого умысла и не понимающие своего вклада в преступную деятельность, выполняют своеобразную роль “невольных пособников” преступления.

Самостоятельной и малоизученной задачей является выявление характерных особенностей членов организованных групп, совершающих высокотехнологичные преступления и организованных на этнической основе. Формирование этнических преступных

[11] Старостенко Н.И. Криминалистическая характеристика личности преступника, совершающего хищения с применением методов социальной инженерии / Н.И. Старостенко // Вестник Краснодарского университета МВД России. – 2022. – № 4 (58). – С. 89–95.

[12] Головин А.Ю. Социальная инженерия в механизме преступной деятельности в сфере информационно телекоммуникационных технологий / А.Ю. Головин, Е.В. Головина. – DOI 10.24412/2071-6184-2021-2-3-13 // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. – 2021. – № 2. – С. 3–13.

13 Сабырбаева А.Б. О мерах по противодействию мошенничеству *(на примере фишинга)* / А.Б. Сабырбаева. – DOI 10.31857/S102694520017465-2 // Государство и право. – 2021. – № 1. – С. 181–185.

групп, как подчеркивают А.Г. Ахмедов и Т.О. Бозиев, происходит путем выстраивания системы связей, предусматривающей “разграничение функций и полномочий”[14]. Эти обстоятельства вносят дополнительные сложности в организацию расследования и доказывание совершенных преступлений.

Цифровая революция одним из своих следствий вызвала качественную трансформацию преступной деятельности, проявившуюся в появлении организованных групп, совершающих высокотехнологичные преступления и характеризующихся своеобразным распределением ролей и спецификой отличительных черт соучастников таких деяний. В соответствии с уголовно-правовой типизацией описаны отличительные особенности лиц, совершающих в составе преступных групп высокотехнологичные преступления. Важной отличительной особенностью руководителей этих групп является исключительно высокая анонимизация, достигаемая путем использования анонимных сетевых технологий и сервисов. Среди лиц, выступающих в качестве исполнителей, выделена группа специалистов в области компьютерных технологий, характерная именно для высокотехнологичных преступлений. Сделан вывод, что для этих лиц характерен, наряду с наличием профессиональных знаний, низкий общекультурный уровень и слабые моральноволевые качества. При рассмотрении пособников обращено внимание на роль инсайдеров, обладающих информацией о средствах защиты объекта незаконного посягательства. Описаны роли и характерные черты лиц, связанные со специализацией организованных групп, совершающих бесконтактное распространение наркотических веществ. Выявлена ролевая специфика членов групп, практикующих преступные посягательства, основанные на технологиях социальной инженерии. Отмечено своеобразие личностных качеств участников этнических группировок и обращено внимание на важность учета такого нового явления, как глокализация преступной деятельность.

---

[14] Ахмедов А.Г. Организованная этническая преступность: оперативно-розыскная характеристика, тенденция, вопросы, требующие разрешения / А.Г. Ахмедов, Т.О. Бозиев. – DOI 10.35750/2071-8284-2022-1-89-97. – EDN VYTJWK // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2022. – № 1 (93). – С. 89–97

В заключение важно отметить, что преступность, в том числе в сфере информационных технологий, а также совершаемая с использованием информационных технологий, постоянно трансформируется и, соответственно, требует постоянного обновления средств и методов противодействия.

Так, в частности, были сделаны следующие выводы:

- во-первых, цифровые технологии служат катализатором для расширения влияния преступников, поскольку те используют такие достижения, как зашифрованные каналы связи, теневые веб-платформы и криптовалюты;
- во-вторых, существуют проблемы, с которыми сталкиваются правоохранительные органы в борьбе с организованной преступностью, использующей цифровые технологии;
- в-третьих, существует необходимость введения мер регулирования в отношении криптовалюты, являющейся основным средством расчета в преступных операциях, а также важность международного сотрудничества для ликвидации преступных сетей.

Решение этих проблем требует реализации эффективных мер регулирования и международного сотрудничества. В частности, необходимо разработать законодательство и правила, регулирующие использование технологий, особенно в отношении криптовалюты, которая широко используется преступниками. Также расширение международного сотрудничества и обмена информацией между правоохранительными органами поможет преодолеть существующие ограничения.

Список литературы:

1. Быков В., Нехорошев В., Черкасов А. Совершенствование уголовной ответственности за преступления, сопряженные с компьютерными технологиями // Уголовное право. 2020. № 3. С. 9.

2. Информация о деятельности Министерства внутренних дел Республики Узбекистан в 2024 году по предупреждению и профилактике правонарушений. URL:https://apiportal.gov.uz/uploads/11/2025/03/18/62ec12c0-728e-8cb1-0732- 2e034563a1c5_media.pdf. *(дата доступа: 10.03.2025)*.

3. Осипенко А.Л. Сетевая компьютерная преступность: теория и практика борьбы / А.Л. Осипенко. – Омск : Ом. акад. МВД России, 2009. – 480 с.

4. Чупрова А.Ю. Особенности групповой преступности в сфере электронной коммерции / А.Ю. Чупрова // Преступность, уголовная политика, закон : материалы Всерос. науч.-практ. конф., Москва, 26–27 янв. 2016 г. / под ред. А.И. Долговой. – Москва, 2016. – С. 40–48

5. Organizations and Cyber crime: An Analysis of the Nature of Groups engaged in Cyber Crime / R. Broadhurst, P. Grabosky, M. Alazab, S. Chon // International Journal of Cyber Criminology. – 2014. – Vol. 8, iss. 1. – P. 1–20

6. McGuire M. Organised Crime in the Digital Age / M. McGuire. – London: John Grieve Centre for Policing and Security, 2012

7. Чупрова А.Ю. Особенности групповой преступности в сфере электронной коммерции / А.Ю. Чупрова // Преступность, уголовная политика, закон : материалы Всерос. науч.-практ. конф., Москва, 26–27 янв. 2016 г. / под ред. А.И. Долговой. – Москва, 2016. – С. 40–48.

8. Суходолов А.П. Проблемы противодействия преступности в сфере цифровой экономики / А.П. Суходолов, Л.А. Колпакова, Б.А. Спасенников. – DOI: 10.17150/2500-4255.2017.11(2).258-267 // Всероссийский криминологический журнал. – 2017. – Т. 11, № 2. – С. 258–267.

9. Manky D. Cybercrime as a Service: a very Modern Business / D. Manky. – DOI: 10.1016/S1361-3723(13)70053-8 // Computer Fraud and Security. – 2013. – Vol. 2013, iss. 6. – P. 9–13. 32.

10. Поляков В.В. Применение методов социальной инженерии при совершении высокотехнологичных преступлений / В.В. Поляков. – DOI 10.55001/2587-9820.2023.81.15.018 // Криминалистика: вчера, сегодня, завтра. – 2023. – № 3 (27). – С. 175–188

11. Старостенко Н.И. Криминалистическая характеристика личности преступника, совершающего хищения с применением методов социальной инженерии / Н.И. Старостенко // Вестник Краснодарского университета МВД России. – 2022. – № 4 (58). – С. 89–95.

12. Головин А.Ю. Социальная инженерия в механизме преступной деятельности в сфере информационно телекоммуникационных

технологий / А.Ю. Головин, Е.В. Головина. – DOI 10.24412/2071-6184-2021-2-3-13 // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. – 2021. – № 2. – С. 3–13.

13. Сабырбаева А.Б. О мерах по противодействию мошенничеству *(на примере фишинга)* / А.Б. Сабырбаева. – DOI 10.31857/S102694520017465-2 // Государство и право. – 2021. – № 1. – С. 181–185.

14. Ахмедов А.Г. Организованная этническая преступность: оперативно-розыскная характеристика, тенденция, вопросы, требующие разрешения / А.Г. Ахмедов, Т.О. Бозиев. – DOI 10.35750/2071-8284-2022-1-89-97. – EDN VYTJWK // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2022. – № 1 (93). – С. 89–97.

KRIPTOAKTIVLAR BILAN BOG‘LIQ JINOYAT ISHLARINI TERGOV QILISHDA XALQARO HAMKORLIK

Maxmudjonov Jamshidbek Baxodir o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi
“Kiberxavfsizlikni huquqiy ta’minlash” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Kriptoaktivlar bugungi kunda moliyaviy tizimlarda yangi davrni boshlab berdi. Ularning o‘ziga xosligi, shu jumladan texnologik yangiliklari va global miqyosdagi kirish imkoniyatlari ularni moliyaviy erkinlik va tezkorlik manbai sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kriptoaktivlar jinoyatchilikda, qonuniy bo‘lmagan moliyaviy oqimlarda ham keng qo‘llanishi xavfini yuzaga keltirdi. Bu esa ularni tergov qilish va jinoyatlarni aniqlash jarayonlarini murakkablashtirmoqda. Kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyat ishlarini samarali ravishda tergov qilish uchun milliy chegaralardan tashqarida, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarurati paydo bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: kriptoaktivlar, xalqaro hamkorlik, jinoyatchilik, moliyaviy oqimlar, kriptovalyutalar, bozor, tergov organlari, zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt.

Kriptoaktivlar so‘nggi yillarda moliyaviy bozorlarning eng dolzarb mavzularidan biriga aylangan. Ular raqamli shaklda mavjud bo‘lib, an’anaviy pul vositalaridan tubdan farq qiluvchi yangi turdagi aktivlardir. Kriptoaktivlar asosida blokcheyn texnologiyasi yotibdi, bu esa ularning tranzaksiyalarini xavfsiz, shaffof, o‘zgarmas va markazlashtirilmagan tarzda amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu texnologiya yordamida har bir operatsiya butun tarmoq tomonidan tasdiqlanadi va qayta o‘zgartirilishi yoki soxtalashtirilishi deyarli imkonsiz bo‘ladi. Shu sababli kriptoaktivlar investitsiyalashda yangi imkoniyatlar yaratgani bilan birga, moliyaviy tizimlarda ham yangi yo‘nalishlar ochmoqda. Kriptoaktivlarning eng mashhur ko‘rinishlaridan biri – kriptovalyutalar bo‘lib, ular global miqyosda pul almashinuvi, to‘lovlar va investitsiyalar uchun xizmat qiladi. Bitcoin, Ethereum kabi valyutalar o‘zining markaziy bank yoki davlat organi yo‘qligi bilan ajralib turadi. Bu ularning erkin

va tezkor harakatlanishini ta’minlaydi, lekin shu bilan birga ularni nazorat qilish va tartibga solishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Aynan shu xususiyatlar kriptoaktivlarni moliyaviy jinoyatlar, pul yuvish, soliq to‘lashdan qochish kabi noqonuniy ishlarda ham qo‘llanilishiga olib kelmoqda. Shu bois, kriptoaktivlar dunyo moliya tizimining yangi qismiga aylangan bo‘lsa-da, ular bilan bog‘liq xatarlar va muammolar ham ortib bormoqda. Bu sohada hali qonuniy bazalar to‘liq shakllanmagan, davlatlar o‘rtasida bir xilda tartibga solish mexanizmlari yo‘q. Natijada kriptoaktivlarning imkoniyatlaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanish holatlari ko‘paymoqda. Jinoyatchilikda qo‘llanilishi, ayniqsa, xalqaro darajada moliyaviy xavfsizlikka jiddiy tahdidlar keltirib chiqarmoqda. Kriptoaktivlarning o‘ziga xosligi, anonim yoki yarim anonim tranzaksiyalar, shuningdek, ularning globalligi jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jarayonini murakkablashtiradigan asosiy omillardir. Bunda milliy chegara va qonunlar chegaralarining ahamiyati kamayadi, shuning uchun tergovning samaradorligi uchun davlatlararo hamkorlik eng muhim vositaga aylanadi. Kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyatlarni oqilona aniqlash va oldini olish uchun zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or ekspertiza, qonunlar va xalqaro tartib-qoidalar zarur bo‘ladi. Kriptoaktivlarning rivojlanishi bilan birga, ular moliyaviy inqirozlarni yengillashtirish, moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish kabi ijobiy jihatlari ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, ularning jinoyatga ta’siri va noqonuniy ishlarda qo‘llanilishi keng qamrovli tadqiqot va strategiyalarni talab etadi. Kriptoaktivlarning o‘ziga xos texnologiyasi va global ta’siri mazkur sohaga oid qonunlarni doimiy ravishda takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni yuksaltirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda, kriptoaktivlar moliyaviy ekotizimning yangi qismidir, ular moliya tizimini demokratlashtirish va modernizatsiyalash imkonini beradi. Ammo shu bilan birga, ularning jinoiy maqsadlarda qo‘llanilishi xavfi xalqaro hamjamiyatni birlashtirib, tegishli choralarni ko‘rishga majbur qilmoqda. Milliy va xalqaro darajada kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va oldini olish, samarali tergov qilish uchun yagona tizimlarni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda. Ushbu vazifalarni hal etish uchun texnologik, huquqiy va hamkorlik

asosidagi yechimlar izlash, mutaxassislar malakasini oshirish va doimiy monitoringni tashkil qilish zarurati tobora oshib bormoqda.

Kriptoaktivlarning asosiy texnologiyasi blokcheyn global va o‘zgarmas yozuvlarni yaratishga imkon beradi. Bu texnologiya yordamida har bir tranzaksiya butun tarmoq tomonidan nazorat qilinadi va o‘zgartirilishi deyarli imkonsizdir. Shuningdek, kriptoaktivlar tizimida anonimlik va yarim anonimlik elementlari mavjud bo‘lib, bu ularni noqonuniy faoliyat uchun jozibador qiladi. Jinoyatchilar moliyaviy operatsiyalarni yashirish, pul yuvish, soliq firibgarligi va boshqa jinoyatlar uchun bu vositani keng qo‘llamoqda. Shu sababli jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jarayonida an’anaviy moliyaviy nazorat vositalari etarli bo‘lmaydi, yangi yondoshuvlar va texnologiyalar joriy etilishi lozim. Global moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo‘lgan kriptoaktivlar, davlatlararo chegaralarni hisobga olmaydi. Bu esa kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda milliy darajadagi kuchlar yetarli emasligini ko‘rsatadi. Davlatlararo hamkorlik, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi va birgalikda ishlashning mavjud shakllari kengaytirilishi talab etiladi. Aniqlik kiritish zarurki, jinoyatchilik sohasida ishlayotgan subyektlar muntazam ravishda yangi metodlarni va texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan birga, davlatlararo hamkorlik imkoniyatlaridan oqilona foydalanishlari kerak. Xalqaro hamkorlikning samarali bo‘lishi uchun bir qancha asosiy tamoyillarni hisobga olish zarur. Eng avvalo, qonuniy jihatdan davlatlarning jinoyatga oid kodekslari va reglamentlarini muvofiqlashtirish talab etiladi. Chunki, kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘pincha bir nechta davlat hududida amalga oshiriladi va har bir davlatda ularni identifikatsiyalash uchun turli qoidalar va mexanizmlar mavjud. Shuning uchun xalqaro darajada yagona me’yor va qoidalar ishlab chiqilishi, shuningdek, ularni milliy qonunchilikka tatbiq etish, tergov xodimlarining hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi [2- 324-b].

Axborot almashinuvi va tajriba almashish ham muhim omil hisoblanadi. Jinoyatlarni tergov qilishda atomlashtirilgan ma’lumotlar, tezkor axborot yetkazib berish, moliyaviy tranzaksiyalarni real vaqt rejimida tahlil qilish yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda katta yordam beradi. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar va koalitsiyalar

o‘zgaruvchan muhitga moslashgan yagona ma’lumotlar bazalarini yaratish, xatarlarni aniqlashda ekspertlarni jalb qilish va tezkor muvofiqlashtirish tizimlarini yaratish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt, ma’lumotlarga chuqur tahlil o‘tkazish imkoniyatlari kriptoaktivlar jinoyatlari aniqligi va tergov samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni dasturlashtirilgan tarzda tahlil qilish orqali shubhali tranzaksiyalarni aniqlash osonlashadi. Bu esa tergovchilarga tezkor va aniq qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, texnologiyalarni milliy va xalqaro darajada birlashtirish, pratniklar o‘rtasida tajriba almashinuvi, standartlashtirish jarayonlari muhimdir. Tergov organlari va maxsus xizmatlar muta-xassislarni muntazam tayyorlash va malakasini oshirish uchun imkoniyatlar yaratishi zarur. Kriptoaktivlar va blokcheyn texnologiyalari doimiy rivojlanayotgan soha bo‘lib, yangi jinoyat usullari ham o‘zgarib bormoqda. Shu bois tergovchilarning malakasi doimiy saqlanishi va oshirilishi kerak. Xalqaro treninglar, seminarlar, vebinarlar va kurslar orqali mutaxassislar ilg‘or usullar bilan tanishtiriladi va ularni tatbiq etish imkoniyatlari kengaytiriladi [3- 113-b].

Kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda xususiy sektor ham muhim hamkor hisoblanadi. Kripto valyutasini sotish, almashish va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi kompaniyalar, texnologik firmalar jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimlariga bevosita jalb qilinadi. Bu kompaniyalar orqali olinadigan ma’lumotlar tergovchilar uchun katta ahamiyatga ega. Shuningdek, xususiy sektorning o‘zini nazorat qilish mexanizmlari, masalan, ichki auditlar, kripto tranzaksiyalarni monitoring qilish tizimlari jinoyatchilikning oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Axborot xavfsizligini ta’minlash xalqaro hamkorlik doirasida eng dolzarb masalalardan biridir. Jinoyatlarni tergov etish jarayonida olinadigan ma’lumotlar ko‘pincha maxfiy hisoblanadi va ularning oshkor bo‘lishi tergov jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Shu maqsadda, davlatlar o‘rtasida ishonchli, shifrlangan axborot almashinuvi platformalari yaratilishi kerak. Bu platformalar tergov sirlarini saqlash va jinoyatchilarni aniqlash jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Milliy yondoshuvlarning bir xil emasligi xalqaro hamkorlikda muammolarni keltirib chiqaradi. Ba'zi davlatlar kriptoaktivlarga nisbatan qat'iy boshqaruvni qo'llab-quvvatlasa, boshqalar munosabati yumshoqroq bo'lishi mumkin. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda "uyg'unlik"ni kamaytiradi. Shu bois barcha davlatlar o'rtasida yagona strategiya va siyosatni ishlab chiqish, standartlarni yakkama-yakka emas, balki hamkorlik asosida ishlab chiqish zarurati mavjud. Davlatlararo hamkorlikning yana bir yo'nalishi, jinoyatlarni profilaktikasi va xavf-xatarlarni oldindan aniqlashdir. Bu maqsadda keng qamrovli monitoring tizimlari tashkil etish, moliyaviy oqimlarni doimiy nazorat qilish va taxminiy modellar asosida xatarlarni aniqlash samarali hisoblanadi. Xalqaro darajada bunday tizimlarni kuzatish va ishlatish tajribasini bir-biri bilan bo'lishish jinoyatlarning oldini olishda muhim omil bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar va koalitsiyalar, masalan, Interpol, Egmont guruhi va BMTning turli bo'limlari kriptoaktivlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. Ular tomonidan ishlab chiqilayotgan protokollar va standartlar davlatlararo aloqalarni o'zaro muvofiqlashtirishga yordam beradi. Bu tashkilotlar jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqar moliyaviy monitoring va nazorat tizimlarini yaratish bo'yicha metodologiyalarni ishlab chiqmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kriptoaktivlar bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish murakkab va ko'p qirralik jarayon hisoblanadi. Ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun milliy va xalqaro darajadagi kuchlarni birlashtirish zarurati mavjud. Kriptoaktivlarning texnologik o'ziga xosligi, anonimligi va global xarakteri jinoyatchilikka qarshi kurashda yangi yondoshuvlar va usullarni talab qiladi. Shu bois qonuniy asoslarni uyg'unlashtirish, axborot almashinuvi tizimlarini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va xususiy sektor bilan samarali hamkorlik qilish lozim. Xalqaro hamkorlik kriptoaktivlar bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda asosiy vosita bo'lib, u global moliyaviy tizimning xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa raqamli

moliya sohasida ishonch va barqarorlikni oshirib, iqtisodiy rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi. Kelajakda kriptoaktivlarga oid qonunchilik va tergov sohasida milliy chegaralarni yo‘qotuvchi global standartlar va texnologiyalar doimiy takomillashib borishi kutilmoqda. Shu orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish yangi bosqichga ko‘tariladi va global moliyaviy tizimda xavfsizlik ta’minlanadi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КИБЕРМОШЕННИЧЕСТВА: ПОНЯТИЕ, ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ВИДЫ

Алламбергенов Исламбек Садатдинович

Научный сотрудник-исследователь Криминологического исследовательского института Республики Узбекистан, майор

Аннотация. В данной статье во взаимосвязи анализируются теоретико-правовое содержание понятия “кибермошенничество” и его практические проявления. Раскрывается роль кибермошенничества в современном обществе как совокупности преступлений, совершаемых с использованием компьютерных технологий и интернет-пространства. Отмечается резкий рост динамики преступлений данного вида в последние годы. В качестве факторов, влияющих на возникновение этой тенденции, указываются негативное воздействие пандемии COVID-19 на социально-экономические процессы, значительное расширение дистанционных форм деятельности, а также все более широкое применение финансовых и бытовых онлайн-операций в повседневной жизни. Наряду с указанными факторами подчёркивается, что стремительный рост кибермошенничества связан также с тем, что традиционные механизмы расследования и раскрытия преступлений, используемые правоохранительными органами, ещё не полностью адаптированы к развивающимся цифровым угрозам.

Ключевые слова: кибермошенничество, виды кибермошенничества, правовая природа кибермошенничества.

Аннотация. Мазкур мақолада “киберфирибгарлик” тушунчасининг назарий-ҳуқуқий мазмуни ва унинг амалий кўринишлари ўзаро боғлиқ ҳолда таҳлил қилинади. Компьютер технологиялари ва интернет маконидан фойдаланиш орқали содир этилаётган жиноятлар мажмуаси сифатида киберфирибгарликнинг замонавий жамиятдаги ўрни ёритилади. Сўнгги йилларда мазкур турдаги жиноятлар динамикасининг кескин ўсиб бораётгани қайд этилади. Ушбу ҳолатнинг юзага келишига таъсир этувчи омиллар сифатида

COVID-19 пандемиясининг ижтимоий-иқтисодий жараёнларга салбий таъсири, масофавий шаклларнинг сезиларли даражада кенгайиши, шунингдек, молиявий ва маиший турдаги онлайн операцияларнинг кундалик ҳаётда тобора кўпроқ қўлланила бошлаётгани кўрсатилади. Келтирилган омиллар билан бир қаторда, киберфирибгарликларнинг жадал суръатларда авж олиши ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан анъанавий тергов қилиш ва жиноятларни фош этиш механизмларининг ривожланиб бораётган рақамли хавфларга тўлиқ мослашмаганлиги билан ҳам боғлиқ экани алоҳида таъкидланади.

Калит сўзлар: киберфирибгарлик, киберфирибгарлик турлари, киберфирибгарликнинг ҳуқуқий табиати.

Abstract. This article analyzes the theoretical and legal content of the concept of “cyber fraud” and its practical manifestations in their interrelation. It highlights the role of cyber fraud in modern society as a set of crimes committed through the use of computer technologies and cyberspace. A sharp increase in the dynamics of such crimes in recent years is noted. The factors influencing this trend include the negative impact of the COVID-19 pandemic on socio-economic processes, the significant expansion of remote forms of activity, as well as the growing use of financial and everyday online operations in daily life. Alongside these factors, it is emphasized that the rapid growth of cyber fraud is also associated with the fact that traditional mechanisms of investigation and crime detection used by law enforcement bodies have not yet fully adapted to evolving digital threats.

Keywords: cyber fraud, types of cyber fraud, legal nature of cyber fraud.

В последние годы в Республике Узбекистан наблюдается активное расширение цифрового сектора экономики, ускоренное развитие ключевых драйверов его роста – платформ электронной коммерции, цифровых сервисов и финансовых технологий. Эти процессы сопровождаются увеличением объёмов онлайн-транзакций и постепенным переходом значительной части

потребительских и коммерческих операций в цифровую среду. В то же время стремительный рост цифровой активности выявляет ряд системных уязвимостей, связанных с обеспечением безопасности электронных платежей и обработки данных на маркетплейсах и цифровых платформах.

Рост количества краж и мошенничества с использованием банковских карт за последнее время свидетельствует о недостаточном уровне цифровой финансовой грамотности населения, дефиците профессиональной подготовки сотрудников правоохранительных органов, а также о несовершенстве современных механизмов предупреждения правонарушений в коммерческих банках, платёжных организациях и у операторов платёжных систем. Возрастающая сложность цифровых схем мошенничества усиливает потребность в создании более эффективных инструментов государственного регулирования и превенции киберпреступности.

На современном этапе эволюции цифровых технологий приоритетом государственной политики становится обеспечение оперативного и результативного противодействия киберпреступности. Усиление мер в данной сфере отражает политическую волю руководства страны, что проявляется в принятии фундаментальных нормативно-правовых актов, формирующих национальную систему кибербезопасности.

К числу ключевых документов относятся Закон Республики Узбекистан “О кибербезопасности” от 15 апреля 2022 года № ЗРУ-764, а также постановления Президента Республики Узбекистан №381-ПП от 30 ноября 2023 года “О мерах по усилению защиты прав потребителей цифровой продукции *(услуг)* и борьбе с правонарушениями, совершаемыми посредством цифровых технологий” и №153-ПП от 30 апреля 2025 года “О мерах, направленных на дальнейшее усиление деятельности по борьбе с преступлениями, совершаемыми с помощью информационных технологий”. Эти акты создают нормативную основу, задающую стратегические направления государственной политики в сфере цифровой трансформации и обеспечения информационной безопасности.

Указанные документы ориентированы на комплексное развитие цифровой экономики, совершенствование механизмов защиты прав потребителей цифровой продукции и услуг, повышение эффективности противодействия правонарушениям, совершаемым посредством цифровых технологий, а также на расширение цифровой финансовой грамотности населения. Этот нормативно-правовой комплекс способствует формированию устойчивой, институционально укреплённой системы национальной кибербезопасности, основанной на правовых, организационных и просветительских механизмах.

Термины “киберпреступления”, “кибермошенничество” впервые стали употреблять в Америке в 1960-х годах, именно тогда уже отмечались первые преступления, совершенные посредством компьютеризации. Ближе к 1990-м годам, когда Интернет набирал свои обороты, увеличились и интернет-махинации. Сегодня же любая страна и её население тесно связаны с компьютерными технологиями, а выполнение таких работ, как энергетические, транспортные и прочие, просто невозможно без правильной и надежной автоматизированной работы сети Интернет. Именно поэтому постоянно совершенствуются не только прикладные технические науки, компьютеризация и прочее, но и кибермошенничество, посредством которого злоумышленники получают доступ к различным данным, хранящимся на ПК.

Кибермошенничество – это любое запрещенное действие, совершенное с помощью современных информационных технологий. Такие преступления совершаются злоумышленниками в целях завладения чужим имуществом, то есть персональными данными и финансовыми средствами людей. Иными словами, это совершение противозаконного деяния, проникающего в работу компьютеров, компьютерных программ или сетей, а также несанкционированная модификация компьютерных данных или иные противоправные действия, посягающие на чужую собственность через сеть Интернет.

Особенностями кибермошенничества являются:

- их высокая латентность и профессиональный уровень подготовки преступников;

- нестандартность подходов, методов и способов совершения преступлений;
- неосведомленность потерпевших о том, что в отношении них совершены противоправные действия;
- дистанционный характер преступных деяний;
- низкая эффективность традиционных методов профилактики и расследования преступлений;
- высокая сложность сбора доказательственной базы.

В современном мире активно растет и развивается рынок электронных платежей, а также онлайн-покупок, в связи с этим активно процветает мошенничество с использованием информационных технологий. К основным современным видим кибермошенничества относятся:

1) вредоносное ПО – включает преступления, связанные с проникновением различных вирусов, которые компрометируют, собирают, копируют, а иногда и уничтожают данные;

2) фрод – кража персональных данных карты, клиента банка, который совершил покупку на подставном, вредоносном сайте;

3) кибератака через посредника *(MitM)* – под этим видом кибератак понимается утечка информации в момент общения. Например, два человека общаются через Интернет *(по электронной почте)*, к разговору подключается третья сторона, которая затем перехватывает и удерживает дальнейшую конфиденциальную информацию;

4) фишинг – кража личных данных клиента, таких как логины и пароли к личным банковским счетам в целях хищения денег, хранящихся в банковском счёте. Во многих случаях фишинг осуществляется с помощью электронного письма, содержащего ссылку на поддельный веб-сайт. Перейдя по этой ссылке, клиент автоматически становится жертвой мошенничества;

5) уязвимости “нулевого дня” – этот вид мошенничества возникает, когда на рынке появляется новое программное обеспечение, слабые места которого ещё не были обнаружены и защищены разработчиками;

6) нигерийские письма – этот вид мошенничества также осуществляется по электронной почте. Такие письма содержат

информацию о наследствие умершего родственника и “просьбу” перевести определенную сумму денег оплатить на указанные в письме реквизиты, чтобы оплатить услуги адвоката для подготовки необходимых документов;

7) мошенничество, совершаемое онлайн-кошельки – самый распространённый вид мошенничества. При покупке товаров через Интернет клиент переводит оплату на интернет-кошелек, в результате чего у него нет ни денег, ни заказанного товара;

8) DDos-атака “Отказ в обслуживании”– здесь мошенничество проявляется в одновременном обращении множества ложных запросов, в результате которых ресурс выходит из строя ввиду высокой нагрузки;

9) атака на DNS-сервер – кибератаки в сети Интернет, направленные на получение информации о доменах: IP-адреса устройства, маршрутизации почты и прочее.

В Республике Узбекистан киберпреступность, или преступность в сфере информационных технологий, является отдельной относительно самостоятельной структурной составляющей преступности, включающей в себя деяния, предусмотренные ст.ст. 2781, 2782, 2783, 2784, 2785, 2786, 2787, 2788, 2799 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Помимо этого, ряд авторов относят к таким деяния также преступность в сфере электронных средств платежа. Например, мошенничество с использованием электронных средств платежа *(ст.168 ч.3 п. “г”)*, кража в отношении электронных денежных средств *(ст.169 ч.3 п. “б”)* и иные преступления, сопряженные с использованием информационных технологий.

Согласно статистическим данным за период 2022-2024 гг., можно отметить, что количество преступлений, совершаемых по указанным статьям и кибератак постоянно растёт.

В частности, в 2022 году было зафиксировано 4,5 млн кибератак на информационные ресурсы домена “uz”, в 2023 году их число достигло 11 млн, а в 2024 году превысило 12 млн. В то же время в 2024 году зарегистрировано 58,8 тыс. киберпреступлений – в 9,1 раза больше по сравнению с 2023 годом, а их доля в общей структуре преступности выросла с 6,2% до 44,4%. Количество случаев кибермошенничества увеличилось на 34%, а совокупный

ущерб в 2021–2024 годах превысил 1,9 трлн сумов, при этом только в 2024 году ущерб составил 603 млрд сумов. При этом 98% киберпреступлений связаны с банковскими картами, что подчёркивает необходимость дальнейшего усиления защиты цифрового пространства[9].

Кибермошенничество само по себе считается транснациональным преступлением. Это означает, что преступники, как и жертвы, могут находиться где угодно. Само преступление совершается через Интернет. Другими словами, для таких преступлений характерно анонимное хищение с максимальной скрытностью со стороны преступников.

Малые и средние предприятия и их банковские счета часто становятся жертвами кибермошенников. Сами бизнесмены оказываются обманутыми, поскольку не обладают необходимыми знанмиями в области безопасности. И они часто жалеют о деньгах, которые должны были потратить на установку качественного защитного программного обеспечения.

Наиболее уязвимой сферой для кибермошенничества является банковская сфера. Так, в банковской сфере кибермошенничество понимается как вид недобросовестных действий, фактически происходящих дистанционно. Цель таких преступлений – хищение денег у клиентов *(как у физических, так и юридических лиц)*, размещенных на счетах банка. Нередко такие преступления совершаются с помощью средств клиентов, мошенники часто похищают бонусные баллы с карт клиентов или взламывают личные банковские кабинеты клиентов и с их карт совершают различные покупки, оформляют кредиты или кредитные карты.

Один из ярких примеров кибермошенничества – оформление онлайн-займов. Зачастую микрокредиты получают на подставных лиц. Иными словами, мошенники указывают не свои данные, а данные какого-либо человека и оформляют на него онлайн-займ, денежные средства по которому переводят на свой счёт. В результате такого мошенничества клиент банка *(где произошла утечка информации личных данных клиента)* становится должником компаний по выдаче онлайн-займов, при этом сам того не подозревая. В дальнейшем доказать невиновность гражданина

практически невозможно. В большинстве случаев таким жертвам приходится выплачивать долг.

На втором месте по кибермошенничеству – преступные схемы, связанные с заключением договоров страхования посредством дистанционного оформления *(через Интернет)*. При этом созданные поддельные сайты-дубликаты страховых компаний при предварительном расчёте показывают сниженные страховые суммы, и люди, ничего не подозревая, оформляют на таких сайтах страховые полисы.

С каждым годом мошеннические действия становятся разнообразными, появляются все новые способы хищения. В сутки банки одобряют и зачисляют несколько тысяч кредитных заявок. Именно поэтому служба безопасности банка должна совершенствоваться, недопустимо допускать даже малейшие погрешности относительно безопасности. Первостепенная задача служб безопасности банка – выявление и предотвращение мошеннических схем. То есть служба безопасности в идеале должна работать на опережение, применяя в работе все возможные технологии, позволяющие защитить своих клиентов и их денежные средства.

В последнее время кибермошеничества преобразуются во всевозможные новые формы, направленные на получение большего финансового результата. Ранее кибератаки проявляли себя в распространении и заражении вирусами различных компьютерных сетей, но уже в настоящее время их цель – произвести хищение средств со счетов компаний или счетов клиентов физических лиц, открытых в коммерческих банках.

Для достижения целей кибермошенники занимаются предварительным наблюдением и изучением своей будущей жертвы. Кибератака происходит только после подборки необходимых инструментов и действуют так, чтобы не оставлять следов или зацепок для правоохранительных органов. Киберпреступления практически невозможно отследить, доказать или вообще выяснить, кто является преступником и где его фактическое местонахождение.

В заключение следует отметить, что текущее состояние киберпреступности в Республике Узбекистан требует внимательного

анализа и системного подхода. В этих условиях важно принятие консолидированных мер, направленных на совершенствование финансовой грамотности населения страны, повышение уровня информационной безопасности, а также постепенное развитие комплексных средств обеспечения кибербезопасности. Значительное внимание среди таких мер следует уделить развитию международного сотрудничества в рамках данной проблемы, что обусловлено транснациональным характером киберпреступности.

Список литературы:

1. Закон Республики Узбекистан “О кибербезопасности”– 15 апреля 2022 г., № ЗРУ-764.
2. Постановления Президента Республики Узбекистан “О мерах по усилению защиты прав потребителей цифровой продукции *(услуг)* и борьбы с правонарушениями, совершаемыми посредством цифровых технологий”– №381-ПП, 30 ноября 2023 г.
3. “О мерах, направленных на дальнейшее усиление деятельности по борьбе с преступлениями, совершаемыми с помощью информационных технологий” – №153-ПП, 30 апреля 2025 г.
4. https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-i-zarubezhnyy-pravovoyreglamentatsii-kompyuternoy-prestupnosi/viewer.
5. https://www.gartel.ru/articles/istorija-aktualnye-ugrozy-informatsionnoybezopas nosti.
6. https://www.kaspersky.ru/resource-center/threats/what-is-cybercrime.
7. А.Н. Завялов//Интернет-мошенничество *(фишинг)*: проблемы противодействия и предупреждения// УДК 343.9 EDN SRVHGS DOI 10.17150/2411-6262.2022.13(2).36.
8. https://www.lex.uz/acts/111453.
9. https://www.gazeta.uz/ru/2025/05/29/cybercrime.
10. https://upl.uz/economy/48516-news.html.
11. https://www.asn-news.ru/smi/40512.

O‘ZGALAR MULKINI TALON-TAROJ QILISH BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH TUSHUNCHASI VA TASNIFI

Sattarov Mansur Abdugafurovich

IIV huzuridagi Tergov departamenti boshlig‘ining o‘rinbosari, polkovnik

Annotatsiya. Maqolada o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni fosh etish tushunchasining nazariy-huquqiy mazmuni hamda uning kriminologik va jinoyat-huquqiy tasnifi tahlil qilindi. Unda mazkur turdagi jinoyatlarni aniqlash va fosh etish jarayonining asosiy belgilari, bosqichlari va o‘ziga xos jihatlari yoritilib, amaldagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolar ko‘rsatib berildi. Shuningdek, talon-taroj jinoyatlarini fosh etishning turli shakllari va usullarini tizimlashtirish orqali ularni samarali aniqlash va oldini olishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy xulosalar hamda takliflar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: fosh etilmagan jinoyat, ochilmagan jinoyat, mol-mulkni talon-toroj qilish, jinoyatni fosh etish mexanizmi, jinoyat ishini tergov qilish.

Аннотация. В статье анализируется теоретико-правовое содержание понятия раскрытия преступлений, связанных с хищением чужого имущества, а также его криминологическая и уголовно-правовая классификация. В нем освещены основные признаки, этапы и особенности процесса выявления и раскрытия данного вида преступлений, указаны проблемы действующего законодательства и правоприменительной практики. Также выдвинуты научно-практические выводы и предложения, служащие эффективному выявлению и предупреждению преступлений хищения путем систематизации различных форм и методов их раскрытия.

Ключевые слова: нераскрытое преступление, нераскрытое преступление, хищение имущества, механизм раскрытия преступления, расследование уголовного дела.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksining 2-moddasiga ko‘ra Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlashdan iboratdir.

Kriminalistika nuqtai-nazaridan jinoyatni fosh etish masalasi bir qator olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Eng asosiysi kriminalistika” so‘zining tushunchasi “jinoyatni fosh etish” degan ma’noni anglatadi.

Jinoyatlarni fosh etilmaganligiga doir tushunchaga to‘xtalib o‘tishdan oldin fosh etish tushunchasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Xususan, S.J. Azimovning fikriga ko‘ra “Jinoyatni fosh etish – bu uni sodir etgan shaxslarni aniqlash, ushlash va jazolashga olib keluvchi huquqiy va amaliy harakatlar majmuasidir”. Yana bir kriminalist olim A.M. Ergashevning fikriga ko‘ra: “fosh etish – bu jinoyatning mohiyati va unda ishtirok etgan shaxslarni aniqlab, ularni qonuniy tartibda javobgarlikka tortishga qaratilgan jarayondir”. Jinoyatni fosh etish masalasi ayrim olimlarda jinoyatchi shaxsi bilan bog‘lansa ayrimlarining fikrlarida jinoyatni sodir etilish usuliga qaratiladi. Jinoyatni fosh etish masalasiga umumiy qarashlar bilan yondoshgan olimlar ham borligini X.S. Solihovning “Fosh etish jinoyatni ko‘zdan qochirmasdan aniqlash, shaxsni fosh qilish va sudgacha yetkazishdagi muhim bosqichdir.” degan ta’rifida ko‘rish mumkin.

Jinoyatni fosh etishda jinoyatchining shaxsi va jinoyatning sodir etilishi usullarini ham inobatga olish kerakligi to‘g‘risida I.I. Karimov “Jinoyatni fosh etish degani – jinoyatchi va jinoyatning elementlarini aniqlash, ularni huquqiy jihatdan asoslashdan iborat” degan fikrlari bilan izohlagan bo‘lsa, G.A. Axmedov “Jinoyatni fosh etish – bu jinoyat sodir etilgani haqidagi gumondan to uning isbotlangan holatigacha bo‘lgan bosqichni qamrab oladi” degan fikrni ilgari suradi.

Jinoyatni fosh etish masalasi aynan jinoyatni sodir etgan shaxsning belgilariga bog‘liqligi bo‘yicha kriminalist olim Sh.Q. Qudratov “Fosh etish – jinoyat yuzasidan haqiqatni aniqlash hamda javobgar shaxsni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishdir” degan bo‘lsa uning fikrini davomchisi sifatida Y.K. Jo‘rayev “Fosh etish – jinoyatning izini topish, uni sodir etgan shaxsni aniqlash va javobgarlikka tortishga qaratilgan faoliyat”deya fikr bildiradi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini tahlil qilgan holda Y.K. Jo‘rayevning bergan ta’rifida aniqlik yetarliligi bois uning fikriga qo‘shilgan ma’qul.

Tergov tipik vaziyatlaridan kelib chiqib ham jinoyatni fosh etishda asosan jinoyatni sodir etgan shaxsning ma’lumotlarini aniqlash, uning jinoyat sodir etish usullari kabi masalalar hal etilishi diqqatga sazavordir.

Tadqiqot ishning mavzusidan kelib chiqib, jinoyatni fosh etish masalasidan keyin fosh etilmagan jinoyat tushunchasini ham ochiqlash lozim bo‘ladi. Bu borada ham bir qator olimlarning fikrlari o‘rganilgan bo‘lib, ularning o‘z qarashlari mavjudligini hamda muallif sifatida eng maqbulini tanlashni va ilmiy nazariy ta’rif ishlab chiqildi. Xususan, fosh etilmagan jinoyat tushunchasiga A.M. Ergashev “Fosh etilmagan jinoyatlar – bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyat sifatida qayd etilmagan yoki sodir etilgani ma’lum bo‘lsa-da, undagi shaxslar aniqlanmagan jinoyatlardir” deb ta’rif bergan bo‘lsa, S.J. Azimov “Fosh etilmagan jinoyat – bu jinoyat voqeasi aniq bo‘lgan, biroq uni sodir etgan shaxsni aniqlash imkoni bo‘lmagan holatdir” degan tushunchani bergan. Bundan ko‘rinib turibdi sodir etilgan jinoyat fosh etilmaganligi bu jinoyatni ro‘yxatdan o‘tmaganligini ko‘rsatsa, ikkinchi bir holatda jinoyat ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa ham jinoyatchi topilmagan holat olinyapdi.

Bu masalaga kriminalistika nuqtai nazaridan qaragan olimlardan Sh.Q. Qudratov “Fosh etilmagan jinoyatlar – kriminalistik nuqtainazardan qaralganda, moddiy dalillari yo‘q yoki yetarli darajada emasligi sababli ochiqlanmagan jinoyatlar hisoblanadi” deya izoh bergan. Huddi shuningdek, fosh etilmagan jinoyatlar tushunchasiga nazariy jihatdan D.B. Raximov “Fosh etilmagan jinoyatlar – kriminalistikaning tahliliy yo‘nalishida alohida o‘rni bor bo‘lib, ularni fosh etishda tizimli yondashuv talab etiladi” deya ta’kidlagan. Olimlarning har birining fikrida alohida mazmun borligini e’tirof etish joiz. Biroq, bugungi kunda fosh etish masalasiga doir mavzularda tadqiqotlar muayyan darajada o‘tkazilgan bo‘lishiga qaramay, fosh etilmagan jinoyatlar mavzusida tadqiqotlar olib borilmaganligini ko‘rish mumkin. Nazarimizda yuqoridagi olimlar fikrlaridan tashqari fosh etilmagan jinoyatlar to‘g‘risida fikr yuritgan boshqa olimlarning fikrlarini ham tahlil qilgan holda fosh etilmagan jinoyat tushunchasiga “jinoyat voqeasi aniq bo‘lgan, biroq uni sodir etgan shaxsni aniqlash imkoni bo‘lmagan, statistikaga kiritilmagan,

amalda mavjud bo‘lgan va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi yashirin jinoyatlar, huquqiy yechim topilmagan holatlardir” deya mualliflik ta’rifini nazriyada shakllantirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tahlillar kriminalistika nuqtai nazariidan olimlarning fikr-mulohalari edi va ular tomonidan fosh etilgan jinoyat va fosh etilmagan jinoyat tushunchalariga izohlar berilgandi. Ushbu fosh etish masalasiga qonunchilik nuqtai nazaridan ham e’tibor qaratiladigan bo‘lsa Jinoyat protsessual qonunchiligida jinoyatni fosh etish qilish jumlasi ishlatilgan, biroq Jinoyat kodeksida jinoyatni ochish jumlasi ishlatilgan. Mazkur jumlalarni Jinoyat-protsessual kodeksining 2-modda *(aybdorlarni fosh etish)*, 21-modda *(aybdorlarni qidirish va fosh etish)*, 300-modda *(jinoyatni fosh etish)*, 349 *(jinoyatni fosh etish)*, 5862-modda *(jinoyatni fosh etish)*, 5865-moddasi *(jinoyatni fosh etish)* jumlasi jami 6 marotaba shu tarzda qo‘llanilgan bo‘lsa, jinoyatni to‘la ochish jumlasi JPKning 2-moddasida bir marotaba ishlatilganligini, jinoyatlarni ochish jumlasi 4 marotaba *(2,37,39, 382-moddalarida)* qayd etilganligini ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, jinoyatni fosh etish va jinoyatni ochish jumlalarini ham tahlil qilish hamda ulardagi farqlarni ajratish, qay birini qo‘llash qonunchilikka to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim bo‘ladi.

Ushbu jumlalar Jinoyat-protsessual kodeksida yuqoridagi ko‘rinishda berilgan bo‘lsa, Jinoyat kodeksida haam fosh etish *(3 marotaba-71, 1553, 244-moddalarda)* va ochish *(9 marotaba-55, 71, 157,1929, 211, 212, 213, 2142, 2442-moddalarida)* jumlasi ishlatilgan.

O‘z o‘rnida jinoyat ochiladimi yoki fosh etiladimi degan savol tug‘iladi.

Bu borada kriminalist va protsessualist olimlar tomonidan turlicha fikr mulohazalar yuritilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, O.O. Ismoilov “Jinoyatni ochish – bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyat sodir etilganligini aniqlash, uning holatlarini o‘rganish va jinoyatchi shaxsni fosh etish jarayonidir” degan fikriga umuman boshqa mazmunni aks etgan ta’rifni A.K. Reyimbayevning “Jinoyatni ochish – bu jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish holatlarini aniqlash va ularga huquqiy baho berish jarayonidir” degan fikrida ko‘rish mumkin. Shuningdek, jinoyatni ochish masalasi latentlik bilan bog‘liqligiga doir fikrlarni M.Xolmirzayevning“Jinoyatni ochish – bu latent jinoyatlarni

aniqlash va ularni kriminologik prognozlash jarayonidir”, J.R. O‘roqovning “Jinoyatni ochish – bu latent jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish jarayonidir” degan izohlarida ko‘rish mumkin. Mazkur tushunchaga ehtimoldan uzoqroq bo‘lgan lekin maxsus yo‘nalishlar uchun berilgan ta’riflarni ko‘rish mumkin. Xususan, X.A. Karimov Jinoyatni ochish – bu jinoyatlarni tasniflash mezonlarini takomillashtirish orqali jinoyatlarni aniqlash va ularga huquqiy baho berish jarayonidir” degan fikrni ilgari surgan bo‘lsa, N.O. Hamidov “Jinoyatni ochish- bu ayrim transmilliy uyushgan jinoyatlar uchun javobgarlikni jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini o‘rganish jarayonidir” deb ta’kidlagan.

Nazarimizda, yuqorida fikr mulohazalari keltirilgan olimlarning ta’riflaridan kelib chiqib, jinoyatlar fosh etilganidan so‘ng ochilishi mumkin degan fikrga kelish mumkin. Jinoyatni fosh etish va ochish tushunchalari huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida muhim o‘rin tutadi, ammo ular bir-biridan ma’no jihatidan farq qiladi.

Yanada kengroq ma’noda aytiladigan bo‘lsa, fosh etish bu umumiy tergov amaliyoti natijalariga qaratilgan amaliyot bo‘lsa ochish bu alohida holat bo‘lib, to‘plangan dalillar asosida jinoyat sodir etgan shaxsni ochiqlash masalasidir.

Bu borada O.Y. Ismoilovning “Fosh etish-jinoyat yuz berganligini aniqlash bo‘lsa, ochish – uni sodir etgan shaxsni isbotlar orqali aniqlashdir” degan fikrni bergan, buning davomiy ta’rifini esa A.Q. Reyimbayev “Fosh etish tekshirish faoliyatiga taalluqli bo‘lib, ochish esa surishtiruv va tergov bilan bog‘liq” deb bergan. Bundan ko‘rinib turibdiki, fosh etish odatda dastlabki ma’lumotlar olinishi bilan boshlanadi, fosh etilganidan keyingina jinoyatni ochish jarayoniga o‘tiladi.

Nazarimizda, jinoyatni fosh etish va ochish masalasida olimlarning fikrlari hamda bugungi kun jinoyat qonunchiligida mavjud holatlarning o‘rganilishi va tahlillariga asoslanib o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning fosh etilmaganligiga sabab bo‘luvchi holatlar doirasi quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq:

- hodisa joyiga yetib borishning kechikkanligi yoki kech xabar berishlik;
- dalillar bilan ishlashning yetarli emasligi *(elektron dalillarni olish yoki saqlashdagi xatoliklar)*;

- guvohlar tomonidan ko‘rsatmalarning yetarli berilmasligi *(guvohlarni so‘roq qilishda tayyorgarlik ko‘rmaslik, savollarni aniq qo‘yilmasligi)*;
- texnologik vositalardan yetarli darajada foydalanilmaslik *(videokuzatuv yoki mobil qurilmalaridan olingan tasvirlarni to‘liq tahlil qilinmasligi)*;
- jinoyatchi shaxs tomonidan identifikatsiyani qiyinlashtruvchi taktika va texnikalarni qo‘llanilishi *(niqob taqish, iz qoldirmaslik)*;
- tashkiliy masalalar, resurs va kadr yetishmasligi *(tergov bo‘limlarining texnik jixozlari yoki tajribali xodimlarining yetishmasligi)*;
- jamoatchilikdagi salbiy ta’sirlar *(jinoyat sodir etilan joydagi odamlarning qo‘rqishi yoki jamoatchilik bosimi sababli guvoh yohud shohidlardan ma’lumot olishning qiyinligi)*;
- tergov bo‘limlaridagi integratsiya *(axborot almashinuvi)*ning yetarli emasligi;
- qidiruvdagi shaxslar *(xorijga chiqib ketgan shaxslar yoki migrantlarni ushlab keltirishning yetarlicha ta’minlanmasligi)*;
- sodir etilgan jinoyatlarni hisobga qo‘yishdagi xatoliklar yoki kamchiliklar *(jinoyatni ro‘yxatga olishni kechiktirilishi yohud ro‘yxatga olingan jinoyatlarni ish yurituviga o‘tkazilishining e’tibordan chetda qoldirilishi, xodimning loqaydligi)*;
- qasddan harakatsizlik *(tergovchining manfaatdor shaxsning iltimosiga ko‘ra dalillni yashirishi)*.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Р.С. Белкин. Курс криминалистики. Учебник. – Москва: Юристъ, 2007.
2. А.Н. Васильев. Расследование неочевидных преступлений. – Москва: Юнити-Дана, 2019.
3. С.А. Шейфер. Теория и практика раскрытия преступлений. – Москва: Юрлитинформ, 2020.
4. Т.Г. Михайлова. Латентная преступность: понятие, структура, методы выявления. – Воронеж, 2018.
5. А.С. Шабалина. Расследование организованных краж: криминалистический аспект. – Москва: Юстицинформ, 2016.
6. Н.П. Исаева. Механизм сокрытия преступлений и его преодоление. – Санкт-Петербург, 2013.

INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR VA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI NAZARIY ASOSLARI

Umarov Islom Alisherovich

O‘zbekiston Respublikasi HMQO Akademiyasi Magistratura tinglovchisi, katta leytenant

Annotatsiya. Mazkur maqolada intellektual texnologiyalarni yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash jarayoniga joriy etishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt, sensor tizimlar, videokuzatuv, raqamli signalizatsiya va ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlarining avtohalokatlarning oldini olishdagi samaradorligi yoritiladi. Avtonom boshqaruv tizimlari, transport oqimini optimallashtirish usullari hamda xavfsizlik darajasini baholash modellarining qo‘llanishi bo‘yicha ilmiy yondashuvlar keltiriladi. Tadqiqot natijalari intellektual transport tizimlarining rivojlanishi yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Intellektual texnologiyalar, yo‘l harakati xavfsizligi, sun’iy intellekt, transport tizimlari, sensorlar, videokuzatuv, raqamli boshqaruv, avtonom tizimlar, optimallashtirish.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of implementing intelligent technologies in road traffic safety systems. It highlights the effectiveness of artificial intelligence, sensor networks, video monitoring, digital signaling, and data-processing algorithms in preventing traffic accidents. Scientific approaches to the use of autonomous control systems, traffic-flow optimization methods, and safety-assessment models are presented. Research results demonstrate that the development of intelligent transportation systems plays a significant role in enhancing road traffic safety.

Keywords: Intelligent technologies, road traffic safety, artificial intelligence, transportation systems, sensors, video monitoring, digital control, autonomous systems, optimization.

So‘nggi yillarda transport tizimlarining murakkablashuvi, avtomobil sonining keskin ortishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi

yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashni global miqyosdagi ustuvor vazifalardan biriga aylantirdi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, yo‘l-transport hodisalari har yili millionlab insonlarning hayotiga zomin bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘qotishlarni keskin oshirmoqda[15]. Bunday sharoitda yo‘l harakati xavfsizligini faqat an’anaviy nazorat va boshqaruv usullari yordamida ta’minlash yetarli emasligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida intellektual texnologiyalar – sun’iy intellektga asoslangan tahliliy modellar, sensor tarmoqlar, “aqlli” yo‘l infratuzilmalari, yuqori aniqlikdagi geolokatsiya tizimlari, avtonom boshqaruv algoritmlari va katta ma’lumotlar *(Big Data)* texnologiyalari transport xavfsizligini oshirishning yangi avlod vositalari sifatida shakllandi. Mazkur texnologiyalar real vaqt rejimida transport oqimining tezligini, tirbandlik darajasini, xavfli yo‘l uchastkalarini va haydovchi xatti-harakatidagi o‘zgarishlarni aniqlash orqali xavfsizlikni prognoz qilish imkonini bermoqda.

Dunyo miqyosida “aqlli shaharlar” konsepsiyasi doirasida intellektual transport tizimlarining joriy etilishi yo‘l harakati xavfsizligini boshqarishda yangi nazariy yondashuvlar va amaliy mexanizmlarni talab qilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt asosida qurilgan boshqaruv modellarining ishonchliligi, xavfsizlik indikatorlarining matematik talqini, transport oqimining o‘zgaruvchan sharoitlarda barqarorligi, avtonom transport vositalarining ijtimoiy-huquqiy maqomi kabi masalalar ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishiga aylandi.

Shu bois ushbu tadqiqot intellektual texnologiyalarning yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashdagi nazariy asoslarini chuqur tahlil qiladi hamda transport tizimlarida zamonaviy innovatsion yondashuvlarning qo‘llanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Intellektual texnologiyalarning nazariy asoslari va yo‘l harakati xavfsizligidagi roli.

Intellektual texnologiyalar – bu insonning bilim, fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtirish, avtomatlashtirish va ma’lumotlarni qayta ishlash orqali samarali yechimlar yaratishga imkon beruvchi texnologiyalar to‘plamidir. Ushbu texnologiyalar sun’iy intellekt *(SI)*, mashina o‘rganishi, IoT *(Internet of Things)*, Big Data va kompyuter ko‘rishi kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.[16]

[15] WHO Global Status Report, 2018

[16] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-fevraldagi PF-6008-sonli farmoni.

Intellektual texnologiyalarning rivojlanishi bir necha bosqichdan iborat. An’anaviy dasturiy ta’minot belgilangan qoidalar va algoritmlar asosida ishlagan bo‘lsa, ekspert tizimlar soha mutaxassislarining bilimlarini tizimga kiritish orqali murakkab muammolarni hal qilgan. Keyingi bosqichda sun’iy intellekt va mashina o‘rganishi tizimlarga tajriba asosida o‘zini takomillashtirish va qarorlar qabul qilish imkonini berdi. Bugungi kunda IoT va Big Data integratsiyasi orqali real vaqt rejimida sensorlar va tarmoqlar orqali to‘plangan katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan qarorlar chiqarish mumkin.

Yo‘l harakati xavfsizligi sohasida intellektual va raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Avtomatlashtirilgan kuzatuv va monitoring tizimlari yo‘l harakati qoidalarini buzilishlarni aniqlash va real vaqt rejimida ogohlantirish imkonini beradi. Big Data va mashina o‘rganishi yordamida tirbandlik, avariya va xavfli hududlarni oldindan aniqlash, xavfsizlikni oshirish mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt va kompyuter ko‘rishi asosida avtonom transport vositalari xavfsiz harakatlanishni ta’minlaydi, IoT qurilmalari esa transport va yo‘l infratuzilmasini birlashtirib real vaqt rejimida ma’lumot almashish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, intellektual texnologiyalar yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish va transport infratuzilmasini samarali boshqarish imkonini yaratadi. Ushbu texnologiyalarni rivojlantirish va integratsiya qilish kelajakda avtomatlashtirilgan, xavfsiz va aqlli transport tizimlarini yaratishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Intellektual texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi va rivojlanish istiqbollari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham keng qo‘llanilmoqda. Ularning asosiy vazifasi murakkab tizimlarni boshqarish, insonning qaror qabul qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash va ma’lumotlardan samarali foydalanishni ta’minlashdir. Sun’iy intellekt, IoT, Big Data va kompyuter ko‘rishi kabi texnologiyalar sohada innovatsion yechimlar yaratish imkonini beradi, shu bilan birga xavfsizlik va samaradorlikni oshiradi.

Yo‘l harakati xavfsizligida intellektual texnologiyalar bir nechta asosiy yo‘nalishda ishlatiladi. Birinchidan, avtomatlashtirilgan kuzatuv

va monitoring tizimlari real vaqt rejimida qoidabuzarliklarni aniqlash va ularni oldini olish imkonini beradi. Ikkinchidan, Big Data va mashina o‘rganishi yordamida yo‘l-transport hodisalarining statistik tahlili amalga oshirilib, xavfli hududlar va tirbandliklar oldindan aniqlanadi. Uchinchidan, avtonom transport vositalari va kompyuter ko‘rishi texnologiyalari yo‘l harakatini avtomatlashtirish va xavfli vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. IoT tizimlari esa transport infratuzilmasi, qurilmalar va sensorlarni birlashtirib, ma’lumotlarni real vaqt rejimida almashish va yo‘l harakatini samarali boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga, intellektual texnologiyalarning rivojlanishi kelajakda transport tizimlarini yanada aqlli va xavfsiz qilish imkoniyatini beradi. Sun’iy intellekt yordamida tizimlar murakkab vaziyatlarni oldindan bashorat qilishi va o‘zini optimallashtirishi mumkin. IoT qurilmalari transport infratuzilmasini tarmoq orqali boshqarishga, Big Data esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Kompyuter ko‘rishi texnologiyasi esa vizual ma’lumotlardan foydalanib, obyektlarni aniqlash va xavfli vaziyatlarni tezkor aniqlash imkonini beradi.

Natijada, intellektual texnologiyalar yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish, transport tizimlarini avtomatlashtirish va infratuzilmani samarali boshqarish imkonini yaratadi. Bu esa kelajakda aqlli shaharlar, avtonom transport tizimlari va xavfsiz, samarali yo‘l harakati muhiti yaratishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba va O‘zbekiston qonunchiligi bilan solishtirish

Germaniya va Singapur yo‘l harakati xavfsizligida intellektual texnologiyalarni keng qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega. Germaniyada avtonom transport vositalari ma’lum hududlarda qonuniy ruxsat etilgan, ularni masofadan boshqarish va qo‘shimcha sug‘urta orqali nazorat qilish mexanizmi mavjud[17]. Shuningdek, sensorlar va kameralar yordamida xavfli hududlar aniqlanadi va yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga imkon beruvchi tizimlar ishlab chiqilgan. Singapurda esa Intelligent Transport Systems (ITS) va IoT asosidagi tizimlar real vaqt rejimida

[17] Federal Ministry of Transport and Digital Infrastructure, Germany, 2021

trafikni boshqaradi, avtonom transport vositalari “sandbox” modelida sinovdan o‘tkaziladi va xavfsizlik fraymvorki bilan qo‘llaniladi.[18]

O‘zbekiston qonunchiligida hozirda raqamli kuzatuv, videokameralar va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan.[19] Shu bilan birga, avtonom transportni tartibga soluvchi maxsus qonunlar mavjud emas. Ma’muriy javobgarlik kodeksi va jinoyat kodeksiga yo‘l harakati qoidalarini buzilish holatlariga oid yangiliklar kiritilgan, ammo, ilg‘or davlatlardagi kabi tizimli regulyator mexanizmlari va texnik nazorat imkoniyatlari cheklangan.

Shu asosda, O‘zbekiston uchun tavsiyalar: raqamli infratuzilmani kengaytirish, avtonom transportni sinovdan o‘tkazish uchun “sandbox” modeli joriy etish, texnik nazoratchilar va sug‘urta mexanizmini yaratish orqali xavfsizlikni oshirish. Bu choralar transport tizimini aqlli va xavfsiz qilishga xizmat qiladi.[20]

Xulosa. Mazkur tadqiqotda intellektual texnologiyalar va ularning yo‘l harakati xavfsizligini oshirishdagi roli nazariy jihatdan tahlil qilindi. Sun’iy intellekt, IoT, Big Data, kompyuter ko‘rishi va sensor tizimlar kabi texnologiyalar transport oqimini optimallashtirish, avtohalokatlarning oldini olish va xavfli hududlarni aniqlash imkonini berishi aniqlab olindi. Xorijiy tajribalar – Germaniya va Singapur misolida – avtonom transport tizimlari va raqamli boshqaruv vositalarini samarali integratsiya qilish orqali xavfsizlikni oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston qonunchiligi bilan solishtirilganda, mamlakatda raqamli kuzatuv va videokameralar asosida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan qadamlar mavjud, ammo, avtonom transport va tizimli regulyator mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Shu bois, raqamli infratuzilmani kengaytirish, “sandbox” sinov modellari va texnik nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, intellektual transport tizimlarini rivojlantirish kelajakda xavfsiz, avtomatlashtirilgan va aqlli transport muhiti yaratishga xizmat qiladi.

---

[18] Land Transport Authority, Singapore, 2020

[19] O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati qoidalari, Ma’muriy javobgarlik kodeksi, Jinoyat kodeksi, 2023

[20] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyuldagi 459-son qarori

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Health Organization (WHO). Global Status Report on Road Safety 2018. Geneva: WHO, 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-6008-sonli Farmon, 2020-yil 6-fevral. Avtonom transport va raqamli infratuzilmani joriy etish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar. Toshkent.

3. Federal Ministry of Transport and Digital Infrastructure, Germany. Autonomous Driving in Germany: Legal and Technical Frameworks, 2021.

4. Land Transport Authority, Singapore. Intelligent Transport Systems and Smart Mobility, Singapore, 2020.

5. O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati qoidalari, Ma’muriy javobgarlik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Toshkent, 2023.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 459-son qarori, 2021-yil 15-iyul. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha raqamli tizimlarni joriy etish. Toshkent.

7. Chen, L., & Huang, X. Intelligent Transportation Systems and Road Safety: A Review. Transportation Research Part C, 2020, Vol. 112, pp. 182–198.

8. Zhang, Y., & Wang, J. Big Data Analytics in Traffic Management. IEEE Transactions on Intelligent Transportation Systems, 2019, Vol. 20, No. 7, pp. 2451–2462.

9. Goodall, N. J. Machine Vision, IoT, and AI in Road Safety Applications. IEEE Intelligent Systems, 2021, Vol. 36, No. 5, pp. 32–41.

ZAMONAVIY RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA HUDUDLARNING KRIMINOGEN VAZIYATINI BAHOLASH VA PROGNOZ QILISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasining mustaqil izlanuvchisi
Qarshi shahar prokurori katta yordamchisi 2-darajali yurist

Anotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada hududlarning kriminogen vaziyatini aniqlash, baholash va prognoz qilishda sun’iy intellekt, GIS texnologiyalari, Big data tahlili, real vaqt monitoringi kabi innovatsion yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilingan. O‘zbekiston sharoitida “E-krimxarita”, “Kriminologik xavf xaritalari”, “Omillar reestri”, “Kriminologik signal tizimi” va “Kriminologik prognoz reytingi” kabi tizimlarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilgan. AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Janubiy Koreya va Singapur tajribalari asosida kriminologik prognozlashning innovatsion modeli taklif qilinadi. Tadqiqotda statistik, kriminologik, matematik modellashtirish va sun’iy intellekt metodlari uyg‘unlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: kriminologiya, jinoyatchilik, prognozlash, real vaqt monitoringi, xavf xaritalari, omillar reestri, sun’iy intellekt, GIS, reyting tizimi.

Аннотация. В данной научной статье глубоко анализируются теоретические и практические аспекты применения инновационных подходов, таких как искусственный интеллект, ГИС-технологии, анализ больших данных и мониторинг в режиме реального времени, для выявления, оценки и прогнозирования криминогенной обстановки регионов. Разработаны научно-теоретические основы внедрения таких систем, как “Электронная карта преступности”, “Карты криминологического риска”, “Регистр факторов”, “Система криминологических сигналов” и “Рейтинг криминологического прогноза” в условиях Узбекистана. Предложена инновационная модель криминологического прогнозирования, основанная на

опыте США, Великобритании, Канады, Южной Кореи и Сингапура. Исследование сочетает статистические, криминологические, математическое моделирование и методы искусственного интеллекта.

Ключевые слова: криминология, преступность, прогнозирование, мониторинг в режиме реального времени, карты рисков, регистр факторов, искусственный интеллект, ГИС, рейтинговая система.

Abstract. This scientific article deeply analyzes the theoretical and practical aspects of innovative approaches such as artificial intelligence, GIS technologies, big data analysis, real-time monitoring in identifying, assessing and forecasting the criminogenic situation of regions. The scientific and theoretical foundations of the implementation of systems such as “E-crime map”, “Criminological risk maps”, “Factors register”, “Criminological signal system” and “Criminological forecast rating” in the conditions of Uzbekistan have been developed. An innovative model of criminological forecasting is proposed based on the experience of the USA, Great Britain, Canada, South Korea and Singapore. The study combines statistical, criminological, mathematical modeling and artificial intelligence methods.

Keywords: criminology, crime, forecasting, real-time monitoring, risk maps, factor register, artificial intelligence, GIS, rating system.

Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi, urbanizatsiya jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jinoyatchilikning oldindan aytib bo‘lmaydigan yangi shakllari, ko‘rinishlari paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. An’anaviy statistik tahlil, retrospektiv kriminologik baholash va inson omili bilan bog‘liq subyektiv qarorlar zamonaviy tez o‘zgarayotgan kriminogen jarayonlarga yetarli darajada mos kelmayapti.

Kriminolog L. Sherman rivojlangan davlatlarda jinoyatchilikning oldini olishda proaktiv, bashoratli yondashuv – ya’ni jinoyat sodir bo‘lgandan keyin emas, balki sodir bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘lgan hudud va sharoitlarni oldindan aniqlash tamoyili tobora ustuvor yo‘nalish ekanligini ta’kidlaydi.

Xususan, jinoyatlarning ma’lum hududlarda ko‘proq takrorlanishini *(hot spots)* statistik dalillar bilan isbotlaydi va bu qonuniyatlar jinoyatlarni oldindan bashorat qilish imkonini berishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, jinoyatlar tasodifiy tarqalmaydi, balki aniq makon va vaqt doirasida muntazam ravishda to‘planib boradi. Shu bois politsiya resurslarini aynan ana shu “qizil nuqta” hududlarga yo‘naltirish samaradorlikni oshiradi.

Bundan tashqari, jinoyat sodir bo‘lishiga sabab bo‘ladigan omillarini o‘rganishga asoslangan “Risk Terrain Modeling” *(RTM)* yondashuvining ahamiyatini ko‘rsatadi. Ya’ni, jinoyatchiga emas, jinoyatga qulay sharoit tug‘diradigan hududlarga e’tibor qaratish yanada to‘g‘riroq strategiya ekanini ilmiy asoslaydi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda raqamli boshqaruv, jinoyatlarni onlayn statistik ro‘yxatga olish, aholiga interaktiv xizmatlar ko‘rsatish kabi yo‘nalishlar keng rivojlanmoqda. Ammo, kriminologik prognozlash jarayonida zamonaviy texnologiyalarni to‘liq integratsiya qilgan kompleks kriminologik monitoring tizimi hali shakllanmagan.

XXI asrda jinoyatchilikning global miqyosda murakkablashuvi, texnologiyalar rivoji, urbanizatsiya tezligi va ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanishi jamiyat xavfsizligiga bo‘lgan talabni keskin kuchaytirib yubordi. Hozirgi davr kriminologiya fanidan nafaqat sodir bo‘lgan jinoyatni tahlil qilishni, balki, uni oldindan aniqlash, xavf shakllanishi bosqichlarini prognozlash va profilaktika choralarini ilmiy asosda belgilashni talab etmoqda.

Shuning uchun ham raqamli kriminologiya, prediktiv analiz, sun’iy intellekt asosidagi xavf baholash va real vaqtli ogohlantirish tizimlari jahon tajribasining markazida turibdi[21].

An’anaviy statistik usullar jinoyatchilikni faqat natija sifatida ko‘rsatadi, ammo, uni keltirib chiqaruvchi jarayonlarni, hududiy, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik omillarning o‘zaro ta’sirini to‘liq ochib bera olmaydi.

Shu sababli zamonaviy davlatlar jinoyatchilikni boshqarishda raqamli texnologiyalarni asosiy vosita sifatida qo‘llamoqda. Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Janubiy Koreya singari mamlakatlar jinoyatlarni geografik axborot tizimlari *(GIS)*, “Crime heat map” xaritalari, kriminogen omillar monitoringi, real-time alert tizimlari va jamoatchilikka ochiq kriminologik statistik portallar orqali boshqarib kelmoqda[22].

[21] Perry, W. (2013). Predictive Policing: The Role of Crime Forecasting. RAND Corporation page 3.

[22] Lynch, J., Addington, L. (2022). Understanding Digital Crime Statistics. SAGE page 14.

O‘zbekiston uchun mazkur tizimlarning joriy etilishi ayni paytda nihoyatda muhim. Chunki, hududlar kesimida jinoyatlarning progressiv o‘sishi, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning kuchayishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning kengayishi, bandlik darajasining o‘zgaruvchanligi jinoyatchilik xavfini barqarorlashtirib turishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shundan kelib chiqib, jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimida “E-krimxarita”, “Kriminologik xavf xaritalari”, “Jinoyatga ta’sir qiluvchi omillar reestri”, “Kriminologik signal tizimi”, “Krimostat.uz”, hududlarning “Kriminologik prognoz reytingi” kabi integratsiyalashgan konseptual tizimlarni ishlab chiqish lozim.

Misol uchun, kriminologik xaritalash *(Crime Mapping)* – jinoyatlarning sodir bo‘lgan joyi, vaqti va intensivligini geografik nuqtalarda aks ettirish – jahon kriminologiyasining eng samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Los-Anjeles, Chikago, London, Parij, Seul, Singapur kabi shaharlar ushbu texnologiya orqali jinoyatchilikni 10–18% gacha kamaytirishga erishgan[23].

Mamlakatimiz “E-krimxarita”ni tashkil etish jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ishlarni mahalla darajasida, ko‘cha darajasida, kunlik statistika bo‘yicha real vaqtda aks ettirish imkonini beradi.

Masalan, bir tumanda tunda sodir bo‘ladigan talonchiliklar ko‘p, boshqa tumanda esa maishiy zo‘ravonlik holatlari yuqori bo‘lishi mumkin. “E-krimxarita” bu farqlarni aniq ko‘rsatadi.

Shuningdek, mazkur tizimlarning amaliyotga joriy etilishi profilaktika inspektorlarining joylashuvini optimallashtirishga, patrullarning aniq xavfli hududlarga yo‘naltirishga, jinoyat o‘choqlarini tez aniqlash imkonini berishga, resurslarni behuda sarflash oldi olinishga va jinoyatlarning joy va vaqt bo‘yicha turkumlashga imkon beradi.

Darhaqiqat, har qanday jinoyat muayyan sabablar majmuasining natijasidir. Farringtonning rivojlanish kriminologiyasi konsepsiyasiga ko‘ra, jinoyatning oldini olish uchun uni keltiruvchi omillarni aniqlash va boshqarish kerak[24].

Biroq, hozirgi kunga qadar mamlakatimizda to‘liq va tizimli “omillar reestri” *(jinoyat omillari bazasi)* mavjud emas.

[23] Eck, J. *(2018)*. Hotspot Policing and Crime Mapping. Oxford Press page 15.
[24] Eck, J. *(2018)*. Hotspot Policing and Crime Mapping. Oxford Press page 17.

Qayd etish joizki, jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillar reestri – hududdagi ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va kriminogen indikatorlarni tizimli qayd etuvchi bazadir.

Agar bunday jinoyatchillikka qarshi kurashishda, profilaktika qilishda omillar reestri yuritilmasligi jinoyatlar hududiy va vaqt bo‘yicha to‘planib qolishiga, “qizil nuqtalar” aniqlanmasdan qolishiga, qayta jinoyatchilik va takroriy huquqbuzarliklar oshishiga, huquqni muhofaza qilish faoliyati reaktiv xarakterga ega bo‘lib, profilaktika imkoniyatlari kamayishiga, ilmiy asosga ega bo‘lmagan qarorlar qabul qilinishiga, hududiy xavfsizlikni boshqarishda samaradorlik yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, omillar reestri jinoyatning kelib chiqish mexanizmini aniqlash, xavf shakllanishini erta bosqichda ko‘rsatish, prognoz algoritmlari uchun asos ma’lumot vazifasini bajarish, siyosiy va ijtimoiy qarorlar uchun real tahliliy kontent ishlab chiqarish uchun hamda ahamiyatlidir.

Biroq, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi 10 dan ortiq huquqni muhofaza qiluvchi organlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi o‘zining funksional vazifalari mavjud. Omillar reestrini ichki ishlar vazirliklari adliya vazirliklari, prokuratura, mahalliy hokimiyatlar, milliy statistika idoralari, akademik va tadqiqot institutlari universitetlar, kriminologiya markazlari va mustaqil tahlil markazlari va boshqa organlar shakllantiradi. Ular tergovga qadar tekshirish va dastlabki tergov harakatlari jarayonida, sud va jazoni ijro etish davrida aniqlangan jinoyatning sodir etilishiga sabab bo‘lgan omillar kiritib borishi mumkin.

“Jinoyatga ta’sir qiluvchi omillar reestri”ni shakllantirishda bir qator tizimli, huquqiy va texnik to‘siqlar mavjud. Avvalo, omillarni yig‘ish va qayd etish bo‘yicha aniq huquqiy vakolatlar belgilanmagani, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish talablari va idoralar o‘rtasida ma’lumot almashishning cheklanganligi jarayonni murakkablashtiradi.

Ikkinchi muammo – ma’lumotlar sifati bilan bog‘liqdir. Turli idoralar statistikasi bir-biriga mos emas, ayrim muhim omillar bo‘yicha ma’lumotlar muntazam yig‘ilmaydi, mezonlar esa bir xil emas. Texnik jihatdan esa idoraviy axborot tizimlarini integratsiya qilish uchun yagona platforma, standart kodlash va kuchli analitik infratuzilmaning yo‘qligi reestrni to‘liq shakllantirishga imkon bermaydi. Tashkiliy darajada ma’lumot

almashishdan bosh tortish, idoraviy manfaatlar, malakali mutaxassislar yetishmasligi va doimiy moliyalashtirishning barqaror emasligi sezilarli to‘siqlarni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, ayrim omillarni qayd etish stigmatizatsiya xavfini tug‘dirishi, etik va jamoatchilikka oid e’tirozlar yuzaga kelishi mumkin. Nihoyat, kriminogen omillar og‘irligini ilmiy asoslash, ularni dinamik ravishda yangilab borish va reestrga metodik yondashuvni shakllantirish ham eng murakkab masalalardan biridir.

Kanadaning “Community Safety and Well-Being Model”i *(2019)* aynan shunday omillar monitoringi orqali jinoyatchilikni 15% gacha kamaytirishga erishgan[25].

Dunyoning ko‘plab davlatlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar real vaqt rejimida ogohlantirish tizimidan foydalanadi. Bu tizim jinoyat xavfi oshgan hudud yoki demografik guruh haqida avtomatik signal yuboradi.

Misol uchun, agar bir hududda oilaviy nizolar 30% ga oshsa, bandlik darajasi pasaysa, ma’muriy ishlarda sudlanganlik ko‘pligi qayd etilsa, tizim avtomatik tarzda profilaktika xizmatlariga signal yuboradi.

Chikagodagi SSL *(Strategic Subjects List)* va Seulning Smart Policing tizimlari shu mexanizm asosida ishlaydi[26].

Mazkur tizimning samaradorligi shundan iboratki, jinoyat sodir bo‘lishidan avval profilaktika choralarini ko‘rish, xavf kuchaygan hududga qo‘shimcha xodim yuborish, jamoatchilikka tezkor xabar berish va resurslarni real ehtiyojga qarab taqsimlash imkoniyatini beradi.

Shunga ko‘ra, “Kriminologik signal tizimi”ni jinoyatchilikka qarshi kurashish, jumladan jinoyatlarni kriminooligik bashorat qilish sohasida joriy etish taklif etiladi.

“Kriminologik signal tizimi”ni jinoyatchilikka qarshi kurashish va jinoyatlarni kriminologik bashorat qilish jarayoniga joriy etishning bir qator o‘ziga xosliklari mavjud. Eng avvalo, bunday tizim jinoyatchilikning keskin o‘zgarishlarini, xavfli tendensiyalarni va hududiy “qizil nuqtalar”ni real vaqtga yaqin aniqlashga qaratilgan bo‘lib, u signal berish tamoyiliga asoslanadi. Tizimning asosiy xususiyati – u to‘plangan ma’lumotlar, kuzatuv ko‘rsatkichlari va kriminogen omillarning harakatiga tezkor javob berish imkoniyatini yaratadi.

[25] https://igchicago.org/wp-content/uploads/2020/01/OIG-Advisory-Concerning-CPDs-Predictive-Risk-Models-.pdf
[26] https://igchicago.org/wp-content/uploads/2020/01/OIG-Advisory-Concerning-CPDs-Predictive-Risk-Models-.pdf

Bu esa jinoyat sodir bo‘lishidan oldingi belgilarni payqash, xavf darajasini baholash, resurslarni hududlar bo‘yicha qayta taqsimlash va profilaktik choralarning aniq yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, signal tizimi oddiy statistik qayd emas, balki dinamik monitoringga asoslanadi: hududdagi shikoyatlar sonining ko‘payishi, bir xil turdagi hodisalar tezligi, xavf guruhiga mansub shaxslarning faolligi yoki mahalliy ijtimoiy muhitdagi salbiy o‘zgarishlar tizim tomonidan avtomatik tarzda “ogohlantirish signali” sifatida qayd etiladi.

Bu xususiyat tizimni kriminologik bashorat qilishning amaliy vositasiga aylantiradi, chunki, u jinoyat sodir bo‘lgandan keyin emas, balki sodir bo‘lishi kutilayotgan paytda aralashuvni rag‘batlantiradi.

Shu bilan birga, kriminologik signal tizimining joriy etilishi ma’lumotlar sifati va tezkorligi, idoralararo integratsiya, indikatorlar to‘g‘ri tanlanishi va signalning noto‘g‘ri ijobiy *(false positive)* yoki noto‘g‘ri salbiy *(false negative)* holatlar xavfini kamaytirish kabi maxsus talablarni qo‘yadi[27].

Tizim samarali ishlashi uchun kriminogen omillarni aniq belgilash, ularning og‘irligini ilmiy asoslash va monitoring jarayonini muntazam yangilab borish zarur. Natijada bunday tizim nafaqat jinoyatni bashorat qilish, balki, profilaktika, tezkor boshqaruv, resurslarni oqilona taqsimlash va xavfli hududlarni erta aniqlashda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ochiq statistika tamoyili xavfsizlik boshqaruvining ajralmas qismiga aylangan. London, Nyu-York, Parij, Singapur kabi shaharlarda aholiga real vaqtli jinoyat statistikasi oshkora taqdim etib borilmoqda.

Quinton *(2017)*ning tadqiqotlariga ko‘ra, bunday ochiqlik jamoatchilik ishonchini oshirish barobarida profilaktika ishlariga aholining jalb etilishini kuchaytirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining shaffofligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada politsiya tomonidan jinoyatchilik ko‘rsatkichlari data.police.uk platformasi orqali ko‘cha darajasidagi *(street-level)* jinoyatlar, stop and search ma’lumotlari taqdim etiladi[28].

---

[27] Sherman, L. *(2013)*. The Rise of Evidence-Based Policing: Targeting, Testing, and Tracking. Journal of the Scandinavian Studies in Criminology & Crime Prevention page 18.

[28] https://data.police.uk.

Yoki, Yevropa Ittifoqi davlatlarida jinoyat statistikasi bo‘yicha ma’lumot bazasini “eurostat” orqali kuzatib borish mumkin[29].

O‘zbekistonda data.egov.uz sayti mavjud bo‘lsada, unda jinoyatchilik haqidagi ma’lumotlar yillik yuritib boriladi.

Shu sababli, mamlakatimizda jinoyatchilik ko‘rsatkichlarni ochiq, shaffof va real vaqt rejimiga ko‘rsatib boruvchi “krimostat.uz” platformasi yaratish taklif etiladi.

“Krimostat.uz” platformasini amaliyotga joriy etish mahalla va tuman kesimida jinoyatlar statistikasini tahlil qilishda, xavf darajasi ranglar orqali avtomatik belgilashda, haftalik, oylik tahlillarni inson omilisiz amalga oshirishda, jamoatchilik uchun tavsiyalarni berib borishda va xavf kuchayganda ommaviy ogohlantirish kabi afzalliklarni beradi.

Shu bois “E-krimxarita”, “Omillar reestri”, “Kriminologik signal tizimi”, “krimostat.uz” va “Kriminologik prognoz reytingi” O‘zbekistonda jinoyatchilikni boshqarishning yangi innovatsion bosqichini boshlab beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Perry, W. *(2013)*. Predictive Policing: The Role of Crime Forecasting. RAND Corporation page 3.

2. Lynch, J., Addington, L. *(2022)*. Understanding Digital Crime Statistics. SAGE page 14.

3. Eck, J. (2018). Hotspot Policing and Crime Mapping. Oxford Press page 15.

4. Sherman, L. *(2013)*. The Rise of Evidence-Based Policing: Targeting, Testing, and Tracking. Journal of the Scandinavian Studies in Criminology & Crime Prevention page 18.

5. Sherman, L. *(2020)*. *Predictive Policing and Evidence-Based Crime Prevention*. Cambridge University Press.

6. Mohler, G. *(2015)*. *Randomized Controlled Field Trials of Predictive Policing*. JASA.

7. Ratcliffe, J. *(2019)*. *Intelligence-Led Policing*. Routledge.

8. Perry, W. *(2013)*. *Predictive Policing: The Role of Crime Forecasting*. RAND Corporation.

[29] https://ec.europa.eu/eurostat/web/crime/database

ПРОФИЛАКТИКА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ (МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Ражабов Умрбек Равшанбекович

Подполковник-начальник Управления по организации физической и боевой подготовки Департамента духовно-просветительской работы и обеспечения кадрами Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Очилов Наврўзбек Ўроқбой ўғли

Лейтенант-старший инспектор группы миграционной профилактики Управления профилактики правонарушений Службы общественной безопасности УВД Джизакской области

Аннотация. В статье рассматриваются международно-правовые основы и зарубежный опыт профилактики экономических преступлений в условиях глобализации. Особое внимание уделяется понятию транснациональной преступности, ее признакам и классификации в соответствии с документами Организации Объединённых Наций. Проанализированы многоуровневые системы международных соглашений, направленных на противодействие организованной преступности и коррупции, а также механизмы имплементации международно-правовых норм в национальное уголовное законодательство. Раскрыта роль международных конвенций и деклараций в формировании эффективных мер предупреждения экономических и коррупционных преступлений.

Ключевые слова: экономические преступления, транснациональная преступность, профилактика преступности, международное право, коррупция, отмывание денег, организованная преступность, международные конвенции, криминологическая профилактика, имплементация норм права

Обязанностью каждого государства является осуществление его уголовной юрисдикции по отношению к лицам, виновным в совершении международных преступлений. Такой вид преступности называется международной, или транснациональной.

Согласно п. 2 ст. 3 Конвенции ООН против транснациональной организованной преступности *(12–15 декабря 2000 г., Италия, г. Палермо)*, преступление носит транснациональный характер, если оно совершено:

а) более чем в одном государстве;

б) в одном государстве, но существенная часть его подготовки, планирования, руководства или контроля осуществлено в другом государстве;

с) в одном государстве, по при участии организованной преступной группы, которая осуществляет преступную деятельность более чем в одном государстве;

д) в одном государстве, но его существенные последствия имеют место в другом государстве.

Учитывая, что ни одна страна не может в одиночку успешно справиться с ростом международной преступности, в том числе экономической, мировое сообщество приняло ряд соглашений в этой области.

В ходе сотрудничества в сфере борьбы с преступностью государства пришли к вывод, что императивные нормы международного права порождают особую категорию обязательств государств в отношении не только других членов международной организации, но и всего международного сообщества.

Правовой основой противодействия транснациональной преступности является многоуровневая система международных соглашений и иных нормативных правовых актов, затрагивающая практически все сферы жизнедеятельности общества. На первом месте стоят международные договоры универсального характера *(например, Конвенция ООН по противодействию транснациональной организованной преступности)*; затем следуют международные документы регионального характера, в том числе принятые в рамках Совета Европы *(например, Европейская конвенция о пресечении терроризма – Страсбург, 27 января 1977 г.).* Третий уровень – это международные договоры субрегионального характера, в том числе принятые странами – членами СНГ *(например, Соглашение о сотрудничестве в борьбе с преступлениями в*

сфере экономики – Москва, 12 апреля 1996 г.), и двустороннего характера *(например, Соглашение между Правительством Российской Федерации и Правительством Королевства Норвегия о сотрудничестве в борьбе с преступностью – Москва, 26 мая 1998 г.)*. К четвертому уровню относится национальное законодательство – уголовное законодательство РФ и иные нормативные правовые акты РФ, касающиеся вопросов противодействия транснациональной преступности.

Согласно классификации ООН все транснациональные преступления подразделяются на 17 групп:

- отмывание денег;
- терроризм;
- кражи произведений искусства и предметов культуры;
- кража интеллектуальной собственности;
- незаконная торговля оружием;
- угон самолетов;
- морское пиратство;
- захват наземного транспорта;
- мошенничество со страховкой;
- компьютерная преступность;
- экологическая преступность;
- торговля людьми;
- торговля человеческими органами;
- незаконная торговля наркотиками;
- ложное банкротство;
- проникновение в легальный бизнес;
- коррупция и подкуп общественных и партийных деятелей, выборных лиц.

Выделяется несколько характерных черт транснациональных преступлений:

- осуществление в широких масштабах путем создания и эксплуатации рынков незаконных товаров и услуг *(Материалы VIII Конгресса ООН по предупреждению преступности и обращению с правонарушителями, Гавана, сентябрь 1990 г.)*;

- приобретение характера промысла, наличие системы защиты от социального контроля с использованием насилия, запугивания, коррупции, получение прибыли незаконным способом *(Итоговый документ Международного семинара ООН по вопросам борьбы с организованной преступностью, Суздаль, октябрь 1991 г.)*;
- проникновение в доходные законные виды деятельности, размывание граней между организованной преступностью и преступностью “белых воротничков” *(Доклад Генерального Секретаря ООН “Воздействие организованной преступности на общество в целом” на Второй сессии Комиссии по предотвращению преступности и уголовному правосудию ЭКОСОС, апрель 1993 г.)*;
- приобретение специальных навыков и профессионализма *(Справочный документ к Всемирной конференции на уровне министров внутренних дел “Об организованной транснациональной преступности”, Неаполь, ноябрь 1994 г.)*.

Лишь включение соответствующих положений международного права в национальное законодательство может гарантировать одну из наивысших степеней эффективности применения международно-правовых норм, поскольку, например, УК РФ предусматривает реальные санкции в отношении конкретных лиц, допускающих их нарушение.

Будучи включенными в уголовно-правовую систему страны, международно-правовые нормы не утрачивают связь с международным правом и в этом плане представляют специфическую часть уголовного права России – рецепированное уголовное право. Оно представляет собой систему принципов и норм международного права, инкорпорированных в российское уголовное законодательство. В эту систему входят: принципы экстерриториального действия уголовного закона; основания оказания правовой помощи или отказа от се предоставления запрашивающим государствам о выдаче преступников; признаки транснациональных преступлений и основания освобождения от уголовной ответственности за их совершение; правила толкования норм международного права в системе российского уголовного права.

Правило поведения, содержащееся в международно-правовом акте и перенесенное в национальный уголовный закон, остается международным обязательством государства.

Так, коррупция в современном мире не является сугубо внутренней проблемой одного государства, а носит международный характер. В связи с этим ратификация Российской Федерацией Конвенции ООН против коррупции *(февраль – март 2006 г.)*, Конвенции Совета Европы "Об уголовной ответственности за коррупцию" *(июль 2006 г.)* и ряда других международных соглашений по противодействию коррупции потребовала от государства приведения национального законодательства в соответствие со стандартами международных правовых документов в сфере противодействия коррупции.

Одними из первых международных документов в исследуемой сфере являются Декларация ООН "О борьбе с коррупцией и подкупом при международных коммерческих сделках" от 16 декабря 1966 г., а также резолюция Генеральной Ассамблеи ООН 3514 *(XXX)* от 15 декабря 1975 г., в которой осуждаются все виды коррупции, включая взяточничество, практикуемые транснациональными и другими корпорациями, их посредниками и другими причастными к этому сторонами в нарушение законов и правил принимающих сторон.

В 1989 г. пол эгидой ООН прошел международный семинар по проблемам коррупции в сфере государственного управления, результаты которого послужили серьезной предпосылкой для рассмотрения этой проблемы на VIII конгрессе ООН. В преддверии проекта резолюции этого конгресса Экономический и Социальный Совет высказал следующую рекомендацию: "Поскольку коррупция среди государственных должностных лиц может свести на нет потенциальную эффективность всех видов правительственных программ, затруднить развитие и создать угрозу для отдельных лиц и групп людей, в высшей степени важно, чтобы все государства:

- рассмотрели адекватность своего законодательства, включая процессуальные нормы и соответствующие санкции, чтобы реагировать на все виды коррупции;
- разработали административные механизмы и механизмы регулирования для предупреждения коррупции и злоупотреб-

ления властью, которые должны включать:

- разработку стратегий по борьбе с коррупцией в качестве особо приоритетных направлений планов экономического и социального развития, которые включали бы элементы по борьбе с коррупцией как неотъемлемую часть соответствующих программ;
- повышение общест-венной осведомленности о праве пользоваться государственными услугами и программами и обеспечение эффективных каналов для подачи жалоб;
- создание надлежащих внутренних процедур управления в правительственных учреждениях для борьбы с коррупцией;
- принятие мер в рамках правительственных учреждений для обеспечения отчетности, эффективных дисциплинарных мер и средств правовой защиты в отношении государственных служащих;
- при необходимости совершенствование банковских и финансовых правил и механизмов в целях предупреждения крупных переводов денежных средств, полученных в результате коррупции;
- установили процедуры выявления, расследования и привлечения к ответственности коррумпированных должностных лиц;
- разработали правовые положения для конфискации средств и имущества, приобретенных в результате коррупции, и применяли экономические санкции к предприятиям, причастным к коррупции".

Проблема борьбы с коррупцией специально обсуждалась и на VIII Конгрессе ООН по предупреждению преступности и обращению с правонарушителями *(Гавана, 1990 г.).* В резолюции, озаглавленной "Коррупция в сфере государственного управления", конгресс одобрил подготовленное Секретариатом ООН руководство "Практические меры борьбы с коррупцией" и призвал обеспечить его широкое распространение.

В 1996 г. была принята Декларация ООН о борьбе с коррупцией и взяточничеством в международных коммерческих операциях *(принята 16.12.1996 Резолюцией 51/191 на 86-ом пленарном заседании Генеральной Ассамблеи ООН)*, призывающая

внимательно рассмотреть проблемы, связанные с международными аспектами коррупции, особенно в отношении международной экономической деятельности, осуществляемой корпоративными организациями, связями между коррупцией и другими формами преступности, в частности организованной преступностью и экономической преступностью, включая отмывание денег.

Этой же Резолюцией был принят Международный кодекс поведения государственных должностных лиц *(приложение к Резолюции 1996 г.)*, который предусматривает принципы деятельности государственных должностных лиц:

- государственные должностные лица не используют свое официальное положение для неподобающего извлечения личных выгод или личных или финансовых выгод для своих семей. Они не участвуют ни в каких сделках, не занимают никакого положения, не выполняют никаких функций и не имеют никаких финансовых, коммерческих или иных аналогичных интересов, которые несовместимы с их должностью, функциями, обязанностями или их отправлением;
- в той мере, в какой к этому обязывает должность, и в соответствии с законами или административными положениями государственные должностные лица сообщают о деловых, коммерческих или финансовых интересах или о деятельности, осуществляемой с целью получения финансовой прибыли, которые могут привести к возможной коллизии интересов. В случае возможной или предполагаемой коллизии между обязанностями и частными интересами государственных должностных лиц, они действуют сообразно с мерами, установленными для того, чтобы уменьшить или устранить такую коллизию интересов;
- государственные должностные лица никогда не пользуются недолжным образом государственными денежными средствами, собственностью, услугами или информацией, полученной ими при исполнении или в результате исполнения ими своих служебных обязанностей, для осуществления деятельности, не связанной с выполнением ими официальных функций;
- государственные должностные лица действуют сообразно

с мерами, установленными законом или административными положениями, для того чтобы после ухода со своих официальных должностей они не злоупотребляли своим прежним служебным положением;

- государственные должностные лица в соответствии с занимаемым ими служебным положением и как это разрешено или требуется законом и административными положениями выполняют требования об объявлении или сообщении сведений о личных активах и обязательствах, а также, по возможности, сведения об активах и обязательствах супруга (супруги) и/или иждивенцев;
- государственные должностные лица не добиваются и не получают, прямо или косвенно, любых подарков или других знаков внимания, которые могут повлиять на выполнение ими своих функций, осуществление своих обязанностей или принятие решений;
- сведения конфиденциального характера, которыми располагают государственные должностные лица, хранятся в тайне, если национальное законодательство, исполнение обязанностей или потребности правосудия не требуют иного. Такие ограничения применяются также после ухода со службы;
- государственные должностные лица участвуют в политической или иной деятельности вне рамок их официальных обязанностей в соответствии с законами и административными положениями таким образом, чтобы не подрывать веру общественности в беспристрастное выполнение ими своих функций и обязанностей.

Список литературы:

1. Годунов И. В. Транснациональная организованная преступность в России: пути и формы противодействия: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. Рязань, 2002. С. 5.

2. Состоять к ГРЕКО могут не только государства – члены Сонета Европы, и постоянный рост числа участников – лишнее доказательство ее успеха. В настоящее время в группе 48 членов: 47 государств Европы и США *(подробнее см.: Group of States against Corruption. Официальный сайт: URL: hup://coe.int/t/dghl/nionitoring/greco/default_EN.asp?)*.

3. Официальный сайт Исполнительного комитета СНГ. URL: cis.minsk.by/page.php?id=14650.

4. См.:URL: vesti.kz/asia/58896/.

5. См.: Окинавская Хартия глобального информационного общества // Дипломатический вестник. 2000. № 8.

6. См.: Лунеев В. В. Десятый конгресс ООН но предупреждению преступности и обращению с правонарушителями, его место в истории конгрессов // Государство и право. 2000. № 9. С. 95-100.

7. Римский договор – международный договор об образовании европейских сообществ, подписанный в 1957 г. ФРГ, Францией, Италией, Бельгией, Нидерландами и Люксембургом, касающийся ликвидации ограничений на пути свободного передвижения людей, товаров, услуг и капитала.

8. Директива № 2001/29/ЕС Европейского парламента и Совета Европейского Союза “О гармонизации некоторых аспектов авторских и смежных прав в информационном обществе” *(принята в г. Брюсселе 22 мая 2001 г.)*. Директива вступила в силу 22 июня 2001 г., но на Россию свое действие не распространяет.

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNING IJTIMOIY-HUQUQIY TABIATI VA JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

E.E. Isayev

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqoti instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati hamda ularning jamoat xavfsizligiga ko'rsatayotgan ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif tomonidan voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining kelib chiqish sabablari sifatida oilaviy-maishiy muhit, ta'lim-tarbiya tizimidagi kamchiliklar, mahalla institutlari faoliyatidagi uzilishlar, raqamli axborot makonidagi xavf omillari, shuningdek, iqtisodiy va mafkuraviy omillar kompleks ravishda o'rganiladi. Maqolada "Yangi O'zbekiston" sharoitida qabul qilingan jamoat xavfsizligi va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid meyoriy-huquqiy hujjatlar tahlili asosida voyaga yetmaganlar ishtirokidagi huquqbuzarliklarni oldindan bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari asoslab beriladi. Tadqiqotda kriminologik, statistik, qiyosiy-huquqiy va sotsiologik uslublar qo'llanilgan bo'lib, ular orqali voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining jamoat tartibi, aholi xavfsizligi va mahalla miqyosidagi kriminogen vaziyatga ta'sir darajasi ochib beriladi. Muallif voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish, profilaktika subyektlari o'rtasidagi idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda profilaktika ishlarini erta ogohlantirish va manzilli yondashuv asosida tashkil etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, huquqbuzarliklar, ijtimoiy-huquqiy tabiat, jamoat xavfsizligi, kriminogen omillar, profilaktika, mahalla, oilaviy nazorat, raqamli axborot makoni.

So'nggi yillarda O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan islohotlar izchil va tizimli tus olmoqda. Jumladan, Prezident

Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”da xavfsizlikni ta’minlashda asosiy e’tiborni “oldilovchi profilaktika”, xavf omillarini erta aniqlash, mahalla darajasidagi hamkorlik va aholi bilan manzilli ishlashga qaratilgan davlat siyosati sifatida mustahkamlab qo‘yildi. Ushbu konseptual yondashuv “xavfsiz mahalla – barqaror milliy taraqqiyot” tamoyilini amaliyotga joriy etib, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarni, ayniqsa, yoshlar muhitidagi deviant xulq-atvor va huquqbuzarliklar manbalarini ilmiy tahlil qilishni dolzarb qilib qo‘ydi.

Konsepsiyada belgilab berilgan strategik yo‘nalishlar keyinchalik 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yanada rivojlantirilib, unda inson kapitali, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy barqarorlik va xavfsiz ijtimoiy muhit yaratish ustuvor maqsadlar sifatida ko‘rsatildi. Mazkur strategiya profilaktika siyosatiga “ijtimoiy xavflarni qisqartirish, yoshlar bilan ishlashni kuchaytirish, ta’lim-tarbiya va mahalla instituti orqali xavfsiz muhit shakllantirish” kabi vazifalarni integratsiya qilgan holda, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini jamoat xavfsizligiga ta’sir etuvchi muhim ijtimoiy-huquqiy muammo darajasida ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Aynan shu islohotlar mantiqiy davomi sifatida Prezidentning 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son qarori 2025-yilda har bir mahallada xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini samaradorligini oshirishni yilning markaziy ustuvor vazifasi etib belgiladi. Qarorda mahalla kesimida aniq maqsadli ko‘rsatkichlar, manzilli chora-tadbirlar va ijro uchun “yo‘l xaritalari”ni joriy etish orqali profilaktika faoliyatini “oldilovchi-manzilli-hisobdor” modelga o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Bu esa voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy sabablari *(oilaviy nazoratdagi muammolar, ta’lim-tarbiyadagi uzilishlar, tengdoshlar muhiti, raqamli makonda salbiy ta’sirlar)* hamda huquqiy shart-sharoitlarini chuqur o‘rganishni amaliyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega qiladi.

Shuningdek, 2024–2025-yillarda voyaga yetmaganlar profilaktikasini institutsional jihatdan kuchaytirish bo‘yicha maxsus choralar amalga oshirildi. Xususan, Milliy gvardiya tizimida bolalar bilan ishlash bo‘linmalari tashkil etildi, ta’lim muassasalari va mahallalarda

profilaktik ishlar olib boruvchi inspektor-psixologlar instituti kengaytirildi. Mazkur islohot mamlakatda voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish munosabati bilan 2025-yil fevralida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga tegishli o‘zgartishlar kiritilib, profilaktikaning huquqiy mexanizmlari yangilandi. Demak, bugungi kunda davlat siyosatining o‘zi voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini barvaqt aniqlash va uning ildiz sabablariga manzilli ta’sir qilishni jamoat xavfsizligini ta’minlashning asosiy sharti sifatida qo‘yayotganligi mazkur mavzuning naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur masalani ilmiy tadqiq etish jarayonida, avvalo, mamlakatimizda ushbu yo‘nalish bo‘yicha shakllangan ilmiy merosni tizimli o‘rganish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki “milliy huquqshunos olimlardan kimlar aynan voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etgan, ularning ilmiy yondashuvlari va xulosalari qanday ilmiy natijalarga olib kelgan?” degan savolni ilgari surish, bir tomondan, mavzuning nazariy manbalar doirasini aniq belgilashga, ikkinchi tomondan esa tahlilda ilmiy merosiylik va uzviylikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, mazkur yondashuv mavjud ilmiy qarashlar tahlili asosida yangi ilmiy xulosalar va amaliy takliflarni ishlab chiqish uchun muhim metodologik qadam hisoblanadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda o‘smir yoshidagi shaxslar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishi murakkab kompleks ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, uning kelib chiqishi jamiyatdagi turli ijtimoiy omillar va shart-sharoitlarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Jinoyat va huquqbuzarlikning “ijtimoiy-huquqiy tabiati” deganda, avvalo, voyaga yetmagan shaxs xulq-atvori shakllanishiga ta’sir etuvchi oilaviy-maishiy muhit, ta’lim-tarbiya jarayoni, tengdoshlar guruhining ta’siri, ommaviy axborot vositalari va raqamli axborot makoni kabi ijtimoiy omillar, shuningdek, ushbu omillar bilan bog‘liq huquqiy tartibga solish muammolari tushuniladi. Zero, yoshlar jinoyatchiligi ko‘p hollarda noqulay oilaviy muhit, ota-onalar va vasiylar tomonidan nazoratning yetarli darajada ta’minlanmasligi, ta’lim jarayonidagi uzilishlar, ta’lim muassasasiga bog‘liqlikning susayishi, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli va tarbiyaviy jihatdan to‘g‘ri tashkil etmaslik kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalariga koʻra, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining tabiatida ijtimoiy va psixologik omillar ustuvor oʻrin tutadi. Shuningdek, iqtisodiy tengsizlik, oila buzilishi, tarbiya va ta'lim tizimidagi kamchiliklar, mehnat va boʻsh vaqtni tashkil etishga doir infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi yoshlar orasida noqonuniy xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytiradi. Bizningcha, faqat jazo choralariga tayanish orqali voyaga yetmagan huquqbuzarlarga ta'sir koʻrsatish samara bermaydi aksincha, qonuniy tartib-taomillarni tarbiyaviy, ijtimoiy-psixologik va reabilitatsion choralar bilan uygʻunlashtirish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

Darhaqiqat, bugungi kunda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oʻziga xos jihati shundaki, ularning katta qismi jamiyatda qabul qilingan huquqiy va axloqiy meyorlarga zid boʻlgan deviant xulq-atvorning mantiqiy davomi sifatida shakllanadi. Amaldagi qonunchilikda qoʻllaniladigan "gʻayriijtimoiy xulq-atvor" kategoriyasi, aslida, umume'tirof etilgan odob-axloq meyorlariga zid turmush tarzi, xatti-harakatlar va qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Shu ma'noda, yoshlar orasidagi deviant xulq-atvor koʻp hollarda kelgusi huquqbuzarlikka olib boruvchi oʻziga xos "oʻtish bosqichi" yoki "koʻprik" vazifasini bajaradi. Ijtimoiy muhitdagi salbiy ta'sirlar (nazoratning susayishi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi, sodda ishonch, konformizm va h.k.) voyaga yetmagan shaxsning psixik rivojlanishidagi omillar (emotsional beqarorlik, impulsivlik, mustaqil qaror qabul qilish koʻnikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi) bilan uygʻunlashishi natijasida "tipik voyaga yetmagan huquqbuzar"ning qiyofasi yuzaga keladi.

Shu oʻrinda, bugungi kunda mamlakatda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish masalasi jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat-ijroiya huquqi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ustuvor ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanmoqda. Bu yoʻnalishdagi tadqiqotlar, avvalo, voyaga yetmaganlarga nisbatan davlatning jinoyat-huquqiy siyosati insonparvarlashuvi, profilaktikaning eng erta bosqichlarida huquqiy ta'sir choralarini kuchaytirish hamda jazoni ijro etish jarayonida qayta ijtimoiylashtirishni izchil ta'minlashga qaratilgan yaxlit tizimni ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Xususan,jinoyat-huquqiyinstitutlarningprofilaktiksalohiyatinitakomil-lashtirish maqsadida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, Z.Y. To‘rabayevaning “Voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsion ishida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning moddiy-huquqiy asoslari, shuningdek, sud amaliyotida ushbu institutni qo‘llash mezonlari tahlil etiladi. Muallif ushbu institutni faqat jazoni yengillashtirish vositasi emas, balki shaxsni qayta tarbiyalash va ijtimoiy reintegratsiya qilishga qaratilgan yakka profilaktikaning muhim huquqiy mexanizmi sifatida talqin qilish konsepsiyasini ilgari suradi. Bu yondashuv jinoyat-huquqiy choralarni profilaktikaning individual shakli bilan chambarchas bog‘lash zaruratini ko‘rsatadi. Sh.O. Azimning fikricha esa voyaga yetmaganlarni jinoiy muhitga tortish va ularni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etishga qarshi qonuniy ta’sir choralarini kuchaytirish masalalari “Voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilishga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy choralari” mavzusidagi tadqiqotida yoritilgan. Muallif jalb etish qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasi, uning sabab-omillari hamda jinoyat tarkibining profilaktik potensialiga alohida e’tibor qaratib, jalb etuvchi shaxslarning ta’sirini erta neytrallashtirish, javobgarlikni differensiallashtirish va kvalifikatsiya belgilarini aniqlash orqali yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasini kuchaytirish zarur, degan xulosaga keladi. Shuningdek, N.O. Ashurova bo‘lsa o‘zining “Voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etganlik uchun jinoiy javobgarlik” nomli tadqiqot ishida aynan voyaga yetmagan shaxslarni g‘ayriijtimoiy harakatlarga jalb etishning turli shakllarini mustaqil kriminalizatsiya obyekti sifatida takomillashtirish, javobgarlikni aniq va o‘lchab bo‘ladigan mezonlar asosida belgilash, shu orqali amaldagi normalarni profilaktik to‘siq sifatida kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqadi. Shu tariqa, mazkur tadqiqotlar guruhi jinoyat-huquqiy institutlarni “barvaqt to‘xtatish” va “jinoiy xulq-atvor trayektoriyasini uzish”ga xizmat qiluvchi yakka profilaktika vositalari sifatida talqin qilish uchun nazariy poydevor yaratadi.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq huquqbuzarlik-arning kriminologik tavsif va profilaktik modellashtirish masalalari

B.A. Umirzaqovning “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishida markaziy o‘rinni egallaydi. Muallif yondashuviga ko‘ra voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini determinatsiya qiluvchi omillar tizimi, uning tuzilishi va dinamikasini empirik ma’lumotlar asosida ochib beradi hamda profilaktik ta’sirning umumiy, maxsus va yakka darajalarini o‘zaro uyg‘unlashtirish zaruratini ilmiy asoslaydi. Mazkur xulosalar voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasini “yagona tizim” sifatida ko‘rish, profilaktikaning barcha turlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni aniqlash va ularni kompleks modelda ifodalash uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Bundan tashqari, jinoyat-ijroiya bosqichida esa profilaktik maqsadni ta’minlashga qaratilgan ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, A.A. Saydulloyevning “Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish: Tojikiston va O‘zbekiston qonunchiligi va amaliyotining qiyosiy tahlili” mavzusidagi avtoreferatida jazoni ijro etish jarayonidagi tarbiyaviy-reabilitatsion mexanizmlar, huquqiy kafolatlar va resotsializatsiya choralari qiyosiy tahlil etiladi. Muallif bu tizimni ikkilamchi profilaktikaning institutsional qismi sifatida takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari suradi. S.S. Kulturayeva bo‘lsa o‘zining “Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishni takomillashtirish” mavzusidagi tadqiqot ishida esa tarbiya koloniyalarida individual tarbiya va psixologik yordam dasturlarini kuchaytirish, postpenitensiar nazorat va yordam mexanizmlarini kengaytirish orqali qayta jinoyatchilik xavfini kamaytirish yo‘llari ilmiy jihatdan asoslanadi. Demak, jazoni ijro etish jarayoni va ozodlikka chiqqan voyaga yetmaganlarning reintegratsiyasi butun profilaktika tizimining yakunlovchi bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa ularni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli qaytarish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy kafolatlar majmuasini yanada kuchaytirish va takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy ishlar mazmuni, umuman olganda, milliy kriminologiya maktabida avvaldan shakllangan nazariy va amaliy konsepsiyalar hamda ilmiy yondashuvlarga suyangan holda ilgari surilganini ko‘rsatadi. Jumladan, I. Ismoilov o‘zining “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi”

monografiyasida profilaktikaning tushunchalari, turlari va subyektlari *(umumiy, maxsus, yakka)* yagona klassifikatsiyada bayon etilgan bo‘lib, profilaktika ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish va shaxsga manzilli ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladigan kompleks institut sifatida talqin etiladi. N.T. Ismoilov esa “Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining individual oldini olish muammolari” mavzusidagi tadqiqot ishida esa yakka profilaktika alohida voyaga yetmagan shaxsning xulq-atvor trayektoriyasini tuzatishga qaratilgan pedagogik, psixologik va huquqiy texnologiyalar tizimi sifatida asoslanadi; uning maqsad, subyekt va usullari aniqlashtiriladi.

Bundan tashqari, “Kriminologiya” darsligining umumiy qismida yoshlar va voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining umumiy profilaktikasining institutsional modeli ishlab chiqilib, profilaktika subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik davlat-jamoat mexanizmi sifatida yoritiladi. S.B. Xo‘jaqulovning umumiy profilaktikaga bag‘ishlangan monografiyasida bo‘lsa profilaktikaning huquqiy-tashkiliy vositalari, subyektlar o‘rtasidagi funksional hamkorlik va idoralararo aniq tizim, qoidalar va mexanizmlar asosida tashkil etiladi deb bayon etilgan.

Bizningcha, yuqorida tahlil qilingan asarlar voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasini turli kesimlarda *(jinoyat-huquqiy, kriminologik, jinoyat-ijroiya, umumiy profilaktika)* yoritib beradi, ammo “voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati va jamoat xavfsizligiga ta’siri” degan kompleks tushunchani hali to‘liq, yaxlit tizim sifatida qamrab olmaganini ko‘rsatadi.

Avvalo, jinoyat-huquqiy institutlarning profilaktik salohiyati Z.Y. To‘rabayeva, Sh.O. Azim va N.O‘. Ashurova ishlarida chuqur yoritiladi. Z.Y. To‘rabayeva voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishga oid qonunchilikni tahlil qilar ekan, moddiy-huquqiy asoslar va sud amaliyotida ushbu institutni qo‘llash mezonlarini ochib beradi hamda ushbu institutni shaxsni qayta tarbiyalash va ijtimoiy reintegratsiya qilishga xizmat qiladigan individual profilaktika vositasi sifatida baholashga imkon beruvchi xulosalarga keladi. Sh.O. Azimning tadqiqotida esa voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish jinoiy tarkibining ijtimoiy xavflilik darajasi, sabab-omillari va jinoyat tarkibi profilaktik potensiali alohida tahlil etilib, jalb etuvchi shaxslar ta’sirini erta neytrallashtirish, javobgarlikni

differensiallashtirish orqali yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasini kuchaytirish zarurati ilgari suriladi. N.O‘. Ashurova o‘z ishida voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etganlik holatlarini mustaqil kriminalizatsiya obyekti sifatida takomillashtirish, javobgarlikni aniq mezonlar asosida belgilash zaruratini asoslaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu uchlik ishlar jinoyat-huquqiy choralarni “barvaqt to‘xtatish” va “jinoiy xulq-atvor trayektoriyasini uzish”ga qaratilgan yakka profilaktika vositalari sifatida talqin etish imkonini beradi, lekin huquqbuzarliklarning kengroq ijtimoiy sabab-sharoitlari, jamiyatdagi deviant muhit va jamoat xavfsizligi tizimiga tizimli ta’sir masalasini ikkinchi planda qoldiradi.

Ikkinchidan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va uning oldini olish masalalari B.A. Umirzaqovning “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish” nomli dissertatsiyasida markaziy o‘rinni egallaydi. Muallif jinoyatchilikni determinatsiya qiluvchi omillar tizimini, uning tuzilishi va dinamikasini empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilib, umumiy, maxsus va yakka profilaktika darajalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi zarurligini ilmiy asoslaydi. Shu boisdan, ushbu ishda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati, avvalo, kriminogen muhit, oila, ta’lim muassasasi va mahalla kabi ijtimoiy institutlar bilan bog‘liq omillar orqali yoritiladi, ammo jamoat xavfsizligi tushunchasi alohida kategoriya sifatida emas, umumiy kriminologik fonida ko‘rib chiqiladi.

Uchinchidan, jinoyat-ijroiya bosqichidagi profilaktik vazifalar A.A. Saydulloyev va S.S. Kulturayeva ishlarida chuqur tadqiq etilgan. A.A. Saydulloyev Tojikiston va O‘zbekiston qonunchiligi va amaliyotini qiyosiy tahlil qilish orqali voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etishda tarbiyaviy-reabilitatsion mexanizmlar, huquqiy kafolatlar va resotsializatsiya choralarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi. S.S. Kulturayeva esa tarbiyakoloniyalaridaindividualtarbiyavapsixologikyordamdasturlarini kuchaytirish, bolalar ombudsmani institutining nazorat vakolatlarini kengaytirish hamda probatsiya nazoratidagi voyaga yetmaganlarni ijtimoiy moslashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni taklif etadi. Bizningcha, bu ishlar jazoni ijro etish va postpenitensiar bosqichni “ikkilamchi profilaktika”ning muhim bo‘g‘ini sifatida ochib beradi,

lekin voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining jamoat xavfsizligiga *(masalan, mahalla xavfsizlik muhiti, qayta jinoyatchilik dinamikasi, profilaktika subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik)* tizimli ta’sirini yumshoq shaklda, ilovaviy yo‘nalishda qamrab oladi.

To‘rtinchidan, milliy kriminologiya maktabida profilaktikaning umumiy nazariy poydevori I. Ismoilov, N.T. Ismoilov, “Kriminologiya” darsliklari va S.B. Xo‘jaqulovning umumiy profilaktikaga oid ishlarida shakllanganini ko‘ramiz. I. Ismoilov “Kriminologiya. Maxsus qism” darsligida balog‘atga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasini yoritar ekan, profilaktik faoliyatni ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish va shaxsga manzilli ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan kompleks institut sifatida talqin etadi.[7] N.T. Ismoilov esa voyaga yetmaganlar jinoyatlarining individual oldini olish muammolarini o‘rganib, yakka profilaktik ishning maqsad, subyekt va usullarini aniqlaydi hamda yakka profilaktikani shaxs xulq-atvor trayektoriyasini tuzatishga qaratilgan pedagogik, psixologik va huquqiy texnologiyalar tizimi sifatida asoslaydi. “Kriminologiya” umumiy qismiga oid darsliklarda yoshlar va voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari umumiy profilaktikasining institutsional modeli, profilaktika subyektlari o‘rtasidagi davlat-jamoat hamkorlik mexanizmi shakllantirilgan. S.B. Xo‘jaqulov esa “Huquq-buzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish” monografiyasida profilaktikaning huquqiy-tashkiliy vositalari, profilaktika subyektlari o‘rtasidagi funksional hamkorlik va idoralararo mexanizmlarni alohida tizim sifatida asoslaydi. Bizning fikrimizcha, mazkur ishlar profilaktik faoliyatning institutsional asoslarini, jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq yo‘nalishlarni to‘liq ochib bersa-da, “voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati”ni alohida kategoriya sifatida ta’riflash, uning jamoat xavfsizligi tizimiga ta’sirini o‘lchash meyorlarini ishlab chiqishga to‘laqonli bag‘ishlanmagan.

Shu nuqtai nazardan, bizningcha, ko‘rib chiqilgan manbalarda ijtimoiy-huquqiy tabiat masalasini asosan alohida elementlar kesimida – jinoyat-huquqiy institutlar *(jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jalb qiluvchi shaxslarga javobgarlik),* kriminogen omillar tizimi, jazoni ijro etishdagi tarbiyaviy-reabilitatsion mexanizmlar va umumiy profilaktika institutlari orqali yoritsa, aynan jamoat xavfsizligiga ta’sirni esa, ko‘proq, umumiy

kriminologik xavfsizlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi, qayta jinoyatchilikning kamayishi kabi indikatorlar orqali bilvosita yoritadi, biroq “jamoat xavfsizligi”ni mustaqil tahliliy kategoriya sifatida *(masalan, xavfsizlik muhiti, hududiy xavf xaritalari, profilaktika subyektlari klasterlari va h.k.)* kompleks tarzda modellashtirishga to‘la yo‘naltirilmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu bois, bizning fikrimizcha, mazkur tadqiqot ishida “voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati va jamoat xavfsizligiga ta’siri”ni alohida ilmiy kategoriya sifatida shakllantirish, shuningdek, uning struktura elementlarini *(ijtimoiy muhit, huquqiy maqom, profilaktika subyektlari, xavfsizlik indikatorlari va h.k.)* aniqlash hamda mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda huquqbuzarlik–ijtimoiy muhit–jamoat xavfsizligini o‘zaro bog‘liqligini yaxlit modelda asoslash ilmiy yangilik va qo‘shimcha qiymat beradi.

Yuqorida yoritilgan huquqshunos olimlarning ilmiy nazariy qarashlarning nazariy tahlilidan tashqari, rivojlangan davlatlarning tajribasini ham ilmiy tahlillar asosida o‘rganib o‘tsak maqsadga muvofiq. Xususan, bugungi kunda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiatiga doir qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina davlatlarda mazkur hodisa, avvalo, bolaning shaxsiy rivojlanishi, oilaviy va ijtimoiy muhit nuqsoni, ta’lim-tarbiya tizimidagi kamchiliklar, kambag‘allik, zo‘ravonlik va nazoratsizlik kabi omillar bilan bog‘liq ijtimoiy muammo sifatida, shu bilan birga, huquqiy javobgarlik va jinoyat-protsessual munosabatlarni vujudga keltiruvchi hodisa sifatida kompleks talqin etiladi. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasida bola har qanday insonning o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi bilan belgilanib, uning shaxsiy xavfsizligi, zo‘ravonlikdan himoya qilinishi, ijtimoiy reintegratsiya va qayta tarbiya qilish davlatning asosiy majburiyati sifatida e’tirof etilgani, bolalarga nisbatan jazo emas, balki tarbiyaviy ta’sir choralari ustuvor qo‘llanilishi lozimligi qayd etiladi. Shu bois, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining ijtimoiy-huquqiy tabiati Konvensiyada farzandning shaxsiy aybiga qisman bog‘liq bo‘lgan, biroq asosan jamiyat va davlat tomonidan zarur sharoitlarni ta’minlashdagi kamchiliklar orqali shakllanadigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda yangi O‘zbekiston qonunchiligida ham mazkur yondashuv mavjudligini qonunchilik mazmunida kuzatishimiz mumkin. Xususan, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda bolaning yashash, rivojlanish, ta’lim olish, zo‘ravonlik va odob-axloqqa zid munosabatlardan himoya etilish huquqlari alohida kafolatlanib, davlat organlari, ota-onalar va jamiyatning umumiy majburiyati sifatida belgilab qo‘yiladi. “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda esa nazoratsizlik, deviant xulq-atvor, oilaviy va maktab tarbiyasidagi kamchiliklar voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining asosiy determinantlari sifatida qayd etilib, ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari, vasiylik va homiylik organlari, mahalla, NNTlar o‘rtasidagi hamkorlik asosida erta profilaktika tizimi shakllantirilgan.

Bundan tashqari, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun mazkur yondashuvni butun jamiyat miqyosida umumlashtirib, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini umumiy profilaktika, individual profilaktika va viktimologik profilaktika tizimi orqali bartaraf etishni nazarda tutadi. Xususan, 2024 yilda qabul qilingan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda esa bolaga nisbatan fizik, jinsiy, ruhiy zo‘ravonlikka qo‘shimcha ravishda yetarlicha parvarish qilmaslik, ekspluatatsiya va bulling ham huquqbuzarlik determinanti sifatida belgilab, davlatning profilaktik, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va reabilitatsiya majburiyatlari kuchaytirilgani voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining ijtimoiy-huquqiy tabiati qonun darajasida yanada to‘liq ochib berilmaganidan dalolat beradi. Bizning fikrimizcha, yangi O‘zbekistonda ushbu blok qonunlar voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar *(nazoratsizlik, zo‘ravonlik, ijtimoiy zaiflik)* bilan jinoyat-huquqiy oqibatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir tizimda huquqiy mustahkamlagan bo‘lib, “ijtimoiy-huquqiy tabiat” tushunchasini milliy darajada zamonaviy mazmun bilan yetarli mazmunda to‘ldirilmagan.

Shu o‘rinda, Rossiya Federatsiyasida 24.06.1999-yilda qabul qilingan 120-FZ-sonli “Benazirlik va voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining profilaktikasi tizimining asoslari to‘g‘risida”gi Federal qonun voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligiga ularning ijtimoiy xavfli vaziyati, oilaviy nazoratsizlik, ta’lim va mehnat sohasidagi muammolar, media-

muhit ta’siri bilan bog‘liq kompleks ijtimoiy hodisa sifatida yondashadi. Qonunda “ijtimoiy xavfli vaziyatdagi bola” atamasi huquqbuzarlik sodir etilgan-etilmaganiga qaramasdan, yosh shaxsni himoyaga muhtoj subyekt sifatida belgilab, profilaktika tizimining asosiy vazifasi chaqiriq va jazo emas, balki ijtimoiy reabilitatsiya, oilaviy muhitni yaxshilash va ta’lim-tarbiyani normallashtirish ekanini huquqiy mustahkamlaydi. Bunday yondashuv voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini, avvalo, ijtimoiy xavfli sharoitlarning oqibati sifatida ko‘radi, huquqiy reaksiya esa ushbu holatni bartaraf etish vositasi sifatida tushuniladi.

Qozog‘iston Respublikasining 09.07.2004-yildagi “Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining profilaktikasi va bolalar nazoratsizligi hamda qochqinligining oldini olish to‘g‘risida”gi Qonunida ham o‘xshash konsepsiya qabul qilingan bo‘lib, davlat organlari, ta’lim-tarbiya muassasalari va ijtimoiy xizmatlar zimmasiga deviant xulq-atvorning oldini olish, oilaviy nazoratni mustahkamlash, bolalar qochqinligi va ko‘chada qolishining oldini olish kabi vazifalar yuklatilgan. Bu orqali Qozog‘iston qonunchisi voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini faqat jinoyat-huquqiy kategoriya emas, balki bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimida hal etiladigan muammo sifatida talqin qiladi.

Germaniyada “Jugendgerichtsgesetz” *(JGG – Yoshlar sudlari to‘g‘risidagi Qonun)*da voyaga yetmagan shaxsning jinoiy javobgarligi uning axloqiy-intellektual yetuklik darajasiga qarab baholanishi, jazoni belgilashda esa shaxsning ijtimoiy integratsiya imkoniyatlari va qayta tarbiya qilish ehtiyoji ustuvor hisobga olinishi nazarda tutilgan. Shu tariqa, Germaniya qonunchiligida ham yoshlar jinoyatchiligi shaxsning rivojlanish bosqichi va ijtimoiy muhit bilan dialektik bog‘liq qonunbuzarlik turi sifatida ko‘rilib, maxsus sudlar, yoshlar idoralari va ijtimoiy xizmatlar ishtirokida kompleks tarzda hal etiladi.

Fransiyada 2.02.1945-yilgi “Enfans delinkant haqida”gi Ordonans va uni almashtirgan 2021-yildan amal qilayotgan “Code de la justice pénale des mineurs” *(CJPM)*da voyaga yetmaganlar adliyasida “jazodan ko‘ra tarbiya ustuvorligi”, “judayoshlik sababli mas’uliyatni yengillashtirish” va “ixtisoslashgan sudlar tizimi” kabi prinsiplar mustahkamlangan. Bu yerda yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar ijtimoiy-huquqiy tabiatga ega, ya’ni shaxsning ijtimoiy inqirozi, oilaviy va maktab muhitining inqirozi sifatida talqin qilinib, sud qarorlari tarbiyaviy

choralar *(insersiya, reabilitatsiya, sog‘liqni tiklash, jamiyatga qayta qo‘shish)* bilan uyg‘unlashtiriladi.

Buyuk Britaniya qonunchiligida “Crime and Disorder Act 1998”ning 37-moddasi yoshlar adliyasi tizimining asosiy maqsadi “bolalar va o‘smirlar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish” ekanini belgilasa, “Children Act 1989”da bola manfaatlari sud qarorlarida “eng ustuvor mezon” sifatida qayd etilgan. Bizningcha, ushbu ikki qonun yoshlar jinoyatchiligini jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida tan olgan holda, uning ijtimoiy-huquqiy tabiatini, avvalo, bolaning huquq va manfaatlarini ta’minlash orqali bartaraf etish lozimligini ko‘rsatadi: profilaktikaning bosh mezoni – bolaning farovonligi va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash.

AQShda “Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act” *(JJDPA)* federal qonunining to‘rtta asosiy himoya talablari *(status-huquqbuzarlarni institutsionallashtirmaslik, kattalar turmalaridan ajratish, “sight and sound” tamoyili va irqiy-etnik notenglikni kamaytirish)* voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini, birinchi navbatda, ijtimoiy xavfli holat va davlatning tegishli sharoit yarata olmaganligi bilan bog‘liq muammo sifatida ko‘rishga qaratilgan. Mazkur qonun bolalarni kattalar turmalaridan himoya qilish, status-huquqbuzarliklar bo‘yicha *(masalan, dars qoldirish, uydan qochish, komendantlik soatini buzish)* jinoyat-huquqiy emas, balki, ijtimoiy-tarbiyaviy choralarni qo‘llash orqali qayta sotsiallashtirishni talab etadi.

Shvetsiyada “Act on Young Offenders *(1964:167, LUL)*” va “Social Services Act *(2001:453)*” yoshlar jinoyatchiligiga nisbatan fuqarolik jamiyati va farovonlik davlatining o‘ziga xos modeliga asoslangan bo‘lib, yosh huquqbuzarning javobgarligi individual baholanishi, asosiy choralar esa probatsiya, ijtimoiy xizmatlar, psixo-ijtimoiy yordam va oilaviy qo‘llab-quvvatlash shaklida qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar bu yerda bolaning rivojlanishidagi muammolar, ijtimoiy va psixik qiyinchiliklarning huquqiy ifodasi sifatida ko‘riladi va shu sababli qonun ijroyotida jazodan ko‘ra reabilitatsiya ustuvor qo‘llaniladi.

Norvegiyada ham 1992-yilgi “Child Welfare Act” va 2014-yildan amalda bo‘lgan “youth punishment” hamda “youth follow-up” sanksiyalari yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarga restorativ

adliya tamoyillari asosida yondashadi: o‘n besh yoshgacha bo‘lgan bolalarga nisbatan jinoiy jazo emas, balki, bolalar farovonligi xizmati orqali majburiy tarbiya va ijtimoiy yordam choralari qo‘llaniladi. Bu esa voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini, avvalo, bolaning huquq va manfaatlari ta’minlanmagani, oilaviy va ijtimoiy muhitdagi jiddiy nuqsonlar oqibati sifatida ko‘rishga asoslanadi.

Shu tariqa, qiyosiy huquqiy tahlildan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Shvetsiya va Norvegiya kabi davlatlarning qonunchiligida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar odatda, uch tomonlama kategoriyada talqin etiladi:

1) ijtimoiy tabiat – oilaviy, maktab va keng ijtimoiy muhitdagi kamchiliklar natijasi;

2) huquqiy tabiat – jinoyat-huquqiy yoki ma’muriy-huquqiy normalarni buzish sifatida;

3) muhofaza-forovonlik tabiati – bolani zo‘ravonlik, nazoratsizlik va kamsitishdan himoya qilish tizimini kuchaytirish zarurati.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy-nazariy qarashlar hamda milliy va xorijiy qonunchilikka oid qiyosiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar jinoyat-huquqiy yoki ma’muriy normalarni buzish bilan cheklanmaydigan, balki jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, oilaviy nazoratsizlik, ta’lim va tarbiya tizimidagi kamchiliklar, raqamli makondagi salbiy ta’sirlar bilan shartlangan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasida bolaga nisbatan munosabatda jazodan ko‘ra tarbiyaviy, reabilitatsion va reintegratsion yondashuv ustuvor etilishi lozimligi ta’kidlanishi, shuningdek, Rossiya, Qozog‘iston, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Shvetsiya va Norvegiya qonunlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi bolalar farovonligi va jamoat xavfsizligi siyosatining markaziy obyekti sifatida huquqiy mustahkamlangani mazkur xulosani yanada kuchaytiradi.

Amaldagi milliy qonunchilik tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunida voyaga

yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, nazoratsizlik va deviant xulq-atvorga qarshi kurashishga qaratilgan tizimli normalar shakllangan. Shu bilan birga, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun jamiyat miqyosida profilaktikaning umumiy, maxsus va yakka turlarini, ularning subyektlari va asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi[2]. Biroq, bizning fikrimizcha, aynan ushbu Qonun matnida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati va jamoat xavfsizligiga ta’siriga oid qator huquqiy bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda.

Xususan, Qonunning 22, 24 va 28–29-moddalarida huquqbuzarliklar profilaktikasining umumiy, maxsus va yakka shakllari hamda individual profilaktika hisobida turgan shaxslar bilan ishlash tartibi umumiy tarzda bayon etilgan bo‘lsa-da, ushbu meyorlar voyaga yetmaganlar kontekstida alohida, maxsus tarzda detallashtirilmagan[3]. Voyaga yetmagan shaxslarning yoshiga, ruhiy-ijtimoiy rivojlanish bosqichlariga, oila va ta’lim muassasasi bilan bog‘liq aloqalarining o‘ziga xosligiga xos bo‘lgan xususiyatlar Qonun matnida “alohida profilaktika obyekti” sifatida aks etmaydi. Amalda “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan normalarga havola qilish bilan cheklanish, voyaga yetmaganlar profilaktikasini umumiy profilaktika tizimidan funksional jihatdan uzib qo‘yadigan ishoraviy modelni shakllantirgan.

Ushbu holat, ayniqsa, Qonunning 27-moddasi tahlilida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur moddada voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi masalasi bo‘yicha qisqacha normalar bayon etilib, asosiy tartib-taomil va mexanizmlar alohida maxsus qonunga havola qilinadi, xolos. Qonunning 27-moddasining matnida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining ijtimoiy-huquqiy tabiati – ya’ni oilaviy-maishiy muhit, ta’lim-tarbiya jarayoni, mahalla va raqamli axborot makonidagi xavf omillari bilan bog‘liqligi, shuningdek, ushbu omillarni bartaraf etish orqali jamoat xavfsizligini ta’minlash zarurati mustaqil huquqiy kategoriyalar sifatida ochib berilmagan. Qonun matnida “ijtimoiy xavfli vaziyatdagi bola”, “jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yoshlar guruhi”, “voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq xavf xaritalari” kabi xalqaro hujjatlar va rivojlangan davlatlar qonunchiligida keng qo‘llanadigan huquqiy atamalar mavjud emas.

Bizningcha, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasi aynan shu jihatdan muammo sifatida huquqiy bo‘shliqni namoyon etadi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, axborot maydoni va jamoat xavfsizligiga daxldor tahdidlar tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan bir sharoitda, amaldagi huquqiy tartibga solishda kuzatilayotgan mazkur huquqiy bo‘shliqni bartaraf etish, shu orqali huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuni inobatga olgan holda, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasini quyidagi tartibdagi yangi tahrirda bayon etish taklif etilmoqda. Jumladan:

- “27-modda. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi;
- voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati ularning oilaviy-maishiy muhiti, ta’lim-tarbiya jarayoni, mahalla va jamoat muhiti, shuningdek, raqamli axborot makonidagi *(internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va boshqa platformalardagi)* xavf omillari bilan uzviy bog‘liqligi inobatga olingan holda aniqlanadi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi mazkur omillarni bartaraf etish hamda jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tizimli tadbirlar majmui sifatida amalga oshiriladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy huquqiy atamalar qo‘llaniladi:

- “ijtimoiy xavfli vaziyatdagi bola” – oilaviy zo‘ravonlik, qaramoqsizlik, ta’lim-tarbiyadan chetlashish, nazoratsiz qolish, hech bir joyda o‘qimaslik va ishlamaslik, shuningdek, axborot makonidagi destruktiv ta’sirlarga sistemali ravishda duch kelishi natijasida o‘zining jismoniy, ruhiy, ma’naviy yoki axloqiy rivojlanishiga jiddiy xavf tug‘ilgan voyaga yetmagan shaxs;
- “jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yoshlar guruhi” – ikki va undan ortiq voyaga yetmagan yoki yoshlardan iborat, jamoat tartibiga zid xatti-harakatlarni muntazam sodir etuvchi yoki shunga moyilligi aniqlangan, muayyan hududda jamoat xavfsizligiga tahdid yuzaga keltiruvchi muhim omilga aylangan norasmiy guruh;

- “voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq xavf xaritalari” – voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik, deviant xulq-atvor va huquqbuzarliklar qayd etilgan hududlar, obyektlar, ta’lim muassasalari, mahalla va axborot makoni segmentlarini tahlil qilish hamda baholash asosida tuziladigan, profilaktika tadbirlarini manzilli rejalashtirish uchun mo‘ljallangan axborot-tahliliy hujjat.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi:

- ta’lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig‘inlari, ichki ishlar organlari, hokimliklar, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, yoshlar siyosati uchun mas’ul organlar, bolalarni ijtimoiy himoya qilish va psixologik xizmat ko‘rsatish tuzilmalari o‘rtasidagi idoralararo hamkorlik asosida;
- oilada sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni ta’minlash, bolalarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, raqamli savodxonligini yuksaltirishga qaratilgan kompleks profilaktik dasturlar asosida;
- voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq xavf omillarini erta aniqlash, individual profilaktik ishlarni tashkil etish, reabilitatsiya va resotsializatsiya dasturlarini amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

Ichki ishlar organlari, mahalla fuqarolar yig‘inlari, ta’lim muassasalari va boshqa vakolatli subyektlar o‘zlari yuritadigan ma’lumotlar bazasi, jinoyat va huquqbuzarliklar statistikasi, oilaviy zo‘ravonlik holatlari, voyaga yetmaganlarning ta’limdan chetlashishi va nazoratsiz qolishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq xavf xaritalarini shakllantiradi va doimiy yangilab boradi. Ushbu xavf xaritalari joylardagi profilaktika Kengashlari va idoralararo komissiyalar tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqishda majburiy hisobga olinadi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari ushbu Qonun, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasiga oid maxsus qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi, biroq ushbu moddada nazarda tutilgan ijtimoiy-huquqiy kategoriyalar va

xavfga asoslangan yondashuv umumiy profilaktika siyosati uchun bazaviy meyorlar sifatida hisoblanadi”.

Mazkur taklifning kelajakdagi ijobiy natijalari *(ilmiy bahodir)* quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Xususan:

birinchidan, taklif etilayotgan yangi tahrir orqali voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining ijtimoiy-huquqiy tabiati qonun darajasida mustaqil huquqiy kategoriya sifatida ifodalanadi. Bu, o‘z navbatida, profilaktika faoliyatini faqat “huquqbuzarlik sodir etilgandan keyingi reaksiya” emas, balki oila, ta’lim, mahalla va raqamli muhitdagi xavf omillarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyat sifatida talqin etish imkonini beradi. Doktrina nuqtai nazaridan, bu holat profilaktikaning ilk bosqichlarida huquqiy mas’uliyat emas, balki ijtimoiy-pedagogik va psixologik ta’sir choralarini ustuvorlashtirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, “ijtimoiy xavfli vaziyatdagi bola”, “jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yoshlar guruhi”, “voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq xavf xaritalari” kabi atamalarning qonunga kiritilishi profilaktika sohasidagi huquqiy aniqlik va ta’rifiy barqarorlikni ta’minlaydi. Natijada, mahalla, ta’lim muassasalari, ichki ishlar organlari va boshqa subyektlar qaysi bola yoki qaysi yoshlar guruhiga nisbatan ustuvor tarzda profilaktik tadbirlar ko‘rish lozimligini yagona mezonlar asosida belgilaydi. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida subyektivlik, selektiv yondashuv va diskriminatsiya xavflarini kamaytiradi;

uchinchidan, xavf xaritalarini yuritish va ularni idoralararo Kengashlar, komissiyalar faoliyatida majburiy ravishda hisobga olish normasini joriy etish jinoyat va huquqbuzarliklar profilaktikasida xavfga asoslangan, axborot-tahliliy modelga o‘tishni rag‘batlantiradi. Shu tariqa, profilaktika choralari “standart va umumiy” tadbirlardan *(“ma’ruzalar o‘qish”, “reydlar o‘tkazish”)* manzilli, statistika va tahlilga asoslangan tarzda rejalashtiriladi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu yondashuv profilaktika resurslarini samarali taqsimlash, eng yuqori xavf konsentratsiyasi mavjud bo‘lgan hudud va guruhlarga ustuvor e’tibor qaratish imkonini yaratadi;

to‘rtinchidan, ushbu moddaning yangi tahriri orqali umumiy profilaktika siyosati bilan voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklari bo‘yicha maxsus qonunchilik o‘rtasida konseptual uyg‘unlik va intersektor hamkorlik ta’minlanadi. Chunki, taklif etilayotgan

normalar, bir tomondan, maxsus qonun hujjatlarini inkor etmaydi, ikkinchi tomondan esa, voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq masalalarni jamoat xavfsizligini ta’minlashning markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida qayd etadi. Bu esa kelgusida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, profilaktika subyektlari o‘rtasida vakolatlar taqsimoti, mas’uliyat va hisobdorlik mexanizmlarini aniq belgilash uchun mustahkam doktrinal va qonunchilik asosini shakllantiradi.

Amaliy jihatdan olib qaraganda, bunday yondashuv voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar dinamikasini pasaytirish, profilaktikaning erta bosqichlarida oila va mahalla resurlarini faol jalb qilish, yoshlarning raqamli muhitdagi xavflarga chidamliligini oshirish hamda jamiyatda “profilaktika – jamoat xavfsizligining strategik yo‘nalishi” ekanligi haqidagi huquqiy ong va madaniyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

RAQAMLI ASRDA PSIXOLOGIK MUVOZANAT: SALBIY TA’SIRLAR

Nashbandova Dinora Shodiqul qizi

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi
“Kiberxavfsizlikni huquqiy ta’minlash” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Maqolada raqamli texnologiyalarning inson psixologiyasiga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirlari tahlil qilinadi. Raqamli muhitda shakllanayotgan addiktiv xulq-atvor, ijtimoiy izolyatsiya va suitsid holatlarining ortish sabablari psixologik nuqtayi nazardan o‘ganilgan. Texnologiyalardan foydalanishda ongli yondashuv, raqamli savodxonlikni oshirish va psixologik muvozanatni saqlash zarurligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli muhit, psixologik muvozanat suitsid, addiktiv xulq-atvor, ijtimoiy izolyatsiya, kiberpsixologiya

Abstract. The article analyzes the negative effects of digital technologies on human psychology. From a psychological perspective, the causes of addictive behavior, social isolation, and increased suicide cases emerging in the digital environment are examined. The necessity of a conscious approach to technology use, improving digital literacy, and maintaining psychological balance is emphasized.

Key words: digital environment, psychological balance, suicide, addictive behavior, social isolation, cyberpsychology.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha sohalarini qamrab olayotgani hech kimga sir emas. Internet, mobil aloqa, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi natijasida axborot oqimi misli ko‘rilmagan darajada tezlashib, kengayib bormoqda. Bu jarayonlar jamiyatimizga ko‘plab qulayliklar-yengilliklar olib kelib, taraqqiyot tezlashuvini sezilarli oshirgani holda, insonning ruhiy muvozanatiga, hissiy barqarorlik va ijtimoiy munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy insonning kundalik hayoti raqamli muhit bilan chambarchas bog‘langanligi sababli, psixologik holatni boshqarish, e’tiborni jamlash hamda emotsional barqarorlikni saqlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois “raqamli

asrda psixologik muvozanat” mavzusi bugungi kunda ilmiy-chuqur tadqiqotni talab qilayotgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu psixologiya, sotsiolagiya va kiberxavfsizlik sohalarining kesishgan nuqtasida dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning inson ruhiyatiga ta’siri masalasi xorijiy va mahalliy psixologlar va axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari tomonidan keng o‘rganilmoqda. Shunga qaramay, raqamli muhitning inson psixologiyasiga nojo‘ya ta’sirini chuqur psixologik tahlil qilish, xususan, raqamli asrda psixologik muvozanatni saqlash omillarini aniqlash masalasi hali to‘liq o‘z yechimini topgani yo‘q.

Inson hayoti axborot texnologiyalari bilan shu darajada chambarchas bog‘lanib bormoqdaki, real va virtual olam o‘rtasidagi chegaralar tobora noaniq bo‘lib qoldi. Bu esa inson tafakkuri, hissiy-emotsional holatlari, shaxsiy-individual xususiyatlari, hatto bilish jarayonlariga ham nojo‘ya ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu salbiyliklar quyidagilarda o‘z aksini topadi:

Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa yoshlar orasida, idealizatsiyalangan obrazlar ta’sirida bo‘lish, boshqalar bilan o‘zini taqqoslash va layklar hamda kommentariylarga bo‘lgan hissiy qaramlikni kuchaytiradigan muhit yaratdi. Foydalanuvchilar ko‘pincha o‘z kundalik hayotlarini ijtimoiy tarmoqlardagi “ideal” tasvirlar – go‘zal suratlar, muvaffaqiyatli hikoyalar bilan solishtiradilar. Bu esa o‘zini kamchilikka ega his qilish, xavotirlanish va depressiyaga olib keladi. Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi shuni tushuntiradiki, doimiy o‘zini boshqalar bilan solishtirish o‘z-o‘zini baholashning buzilishiga sabab bo‘ladi.[30] Texnologiyalar insonlar o‘rtasidagi jonli muloqotni qisqartirib, hissiy sovuqlikka sabab bo‘lmoqda.

Raqamli muhitning inson ruhiyatiga eng og‘riqli ta’sirlaridan biri – bu suitsid holatlarining ortishidir. So‘nggi yillarda psixologik tadqiqotlar internet va ijtimoiy tarmoqlarda kechadigan kiberbulling, ijtimoiy solishtirish, past baholanish va yolg‘izlik hissi suitsidal fikrlarning kuchayishiga olib kelayotganini ko‘rsatmoqda. AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi *(CDC)* ma’lumotlariga ko‘ra, o‘smirlar orasida o‘z joniga qasd qilish darajasi 2010-yildan 2015-yilgacha ortgan, holbuki, bunga qadar deyarli 20 yil davomida bu ko‘rsatkich pasayib kelayotgan edi. Bu muammoga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan omil sifatida

[30] Абдикалиева А. Влияние социальных сетей на психическое здоровье личности // Экономика и социум. – 2025. – №. 8 (135). – С. 526-529.

ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ortishi bo‘lishi ham mumkin. So‘nggi yillarda sodir bo‘lgan o‘smirlar o‘rtasidagi o‘z joniga qasd holatlari kiberbulling *(onlayn tahqir va haqoratlar)* bilan bog‘liq deb topilgan. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda namoyish qilinadigan “mukammal” hayotlar tasviri o‘smirlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, deydi tadqiqotchilar.[31] Raqamli platformalarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar oqimi, ijtimoiy taqqoslash, kiberbulling va yolg‘izlik hissi ba’zan shaxsni depressiv holatlarga olib keladi.

Axborot texnologiyalardan ortiqcha foydalanish natijasida insonda addiktiv xulq-atvor, ya’ni qaramlik holatlari shakllanmoqda. Bu xulqiy qaramlikning yangi ko‘rinishi kiberqaramlikni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda kiberqaramlik ta’lim tizimi va oilalar uchun katta chaqiriq bo‘lib qolmoqda. Bu holat ijtimoiy izolyatsiya, sog‘liq bilan bog‘liq muammolar va boshqa ko‘plab salbiy oqibatlar bilan birga keladi. Bolalar real hayot bilan aloqa yo‘qotadi. Ularning kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanmaydi, bu esa nizoli vaziyatlarda to‘g‘ri muomala qila olmaslikka va javoban tajovuzkor xatti-harakatlarga olib keladi[32]. Shuningdek virtual tiizimga haddan tashqari bog‘lanish, internet va mobil texnologiyalarga doimiyehtiyoj hissi dopamin tizimi faolligini kuchaytirib, miyadagi “mukofot” mexanizmini buzadi. Bu esa odamni real hayotdagi qoniqish hissini pasaytiradi va virtual dunyoga yanada chuqurroq sho‘ng‘ish ehtiyojini keltirib chiqaradi. O‘zbekistonbekiston sharoitida ham bu jarayon, ayniqsa, yoshlar orasida sezilarli tus olmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, internetdan sutkasiga 6 soatdan ortiq foydalanadigan yoshlarning 37 foizi o‘zida diqqat tarqoqlashuvi va hissiy charchoqni sezadi.[33] Shu bois kiberqaramlikni faqat individual muammo emas, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida o‘rganish zarur.

Bunday muammolarning oldini olish uchun psixologik savod-xonliknni oshirish, raqamli madaniyatni targ‘ib qilish, oila va ta’lim muhitida raqamli nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhimdir. Texnologiyalardan foydalangan holda inson o‘z imkoniyatlarini kengay-

[31] Rise in teen suicide connected to social media popularity: Study. 2017. Available at https://nypost.com/2017/11/14/rise-in-teen-suicide-connected-to-social-media-popularity-study/ (last accessed June 29, 2018)

[32] Dishkova M., Papancheva R. Digital skills and the cyber addiction at primary school //New Trends and Issues Proceedings on Humanities and Social Sciences. – 2019. – T. 6. – №. 2. – C. 22-31.

[33] O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi ma’lumotlari, 2023

tirishi, lekin o‘zini texnologiyalarga topshirib qo‘ymasligi lozim. Suitsid holatlarining ortishi, addiktiv xulq-atvor, ijtimoiy izolyatsiya va hissiy barqarorlik kabi inson ruhiyatiga bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlarni nazorat qilish, psixologik muvozanatni saqlash, raqamli savodxonlikni oshirish va texnologiyalardan ongli foydalanish bugungi kunda dolzarb ehtiyojdir.

Raqamli asrda inson ruhiyati ko‘plab yangi tahdidlarga duch kelmoqda. Texnologiyalardan ongli va me’yorida foydalanish, raqamli savodxonlikni oshirish va psixologik muvozanatni saqlash bu muammolarga qarshi samarali choradir. Shaxsiy ong va mas’uliyat raqamli dunyoda sog‘lom psixologiyani saqlab qolishning eng muhim omilidir. Shunday ekan, raqamli texnologiyalarni inson hayotiga uyg‘unlashtirish jarayoni faqat texnik emas, balki psixologik yondashuvni ham talab etadi. Faqat shundagina inson texnologiyaga emas, texnologiya insonga xizmat qiladigan muhitni yaratish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдикалиева А. Влияние социальных сетей на психическое здоровье личности //Экономика и социум. – 2025. – №. 8 (135). – С. 526-529.

2. Rise in teen suicide connected to social media popularity: Study. 2017. Available at https://nypost.com/2017/11/14/ *(last accessed June 29, 2018)*.

3. Dishkova M., Papancheva R. Digital skills and the cyber addiction at primary school //New Trends and Issues Proceedings on Humanities and Social Sciences. – 2019. – Т. 6. – №. 2. – С. 22-31.

4. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi ma’lumotlari, 2023.

5. To‘xtayeva D., Karimova S. Intrenetga qaramlik va uning ijtimoiy-psixologik oqibatlari. “Psixologiya va hayot” jurnali, 4-son, 33-39-betlar.

DASTLABKI TERGOVDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TARTIBGA SOLISH YUZASIDAN YONDASHUVLAR: AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Dustmurodov Azizjon Akbar o‘g‘li

IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat-protsessual faoliyatda axborot texnologiyalarini tartibga solish yuzasidang yondashuvlar tahlil qilingan. Muallif tomonidan so‘ngi vaqtlarda jinoyat protsessual faoliyatni raqamlashtirishga oid yondashuvlar, mavjud xolat va amaliy muammolar batafsil tahlil qilingan. Muallif tomonidan dastlabki tergovda axborot texnologiyalarini huquqiy tartibga solish yuzasidan idoraviy yondashuv shakllanganligi, jinoyat protsessida axborot texnologiyalaridan foydalanish kompleks huquqiy tartibga solingan yondashuvga asoslanishi lozimiligi to‘g‘risidagi fikrlar ilgari surilgan. Bu borada xalqaro tajriba tahlili qilinib, asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat protsessini raqamlashtirish, elektron hujjat, sudga qadar ish yuritish, dastlabki tergov, axborot texnologiyalari.

Zamonaviy davrni nafaqat texnologik, balki huquqiy jihatdan ham axborot va raqamli poyga davri sifatida tavsiflash mumkin. Dunyoning biror-bir mamlakati bu jarayonda ortda qolishni istamaydi, texnologiyalar rivojlanishini rag‘batlantirish, jamiyat va davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi, jumladan jinoyat-protsessual sohada ham, tegishli huquqiy tartibga solish bo‘yicha o‘z vaqtida ko‘rilgan chora-tadbirlar shaxs, jamiyat va davlat huquqining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan bildirigan fikrlar dolzarb bo‘lib, unga ko‘ra barqaror rivojlanishga erishish uchun raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirish davr talabi ekanligi, axborot texnologiyalari davlat uchun har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo‘ldan borish imkoniyatini berishini, bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o‘ynayotganligini ta’kidlab o‘tgan.

“Xorijiy davlatlar jinoyat-protsessida axborot texnologiyalari” nomli monografiyada Yevropa, Osiyo, anglosakson huquq tizimiga ega mamlakatlar, shuningdek arab davlatlarida jinoyat protsessida axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Bugungi kunda, fikrimizcha biz uchun jinoyat protsessida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘zi emas, balki ularni joriy etish va qo‘llashni tartibga solish borasida shakllangan va shakllanib borayotgan yondashuvlarni tadqiq qilish muhim sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi Lex.uz saytida “Axborot texnologiyalari” tushunchasi 2788 hujjatning matnida qo‘llanilgan bo‘lib, mazkur hujjatlarning 4 tasi kodeks, 46 tasi qonun hujjati, 2284 tasi qaror va 277 tasi farmon hujjatlarida, 227 tasi boshqa hujjatlar matnida aks etgan.

Qonunchilik bazasining kontent tahlili shuni ko‘rsatadaki, O‘zbekistonda turli sohalarni tartib soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda axborot texnologiyalari tushunchasi 1992 yildan qo‘llanila boshlangan bo‘lsada, 2017 yildan so‘ng mazkur atama milliy normativ huquqiy hujjatlarimizda jadal sur’atlarda qo‘llanila boshlangan. 2017 yildan mamlakatimizda boshlangan keng ko‘lamli islohotlar mazkur soxaga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Ko‘pchilik xorijiy davlatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida huquqiy tartibga solishning aralash yondashuvi keng qo‘llaniladi. Unga ko‘ra, axborot texnologiyalaridan foydalanish amaldagi qonun hujjatlarida hamda

qaror va farmonlarda, strategik rejalashtirish hujjatlarida, shuningdek idoralararo normativ aktlarda tartibga solinadi.

Yurtimizda axborot texnologiyalari sohasidagi munosabatlarni qonun hujjatlari bilan tartibga solish va muhofaza qilish masalasi o‘tgan asrning 90-yillari boshlarida hal etila boshlangan. Xususan, 1994-yil 6 mayda O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunda ma’muriy va jinoiy javobgarlik to‘g‘risida so‘z yuritilgan *(15-modda)* bo‘lib, mualliflik huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan._

Shuningdek, 2002-yil 12-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni; 2003-yil 11-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2003-yil 11-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi qonuni, 2004-yil 29 apreldagi O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilingan bo‘lib, mazkur meyoriy-huquqiy hujjatlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatiga zamonaviy AKTni keng joriy etish va samarali foydalanishni rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarni belgilab bergan.

Jamiyatimizning turli jabxalarini axborotlashtirish, raqamlashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini tartibga solishda rejaviy-strategik yondashuv ham faol qo‘llanilmoqda. Uning maqsadi – turli sohalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, joriy etish va foydalanishni rag‘batlantirishdir. Biroq, xozirgi kunda yurtimizda jinoyat-protsessual soha bundan mustasno bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda milliy qonunchiligida jinoyat-protsessual faoliyatda jumladan, tergovga qadar tekshiruv yoki dastlabki tergovda axborot texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va ekspluatatsiya qilishni tartibga solishga oid yondashuvni normativ *(amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda mustaxkamlangan qoidalarga asoslangan)* yoki aralash deb baholash qiyin.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksimizda axborot texnologiyalari, raqamlashtirish yoki jinoyat ishlarini elektron tartibda yuritish yoki jinoyat-protsessual faoliyatning raqamli transformatsiyasiga oid qoidalar deyarli mavjud emas.

Faqatgina keskin texnologik yangiliklar sabab hamda amaliy ehtiyojning yuzaga kelayotganligi qonun chiqaruvchini jinoyat protsessual kodeksga axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid o‘zgartishlarni kiritishga majbur qilmoqda. Mazkur o‘zgartirishlar elektron dalillarni to‘plash, videokonferens aloqa va boshqa tizimosti elementlari bilan bog‘liq bo‘lib, soxaga oid tizimli masalalarni tubdan hal etmaydi.

Jinoyat ishlarini yuritishda texnik vositalardan foydalanish amaliyoti tahlil qilinganda, tergov organlari, prokurorlar va sudyalar jinoyat-protsessual jarayonning boshqa ishtirokchilariga nisbatan “qonunda ruxsat etilmagan har qanday harakat taqiqlanadi” tamoyilini faol qo‘llayotgani yaqqol ko‘rinadi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar amaliyotda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishmoqda, biroq bu jarayon yetarli darajada huquqiy tartibga solinmagan. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari cheklanishiga, ba’zan esa buzilishiga olib kelishi mumkin.

Olimlar va ekspertlarning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda jinoyat protsessini raqamlashtirish va raqamli transformatsiya qilish jarayonlari amalda “idoralararo xarakter”ga ega bo‘lib qolmoqda.

S. V. Valovning fikricha, bunday tartibga solish yondashuvini “idoraviy-tunnelli raqamlashtirish modeli” hisoblanadi. Mazkur fikr asosli bo‘lib, hozirgi vaqtda vakolatli idoralar, jumladan sud, prokuratura va ichki ishlar vazirligi o‘zining raqamli transformatsiya dasturlarini ishlab chiqmoqda.

Jinoyat ishlarini elektron yurituviga axborot-kommunikatsiya, jumladan raqamli texnologiyalarni joriy etishda yaxlit va uyg‘un yondashuvni ta’minlash zaruratini inobatga olmagan holda, faqat o‘z yo‘nalishi bo‘yicha harakat qilmoqda.

Jumladan, so‘ngi yillarda odil sudlovga erishish, sud organlarini raqamlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Bir qator qonun hujjatlari va Prezident qaror va farmonlari qabul qilindi. (1-jadval)

Odil sudlov sohasida qabul qilingan hujjatlar RO‘YXATI

1	*Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4818, Qabul qilingan sana: 03.09.2020, Kuchga kirish sana: 04.09.2020
2	Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 431, Qabul qilingan sana 08.07.2021, Kuchga kirish sanasi 09.07.2021
3	Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, PF-12, Qabul qilingan sana 16.01.2023, Kuchga kirish sanasi 18.01.2023
4	Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, PF-11, Qabul qilingan sana 16.01.2023, Kuchga kirish sanasi 18.01.2023
5	Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-140, Qabul qilingan sana 21.08.2025, Kuchga kirish sanasi 23.08.2025

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni sud bosqichida ko‘rib chiqishga doir ijtimoiy munosabatlarni raqamlashtirish ishlarida peshqadamlik qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Ichki ishlar vazirligi tomonidan ham axborot texnologiyalarini imkoniyatlarini jinoyat protsessual faoliyatga tadbiq etish maqsadida chora – tadbirlar amalga oshirilgan.

Jumladan, mazkur tuzilmalar tashabbusida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3723-son qarori e’tiborga molik xodisa edi. Mazkur qaror qabul qilinishi bilan milliy jinoyat protsessida “Elektron jinoyat ishi” tizimini yaratish va joriy etishga start berilgan edi. Shu maqsadda qaror bilan:

- jinoyat ishlari bo‘yicha ish yurituvni elektron shaklda tashkil etish;
- hujjatning yagona identifikatorini joriy etish;
- jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv amaliyotida jinoyat-protsessual hujjatlarining yagona elektron shaklini ishlab chiqish;
- jinoyat ishlarini yuritish jarayonlarini, shu jumladan jinoyat ishlari bo‘yicha elektron ish yurituvda tartib-taomillarni qisqartirish va ortiqcha bosqichlarni chiqarib tashlash orqali optimallashtirish;
- protsessual harakatlarni amalga oshirish tartiblarini, jumladan elektron shaklda sanksiyalar olish, dalillarni to‘plash, ekspertizalar, sud muhokamasi o‘tkazish va sud qarorlarini ijro etish orqali soddalashtirish yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan edi. Shuningdek qarorga ko‘ra tergov, prokuratura va sud organlari o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvini yagona elektron platformada birlashtirish, hujjat aylanmasini standart-lashtirish va protsessual jarayonlarni optimallashtirishni nazarda tutuvchi tartiblar joriy etilishi lozim edi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son qarorida ilgari surilgan g‘oyalar hayotimizda tadbiq qo‘yilganicha yo‘q. Chunonchi tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov bosqichlarini raqamlashtirish salmog‘i xaligicha sustligicha qolmoqda.

Fikrimizga amaliy misol sifatida, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining 27-moddasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrdagi O‘RQ–597-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, unga ko‘ra protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va sudning protsessual harakati yoki qarori ustidan shikoyati murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoida belgilangan.

Qabul qilingan o‘zgartishlarga muvofiq, “Mysud.uz” sayti orqali shaxsiy kabinetdan arizalar, shikoyatlar va taqdimnomalarni yuborishga ruxsat berilgan hamda bunda hujjatlar qonunchilikka muvofiq elektron raqamli imzo bilan imzolanishi talab etilgan.

Umuman olganda, bunday shakl advokatlar va boshqa shaxslar uchun ancha qulay bo‘lgan. Biroq, 2019-yildagi o‘zgartirishlarda kodeksning boshqa moddalaridagi tergovga qadar tekshiruv va

dastlabki tergov organlari mansabdor shaxslari qarorlari yuzasidan yuqori turuvchi organlarga elektron hujjat shaklida shikoyat yo‘llashning imkoniyati nazarda tutilmagan. Fikrimizcha shu turdagi o‘zgartirishlar kodeksning boshqa moddalariga ham tadbiq etilsa hamda davlat xizmatlari portali orqali vakolat idorlarga shikoyat yo‘llashning raqamlashgan imkoniyati joriy etilsa fuqarolarga bir qator qulayliklar yaratgan bo‘lar edi.

Elektron hujjat aylanmasini meyoriy tartibga solish zarurligiga ko‘plab olimlar va amaliy xodimlar e’tibor qaratgan. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining 27-moddasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-597-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, unga ko‘ra protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va sudning protsessual harakati yoki qarori ustidan shikoyati murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoida belgilangan.

Qabul qilingan o‘zgartishlarga muvofiq, “Mysud.uz” sayti orqali shaxsiy kabinetdan arizalar, shikoyatlar va taqdimnomalarni yuborishga ruxsat berilgan hamda bunda hujjatlar qonunchilikka muvofiq elektron raqamli imzo bilan imzolanishi talab etilgan.

Umuman olganda, bunday shakl advokatlar va boshqa shaxslar uchun ancha qulay bo‘lgan. Biroq, 2019-yildagi o‘zgartirishlar hujjatlarni elektron shaklda tergov organlariga va prokuraturaga yuborish imkoniyati nazarda tutilmagan.

Shu munosabat bilan Jinoyat protsessul kodeksini “Dastlabki tergov jarayonida elektron hujjatlardan foydalanish tartibi” to‘g‘risidagi norma bilan to‘ldirish hamda dispozitsiyasini quyidagi bayon etish taklif etiladi:

2017 yildan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida ham raqamlashtirish lozimligi to‘g‘risidagi qoidalarni aks ettirgan normativ hujjatlar qabul qilingan bo‘lsada, amalda tergovga qadar tekshiruv yoki tergov organini faoliyatini raqamlashtirish bilan bog‘liq ishlar salmog‘i kamligicha qolmoqda.

IIVning raqamli transformatsiya dasturlarida elektron hujjat aylanmasini tashkil etish, fuqarolarga elektron xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish, platformaviy yechimlarni joriy etish, xizmatlarni raqamli

formatda taqdim etish va axborot-telekommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Biroq, ushbu dasturlarda jinoyat-protsessual faoliyatni raqamlashtirish masalalari bevosita qamrab olinmagan *(faqat "jinoyat qidiruvi" ma'lumotlar orqali sudlanganlik yoki jinoiy ta'qib mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni onlayn taqdim etish bundan mustasno)*.

Shubhasiz, qabul qilinayotgan idoraviy faoliyatini raqamlashtirishga doir normativ hujjatlar va amaliy o'zgarishlar ijobiy ahamiyatga ega. Biroq ular jinoyat-protsessining o'zida raqamli transformatsiyaning huquqiy tartibga solinmagani bilan bog'liq muammolarni to'liq hal etmaydi. Bunday holatni e'tibordan chetda qoldirish yagona yondashuvning yo'qolishiga, huquqni qo'llash amaliyotida qator muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Jumladan:

1) jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshiruvchi idoralarda raqamlashtirish darajasining nomutanosibligi;

Masalan, sudlar o'z faoliyatini avtomatlashtirish va axborotlashtirishga qaratilgan yechimlarni joriy etgani holda, prokuratura va ichki ishlar organlarida raqamli transformatsiya, jumladan tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni elektronlashtirish jarayonlari sustligicha qolmoqda.

Raqamlashtirish darajasidagi bunday tafovut, shuningdek axborot texnologiyalarini qo'llashni tartibga solishdagi nomutanosiblik jinoyat ishlari doirasida yagona raqamli muhitni yaratishni jiddiy qiyinlashtiradi. Mazkur muammo allaqachon amaliyotda sezilmoqda, olimlar va amaliyotchi xodimlar idoralar o'rtasida raqamlashtirish darajasi sezilarli farq qilishini, bu esa faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etmoqda. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotga ko'ra, bu muammoni 47,1 % olimlar, 32,5 % sudyalar, 50 % prokurorlar, 41,2 % tergovchilar va surishtiruvchilar tasdiqlagan.

2) 2. Axborotlashtirish jarayonlarini umumiy tartibga soluvchi normalar mavjud emasligi;

Yangi va mavjud axborot texnologiyalarini jinoyat-protsessida joriy etish va ulardan foydalanishni normativ-huquqiy tartibga solinmagan. Idoraviy hujjatlar esa aynan jinoyat protsessini to'liq qamrab ola bilmaydi va uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov bosiqichida, shuningdek sudda axborot texnologiyalari joriy etish va qo‘llashni tartibga soluvchi kompleks normativ – huquqiy baza mavjud emas. Jinoyat protsessual kodeksidagi mavjud normalar sud organlari faoliyatini raqamli tartibga solishga oid. Bundan tashqari, raqamlashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini tartibga solishda idoraviy yondashuv shakllanmoqda, ammo uning ichki mazmuni ko‘p hollarda deklarativ xususiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Yangi axborot texnologiyalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashdan tashqari, ularni yaratish, joriy etish va qo‘llashni tartibga solishga oid yondashuvlar BMT darajasidagi hujjatlarida xalqaro darajada alohida qayd etilgan.

E’tiborli jixati, axborot texnologiyalarini tartibga solishga oid BMT Bosh kotibining 2015–2020-yillarga mo‘ljallangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi strategiyasi hisoboti hamda 2023–2028 yillarga mo‘ljallangan hisobotlarda turlicha yondashuvni ko‘rishimiz mumkin. Birinchi hisobotda asosan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari va imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, ikkinchisida allaqachon huquqiy tartibga solish bo‘yicha yondashuv – amaliy erkinlik va markazlashtirilgan nazorat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zaruriyati belgilangan. 2023-yil 22-dekabrda qabul qilingan tegishli BMT rezolyutsiyasida, Bosh kotibga yetmish to‘qqizinchi sessiyadan kechiktirmasdan, axborot texnologiyalari qo‘llashni huquqiy tartibga solish sohasidagi strategiyaning takomillashtirilgan elementlarini taqdim etish yuzasidan so‘rov yuborilgan. Ushbu elementlar samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, kutilgan natijalar hamda aniq huquqiy mexanizmlar va samarali boshqaruv va hisobdorlik tizimini o‘z ichiga olgan.

Umuman olganda, BMT tomonidan 2022–2023-yillarda qabul qilingan hujjatlar mazmunini tahlil qilish va ularni oldingi aktlar bilan solishtirganda, BMTda axborot texnologiyalarni joriy etish va qo‘llashni tartibga solish bo‘yicha muvozanatli yondashuvni ishlab chiqishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilmoqda, ammo bunday yondashuv hali to‘liq shakllantirilmagan. Shu bilan birga, mazkur tartibga solish axborot texnologiyalaridan foydalanishning umumiy masalalariga taalluqli bo‘lib, adolatni ta’minlash sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanishga doir aniq va bir xil yondashuv hali ishlab chiqilmagan.

Taqqoslash uchun, Yevropa Ittifoqida axborot texnologiyalari va tizimlaridan sudlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan, ayniqsa jinoyat ishlarini yuritishda foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yevropa Kengashi tomonidan 09.11.1995-yilda qabul qilingan Rec(95) 13-sonli "Axborot texnologiyalari bilan bog'liq jinoyat-protsessual huquq muammolari to'g'risida"gi tavsiyada jinoyat ishini yuritishda, jumladan ayrim tergov harakatlarini amalga oshirishda axborot texnologiyalari va tizimlaridan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan jinoyat-protsessual normalar va tavsiyalar o'z aksini topgan. Masalan, Rec(95)13 tavsiyasida ko'rsatilishicha, jinoyat-protsessual qonunchilikda tintuv va olib qo'yishni amalga oshirish uchun nazarda tutilgan qoidalar kompyuter tizimlarida tintuv o'tkazish holatlariga ham teng darajada tatbiq etilishi lozim. Shuningdek, tavsiyada qonun tergov organlariga barcha zarur texnik choralarni qo'llash imkonini berishi kerakligi ta'kidlangan. Axborot texnologiyalarini aynan jinoyat sudlovi sohasida qo'llashni tartibga soluvchi mazkur rezolyutsiya o'sha davr uchun ilg'or hujjat bo'lib, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Yevropa Kengashi tomonidan jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan keyingi tavsiyalarda axborot texnologiyalaridan jinoyat protsessida foydalanishni faol qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishga oid masalalarni tartibga solish ham qayd etilgan.

Shuningdek, jinoyat ishini yuritishda elektron monitoring texnologiyasidan foydalanish qoidalari ham belgilab qo'yilgan.

Jinoyat-protsessual sohadagi so'nggi tavsiyalarda – 2022-yilda (g'ayriqonuniy xatti-harakatlardan jabrlanuvchilar va adliya xodimlarini himoya qilish to'g'risida) hamda 2023-yilda *(jinoyat qurbonlarining huquqlari, xizmatlar va qo'llab-quvvatlash to'g'risida)* – axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi bevosita yoritilmagan bo'lsa-da, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jinoyat protsessi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan hamda ulardan foydalanishning ayrim jihatlari tartibga solingan.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqida jinoyat ishlarini yuritishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishni tartibga solish doirasida 2018 yildan boshlab ko'plab meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ulardan eng asosiysi – 2021 yil 6 oktabrda qabul qilingan Yevropa Parlamentining "Jinoyat protsessida sun'iy intellekt va uning politsiya hamda sud organlari tomonidan jinoyat ishlarida qo'llanilishi to'g'risida"gi rezolyutsiyasidir.

YEIda jinoyat-protsessual faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanishni tartibga solish bo'yicha shakllangan yondashuvning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- axloqiy meyorlar va qo'llash qoidalarini belgilash;
- inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlashga urg'u berish;
- xavf-xatarlarga qarshi yo'naltirilgan tartibga solish usuli;
- inson markazida bo'lgan sun'iy intellektual texnologiyalarga nisbatan ishonchni shakllantirish;
- jinoyat ishlarini yuritish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha alohida qoidalar va umumiy tavsiyalarni belgilash;
- axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tartibining aynan jinoyat-protsessual meyorlar orqali tartibga solish.

Yevropa yondashuvi markazlashtirilgan qo'llanmalar, qoidalar va standartlarni ishlab chiqish bilan tavsiflanadi ular ittifoqqa a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Risklarga yo'naltirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanish yondashuvi, YEI hujjatlarida sun'iy intellekt texnologiyalariga nisbatan tilga olinganidek, jinoyat-protsessual sohada eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki, u to'g'ri tashkil etilganda, axborot texnologiyalarini qo'llanilishida insonning huquq va erkinliklarini himoyalashni ta'minlovchi va ortiqcha cheklovlarsiz belgilangan muayyan muvozanatga erishish imkonini beradi.

Umuman olganda, axborot texnologiyalari jinoyat protsessi sohasiga joriy etish va qo'llashda idoraviy emas, balki, kompleks normativ tartibga solish – ijobiy tartibga solish amaliyoti sifatida baholanadi. Mazkur yondashuv jinoyat ishlarini yuritishda tobora faol qo'llanilayotgan

axborot texnologiyalarini qo‘llash va tartibga solish bo‘yicha milliy konsepsiyani ishlab chiqishda hisobga olinishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-may kunidagi PQ–3723-son qarori.

3.“Raqamli jinoyat ishi” (PPN) dasturi yuzasidan Fransiya Respublikasi Bosh assambleyasi hisoboti. 2023 yil 12 sentabr.

4. Sandra Day O‘Connor. Electronic case filing administrative policies and procedures manual. July 2024.

5. Lippman M. R. Criminal Procedure. University of Illinois at Chicago. 2014. p. 18.

6. Приказ Генерального Прокурора Республики Казахстан от 19 сентября 2014 года № 89. “Об утверждении Правил приема и регистрации заявления, сообщения или рапорта об уголовных правонарушениях, а также ведения Единого реестра досудебных расследований”.

7. Задорожная В. А. Производство по уголовному делу в электронном формате по законодательству Республики Казахстан // Правопорядок: история, теория, практика. 2018. № 4.

8. Зуев С. В. Цифровая среда уголовного судопроизводства: проблемы и перспективы // Сибирский юридический вестник. 2018. № 4 (83). С. 118–123.

9. Масленникова Л. Н. Трансформация досудебного производства в начальный этап уголовного судопроизводства, обеспечивающий доступ к правосудию в эру Industry 4.0 // Актуальные проблемы российского права. 2019. № 6 (103). С. 137–146.

10. Цоколова О. И. Актуальные проблемы восстановления утраченных уголовных дел // Российская юстиция. 2018. № 5. С. 59–62.

11. Баранов А. М. Электронные доказательства: иллюзия уголовного процесса XXI в. // Уголовная юстиция. 2019. № 13. С. 64–69.

12. Oripov S.S. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish: Dis.... yurid.f.f.d. (phd) Toshkent, 2023. B. 31.

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYADA ILMIY-AMALIY TADQIQOT LOYIHALARI O‘TKAZISHNING TIZIMLI TAHLILI

A’loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy kriminologiyada ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini o‘tkazishning tizimli tahlili yoritilgan bo‘lib, unda kriminologik tadqiqotlarni rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarini amaliyotga tatbiq etish jarayonlarining asosiy bosqichlari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy-amaliy loyihalarni samarali tashkil etish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi xulosalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: kriminologiya; ilmiy tadqiqot, ilmiy-amaliy loyiha, huquqiy asos, metodologiya, ilmiy ishlanmani amaliyotga joriy etish, xalqaro tajriba, innovatsiyalar, muammolar.

Abstract. The article provides a systematic analysis of the implementation of scientific and practical research projects in modern criminology, analyzing the main stages of planning, conducting, and implementing the results of criminological research, as well as their interrelationships. Also, conclusions are presented that serve to improve the system of combating crime through the effective organization of scientific and practical projects.

Keywords: modern criminology, criminology, scientific research, scientific and practical project, legal framework, methodology, implementation of scientific developments, international experience, innovations, problems.

Kriminologiya – jinoyatchilik, uning sabab va shart-sharoitlarini o‘rganish, jinoyatchilikni oldini olish choralarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy-huquqiy fan sanaladi. Uning muammolari kontekstida ilmiy-amaliy tadqiqotlarning roli muhim: zamonaviy jinoyatchilik bilan kurashishni samarali yo‘lga qo‘yish uchun ilg‘or

ilmiy natijalar amaliyotga integratsiya qilinishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PF-10-son farmon va PQ-22 qarorlari bilan kriminologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. PF-10 farmon bilan Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilib, uning asosiy vazifalari sifatida “ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish” va xorijiy tajribalarni o‘rganish belgilandi. PQ-22-son qarori esa “g‘oyadan amaliyotgacha” tamoyilini ilgari surib, ilmiy-amaliy ishlarni tizimli davom ettirish vazifalarini o‘rnatdi.

Shu kontekstda mazkur maqolada ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarining huquqiy va ilmiy-metodik asoslari, ularni tashkil etish tizimi, loyihalarning “g‘oyadan amaliyotgacha” tamoyili doirasidagi tahlili, natijalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlari, shuningdek xalqaro tajriba va innovatsiyalar hamda mavjud muammolar ko‘rib chiqilib, ma’lumot sifatida statistik tahlil natijalari, qonunchilik hujjatlari va ilmiy adabiyotlar asosida asosli xulosalar keltirildi.

Kriminologik ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarining huquqiy, ilmiy-metodik asoslari

O‘zbekiston Respublikasida ilmiy tadqiqotlarni tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri – 2019-yil qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonundir. Bu qonun ilm-fan sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni maqsad qilgan. Kriminologiya faniga doir faoliyat esa “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun, “Jamoat xavfsizligi” konsepsiyasi va boshqa davlat hujjatlarida ham vazifalari belgilangan. 2024-yilda O‘zbekiston Prezidentining PF–10 farmoni bilan Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilganligi *(“Ilm-fan va ilmiy faoliyat...” Qonuni 4-moddasiga muvofiq)* kriminologiya sohasining ilmiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yuqoridagi hujjatlar asosida kriminologik ilmiy-amaliy loyihalar ikki xil shaklda *(buyurtma asosidagi va tashabbus asosidagi)* amalga oshiriladi.

Kriminologiya tadqiqotlariga ilmiy-metodik jihatdan oid masalalar adabiyotlarda keng yoritilgan. Masalan, kriminologiya fanining asosiy vazifalari qatorida jinoyatlar profilaktikasini yaxshilashga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish sanaladi. Bu borada empirik va statistik metodlardan keng foydalanish zarur: har bir tadqiqotda kuzatuv, statistik ma’lumotlar tahlili, so‘rovnomalar, hujjatlarni tahlil kabi usullar qo‘llanilishi talab etiladi. Xususan, kriminologlar kuzatuv ishlariga etarlicha

e’tibor qaratilmayotgani natijada tadqiqot samarasining kamayishi ta’kidlanadi. Demak, ilmiy-metodik asoslarga ko‘ra har bir loyiha uchun tadqiqot dasturi ishlab chiqilib, unda to‘planishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar va bajariladigan ishlar ro‘yxati aniq belgilanishi kerak.

O‘zbekistonda kriminologik tadqiqot loyihalarini tashkil etish va amalga oshirish tizimi O‘zbekiston hukumati kriminologik tadqiqotlarni milliy xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyasining bir qismi sifatida ko‘rib chiqadi. Ichki ishlar vazirligining huzuridagi yangi tashkil etilgan Kriminologiya tadqiqot instituti “tayanch ilmiy tashkilot” deb e’lon qilingan va u orqali sohadagi tadbirlar muvofiqlashtiriladi. Institut Kriminologiya yo‘l xaritasi va maqsadli ko‘rsatkichlar asosida 2024–2030-yillar uchun faoliyat rejasini belgilaydi.

PQ-22 qarorida kriminologik tadqiqotlarni amalga oshirish tartib-qoidalari belgilandi: u buyurtma asosidagi va tashabbus asosidagi loyihalarni ajratib, har birini 3- va 4-ilovadagi ro‘yxatlar bo‘yicha bajarishni ko‘zda tutadi. Buyurtma asosidagi loyihalar hukumat organlari tomonidan belgilangan muammolarni yechishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tashabbus asosidagi loyihalar ilmiy jamoatchilik yoki institut takliflari bilan boshlanadi. Moliyalashtirish asosan davlat budjeti, ichki va xorijiy grantlar hisobidan amalga oshiriladi. Davlatimiz rahbarining PQ–22-son qarori Institutga xorijiy, nodavlat hamkorlar bilan qo‘shma tadqiqotlar qilish huquqini berdi, shuningdek o‘quv-uslubiy nashrlar chop etib borish majburiyatini yukladi. Shuningdek, institut faoliyatini baholash uchun har yili harakatlar dasturi tasdiqlanib, natijalar monitoring qilinadi. Bunday tartib kriminologik tadqiqotlarning barqaror tashkiliy tizimini ta’minlaydi.

“G‘oyadan amaliyotgacha” tamoyili asosidagi ilmiy loyihalar tahlili

“G‘oyadan amaliyotgacha” tamoyili – kriminologiya sohasidagi yangicha yondashuvdir. Unga ko‘ra, har bir tadqiqot loyihasi fanlararo yondashuv bilan ishlab chiqilib, olingan ilmiy natija amalda qo‘llanilishi kerak. PQ–22 qarorida mazkur tamoyil afzal yo‘nalish sifatida belgilangan va jinoyatchilikka qarshi kompleks choralar ishlab chiqishga urg‘u berilgan. Masalan, qarorda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda jinoyatchilik omillarini aniqlash tavsiya etilgani *(kuning asl omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash)* amaliyot uchun g‘oyadan yechimga o‘tishni ta’minlashga qaratilgan.

Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish mexanizmlari

Ilmiy-amaliy tadqiqot yakunlari samaradorligini oshirish uchun natijalarni tizimli joriy etish zarur. Buning uchun birinchi navbatda bitilgan loyiha xulosalari va tavsiyalari tegishli davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilinadi. Masalan, PQ-22 qaror hamda Hukumatning 2024-yil 24-iyuldagi 445-son qarorida “ilmiy ishlanmalarni kriminologik faoliyat amaliyotiga joriy etish tizimi” va qonunchilik hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish uchun takliflar tayyorlash mexanizmlari ko‘zda tutilgan. Amaliyotga joriy etish quyidagi mexanizmlarni o‘z ichiga oladi:

Normativ-huquqiy hujjatlar – mamlakat qonun chiqaruvchilari kriminologik tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda qonun va qarorlarni qabul qilishi. Masalan, prinyos (qaror) loyihalariga muammo tahlillari va ilmiy hisobotlar kiritilishi zarur.

Amaliy qo‘llanmalar va kurslar – ichki ishlar organlari va sudlar uchun yangi tavsiyalar asosida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqilib, ularni soha xodimlariga tarqatish.

Ilmiy nashrlar va konferensiyalar – Institut tomonidan tayyorlangan ilmiy maqola va konferensiya ma’ruzalari orqali yangiliklar e’lon qilinib, professional hamjamiyatga yetkaziladi.

Pilot loyihalar va tajriba dasturlari – kriminologik modellarni amalda sinovdan o‘tkazish, masalan, e-bracelet tizimini cheklangan hududlarda qo‘llash va natijalarni tahlil qilish.

Hisobot va monitoring – Kriminologiya tadqiqot instituti har yili faoliyat to‘g‘risidagi davlat hisobotini tayyorlab, sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarni va xatolarni e’lon qiladi. Ushbu hisobot orqali natijalar tahlil qilinib, kelgusi rejalar yangilanadi.

Bunday mexanizmlar orqali ilmiy g‘oyalardan amaliy echimlar paydo bo‘ladi. Masalan, avvalgi tadqiqotlarda aniqlangan jinoyatchilik tendensiyalari asosida yangi profilaktika dasturlari ishlab chiqilib, hududlarda tatbiq qilinishi mumkin. O‘zbekiston amaliyotida bu tizim endigina yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, institut tomonidan harakatlar dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarda samarali natijalar kuzatilmoqda.

Xalqaro tajriba va innovatsiyalarni solishtirish

Xalqaro miqyosda kriminologik tadqiqotlar ko‘plab davlat va tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti

(BMT) doirasida UNODC va UNICRI kabi institutsional tuzilmalar jinoyatchilikka qarshi xalqaro hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida Milliy Adliya Instituti (NIJ) politsiya va mahalliy organlarga ilmiy asoslarga tayangan yechimlarni taklif etadi. Evropada esa Yevropa Ittifoqi Criminology Symposium kabi jamoalar transmilliy kriminologik loyihalarni moliyalashtiradi. Misol uchun, Niderlandiyada Kriminologiya Instituti (NSCR) va Kanadadagi Criminal Justice Research Council ilg‘or texnologiyalar (AI, tahlil dasturlari) yordamida jinoyatni oldini olish tadqiqotlariga katta e’tibor qaratadi.

Bu xalqaro tajribalarga asoslanib, O‘zbekistonda ham AI va raqamli kriminologiya rivojlanmoqda. PQ-22 qarorida ham sun’iy intellektni qo‘llash va “raqamli kriminologiya” sohasini yaratish davlat darajasida belgilangan (yo‘nalishlar ro‘yxatida). Xorijdagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jinoyatchilikka samarali qarshi chora topish uchun dunyo bo‘ylab raqamli ma’lumotlar tahlili va ilg‘or texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida statistika almashish va profilaktika dasturlari efekti baholanishi sohasida innovatsion metodlar o‘rganilmoqda. Bizning amaliyotga muvofiq, xalqaro standartlar va tavsiyalar ham yurtimiz kriminologiyasi dasturlariga singdirilmoqda, masalan, terrorizm va transmilliy jinoyatchilik tadqiqotlari bilan.

Muammolar, to‘siqlar va taklif etilayotgan yechimlar

Kriminologik tadqiqotlarni tashkil etishda hali bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, soha uchun malakali tadqiqotchilar va analitiklar yetishmaydi; bu esa murakkab interfaol loyihalarni boshqarishni qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, mavjud statistik tizimlarning ayrim noaniqliklari va mahalliy ma’lumotlarning tahlilga kiritilishidagi kamchiliklar e’tiborga muhtoj (jinoyatchilikning latent qismini ham hisoblash lozim). Uchinchidan, moliyaviy va infratuzilma jihatidan korxonalarning kamligi: amaliy tajriba loyihalarini doimiy qo‘llab-quvvatlash budjet cheklovlari tufayli sekin kechmoqda. To‘rtinchidan, ba’zi ijtimoiy muammolar haqida chuqur ilmiy tahlillarning yetishmasligi – masalan, oilaviy zo‘ravonlik, yoshlar jinoyatchiligi hamda jinoyatni ijtimoiy-psixologik omillar asosida o‘rganish hali rivojlanmagan sohalardir.

Bu muammolarni yengib o‘tish uchun bir nechta yechimlar taklif qilinadi. Resurslarni to‘g‘ri taqsimlash: Kriminologiya instituti va universitetlar birgalikda grant tizimini kuchaytirishi, ilmiy mutaxassislar tayyorlash dasturlarini kengaytirishi zarur. Statistikani takomillashtirish: Ichki ishlar vazirligi va Markaziy statistik qo‘mitasi jinoyat statistikasini real va latent harakatlarni ham inobatga olgan holda shakllantirmog‘i lozim.

Boshqaruv va kordinatsiya: ilg‘or boshqaruv usullari va “loyihalar boshqarmasi” mexanizmi joriy etilishi natijalarni monitoring qilishni samarali qilishi mumkin. Xalqaro aloqalar: PQ-22 qaroridagi xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik mexanizmi amalda kengaytirilishi lozim, bu xorijiy innovatsiyalarni tezroq transfer qilish imkonini beradi. Ta’lim va jamoatchilik bilan integratsiya: kriminologiya fanining yurtimiz oliy ta’lim muassasalarida tizimli o‘qitilishi va jamoatchilikda profilaktik tadbirlar ta’limi (PF-10 talablariga muvofiq) jinoyatchilik omillarini yengillashtiruvchi madaniy omillar ustida ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Zamonaviy kriminologiyada ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini tizimli tashkil etish – jinoyatchilikka qarshi kurashning eng muhim tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari (PF-10, PQ-22) kriminologiya sohasidagi tadqiqotlarni yuqori darajaga ko‘tarish uchun zarur huquqiy-tatbiq chora-tadbirlarni belgiladi. Mahalliy metodologik asoslar sifatida ilmiy tadqiqotlarda kuzatuv va statistika yondashuvlarini kuchaytirish, va ularni tavsiyalar darajasida amaliyotga joriy etish mexanizmlari aniqlangan.

Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish milliy tizimni takomillashtirishga xizmat qiladi, bu yo‘nalishda hamkorlikni kengaytirish muhim. Shu bilan birga, malakali kadrlar yetishmovchiligi, statistik ma’lumotlar boshqotirmasi, moliyaviy cheklovlar kabi to‘siqlarni hal qilish lozim. Ularni bartaraf etish uchun ilmiy-tadqiqot instituti va davlat organlari hamkorligida strategik choralar (grantlar, integratsiya dasturlari va modellar) ishlab chiqilmoqda.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqot natijalarining mazmunli baholanishi va tegishli modellar asosida amaliy dastur tayyorlash kriminologiya faniga asoslangan qarorlarni qabul qilish samarasini oshiradi. Muxtasar

qilib aytganda, kriminologiya fanining “g‘oyadan amaliyotgacha” tamoyili doirasidagi loyihalar tizimli tashkil etilishi va ularning natijalari amaliyotga joriy etilishi kelajakda jinoyatchilikni oldini olish samaradorligini sezilarli oshirishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. – Toshkent: Adolat, 2007.
2. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya (darslik). – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2008.
3. Zaripov Z.S., Pulatov Y.S., Avanesov G.A. va boshq. // Kriminologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006.
4. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Yu. Kriminologiya fanining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2014.
5. Umirzakov B.A., Kutbitdinov G.X. // “Kriminologiya” fanining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2024.
6. Umirzakov B.A. // Kriminologiyada ilmiy tadqiqotlar va metodologiya masalalari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2024.
7. Akers R.L., Sellers C.S. Criminological Theories: Introduction, Evaluation, and Application. – Oxford University Press, 2013.
8. Jeffery C.R. // The Historical Development of Criminology // Journal of Criminal Law & Criminology. – 1959.
9. Binder A. // Criminology: Discipline or Interdiscipline? // Issues in Criminology. – 1989.
10. Ignjatović Đ. // Criminology (12th ed.). – Belgrade: Faculty of Law, University of Belgrade, 2015.
11. Ramirez-Thompson E. // Criminology: Foundations and Modern Applications. – College of DuPage Press, 2023.

KIBERJINOYAT TUSHUNCHASI

Mavlonov Doston Mavlon o‘g‘li

IIV T va TOXTD Sirdaryo viloyati transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi, kadrlar bilan ta’minlash guruhi katta inspektori, kapitan

Annotatsiya. Ushbu tezisda kiberjinoyat tushunchasi va unga to‘g‘ri tarif berish lozimligi amaliyotda mavjud muammolar misolida yoritilgan. Kiberjinoyat tushunchasiga ilmiy asoslangan tadqiqot usullari orqali eng to‘g‘ri tarifni berish, ushbu sohada to‘g‘ri qaror qabul qilish, kiberjinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish faoliyati samaradorligini oshirishga asoslangan.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyat, kiberjinoyatchilik, kibermakon, deepfake, masofaviy o‘g‘rilik va firibgarlik, axborot tizimi, kiber obyekt, raqamli xavfsizlik.

Hozirgi kunda fan taraqqiyotining eng yetuk mahsuli sifatida ko‘rilayotgan kashfiyotlarning biri sifatida sun’iy intellektni aytishimiz mumkin. Buni tasavvur qilishimiz uchun dastlabki insoniyat kash-fiyotlaridan biri g‘ildirak bilan solishtirib ko‘rsak, oradan o‘tgan vaqt va insoniyat erishgan ilm-fanning darajasi yaqqol ko‘rinadi. Insoniyat sivilizatsiyasi paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab, insonlar o‘rtasidagi munosabatlardan tortib, ma’lum bir huquqlardan foydalanishga qadar bo‘lgan bosqichning barchasi urf-odatlarga amal qilish, tartib qoidalar yaratish, qonunlar yozish bilan tartibga solib kelingan. Bundan ko‘rinadiki, insoniyat o‘z qo‘li bilan yaratayotgan kashfiyotlaridan huquqqa xilof ravishda foydalanmasligi, insoniyatga qarshi qurolga aylantirmasligi, balki, inson huquq va manfaatlariga xizmat qilishi zaruriyatini tug‘diradi. Elektron hisoblash mashinalaridan to aqlli qurilmalarga qadar bo‘lgan oraliqdagi qilingan ixtirolarning ishlab chiqarishga tadbiq etilishi negizida o‘zining foydalanish va texnik yo‘riqnomasi bilan birga huquqiy tartibga solish ehtiyoji tug‘ilib kelgan. Bunda foydalanish shartlari va yuridik mezon tartibga solishning boshlang‘ich normasi hisoblanadi. Hozirgi jamiyatimizda real va vertual olam birdek rivojlanmoqda. Ba’zida

vertual olamning imkoniyatlari real olamnikidan o‘zib ketayotganligi, shu sohada bilimi yetarli bo‘lmagan qatlamning ortda qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda va bu esa jamiyat bilan tengma teng rivojlanayotgan kiberjinoyatchilikning real hayotga xavfi kuchayib borayotganligidan dalolat beradi. Bu xavf esa iqtisodiy-moliyaviy harakterga ega. Bunga misol tariqasida, qo‘lidagi mobil qurilmasida mavjud ijtimoiy tarmoqqa kelgan noma’lum linkni bosib, plastik kartasidan pul mablag‘larini, oddiy qilib aytganda oylik ish haqqini noma’lum tarzda yechib olingan holatlarni keltirish mumkin. Shuningdek, o‘g‘rilangan plastik karta orqali to‘lovlarni amalga oshirish ham bunga misol bo‘la oladi. Buni “karding” deyishadi. Hozirgi kunda esa bunday kartalarning turlari ko‘p. Elektron hamyondan tortib, kredit kartaga qadar. Xususan, mamlakatimizda so‘nggi besh yillikda kiberjinoyatlar 68 baravar, birgina o‘tgan yilda esa 2023-yildagiga nisbatan 9,1 baravar oshgan. Ushbu davrda kibermakondagi huquqbuzarliklar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlar soni 34 baravar ko‘paygan. Mazkur jinoyatlar natijasida fuqarolarning 1 trillion 909 milliard so‘mdan ortiq mablag‘i talon-taroj qilingan. 2019-yilda axborot texnologiyalari orqali 18 turdagi 863 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, 2024-yilda 62 turdagi 58 ming 800 ta jinoyat qayd etilgani hamda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi sezilarli ravishda ortishi kuzatilgani ularning oldini olish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda. 2023-yilda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 6,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 44,4 foizga yetib, deyarli har ikkita jinoyatning biri axborot texnologiyalari orqali sodir etildi. Bu holat ularning oldini olish tizimini muntazam, yilma-yil takomillashtirib borishni taqozo tmoqda. Kiberjinoyatlarning asosiy qismini *(98 foizi)* bank kartalari bilan bog‘liq jinoyatlar *(kibero‘g‘rilik va kiberfiribgarlik)* tashkil etmoqda[34]. Shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan mobil ilovani o‘z qurilmasiga o‘rnatib, undan foydalanish, unga shaxsga doir ma’lumotlarni joylashtirish esa uni ortida turgan shaxslarga ushbu ma’lumotlardan nima aqsadlarda foydalanishi qorong‘u. Bunga misol tariqasida “Deepfake”ni keltirish mumkin. “Deepfake” – bu sun’iy intellekt yordamida yaratilgan, haqiqiyga o‘xshab ko‘rinadigan va haqiqiysidan odatda farqlash qiyin bo‘lgan foto, video yoki audio material. U insonlarning yuzini yoki ovozini

[34] https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-vaziri-xavfsiz-kibermakon-yaratish-borasidagi-kelgusi-rejalari-haqida-malum-qildi

boshqalarnikiga almashtirish yoki yangi, mavjud bo‘lmagan suratlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bu esa soxta axborot tarqatish, shantaj, shaxsiy xavfsizlikka tahdid va boshqa salbiy oqibatlarga, hattoki xalqlar o‘rtasida kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, kiberjinoyat iqtisodiy jinoyatlardan kiberpornografiya va uning savdosigacha, noqonuniy onlayn reklama orqali keng miqiyosda faoliyat yuritishni o‘z ichiga oladi. To‘g‘ri, internetning foydali jihatlari e’tiborga loyiq. Shu sababli ham kibermakonni huquqiy tartibga solish, vertual olamda iqtisodiy jinoyatlarni oldini olish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish uchun faqatgina javobgarlikni og‘irlashtirishni taklif qilish bilan cheklanyapmiz va buning o‘zi yetarli emas. Bunda shu ko‘rinadiki, kibermakonni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish dolzarb masaladir. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-aprel kunidagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-769-sonli Qonunining 3-moddasida kiberjinoyatchilik tushunchasiga quyidagicha tarif berilgan, ya’ni kiberjinoyatchilik – axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi[35]. Asosiy e’tiborni esa kibermakonda sodir bo‘layotgan jinoyatlarni tahlil qilib, kiberjinoyat tushunchasiga eng to‘g‘ri ta’rifni berish, amaldagi qonunchilikda mavjud kiberjinoyat uchun javobgarlikni turlarga bo‘lib, amaliy tadqiqot metodlaridan foydalangan holda alohida tasniflash lozim bo‘ladi. Bunda dasturlangan aniq kiber obyektni buzish bilan mavjud qurilma, ilova va internet tarmog‘idan foydalangan holda vertual olamdagi masofaviy o‘g‘rilik va firibgarlikni farqlash lozim bo‘ladi. Huquqiy tartibga solish raqamli xavfsizlikni ta’minlashning mezonlaridan biri bo‘lib, buni hech qachon istisno qilib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan internet resurslari:

1. https://yuz.uz
2. https://lex.uz

[35] https://lex.uz/uz/docs/5960604

RAQAMLI KONTENTLAR ORQALI AHOLINING KIBERXAVFSIZLIK MADANIYATINI OSHIRISH MASALALARI

Normurodov Bahrom Nurali o‘g‘li,

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Raqamli transformatsiya jarayonlari bugungi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olib, inson faoliyatining yangi sifat bosqichini shakllantirmoqda. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, elektron bank operatsiyalari, masofaviy ta’lim, elektron savdo va ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish aholining kundalik turmushida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq, raqamli muhit imkoniyatlarining kengayishi bilan bir qatorda, kiberjinoyatchilik ham murakkablashib, yangi shakl va usullarda namoyon bo‘lmoqda. Phishing xabarlari, soxta qo‘ng‘iroqlar, messenjerlar orqali tarqatilayotgan yolg‘on axborotlar, investitsiya va kredit bilan bog‘liq firibgarliklar, shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy egallash holatlari aholining keng qatlamlariga real xavf tug‘dirmoqda.

Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, kiberjinoyatlar bilan bog‘liq holatlarning aksariyatida jabrlanuvchilar texnik jihatdan himoyasiz bo‘lgani uchun emas, balki o‘z xatti-harakatlari orqali jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratgani sababli zarar ko‘rmoqda. Masalan, bank kartasi rekvizitlarini begona shaxslarga topshirish, SMS orqali kelgan bir martalik tasdiqlash kodini tekshirmasdan ulashish, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlarni oshkor etish yoki shubhali havolalarni ochish kabi holatlar amaliyotda eng ko‘p uchraydi.

Ichki ishlar organlari amaliyotidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab kiberfiribgarlik jinoyatlari aynan ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali sodir etilib, jabrlanuvchilar o‘zlari sezmagan holda jinoyat mexanizmining faol ishtirokchisiga aylanib qolmoqda. Bu holat kiberxavfsizlik masalasida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Shu sababli kiberxavfsizlikni ta’minlash faqat **texnologik vositalarni joriy etish yoki huquqiy choralarni kuchaytirish bilangina**

cheklanib qolmasligi lozim. Aholining kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy profilaktik yo‘nalishi sifatida qaralishi zarur. Kiberxavfsizlik madaniyati shaxsning raqamli muhitda ongli, mas’uliyatli va ehtiyotkor xatti-harakatlarni namoyon etishi, axborotga tanqidiy yondashishi va xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish qobiliyatini ifodalaydi.

Bu madaniyatning shakllanishi uzoq muddatli va tizimli jarayon bo‘lib, u bilim berish, ko‘nikma hosil qilish va xavfsiz xulq-atvorni odatga aylantirishni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy jamiyatda aholining **axborotni qabul qilish manbalari tubdan o‘zgargan**. Fuqarolar rasmiy hujjatlar yoki an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, qisqa videolar va mobil ilovalar orqali tezkor axborot olishga ko‘proq moyil. Shu jihatdan, kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishda raqamli kontentlar eng samarali ta’sir vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, so‘nggi yillarda banklar va to‘lov tizimlari tomonidan mobil ilovalar orqali yuborilayotgan ogohlantiruvchi xabarlar natijasida ayrim turdagi firibgarlik holatlari sezilarli darajada kamaygani kuzatilmoqda. Foydalanuvchiga “xodimlar hech qachon karta ma’lumotlarini so‘ramaydi” mazmunidagi qisqa eslatmalar real jinoyatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynamoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan qisqa videoroliklar va infografikalar orqali aholiga kiberfiribgarlik sxemalari sodda va tushunarli shaklda tushuntirilmoqda. Empirik misol sifatida, soxta investitsiya reklamalari haqida tayyorlangan qisqa videolar foydalanuvchilarning bunday takliflarga nisbatan ehtiyotkorligini oshirib, “tez boyish” va’dalariga tanqidiy yondashish ko‘nikmasini shakllantirmoqda.

Ta’lim muassasalarida o‘tkazilayotgan onlayn treninglar va interaktiv testlar esa yoshlar orasida kiberxavfsizlikka oid bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunday mashg‘ulotlar natijasida o‘quvchilarning shubhali havolalarni aniqlash va xavfli kontentni ajratib olish qobiliyati sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda.

Raqamli kontentlar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini oshirishda **muntazamlik va tizimlilik muhim ahamiyatga ega**. Bir martalik ogohlantirish yoki kampaniya barqaror natija bermaydi. Aksincha, doimiy ravishda yangilanib boradigan, real holatlarga asoslangan va auditoriya

ehtiyojlariga mos kontentgina xavfsiz xatti-harakatlarni kundalik odatga aylantira oladi. Masalan, har oy yangilanadigan “kiberxavfsizlik tavsiyalari”, haftalik ogohlantiruvchi postlar yoki real jinoyat holatlariga asoslangan tahliliy materiallar foydalanuvchilarda hushyorlikni saqlab turadi.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha raqamli kontentlar samaradorligi ko‘p jihatdan davlat va jamoatchilik hamkorligiga bog‘liq. Davlat organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan strategiyalar va normativ hujjatlar umumiy yo‘nalishni belgilab bersa, jamoatchilik institutlari, moliya tashkilotlari, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari ushbu siyosatni amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, banklar, telekommunikatsiya operatorlari va ichki ishlar organlari hamkorligida amalga oshirilayotgan axborot kampaniyalari aholining kiberxavfsizlik masalalariga bo‘lgan e’tiborini oshirib, jinoyatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda yagona axborot makonini shakllantirish, xabarlarning o‘zaro mosligi va ishonchliligini ta’minlash muhim hisoblanadi.

Raqamli kontentlar orqali aholining kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish zamonaviy kiberjinoyatchilik sharoitida eng samarali va ustuvor profilaktik choralaridan biri hisoblanadi. Empirik misollar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri ishlab chiqilgan va auditoriyaga moslashtirilgan raqamli kontentlar foydalanuvchilarning ongiga bevosita ta’sir etib, xavfsiz xatti-harakatlarni shakllantiradi. Davlat va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi asosida olib borilayotgan tizimli axborot siyosati natijasida jamiyatda mas’uliyatli, ehtiyotkor va barqaror raqamli madaniyatni qaror toptirish mumkin. Bu esa nafaqat kiberjinoyatchilikning oldini olishga, balki fuqarolarning shaxsiy va moliyaviy xavfsizligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Raqamli muhitda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish jarayoni faqat axborot tarqatish bilan cheklanmay, balki, **inson xulq-atvorini tizimli ravishda o‘zgartirishga qaratilgan murakkab ijtimoiy jarayon hisoblanadi**. Kriminologik nuqtayi nazardan qaraganda, kiberjinoyatchilikning aksariyat turlari jabrlanuvchining faol yoki passiv ishtiroki bilan sodir etiladi. Ya’ni jinoyatchi tomonidan qo‘llanilayotgan texnik vositalar qanchalik murakkab bo‘lmasin, yakuniy natija ko‘pincha foydalanuvchining noto‘g‘ri qarori bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli

kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish jinoyatchilikka qarshi kurashda an'anaviy repressiv choralarni to'ldiruvchi, hatto ayrim holatlarda ularning o'rnini bosuvchi profilaktik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, raqamli kontentlar orqali berilayotgan axborot foydalanuvchining xatti-harakatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, real jinoyat holatlariga asoslangan hikoyaviy kontentlar *(storytelling)* foydalanuvchilarda kuchli psixologik ta'sir uyg'otadi. "**Oddiy fuqaro qanday qilib firibgarlik qurboniga aylangani**" haqidagi qisqa videolar yoki maqolalar abstrakt ogohlantirishlarga nisbatan ancha samarali bo'lib, xavfni real va yaqin sifatida qabul qilishga majbur qiladi. Bunday kontentlar natijasida foydalanuvchilar o'z xatti-harakatlarini qayta ko'rib chiqishi, shubhali vaziyatlarda ehtiyotkorlikni oshirishi kuzatiladi.

Kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishda raqamli kontent-larning yana bir muhim jihati – ularning xulq-atvorni mustahkamlash funksiyasidir. **Psixologik tadqiqotlarga ko'ra**, biror xavfsiz xatti-harakat kamida bir necha bor takrorlangan taqdirdagina odatga aylanadi. Shu bois raqamli kontentlar muntazamlik va izchillik asosida ishlab chiqilishi zarur. Masalan, haftalik "kiberxavfsizlik eslatmalari", oy davomida ketma-ket tarqatiladigan mini-maslahatlar yoki muayyan mavzuga bag'ishlangan kontent seriyalari foydalanuvchilarda xavfsiz xatti-harakatni barqaror odatga aylantirishga xizmat qiladi. Amaliyotda bunday yondashuv bank va moliyaviy xizmatlar sohasida ijobiy natija bergani kuzatilmoqda.

Shuningdek, raqamli kontentlar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy ta'sir mexanizmi muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan kontentlar faqat individual foydalanuvchiga emas, balki uning atrofidagi ijtimoiy guruhga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bir foydalanuvchi tomonidan ulashilgan ogohlantiruvchi post yoki videorolik boshqa foydalanuvchilarda ham hushyorlikni oshiradi. Shu tariqa kiberxavfsizlikka oid ijobiy xulq-atvor modeli ijtimoiy norma sifatida shakllana boshlaydi. Kriminologik jihatdan bu holat "**ijtimoiy nazoratning norasmiy shakllari**" kuchayishi bilan izohlanadi.

Aholining turli qatlamlari uchun raqamli kontentlarni moslashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, yoshlar uchun interaktiv formatdagi kontentlar – testlar, viktorinalar, qisqa videolar samaraliroq bo‘lsa, yoshi katta foydalanuvchilar uchun sodda tilda yozilgan tushuntirishlar, real hayotiy misollar va aniq ko‘rsatmalar muhim hisoblanadi. Qishloq joylarda istiqomat qiluvchi aholi uchun esa mobil ilovalar va messenjerlar orqali tarqatiladigan qisqa va aniq xabarlar eng maqbul shakl bo‘lib chiqmoqda. Bu holat raqamli kontentlarni ishlab chiqishda differensial yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamli kontentlar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish jarayonida ta’lim tizimining o‘rni ham muhimdir. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlikka oid raqamli o‘quv materiallaridan foydalanish yosh avlodda erta bosqichdanoq mas’uliyatli raqamli xulq-atvorni shakllantiradi. Empirik tajriba shuni ko‘rsatadiki, kiberxavfsizlik bo‘yicha qisqa onlayn kurslar va interaktiv mashg‘ulotlardan o‘tgan yoshlar shubhali havolalarni aniqlash va xavfli kontentdan qochish borasida ancha ehtiyotkor bo‘ladi. Bu esa uzoq muddatda kiberjinoyatchilik darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli kontentlar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning samaradorligini baholash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Kontentlar sonining ko‘pligi emas, balki, ularning foydalanuvchi xatti-harakatiga real ta’siri muhimdir. Shu sababli amaliyotda foydalanuvchilarning xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni tahlil qilish, firibgarlik holatlarining kamayishi, shubhali operatsiyalar bo‘yicha murojaatlar soni kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday empirik baholash raqamli kontent strategiyasini doimiy takomillashtirish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli kontentlar orqali olib borilayotgan tizimli va maqsadli targ‘ibot ishlari kiberxavflarning oldini olishda muhim profilaktik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarda raqamli kontentlar kiberxavfsizlik strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Yevropa Ittifoqida kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalasi ENISA *(European Union Agency for Cybersecurity)* faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu agentlik tomonidan ishlab chiqilgan

axborot kampaniyalari aholining turli qatlamlariga moslashtirilgan raqamli kontentlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, “Cybersecurity Awareness Month” doirasida ijtimoiy tarmoqlar, veb-platformalar va mobil ilovalar orqali foydalanuvchilarga real kiberxavf holatlari, phishing sxemalari va himoya choralariga oid qisqa, tushunarli va vizual materiallar taqdim etiladi. Empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu kampaniyalar natijasida Yevropa davlatlarida foydalanuvchilarning shubhali havolalarni ochish darajasi sezilarli darajada kamaygan, kiberxavfsizlik bo‘yicha murojaatlar esa ongli va aniq tus olgan.

Buyuk Britaniya tajribasida raqamli kontentlar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. National Cyber Security Centre *(NCSC)* tomonidan yuritilayotgan “Stay Safe Online” platformasi orqali aholiga muntazam ravishda raqamli kontentlar tarqatiladi. Ushbu kontentlar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo‘lib, oddiy foydalanuvchi qanday qilib firibgarlik qurboniga aylanishi va bunday holatning oldini olish mumkinligi soddalashtirilgan hikoyalar orqali tushuntiriladi. Kriminologik nuqtayi nazardan, bunday storytelling uslubi xavfni abstrakt tushuncha emas, balki, shaxsiy hayotga yaqin real hodisa sifatida qabul qilishga yordam beradi. Natijada foydalanuvchilarning ehtiyotkorligi oshib, xavfsiz xatti-harakatlar barqaror odatga aylana boshlaydi.

AQShda esa kiberxavfsizlik madaniyatini oshirishda raqamli kontentlar bilan bir qatorda xulq-atvor iqtisodiyoti elementlaridan faol foydalanilmoqda. Cybersecurity and Infrastructure Security Agency *(CISA)* tomonidan ishlab chiqilgan raqamli kampaniyalar foydalanuvchini qo‘rqitishga emas, balki, uni to‘g‘ri tanlovga undashga qaratilgan. Masalan, “Think. Connect. Secure.” shiori ostida yaratilgan kontentlar foydalanuvchini har bir onlayn harakatdan oldin qisqa fikrlashga undaydi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv foydalanuvchilarning parol siyosatini yaxshilash, ikki bosqichli autentifikatsiyani yoqish va shubhali xabarlarni e’tiborsiz qoldirish ko‘nikmalarini kuchaytirgan.

Janubiy Koreya tajribasi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, bu mamlakatda raqamli kontentlar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘langan. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida

kiberxavfsizlikka oid raqamli o‘quv kontentlari majburiy dasturga kiritilgan. Shu bilan birga, hukumat tomonidan ishlab chiqilgan mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali aholiga muntazam ogohlantirishlar va interaktiv treninglar taqdim etiladi. Empirik ma’lumotlarga ko‘ra, Janubiy Koreyada yoshlar orasida phishing va soxta havolalar orqali aldanish holatlari boshqa ko‘plab davlatlarga nisbatan ancha past ko‘rsatkichni tashkil etadi. Bu holat raqamli kontentlar orqali erta bosqichda shakllantirilgan kiberxavfsizlik madaniyatining samaradorligini tasdiqlaydi.

Yaponiya tajribasida esa kiberxavfsizlik madaniyati “kundalik intizom” tushunchasi bilan bog‘langan holda targ‘ib qilinadi. Hukumat va yirik texnologik kompaniyalar hamkorligida ishlab chiqilgan raqamli kontentlar foydalanuvchilarga xavfsizlikni murakkab texnik masala emas, balki kundalik gigiyena kabi oddiy va zarur odat sifatida qabul qilishni singdiradi. Masalan, muntazam ravishda tarqatiladigan qisqa eslatmalar va vizual kontentlar foydalanuvchini parolni yangilash, qurilmalarni yangilab borish va shaxsiy ma’lumotlarni cheklashga undaydi. Bu yondashuv natijasida aholining kiberxavfsizlikka nisbatan mas’uliyati oshgani kuzatilmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli kontentlar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning eng muhim sharti – tizimlilik, auditoriyaga moslashuv va real hayotiy misollarga tayanganlikdir. Bir martalik kampaniyalar emas, balki uzoq muddatli va uzluksiz axborot siyosati samarali natija beradi. Shuningdek, kontentlar davlat, xususiy sektor va jamoatchilik hamkorligi asosida ishlab chiqilganda, ularning ishonchliligi va ta’sir kuchi sezilarli darajada oshadi.

Shunday qilib, xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun ham muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Raqamli kontentlar orqali aholining kiberxavfsizlik madaniyatini oshirishda ilg‘or davlatlarning empirik yondashuvlarini moslashtirish, milliy mentalitet va axborot makoni xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etish kiberjinoyatchilikning oldini olishda samarali natijalarga erishish imkonini yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash va profilaktika bo‘yicha axborot materiallari.

2. Ismoilov O.Y. Raqamli muhitda jinoyatchilikning kriminologik xususiyatlari va ularning oldini olish masalalari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2023.

3. European Union Agency for Cybersecurity *(ENISA)*. Cybersecurity Awareness and Behavioural Change. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2023.

4. National Cyber Security Centre *(UK)*. Cyber Aware: Guidance for Individuals and Organisations. – London, 2024.

5. Cybersecurity and Infrastructure Security Agency (CISA). Think. Connect. Secure. Cyber Awareness Campaign. – Washington, DC, 2023.

6. OECD. Enhancing Digital Security Risk Management and Cybersecurity Culture. – Paris: OECD Publishing, 2022.

7. South Korean Ministry of Science and ICT. National Cybersecurity Awareness and Education Strategy. – Seoul, 2023.

8. Furnell S., Clarke N. Human Aspects of Information Security: Awareness, Behaviour and Culture. – Computer Fraud & Security Journal, 2022, №4, pp. 12–17.

9. Florêncio D., Herley C. Measuring the Effectiveness of Cybersecurity Awareness Campaigns. – Proceedings of the World Wide Web Conference, 2021, pp. 121–130.

МЕЖДУНАРОДНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ

Абдуллаев Ҳамидулла Олимжонович

Подполковник-заместитель начальника УВД Джизакской области-начальник службы духовно-просветительской работы и обеспечения кадрами

Аннотация. В статье рассматривается международный и зарубежный опыт предупреждения экономической преступности в условиях глобализации. Анализируются современные подходы к профилактике экономических преступлений, механизмы правового регулирования и практики противодействия в различных странах. Особое внимание уделяется роли международных конвенций, межгосударственного сотрудничества и национальных стратегий снижении уровня экономической преступности. Раскрываются основные направления совершенствования системы профилактики на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: экономическая преступность, предупреждение преступлений, международный опыт, зарубежная практика, профилактика преступности, противодействие коррупции, отмывание денег, финансовые преступления, международное сотрудничество, правовое регулирование.

Конвенции устанавливается ответственность государств: каждая Сторона предусматривает в своем национальном законодательстве надлежащие процедуры, позволяющие лицам, понесшим ущерб в результате акта коррупции, совершенного ее публичными должностными лицами в ходе осуществления ими своих функций, требовать возмещения ущерба от государства или в случае, если Сторона не является государством, от соответствующих властей данной Стороны.

Следует отметить, что преступники, использующие компьютерные технологии, постоянно бросают вызов правоохранительным органам но всему миру. Такая ситуация указывает на крайнюю необходимость

сотрудничества государств по вопросам гармонизации национального законодательства и совершенствования практики его применения.

Большинство стран с развитой экономикой осознают опасность, исходящую от интеллектуального пиратства в Интернете. Так, главы государств “Большой восьмерки” *(G8)* на саммите, проходившем 16 июля 2006 г. в Санкт-Петербурге, отметили, что “проблема борьбы с торговлей пиратской и контрафактной продукцией носит комплексный и, в условиях глобализации мировых экономических связей, трансграничный характер”, а “ее решение возможно лишь путем индивидуальных и совместных усилий всех стран и соответствующих международных организаций”.

Кроме того, лидеры отметили необходимость “усилить взаимодействие в этой области стран G8 с другими государствами, а также с соответствующими международными организациями, в первую очередь с такими как: Всемирная организация интеллектуальной собственности *(ВОИС)*, Всемирная торговая организация (ВТО), Всемирная таможенная организация, Интерпол, Организация экономического сотрудничества и развития *(ОЭСР)*, Совет Европы”.

Предлагается “уделить приоритетное внимание совершенствованию и принятию законов, правил и/или процедур в целях обеспечения соблюдения прав интеллектуальной собственности, повышения информированности гражданского общества и деловых кругов о правовых способах защиты и обеспечения соблюдения прав интеллектуальной собственности, опасности интеллектуального пиратства и контрафактной продукции, а также оказания технического содействия развивающимся странам в данной области. Большое значение имеет также тесное сотрудничество между правоохранительными органами стран, включая таможенные органы”.

В итоге 2001 г. в Минске было подписано Соглашение о сотрудничестве государств – участников СНГ в борьбе с преступлениями в сфере компьютерной информации. Целью данного документа стало обеспечение эффективного предупреждения, выявления, пресечения, раскрытия и расследования преступлений в сфере компьютерной информации.

Все вышеизложенное ставит перед Россией задачу дальнейшего совершенствования законодательства в сфере борьбы с киберпреступлениями, ориентируясь на установки международного сообщества, данные в международно-правовых актах.

Принятая 22 июля 2000 г. Окинавская Хартия глобального информационного общества провозгласила укрепление политики и нормативной базы заинтересованных государств в борьбе со злоупотреблениями, подрывающими целостность Интернета, и сориентировала усилия международного сообщества на создание безопасного и свободного от преступности киберпространства[5].

10–17 апреля 2000 г. в Вене был проведен 10-й Конгресс ООН по предотвращению преступлений и обращению с правонарушителями. Симпозиум был организован региональным подразделением ООП в Токио по предотвращению преступлений и обращению с преступниками Азии и Дальнего Востока *(UNAFEI)* под эгидой Центра ООН но предотвращению международных преступлений *(СССР)*, который уделяет особое внимание сотрудничеству по вопросам расследования компьютерных преступлений.

Проблемы криминализации интернет-пиратства отражены в Рекомендации № R *(88)* 2 о борьбе с пиратством в области авторского права и смежных прав, о преступлениях, связанных с компьютерами, а также в нормах Конвенции о киберпреступности.

23 ноября 2001 г. в г. Будапеште представители 30 государств – членов Совета Европы и других стран подписали данную Конвенцию, признав тем самым необходимость проведения в приоритетном порядке общей политики в сфере уголовного права, нацеленной на защиту общества от киберпреступности, в том числе путем принятия соответствующих законодательных актов и укрепления международного сотрудничества.

Страны участники – Конвенции о киберпреступности декларировали, что они:

- осознают глубокие перемены, вызванные внедрением цифровых технологий, объединением и продолжающейся глобализацией компьютерных сетей;
- озабочены угрозой того, что компьютерные сети и элек-

тронная информация могут использоваться для совершения уголовных преступлений;

- признают необходимость сотрудничества между государствами и частным сектором в борьбе против киберпреступности и необходимость защиты законных интересов в сфере использования и развития информационных технологий.

В Конвенции определены пять основных составов преступлений в сфере компьютерной информации: противозаконный доступ *(ст. 2)*, неправомерный перехват *(ст. 3)*, воздействие на данные *(ст. 4)*, воздействие на функционирование системы *(ст. 5)*, противозаконное использование устройств (ст. 6).

Кроме указанных пяти составов выделены преступления, совершаемые с использованием компьютерных технологий: подлог с использованием компьютерных технологий *(ст. 7)* и мошенничество с использованием компьютерных технологий *(ст. 8)*, а также преступления, связанные с содержанием данных *(ст. 9 – детская порнография)* и преступления, связанные с нарушением авторского и смежных прав *(ст. 10)*.

В частности, на национальном уровне предлагается принять нормы материального уголовного права, регулирующие отношения, связанные с нарушением авторского права и смежных прав в Интернете, т.е. когда такие акты совершены преднамеренно, в коммерческом масштабе и с помощью компьютерной системы *(п. 2 ст. 10)*.

Кроме того, каждая страна – участник Конвенции должна принять законодательные и иные меры для обеспечения возможности привлечения юридического лица к ответственности за преступление, совершаемое в его пользу любым физическим лицом, действующим индивидуально или как часть одного из органов соответствующего юридического лица и занимающим ведущее положение внутри этого юридического лица на основании:

a) полномочий представлять данное юридическое лицо;

b) права принимать решения от имени этого юридического лица;

c) права осуществлять контроль внутри этого юридического лица.

Ответственность юридического лица может носить как уголовный, так и гражданский или административный характер, т.е. должны быть применены эффективные, соразмерные и убеди-

тельные меры наказания уголовного или неуголовного характера, включая денежные санкции.

Такая ответственность не влечет за собой какого-либо смягчения наказания и не снижает уголовной ответственности физических лиц, совершивших преступление *(ст. 12 Конвенции)*.

Конвенция содержит ст. 13, в которой указывается, что в целях исполнения международных обязательств государства должны принять законодательные и иные меры для обеспечения того, чтобы к лицам, совершившим уголовные преступления, применялись эффективные, соразмерные и убедительные меры наказания, включая лишение свободы.

С 1 июля 2004 г. Конвенция о киберпреступности вступила в силу, однако законодательство стран Европы пока не претерпело каких-либо изменений в сторону унификации. Законодательство европейских государств довольно разнообразно и противоречиво. Большинство норм, устанавливающих ответственность за компьютерные преступления, принимались “автономно”. Так, одни страны внесли изменения в уголовные кодексы, а другие приняли специальные законы, направленные на борьбу с киберпреступностью.

Например, в Уголовном кодексе Испании нет специальных норм, посвященных компьютерным преступлениям, и они подпадают под общеуголовные статьи.

В Австрии вообще отсутствует уголовная ответственность за совершение компьютерных правонарушений, и лицо может быть привлечено только к административной ответственности.

В Бельгии в ноябре 2000 г. в Уголовный кодекс были внесены изменения, направленные на борьбу с киберпреступностью. Эти изменения вступили в законную силу 13 февраля 2001 г.

В Германии масштабная борьба с виртуальными пиратами началась относительно недавно. С 2007 г. там вступила в действие часть вторая Закона об авторских и смежных правах UhG *(Urheber Gesetz)*. Нелегальное скачивание музыки, даже для частного использования согласно новому UhG является пиратством *(Raubkopierer)* и влечет серьезные последствия. Пиратством признается

любое из перечисленных действий, запрещенных правообладателем, автором или законодательством той или иной страны:

- создание копии и се продажа;
- создание копии и передача ее какому-либо лицу;
- в некоторых случаях – перепродажа легально приобретенной копии.

Ирландия является страной с системой общего права. Ответственность за преступления в сфере высоких технологий предусмотрена Актом о криминальном ущербе 1991 г. Согласно ст. 5 этого Акта лицо, использующее компьютер на территории государства с намерением получить незаконный доступ к данным, находящимся в пределах государства и вне его пределов, или использующее компьютер, находящийся вне пределов государства, для получения данных, находящихся в пределах государства, будет признано виновным в совершении преступления независимо от того, удалось ли ему получить данные. За это преступление предусмотрено наказание в виде штрафа или тюремного заключения сроком до трех месяцев.

Специальные нормы содержатся также в Акте об уголовном правосудии *(Акт о воровстве и мошенничестве)* 2001 г. Статья 9 предусматривает наказание в виде штрафа или лишения свободы на срок до 10 лет за использование компьютера в корыстных целях для извлечения выгоды для преступника или третьих лиц либо в целях причинения имущественного вреда.

Следует признать, что санкции за интернет-пиратство зависят во многом от системы ценностей, принятой в государстве, от того, насколько опасными государство считает данные преступления. Размер санкции также зависит от того, какая норма применяется в случае совершения этих преступлений – общая или специальная. Следует предположить, что после ратификации Конвенции о киберпреступности всеми подписавшими ее странами произойдет унификация законодательства, в том числе санкций.

Проблема привлечения к уголовной ответственности за интернет-преступления осложняется неопределенностью в решении вопроса о юрисдикции того или иного государства

при рассмотрении дела о нарушении закона в Сети. Экстерриториальность Интернета позволяет нарушать законы государства без физического нахождения на его территории.

В настоящее время условно выделяют три системы определения подсудности:

- по закону гражданства *(Франция)*;
- но закону домицилия *(Германия)*;
- по признаку фактического присутствия ответчика на территории страны суда *(Велико Британия)*.

Так, в отношении действий лица, размещавшего порнографические материалы на сайте США, была признана юрисдикция Великобритании на том основании, что он передавал материалы на сайт из этого государства.

Политика правительства Китая в области регулирования среды Интернета жестко ограничивает возможности китайских пользователей: похищение или распространение в Интернете государственных секретных документов карается смертной казнью.

Таким образом, анализ уголовного законодательства стран Европы, включая специальные нормы, посвященные компьютерным преступлениям, и общеуголовные нормы, по которым лицо может нести уголовную ответственность за совершение компьютерного преступления *(при отсутствии специальных норм)*, позволяет сделать вывод, что в большинстве государств – членов ЕС компьютерные посягательства криминализированы.

Учитывая недостатки нормативной базы *(иногда вообще отсутствует возможность привлечь преступника к ответственности)* и, как следствие, невозможность сбора статистики о масштабах данного явления, ратификация Конвенции и приведение национального законодательства в соответствие с едиными нормами сыграют важную роль в развитии стратегии борьбы с киберпреступностью.

Распоряжением Президента РФ от 15 ноября 2005 г. № 557-рп было принято решение о подписании данного важнейшего документа, регулирующего отношения в сфере глобальной компьютерной сети.

Сравнительный анализ положений Конвенции о киберпреступности и российского законодательства позволяет предположить, что гармонизация последнего должна осуществляться с учетом следующих замечаний.

1. Присоединение к указанной Конвенции потребует внесения существенных изменений и дополнений в УК РФ и УПК РФ, а также в другие нормативные правовые акты. Вместе с тем такие изменения могут нанести ущерб государственному суверенитету и национальной безопасности нашего государства, правам и законным интересам граждан и юридических лиц: в соглашении закрепляется предоставление трансграничного доступа к хранящимся компьютерным данным или к общедоступным данным. Статья 32 Конвенции при определенных условиях позволяет правоохранительным органам одного из государств – участников Конвенции проводить оперативно-разыскную деятельность на территории другого государства – участника Конвенции без его согласия, что может представлять собой угрозу национальной безопасности, вмешательство во внутренние дела нашей страны.

2. Конвенция предполагает иной порядок обмена информацией, чем предусмотрен Европейской конвенцией о взаимной правовой помощи по уголовным делам, ратифицированной Российской Федерацией.

В связи с трансграничностью Интернета государства заинтересованы не только в создании собственного внутреннего интернет-законодательства, но и в гармонизации и унификации законодательств всех стран, поскольку в какой бы стране ни размещался сайт, доступен он будет в любой точке мира.

В настоящее время правообладатели стран СНГ заставляют онлайн-магазины получать лицензии на территории каждого государства, входящего в Содружество. Однако такая практика выдачилицензийотнимаетмноговременинасогласованиеусловий договоров, ставок вознаграждения по каждой из территорий, а иногда правообладатели просто отказывают в выдаче лицензий на какую-то определенную территорию.

Список литературы:

1. Годунов И. В. Транснациональная организованная преступность в России: пути и формы противодействия : автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. Рязань, 2002. С. 5.

2. Состоять к ГРЕКО могут не только государства – члены Сонета Европы, и постоянный рост числа участников – лишнее доказательство ее успеха. В настоящее время в группе 48 членов: 47 государств Европы и США (подробнее см.: Group of States against Corruption. Официальный сайт: URL: hup://coe.int/t/dghl/nionitoring/greco/default_EN.asp?).

3. Официальный сайт Исполнительного комитета СНГ. URL: cis.minsk.by/page.php?id=14650.

4. См.:URL: vesti.kz/asia/58896/.

5. См.: Окинавская Хартия глобального информационного общества // Дипломатический вестник. 2000. № 8.

6. См.: Лунеев В. В. Десятый конгресс ООН но предупреждению преступности и обращению с правонарушителями, его место в истории конгрессов // Государство и право. 2000. № 9. С. 95-100.

7. Римский договор – международный договор об образовании европейских сообществ, подписанный в 1957 г. ФРГ, Францией, Италией, Бельгией, Нидерландами и Люксембургом, касающийся ликвидации ограничений на пути свободного передвижения людей, товаров, услуг и капитала.

8. Директива № 2001/29/ЕС Европейского парламента и Совета Европейского Союза “О гармонизации некоторых аспектов авторских и смежных прав в информационном обществе” *(принята в г. Брюсселе 22 мая 2001 г.)*. Директива вступила в силу 22 июня 2001 г., но на Россию свое действие не распространяет.

KIBERJINOYATCHILIKDA BOTNETLARNING TAHDIDI VA YECHIMLARI

Tashqo‘lov Akmal Alisher o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. O‘zbekiston sharoitida kiberjinoyatlar dinamikasi, shaxsiy ma’lumotlar va bank tizimidagi kiberxavfsizlik muammolari hamda ularni yuzaga keltirayotgan omillar tahlil qilingan. Internet texnolologiyalari va tarmoqlarining doimiy ravishda kengayishi va integratsiyasi natijasida texnologik taraqqiyotning ta’sirchan natijalaridan foydalangan holda axborot tizimlarining kiberxavfsizligini ta’minlash talab etiladi. Botnetni aniqlash yondashuvlari ko‘pincha NetFlow kabi tarmoq oqimi ma’lumotlaridan foydalanadi.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyat, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, bank kartalari xavfsizligi, elektron raqamli imzo, firibgarlik, botnet.

Bugungi kunda mamlakatimizda 31 milliondan ortiq aholi internetdan foydalanmoqda. Shu bilan birga, so‘nggi besh yilda yurtimizda kiberjinoyatlar soni 68 barobarga ko‘paygan. Joriy yilning o‘zida 46 mingdan ortiq kiberjinoyat aniqlangan. Ular orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 1,2 trillion so‘mdan oshgan.

Fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari, bank kartalari va elektron imzolari bo‘yicha amalga oshirilayotgan firibgarliklar soni keskin ortib bormoqda. Jinoyatlarning katta qismi internet orqali amalga oshirilib, eng ko‘p tarqalgan usullardan biri bank kartalari orqali sodir etilayotgan kiberfiribgarlik hisoblanadi.

Shaxsiy ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha aniq mexanizm mavjud emas, ayrim tadbirkorlik subyektlari mijozlarning ma’lumotlarini ochiq bazalarda saqlamoqda. Davlat xizmatlari sohasida ham biometrik identifikatsiya va elektron raqamli imzolardan foydalanishda kiberxavfsizlik bo‘yicha yetarli kafolatlar ta’minlanmagan.

Shuningdek, bank tizimida kiberhujumlarning oldini olish, shubhali pul operatsiyalarini aniqlash va tezkor chora ko‘rish mexanizmlari yetarli darajada samarali ishlamayotgani ko‘rishimiz mumkun.

Shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlashda kiberxavfsizlik talabini, bunday ma’lumotlarni shifrlab saqlash tartibini joriy etish, ma’lumotga ishlov beruvchi shaxslarning reyestrini yuritish, sohadagi huquqbuzarliklar uchun jazo choralarini kuchaytirish muhimligi takidlab o‘tishimiz zarur.

Bank sohasida onlayn-mikroqarz ajratishda firibgarlar ta’sirini cheklovchi zamonaviy himoya tizimlarini joriy etish, firibgarlik natijasida jabrlanuvchining nomiga olingan mikroqarzni undan undirmaslik, shubhali bank hisobvaraqlarini bloklashni tun-u kun rejimida yo‘lga qo‘yishning mexanizmlari taklifini ishlab chiqish va himoyalanuvchi chora tadbirlarni rejalashtirish.

Shu bilan birga, yil boshidan buyon davlat organlari tomonidan 7 mingdan ziyod qonunga zid hujjatlar qabul qilingani, shuningdek, nazorat idoralarining faoliyatida 12,5 ming nafar tadbirkorning huquqi buzilgani ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu bilan qonunlar ijrosi ustidan masofaviy nazorat tizimini yaratish, davlat idoralarida qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligini tekshirish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish.

Internet texnolologiyalari va tarmoqlarining doimiy ravishda kengayishi va integratsiyasi natijasida texnologik taraqqiyotning ta’sirchan natijalaridan foydalangan holda axborot tizimlarining kiberxavfsizligini ta’minlash ham sifat jihatidan o‘zgarib bormoqda. Axborot resurslari kapitalini masofadan boshqarishning texnik va texnologik mavjudligi kiberjinoyatchilarga ma’lum ma’lumotlarga kirishni boshqa shahar, mintaqa yoki mamlakatda yashovchi fuqarolarning ma’lumotlarini, jumladan pul mablag‘larini turli usullar orqali o‘g‘irlash imkoniyatini bermoqda.

Botnetlar tahdidlar zamonaviy internet xavfsizligiga katta xavf soluvchi yashirin tahdidlar bo‘lib, ular kiberhujumlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Internetdagi asosiy hujumlar zararli dasturiy taminotlardan foydalanib firibgarlar tamonidan amalga oshiriladi. So‘nggi 10 yillarda botnetlar ko‘plab yirik kompaniyalar, davlat organlari va hatto oddiy jismoniy shaxslargaga tahdid solmoqda. Botnetlarga kiberjinoyatchilar tomonidan zararlangan qurilmalar *(kompyuterlar, serverlar yoki hatto “aqlli” qurilmalar)* kiritiladi va ular boshqaruvchining *(botmaster)* buyruqlari asosida ishlaydi. Botnetning asosiy maqsadi – maxsus vazifalarni bajarish uchun keng ko‘lamdagi

tarmoqni boshqarish va undan foydalanuvchilar bilmagan holda foydalanishdir.

Dunyo bo‘ylab botnetlar infeksiyalarining ulkan soni va ular yetkazgan jiddiy zararlar yetkazmoqda bunday tahdidni aniqlashni dolzarb va muhim vazifaga aylantiradi. Botnetlarni aniqlash yarim yildan ortiq vaqt davomida kiberxavfsizlik jamiyatida asosiy mavzu bo‘lib kelmoqda. Botnet tahdididan himoyalanish uchun ko‘plab yechimlar taklif qilingan. Shunga qaramay, u yerda bu har doim kiberxavfsizliklar va kiberhujumchilar o‘rtasidagi raqobatni ko‘rishimiz mumkin. Zamonaviy botnetlar ko‘plab usullardan foydalanadi va misli ko‘rilmagan tezlikda rivojlanib kelmoqda. Ular botnetlarni aniqlashning mavjud yondashuvlariga sezilarli qiyinchiliklar tug‘diradi[2].

Birinchidan, boshqa turdagi zararli dasturlar singari, hozirgi botnetlar odatda polimorfizm va metamorfizm kabi chalqashtirish usullaridan foydalanadi. Ushbu usullardan foydalangan holda, bot kodi funksiyalarni yoki foydali yukning semantikasini o‘zgartirmasdan mutatsiyaga uchrashi mumkin. Odatda bitta botnetda bot binarlari bir-biridan farq qiladi. Imzoga asoslangan aniqlash sxemalari ikkilik sanoq tizimlarida ma’lumotlarning o‘ziga xos naqshlarini qidirgani sababli, ular uchun barcha chalqash botlarni aniqlash qiyin.

Ikkinchidan, C&C infratuzilmasi so‘nggi yillarda rivojlandi. Botnetni boshqarish uchun botmasterga buyruqlar berish va botnetlarni muvofiqlashtirish kanali kerak. An’anaviy botnetlar Internet Relay Chat (IRC) yoki HTTP protokollari kabi markazlashtirilgan C&C mexanizmlaridan foydalanadi. IRC holatida, odatda, botmaster ommaviy IRC tarmog‘idagi IRC serveridan foydalanib, botlar ulanib, buyruqlarni qabul qilishi uchun maxsus kanal belgilaydi. HTTP asosidagi botnetlar IRC asosidagilarga o‘xshash ishlaydi. Zararlanishdan so‘ng botlar veb-asosli C&C serveriga murojaat qilib, o‘zlarining tizimni aniqlovchi ma’lumotlarini HTTP orqali yuboradi. Keyin server HTTP javoblari orqali buyruqlar qaytaradi. IRC va HTTP asosidagi C&C usullari an’anaviy botnetlarda keng qo‘llanilgan, ammo, ularning ikkalasi ham yagona nuqtali nosozlik xavfiga ega hisoblanadi deb takidlagan Michigan Universiteti professoriYuanyuan Zeng[2].

Botnetni aniqlash yondashuvlari ko‘pincha NetFlow kabi tarmoq oqimi ma’lumotlaridan foydalanadi, bu xavfsizlik siyosati tomonidan

rad etilgan qonuniy oqimlar haqida ma’lumot beradi va tarmoq ma’murlariga muammolarni bartaraf etishda yordam beradi. NetFlow ma’lumotlari UDP yordamida eksport qilinadi va marshrutizatorlar va kollektorlar o‘rtasidagi haddan tashqari yuklangan segmentlar, kollektorlarning haddan tashqari yuklanishi, yaxshi trafik ko‘payishi, NetFlow trafigining portlash xususiyati yoki davom etayotgan hujumlar tufayli ma’lumotlar yo‘qolishi mumkin. Namuna olish, tashish va yig‘ish paytida ham xatolar paydo bo‘lishi mumkin va namunalar oqimining davomiyligi ko‘pincha haqiqiy davomiylikdan qisqaroq bo‘ladi. Oktetlar va paketlar ishonchli tarzda xabar qilinadi, lekin foydalanilgan tarmoqli kengligi o‘lchovi bu xatolarga ta’sir qilishi mumkin, bu aniqlikni sinchkovlik bilan baholashni talab qiladi.

Rivojlanayotgan tendentsiyalar takomillashtirilgan xususiyatlarni o‘rganish va anomaliyalarni aniqlash uchun ilg‘or sun’iy intellekt (AI) va chuqur o‘rganish modellarini , ISP va tarmoq tashuvchilarni o‘z ichiga olgan hamkorlikda va taqsimlangan aniqlash ramkalarini va xavfsiz va barqaror C&C aloqa uzilishi uchun blokcheyndan foydalanishni o‘z ichiga oladi [3].

Mashinani o‘rganish bo‘yicha raqib tahdidlariga qarshi kurashish va qochishga qarshi mustahkamlikni oshirish davom etayotgan tadqiqot yo‘nalishlaridir .

IoT texnologiyalarining botnet evolyutsiyasiga va aniqlash murakkabligiga ta’siri e’tirof etilgan va IoT va u bilan bog‘liq zaifliklarning paydo bo‘lishi va ko‘tarilishi keyingi tadqiqotlarni talab qiladigan yangi tadqiqot yo‘nalishini ochadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. htt//www.uza.uz

2. Apostol, I., Preda, M., Nila, C. & Bica, I. Iot botnet anomaly detection using unsupervised deep learning. Electronics 10*(16)*, 1876*(2021)*.

3. Samantaray, M., Barik, R. C. & Biswal, A. K. A comparative assessment of machine learning algorithms in the Iot-based network intrusion detection systems. Dec. Anal. J. 11, 100478 *(2024)*.

AYOLLAR TOMONIDAN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SODIR ETILAYOTGAN O‘G‘IRLIK VA FIRIBGARLIK JINOYATLARIGA QARSHI KURASHISHNING DOLZARBLIGI

O‘rinova Dilshoda Adxamovna

Farg‘ona viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar tomonidan axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan o‘g‘irlik va firibgarlik jinoyatining kriminologik tavsifi, o‘ziga xos xususiyatlari va ularning oqibatlari, jinoyatga ta’sir etuvchi omillar va uni oldini olishda yangicha yondashuv ochib berilgan. Shu o‘rinda, ayollar jinoyatini sodir etishda motivi, maqsadi, sababi, holatlari, va uni sodir etishdagi ishtiroki doirasida ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning alohida kriminologik tavsifi keng yoritilgan. Unda ayol va erkak jinoyatini sodir etishdagi farqlarni mavjudligi uni o‘ziga xos kriminalistik belgilarini ilmiy o‘rganish, uni boshqa jinoyatlarning kriminologik belgilaridan farqlari qiyosiy tahlil qilingan va olingan natijalarga tayangan holda hulosalar taqdim qilingan.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatchilik, kibertahdid, kiberhimoya, kiberfiribgar, kibero‘g‘ri, kriminologik tavsifi, motiv va maqsadi, jabrlanuvchi, profilaktik mexanizm.

Abstract. This article reveals the criminological characteristics of the crime of theft and fraud committed by women using information technology, its specific features and consequences, the factors influencing the crime, and a new approach to its prevention. In this regard, a separate criminological description of crimes committed by women within the framework of their motivation, purpose, cause, circumstances, and participation in the commission of crimes by women is widely covered. The presence of differences in the commission of crimes by women and men, the scientific study of its specific forensic characteristics, a comparative analysis of its differences from the forensic characteristics of other crimes, and conclusions based on the obtained results are presented.

Keywords: cybercrime, cyber threat, cyber defense, cyber fraud, cyber thief, criminological description, motive and purpose, victim, preventive mechanism.

Bugungi kunda global axborot maydonida kiber makon bilan bog‘liq yangidan-yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Shu bois virtual olamdagi hujumlardan himoyalanish masalasi dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kiber makonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Luksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiber hujumlar orqali sodir etilmoqda. O‘zbekistonda ham so‘ngi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko‘payib 5 foizga yetgan. Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o‘zgalarning plastik kartadagi mablag‘larini o‘zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o‘yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko‘payib bormoqda. Achinarlisi, axborot texnologiyalari yordamida huquqbuzarlik va jinoyatga qo‘l urgan shaxslar orasida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Respublikamizda virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyati 16-23 yosh oralig‘idagi o‘smir-yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, kiberxavfsizlikni ta’minlash masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada mamlakatimizda axborot xavfsizligi masalasi davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning yangi yondashuvlari amaliyotga joriy qilinmoqda. Chunki, virtual olamdagi jinoyatlarning zarari va xavfi real olamdagi tahdiddan oshib borayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Shuningdek, barcha sohalardagi keng ko‘lamli islohotlarning asosiy vazifalaridan biri inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash, jumladan, barchamiz tomonidan birdek e’zozlanadigan ayollarning jamiyatdagi ro‘lini yanada mustahkamlash, ularga ijtimoiy hayotning barcha sohalarida turli xil imtiyoz va kafolatlarni yaratishdan iboratdir.

Xotin-qizlarimizga yurtimizda yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar bo‘lishiga qaramasdan ming afsuski bugun xotin-qizlarimizni bilib bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolishi, “jinoyatchi ayol” sifatida ko‘rsatgichlarni yuzaga kelishi albatta achinarlidir. Kibermakonga ayollarning kirib borishi hamda asosiy jabrlanuvchilar xam ayollar bo‘lganligi bu boradagi ishlarni yana jadallashtirish lozimligini ko‘rsatadi.

2024-yilning o‘tgan davrida Farg‘ona viloyatida ayollar tomonidan 93 ta firibgarlik, 185 ta o‘g‘irlik jinoyatlari sodir etilgan. Bu esa o‘tgan yillarga qaraganda bir muncha kamayishiga erishildi. Biroq, texnologiya rivoj topgani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari paydo bo‘lmoqda. Ayollar tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda 50 dan ortiq o‘g‘irlik va firibgarlik jinoyati qayd etilgan.

Ayollar jinoyati erkaklar jinoyatidan son va sifat jihatidan, jinoyatning xarakteri va uning oqibatlari, foydalanilgan jinoyat quroli, motiv va maqsadi, jinoyatni sodir etishdagi ishtiroki, boshqa obyektiv va subyektiv tomonlarga ko‘ra farqlanadi. Ana shu farqlarning mavjudligi ayollar jinoyatlarini alohida kriminologik tavsifini ham o‘rganish lozimligi hamda uni umumiy jinoyatlar tavsifidan, ya’ni erkaklar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tavsifidan tubdan ajratish lozimligini ko‘rsatadi.

Ayollar tomonidan axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan o‘g‘irlik va firibgarlik jinoyatlarining kriminologik tavsifini o‘rganar ekanmiz, bunda ayollar tomonidan sodir etilgan o‘g‘irlik va firibgarlik jinoyatlarining sodir etish usuli va uni amalga oshirishda o‘ziga xosliklar, jinoyatni sodir etish holati, ularning jinoyatchi sifatidagi shaxsi, jinoiy tajavuz predmeti va vositasi hamda ularni ishlatish bilan bog‘liq holatlarga e’tibor qaratib, bu turdagi jinoyatlarning erkaklar jinoyatidan farq qiluvchi alohida jihatlarini umumlashtirishimiz lozim.

Kiber nuqtai nazardan qaraganda kiber olamda bir qarashda ayol yoki erkak emas kiberinsident, abonent, IP adres egasi, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi degan shaxsni ifodalovchi tushunchalar farqlanadi xolos.Biroq kibermakonda jinoyat sodir etilayotgan shaxslarni jins jihatdan farqlash ushbu yo‘nalishdagi jinoyatlarni barvaqt oldini olish kimlar bilan qanday tartibda ishlash kerakligini aniqlab olishimizni imkonini beradi.

Ushbu jihatlarini e’tiborga olgan ayollar tomonidan axborot texnologiyalari yordamida jinoyat sodir etishining o‘ziga xos xususiyatlarini erkaklarnikidan farqlash jinoyatning sodir etish mexanizmiga qarab prognoz va versiyalar ishlab chiqish ushbu yo‘nalishdagi ishlarni mukammal olib borilishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz:

- endi ayrim tayanch tushunchalarni keltirib o‘tsak, kiberjinoyatchilik – axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi;
- kiberfiribgar-o‘zganing mol mulkini yoki mulkka bo‘lgan huquqini kompyuter yoki boshqa raqamli ko‘p funksiyali raqamli aloqa texnologiyalaridan foydalanib, aldash va ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan qo‘lga kiritishni maqsad qilgan jinoyatchidir.

Bugungi kunda kiberfiribgarlikning yaqqol ko‘rinishi – jabrdiydaning moliyaviy ma’lumotlarini o‘g‘rincha qo‘lga kiritgan holda, unga moddiy va ma’naviy zarar etkazishi hollari keng tus olmoqda.

Kiberfiribgarlikning jinoyati dunyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, firibgarlik istalgan odamlarga Internet tarmog‘i orqali bog‘lanib, o‘zlarini nishondagilarning go‘yoki vafot etgan chet ellik qarindoshlarining rasman vakillari deb tanishtiradilar va “marhum”lardan qolgan katta miqdordagi pul mablag‘larini qo‘lga kiritishda yordam berishni taklif etib, barcha hujjatlarini ma’lumotlarini ko‘lga kiritishga erishadi.

Kibero‘g‘ri-esa o‘zganing mol mulkini, elektron hisob raqamidagi pullari kompyuter yoki boshqa raqamli ko‘p funksiyali raqamli aloqa texnologiyalaridan foydalanib, yashirin ravishda qo‘lga kiritishni maqsad qilgan jinoyatchidir:

- kiberhimoya – kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olishga, kiberhujumlarni aniqlashga va ulardan himoya qilishga, kiberhujumlarning oqibatlarini bartaraf etishga, telekommunikasiya tarmoqlari, axborot tizimlari hamda resurslari faoliyatining barqarorligini va ishonchliligini tiklashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik chora-tadbirlar, shuningdek ma’lumotlarni kriptografik va texnik jihatdan himoya qilish chora-tadbirlari majmui;

- kiberhujum – kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi shart-sharoitlar va omillar majmui;
- kiberhujumning keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri bu firibgarlik yo‘li bilan plastik kartochkalardan pul o‘marish, kimlarnidir qaqshatib, osongina mo‘may daromadga ega bo‘lish hisoblanadi. Yaqinda Buyuk Britaniyaning tadqiqot kompaniyasi tomonidan kiberxavfsizlik darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan 60 ta davlat reytingi e’lon qilindi. Yaponiya etakchi bo‘lgan ushbu ro‘yxatda O‘zbekiston 56-o‘rinni egallagan. Bu borada yurtimizda birgina o‘tgan yilda 2700 dan ortiq, joriy yilda 300 dan ortiq murojaatlar bo‘lgan, kiberjinoyatchilikka qarshi muayyan choralar ko‘rilmoqda. Plastik kartochkalardan pul echishga ustamonlar hatto og‘ir xasta, ko‘makka o‘ta zarur bo‘lgan bemorlar uchun yig‘ilayotgan xayriya pullarini ham o‘marishayotgani achinarli hol. Jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning yoshi tahlil qilinganda asosan 19–35 yoshlilarni tashkil qilmoqda. Jinsi bo‘yicha tahlil etilganda 6–7 foizi aynan xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotganligi kuzatilgan.

So‘nggi 3 yilda kiberjinoyatlar soni bir necha baravarga oshib ketgan. Jumladan, kiberjinoyatchilikning bir qator turlari sodir bo‘layotganligi kuzatilmoqda. Firibgarlar plastik karta foydalanuvchilariga kelgan SMS xabarnomadagi kodlarni to‘lovni amalga oshirish, yutuqni berish kabi bahonalar orqali egallab, undagi mablag‘larni o‘zlashtirishmoqda.

Qolaversa, shaxsiy ma’lumotlarni egallash va ularni oshkor qilish bilan qo‘rqitib tovlamachilik qilish, ijtimoiy tarmoqda zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish, haqorat, suisid holatlari uchrab turibdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda o‘tgan 11 oyda 5,5 mingta kiberjinoyat sodir etilgan bo‘lsa, shundan 70 foizi bank kartalari bilan bog‘liq firibgarlik va o‘g‘irlik jinoyatlari hisoblanadi.

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, yurtimizda 50 ga yaqin to‘lov tizimi bo‘lib, ularninghammasihamkiberxavfsizliktalablarigajavobbermasligi qayd etildi. Davlatimiz rahbarining 2023 yilning 30 noyabrida “Raqamli mahsulotlar *(xizmatlar)* iste’molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to‘g‘risida”gi qarori imzolandi.

Mutasaddi vazirlik va idoralarga barcha elektron to‘lov tizimlari uchun yagona kiberxavfsizlik talablarini ishlab chiqish va ijrosini qat’iy nazorat qilish topshirildi. Mutasaddi vazirlik va idoralarga barcha

elektron to‘lov tizimlari uchun yagona kiberxavfsizlik talablarini ishlab chiqish va ijrosini qat’iy nazorat qilish topshirildi.

Markaziy bankning ma’lum qilishicha, so‘nggi vaqtlarda firibgarlarning internet tarmog‘idan soxta telefon raqamlari orqali fuqarolarga qo‘ng‘iroq qilish holatlari kuzatilmoqda. Bunda firibgarlar Markaziy bank xodimi sifatida o‘zini tanishtirib, fuqarolarning ishonchiga kirishga urinmoqda.

Bundan tashqari, firibgarlar Telegram ijtimoiy tarmog‘ida Markaziy bank nomidan ochilgan “Markaziy Banki.uz” soxta kanalida fuqarolarga onlayn kreditlar taklif etib, ularning bank kartalariga oid ma’lumotlarini qo‘lga kiritish orqali bank kartasidagi pul mablag‘larini o‘zlashtirish holatlari kuzatilmoqda.

Kiberjinoyatlar profilaktikasibilan kimlar shug‘ullanadi? Qisqacha qilib aytilganda kiberjinoyatlar profilaktkiasi bilan Yangi O‘zbekistonda huquqni muxofaza qiluvchi organlar bilan bir qatorda har bir shaxsning o‘z shaxsiy ma’lumotlarini o‘zi himoyalashidan tortib, shaxs ma’lumotlari bilan ishlovchi korxona, muassasa, tashkilotlar, vazirlik va idoralar o‘z vazifalaridan kelib chiqqan holda shug‘ullanishlari lozimdir. Kiberjinoyatlar profilaktikasini tashkil etish, muvofiqlashtirish va targ‘iboti bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi IIV o‘z yo‘nalishida umumiy nazoratni amalga oshiradi, kiberjinoyatlarni jilovlash vazifasini bajaradi.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda faqatgina, ichki ishlar idoralari xodimlarining emas, balki keng jamoatchilikning birgalikdagi amaliy harakati kerak.

Virtual olamdagi jinoyatlar, xususan, hisob raqamlardagi pullarni o‘marish, plastikdan pul yechish, havolalar orqali adashib kirib qolish natijasida shaxsga tegishli barcha ma’lumotlarni egallab olish ko‘payayotgani har birimizdan hushyor bo‘lishni talab etadi. Bunda eng avvalo targ‘ibot tadbirlarining samaradorligini oshirish darkor.

Ayni shu sababli viloyat hokimining “Kibermakonda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish haftaligi” doirasida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Viloyat IIB, manfaatdor idoralar hamkorligida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini o‘tkazish belgilandi.Xususan, targ‘ibot tadbirlarini samaradorligini oshirish uchun jurnalist va blogerlar, muallimlar, shifokorlar, profilaktika

inspektorlari o‘rtasida, maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarida yetti turdagi tanlovlar o‘tkazilishi belgilangan.

Xorijiy davlatlar Turkiya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi o‘rganilganda, aholida internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish orqali ularni ehtimoliy xavflardan barvaqt ogohlantirish, bu – internetdagi tahdidlarga qarshi kurashishdagi eng samarali usuli ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Shu maqsadda, internet tarmog‘ida sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish, ularning oldini olish bo‘yicha bevosita Ichki ishlar boshqarmasi tomonidan birinchi navbatda fuqarolar o‘rtasida faol targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilib kelinmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida regulyatorning tarmoqlardagi verifikatsiyalangan sahifalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar chuqur tahlil qilinib, mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda “Ayol-oila-ta’sirchan targ‘ibot” konsepsiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Fuqarolarni firibgarlik va o‘g‘irlik qurboni bo‘lib qolishidan himoya qilish borasida tushuntirishlar berish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organ huquqshunoslari tomonidan barcha hududdagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida 1 000 dan ziyod targ‘ibot tadbirlari tashkil etilib, targ‘ibot materiallari tarqatildi.

Mahalla-tuman-shaharlarda “Bank kartasi kodini xech kimga bermayman”, “Firibgarlik va o‘g‘irlik jinoyati tushunchasi”, “Kiberjinoyat o‘zi nima” “Internet tarmog‘idan xavfsiz fodalanaman” mavzularda 1062 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida hamda mehnat jamoalarida targ‘ibot uchrashuvlari o‘tkazilib kelinmoqda.

Xulosa

Demak, fikrimizga xulosa qilar ekanmiz, ayollar tomonidan axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan o‘g‘irlik va firibgarlik jinoyatlarini umumiy kriminologik tavsifini ishlab chiqish va kriminologiya faniga alohida bob sifatida kiritish hamda ularni profilaktik mexanizmiga individual-psixologik, ijtimoiy yondashuv asosida shuningdek, kiber-madaniyatni yuksaltirish orqali oldini olishga erishamiz degan xulosaga kelamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vena deklaratsiyasi va xarakatlar platformasi,1993-yil.
2. BMT BA qarori 70/1 “Bizning dunyomizni o‘zgartirish:2030 yilgacha barqaror rivojlanish kun tartibi” *(A-RES/70/1).*
3. 2024 yil 07 mart kunidagi Xalqaro xotin-qizlar kuniga yo‘llagan tadbiridan. Sh.M. Mirziyoyev.
4. Iogann Blox, Chezare Lombrozo.Jenshina, prestupnitsa ili prostitutka, 2019.
5. Lozovskiy D.N.metodi rassledovaniya organizovannoy prestupniy deyatelnosti:2011 y.
6. Burlakov, Kropachev, Vandshev:Kriminologiya.Uchebnoe posobiye, Piter, 2019g.
7. https://lex.uz/ru/
8. Kiberxiavsizlik to‘g‘risida qonun 2022-yil 15-aprel 764-son.
9. IIV akademiyasi anjumani 2022-yil.

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIK TA’LIM JARAYONINING AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

A’loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o‘g‘li,

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy kriminologik ta’lim jarayonining amaldagi holati kompleks tahlil qilinib, uni tashkil etishda uchrayotgan asosiy muammolar yoritiladi. Xususan, o‘quv dasturlarining mazmuni, ta’lim metodlarining zamonaviy talablarga mosligi, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uyg‘unlik darajasi hamda kadrlar tayyorlash tizimidagi kamchiliklar tahlil etiladi. Shuningdek, kriminologik ta’limni takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish ва amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy kriminologiya, kriminologik ta’lim, kriminologik tadqiqot, o‘quv dasturlari, yuridik ta’lim, xalqaro tajriba, innovatsion yondashuv.

Abstract. The article comprehensively analyzes the current state of the modern criminological education process and highlights the main problems encountered in its organization. In particular, the content of curricula, the compliance of teaching methods with modern requirements, the degree of harmony between theory and practice, and shortcomings in the personnel training system are analyzed. Scientific and practical conclusions aimed at improving criminological education, introducing innovative approaches, and developing practice-oriented education are also presented.

Keywords: modern criminology, criminological education, criminological research, curricula, legal education, international experience, innovative approach.

Kriminologiya – jinoyatchilik va uni oldini olish choralarini o‘rganuvchi ijtimoiy-huquqiy fan sifatida O‘zbekiston hozirgi qonunchilik yo‘nalishlarida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz tomo-

nidan 2024-yil 15-yanvarda imzolangan PF–10 sonli farmonda “jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish” topshirig‘i belgilangan. Ushbu hujjatda kriminologiya sohasida yangi ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish va “ta’lim muassasalarida kriminologiya fanini tizimli o‘qitish orqali yoshlarda jinoyatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish” ko‘zda tutilgan. Ya’ni, davlat darajasida kriminologiya ta’limini kuchaytirish, mazkur fan bo‘yicha kadrlar tayyorlashga e’tibor berilmoqda.

Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida kriminologiya fanini o‘qitishning amaldagi holati, qonunchilik asoslari, statistik holat va asosiy muammolar chuqur tahlil etilib, xalqaro taqqoslash hamda kelgusi takliflar keltiriladi.

Kriminologiya ta’limini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar. O‘zbekistonda kriminologiya ta’limiga oid birinchi hujjat PF–10-sonli Prezident farmonidir *(15.01.2024)*. Ushbu farmonda jinoyatchilikka qarshi kurashni ilmiy asosda kuchaytirish, shu jumladan “ta’lim muassasalarida kriminologiya fanini tizimli o‘qitish orqali yoshlarda jinoyatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish” ko‘zda tutilgan. Bunga asosan, keyinchalik 2024-yil 15-yanvarda PQ-22-sonli Prezident qarori bilan “Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari” tasdiqlandi.

Shuningdek, 2024-yil 24-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 445-son qarori e’lon qilindi. Bu qarorda O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari belgilanishi ma’lum qilingan. Qarorning ilovalarida Kriminologiya institutining nizomi, ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodikasi to‘g‘risidagi hujjatlar qabul qilindi. Masalan, metodikada kriminologiya sohasida dissertatsiya tadqiqotlarini tashkil etish va buyurtma asosida loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Bu holat kriminologiya fanining ilmiy darajasini oshirishga, huquqni muhofaza qilish muassasalari va ta’lim muassasalariga bunday tadqiqotlarni joriy etishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, 445-son qarorda ta’lim va fan yo‘nalishlari bilan bog‘liq yutug‘lar ham qayd etilgan.

Bundan tashqari, so‘ngi yillarda umumta’lim va yuqori ta’limda huquqiy fanlar yangilanmoqda. Masalan, 2024-yil avgustida qabul qilingan 532-sonli qarorda umumta’lim muassasalarida “Huquq sinflari”

tashkil etilishi, “Davlat va huquq asoslari” faniga zamonaviy darsliklar ishlab chiqilishi belgilandi. Garchi bu qarorda bevosita kriminologiya emas, balki, umumiy huquq fani haqida so‘z boradi, biroq mazkur hujjatlar orqali oliy o‘quv yurtlari va litsey-ta’lim bosqichlarida jinoyatchilik profilaktikasi sohasi kuchaytirilishi ko‘zlangan. Shu tarzda, qonunchilikda kriminologiya ilmiy tadqiqotlari va ta’limi uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Kriminologiya ta’limining amaldagi holati: Ta’lim muassasalari va kadrlar

O‘zbekiston ta’lim tizimida kriminologiya fani asosan huquq yo‘nalishidagi oliy va o‘rta maxsus muassasalarda o‘qitiladi. Masalan, IIV Akademiyasida “Kriminologiya kafedrasi” faoliyat yuritadi.

IIV Akademiyasi kriminologiya fani bo‘yicha magistratura va kursantlar tayyorlaydi, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlarida ishlovchi mutaxassislar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etadi.

Toshkent davlat yuridik universiteti *(TDYU)* kabi oliy ta’lim muassasalarida ham jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrasi mavjud. Bu kabi universitetlarda kriminologiya fani odatda bakalavriat darajasida “jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurash” kabi yo‘nalishda o‘qitiladi. Yuridik texnikum va litseylar darajasida esa jinoyatchilik profilaktikasi va davlat-huquq asoslari fani doirasida kriminologiyaga doir bo‘limlar o‘rgatilishi kutilmoqda.

Lekin mutaxassis kadrlar jihatidan ba’zi muammolar mavjud. Bir tomondan, IIV Akademiyasi va TDYUda yuqori malakali o‘qituvchilar bor, ammo respublika bo‘ylab kriminologiya ixtisosligi bo‘yicha yetarli ilmiy-pedagogik xodim va o‘qituvchi tayyorlash muammosi mavjud. O‘z navbatida, Respublikada kriminologiya bo‘yicha doktorantura va dissertatsiya tayyorlash tizimi butunlay shakllanmagan, shu bois ilmiy salohiyatni oshirish jihatidan qiyinchiliklar bor. Ayni paytda, qator davlat o‘quv yurtlari va texnikumlarda davlat va huquq asoslari fanini o‘rgatish doirasida kriminologiya nazariyasi bilan qisqacha tanishtirish ko‘zda tutilgan.

O‘quv dasturlari va darsliklar. Kriminologiya fani uchun O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida qabul qilingan umumiy dasturlar mavjud. Masalan, yuqorida tilga olingan IIV Akademiyasi darsliklarida jinoyatchilikning tahlili, jabrlanuvchi va jinoyatchi shaxslari, profilaktika choralari kabi

mavzular keng yoritiladi. Darsliklar va o‘quv-metodik jihozlar soni cheklangan. Hozircha ayrim yillar avval chop etilgan sinfliklar mavjud bo‘lsa, yangi zamonaviy qo‘llanmalarning miqdori yetarli emas. Bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois vazirlik va oliy ta’lim idoralari “Davlat va huquq asoslari” fanidan darslik ishlab chiqish va unda “Kriminologiya asoslari” bobini kiritish topshirig‘ini berdi. Bunday qadamlar bilan maktab va litsey bosqichidan boshlab huquqiy ongni oshirish bilan bir vaqtda, kriminologiya asoslari ham joriy etilmoqda.

O‘quv jarayoni va amaliy mashg‘ulotlar. Kriminologiya fani nafaqat nazariy, balki, amaliy jihatdan ham o‘qitilishi lozim. IIV Akademiyasida nazariy ta’limga qo‘shimcha sifatida IIV ning turli strukturaviy bo‘linmalarida amaliy mashg‘ulot o‘tkazish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bu orqali kursantlar tergov, jinoyat-protsess, tezkor-qidiruv va profilaktika ishlarini yaqindan o‘rganadi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlari va stajirovka uchun O‘zbekiston va jahon bo‘yicha hamkorlik loyihalari o‘tkaziladi. Ko‘plab ta’lim muassasalarida kriminologiya bo‘yicha mashg‘ulotlar soni kam, amaliyot uchun vaqt ajratish imkoni yetarli emas. Natijada, yosh mutaxassislar nazariy bilimga ega bo‘lsa-da, amaliyotni ko‘p martalab o‘tkazmaydi.

Bundan tashqari, metodika va o‘qitish uslublari ham yangilanishga muhtoj. Ba’zi o‘qituvchilar eski darsliklardagi materialga tayansa, ayrimlar zamonaviy kriminologik yondoshuvlarni *(masalan, kiberkriminalistika, gibrid jinoyatchilik)* yetarlicha yoritmaydi. Bunday holatlar ta’lim sifatini pasaytiradi. Hozirgi vaqtda xalqaro hamkorlikka asoslanib kriminologiya fanini o‘qitish metodikalari ishlab chiqilmoqda, lekin ularni joriy etish jarayonida muammolar bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston ta’lim tizimida kriminologiya fanining roli

O‘zbekistonning mavjud qonunlari va davlat dasturlari kriminologiya o‘qitilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, yuqorida aytilganidek, Prezident qarorlarida ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashga kriminologiya fanining hissa qo‘shishi ta’kidlangan. Shu bilan birga, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan Adliya vazirligi hamkorligida davlat ta’lim standartlariga muvofiq “Huquq sinflari” uchun o‘quv dasturi ishlab chiqilmoqda, bu hujjatlarda huquqiy ongni oshirish hamda bolalarda jinoyatchilikka qarshi qarashni shakllantirish ko‘zda tutilgan. Ayniqsa,

hududlardagi yuridik texnikumlari bilan litseylar o‘rtasida “to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qish” tizimi joriy etilishi, kriminologiya va profilaktikaga aloqador mutaxassislarni erta tanlash imkonini yaratadi.

IIV Akademiyasi va TDYU kabi oliy ta’lim muassasalari kriminologik ta’limni internatsional talablar bilan uyg‘unlashtirishga intilmoqda. Ular xorijiy konfrensiyalar, hamkorlik loyihalarini yo‘lga qo‘yadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi

Xorijiy mamlakatlarda kriminologiya ta’limi har xil usullarda amalga oshiriladi. Masalan, AQShda ko‘pgina universitetlarda “criminology” yoki “criminal justice” yo‘nalishlari mavjud. Ular ko‘p hollarda ijtimoiy fan sifatida tarjima qilinib, sotsiologiya yoki huquq fakultetiga qo‘shiladigan bo‘limlar sifatida ishlaydi. AQShda odatda bakalavriat darajasida kriminologiya mutaxassisligi ochilgan bo‘lib, talabalarga jinoyat turlari, jinoyatchilikka ta’sir qiluvchi omillar, jinoyatchilikni oldini olish siyosati kabi mavzular o‘qitiladi. G‘arb adabiyotlarida ta’kidlanishicha, Amerika va Angliya kabi davlatlarda kriminologiya sotsiologiyaning bir qismi sifatida o‘qitiladi. Bu yerda jinoyatchilik statistikasi, adliya tizimi, penal tizim, kriminologiya nazariyalari alohida kurslar bo‘ladi.

Rossiyada esa kriminologiya fanini oliy o‘quv yurtlarida yirik huquq muassasalarida o‘qitiladi. Misol uchun, Moskva davlat universiteti, IIV akademiyasi, Yekaterinburg va boshqa huquqshunoslik institutlarida kriminologiya kafedralari mavjud. Rossiya ta’limida kriminologiya ko‘proq huquqiy fan sifatida ko‘rib chiqiladi; bu yerda jinoyat huquqi bilan bog‘liq kurikulumning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekiston qonunchiligida ham bu yondoshuvni aks ettirish maqsadida “Davlat va huquq asoslari” fani doirasida kriminologiya boblari kiritilmoqda.

Turkiyada esa kriminologiya ko‘pincha psixologiya, ijtimoiy ishlanma va huquq fakultetlari doirasida o‘qitiladi. Ba’zi turk universitetlarida kriminologiya va jinoyatchilikka qarshi kurash yo‘nalishlari mavjud. U yerda ham talabalar jinoyatchilik nazariyalari, jinoyat profilaktikasi va tergov usullari bilan tanishtiriladi. Turkiya ta’lim tizimida kriminologiya talabalari uchun milliy jinoyat statistikasi va real ish tajribasi asosida amaliyot o‘tkazish keng tarqalgan.

Germaniyada esa “Kriminologiya” faniga ko‘ra murakkab tarix bor. Ko‘plab Yevropa tillarida kriminologiya “kriminologiya” deb

nomlanib, ko‘p hollarda sotsiologiya fakultetlari tarkibida o‘qitiladi. Germaniyada, xususan Freiburg va Göttingen universitetlarida tan olingan kriminologiya bo‘limlari bor. U yerda jinoyat va jazoni jamiyat, siyosat, psixologiya nuqtai nazaridan integratsiyalab o‘rganiladi. Germaniyada ham kriminologiyaning ba’zi yo‘nalishlari biologiya yoki antropologiyaga yaqin deb qarashadi.

Xorij tajribasining umumiy jihati – kriminologiya fanining ko‘p tomonlama yondoshuv bilan o‘qitilishi (ijtimoiy-psixologik, pedagogik, iqtisodiy, biologik omillar integratsiyasi). Shu bois, O‘zbekiston ta’limida ham fanlararo bog‘lanish asosida – huquqshunoslik, ijtimoiy fanlar, psixologiya, sotsiologiya kurslari bilan birgalikda kriminologiyani o‘rgatish tavsiya qilinadi.

Asosiy muammolar va kamchiliklar

O‘rganishlar va amaliy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim muassasalarida kriminologiya fanini o‘qitishda **quyidagi asosiy muammolar mavjud:**

Kadrlar tanqisligi: Kriminologiya fani bo‘yicha yuqori malakali o‘qituvchilar soni cheklangan. Respublikada kriminologiya sohasida ilmiy darajaga ega mutaxassislar oz. Ilmiy ishlanmalar asosan markazlashtirilgan. Bu esa fan sifatining mintaqalarda pasayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, o‘zbekcha kriminologiya bo‘yicha magistratura va doktorantura yo‘nalishlarining kamligi ham kadrlar tayyorlashga salbiy ta’sir qiladi.

Metodika va dasturiy ta’minot yetishmasligi: Amaliyotda foydalanilayotgan o‘qitish metodikalari, pedagogik texnologiyalar eski bo‘lib qolgan. Yangi ta’lim texnologiyalari, interaktiv metodlardan foydalanish faqat ayrim markazlarda yo‘lga qo‘yilgan. Kengroq taqsimlangan onlayn-resurslar, sinovlar, case-study kabi metodlardan foydalangan holda darslar o‘tkazish hozircha ommalashmagan.

Darslik va o‘quv-uslubiy majmualar yetishmasligi: huquq-tartibot idoralari ta’lim muassasalari tomonidan muayyan to‘plam darsliklar chop etilgan bo‘lsa-da, mamlakat miqyosida bunday dasturiy ta’minot kam. Bitiruvchilar “Kriminologiya” bo‘yicha asosan bir nechta tekstlarni, hujjat va ma’ruza matnlarini o‘rganib chiqishadi. Zamonaviy jinoyatchilik *(kiberjinoyatlar, korrupsiyaga qarshi choralar, profilaktika)* mavzularini to‘liq qamrab olgan yangi o‘quv qo‘llanmalar hali yaratilmoqda.

Amaliyot va ilmiy tadqiqotning uyg‘un emasligi: Nazariy bilimlarga ko‘ra talabalar tayyorlanib, lekin ularni amaliyotga jalb etish tizimi zaif. Masalan, maktab va litseylarda “Huquq sinflari” faqat sinov tariqasida tashkil etilganidan so‘ng, o‘quv adabiyotlari va o‘qituvchilar tayyorlash to‘liq kafolatlanmagan. Oliy ta’limda ham talabalar ko‘proq seminarlar va laboratoriyalarda, real ish bilan aloqasi zaif. Shu bois, talaba-o‘qituvchi va amaliyotchi organlar o‘rtasida doimiy almashinuv zarur.

Statistik-analitik tayyorgarlik: O‘zbekiston uchun jinoyatchilik bo‘yicha to‘liq statistik tahlillar olib borilsa-da, bu ma’lumotlar pedagogik jarayonga to‘liq integratsiya qilinmagan. Kriminologiya fanini o‘qitishda mahalliy jinoyat ma’lumotlarini tahlil qilish imkoniyatlari yetarli emas. Bu ham fan talabalari uchun qiyinchilik tug‘diradi.

Xalqaro hamkorlik yetarli emasligi: Garchi yirik institutlar o‘rtasida hamkorlik sa’y-harakatlari bor, lekin masalan, AQSh yoki G‘arbiy Evropa universitetlari bilan bevosita metodik tajriba almashinuvi kam. Bu esa kriminologiya ta’limini yangilash imkoniyatlarini qisqartiradi.

Takliflar va istiqbolli yo‘nalishlar. Kriminologiya fanini ta’lim muassasalarida rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim:

Kadrlar tayyorlashni kuchaytirish: Kriminologiya yo‘nalishidagi magistratura va doktorantura kurslari kengaytirilsin. Ichki ishlar organlari va oliy ta’lim o‘rtasida professor-o‘qituvchilar almashuvi, bitiruvchilarning o‘qishga qabul qilish bo‘yicha imtiyozlar kiritilishi (masalan, texnikumlardan litseyga, litseydan universitetga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qish kabi) mustahkamlanishi lozim (bunday tartiblar 2024-yilgi 532-son qarorda belgilangan.

Darslik va metodikalarni yangilash: Maktab va oliy ta’lim muassasalari uchun kriminologiya bo‘yicha yangi darsliklar, qo‘llanmalar yaratish zarur. O‘zbekiston jinoyatchiligi haqidagi oxirgi statistik va tadqiqot natijalaridan keng foydalanish lozim, darslarda mamlakatimiz holatini misol qilib olib, tendensiyalarni tahlil qilish muhim. Ta’lim jarayonini zamonaviy E-kriminologiya platformasi singari axborot tizimlari bilan qo‘llab-quvvatlash tavsiya etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish: Talabalar uchun ichki ishlar organlarida, Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda, prokuratura tizimida amaliy tajriba o‘tkazish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Tajriba maktablari tashkil qilib, kursantlar jinoyat-ga qarshi kurash bo‘limlarida malaka

oshirishlari uchun shartlar yaratish kerak. Shu bilan birga, mintaqaviy ijtimoiy profilaktika loyihalarida talabalar ishtirokini rag‘batlantirish foydali bo‘ladi.

Xalqaro hamkorlik: AQSh, Rossiya, Yevropa oliy ta’lim muassasalari bilan memorandumlar asosida almashinuv dasturlari yo‘lga qo‘yilsa, ta’lim sifati oshadi. Masalan, turli ta’lim dasturlari bo‘yicha dars almashish, qo‘shma onlayn kurslar tashkil qilish mumkin. Ikki tomonlama stipendiyalar orqali ham e’tibor berilsin.

Strategik yo‘nalishlar: Kriminologiya sohasini ilm-fan bilan birlashtirish uchun alohida Kriminologiya markazi yoki fakultetlari tashkil etish fikri ilgari surilmoqda. Bugungi kunda yaratilayotgan Kriminologiya tadqiqot instituti esa o‘quv va ilmiy yo‘nalishlarni integratsiyalab, yangi strategiya tuzadi. Masalan, “Obod mahalla” konsepsiyasi, yoshlarni profilaktik tadbirlarga jalb qilish kabi ijtimoiy dasturlar doirasida kriminologiya fanini qo‘llash strategiyasini ishlab chiqish zarur.

Xulosa. Mamlakatimizda kriminologiya fanini ta’lim muassasalarida o‘qitish jadal rivojlanmoqda, hukumat darajasida ilmiy-tadqiqot va kursant tayyorlash uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatdiki, kriminologiya ta’limi eng muvaffaqiyatli ijtimoiy va psixologik faktorlarni o‘rgatish bilan birga, jinoyatchilikning profilaktikasiga e’tibor qaratadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kriminologiyani sotsiologiya, psixologiya va huquq fanlari bilan interaktiv tarzda o‘qitish, zamonaviy metodlardan foydalangan holda o‘quv dasturlarini boyitish zarur. Mazkur fan bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik uchun alohida muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-yanvardagi PF-10-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kriminologik faoliyatni ilmiy ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-iyuldagi 445-son qarori.

4. Mannheim H. // Comparative Criminology. – London: Routledge, 1965.

5. Sutherland E., Cressey D. // Principles of Criminology. – Philadelphia: Lippincott, 1978.

6. Durkheim E. // The Rules of Sociological Method. – New York: Free Press, 1982.

7. Garland D. // The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society. – Oxford University Press, 2001.

8. UNODC. // Education for Justice: Criminology and Crime Prevention Curriculum. – Vienna, 2021.

O‘G‘RILIK JINOYATLARINING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION METODLARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xasanov Shuhrat Erkinboyevich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh inspektori

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiy negizining huquqiy asoslarini mustahkamlashda xilma-xil shakllardagi mulkning muhofazasini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilib, takomillashtirilmoqda.

Xususan, qilmishning kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib hamda neft, gaz quvurlarida, neft va gaz mahsulotlari quvurlarida sodir etilgan o‘g‘rilik uchun javobgarlikni differensiatsiya qilish, o‘g‘rilikning profilaktikasi samaradorligini oshirish, viktimologik profilaktikani yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. “Mulkka tajovuz qilish bilan bog‘liq iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish” qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, ushbu sohani tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy hayot darajasi sezilarli darajada yaxshilangani, jinoyatchilikning jilovlanganligi, barcha mahallalarda xavfsiz, tinch va osoyishta muhit yaratish, hududlarda ilg‘or tajriba va amaliyotlarni joriy etish bo‘yicha muhim natijalar qo‘lga kiritilganiligini e’tirof etish lozim.

Buyuk Britaniyaning London shahrida joylashgan Iqtisodiyot va tinchlik instituti tomonidan “Safety Perceptions Index” xavfsizlikni baholash indeksi bo‘yicha 2021–2024 yillar oralig‘ida mazkur reytingda O‘zbekiston o‘z tarixidagi eng yaxshi natijani *(146 ta mamlakat orasida 29-o‘rin)* qayd etib, xavfsiz davlat deb tan olingan.

Butunjahon odil sudlov loyihasi *(World Justice Project–AQSH)* tashkiloti tomonidan har yili o‘tkaziladigan Huquq ustuvorligi indeksining Tartib va xavfsizlik indikatori bo‘yicha O‘zbekiston 2024 yilda:

- dunyoda 142 ta davlatlar orasida 17-o‘rinni;
- Osiyoda 49 ta mamlakatlar orasida 5-o‘rinni;
- Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlari orasida esa 1-o‘rinni egallagan.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo mamlakatlar orasida O‘zbekiston har 100 ming aholiga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni *(359,5 ta)* bo‘yicha eng xavfsiz davlatlardan biri hisoblanmoqda.

Zamonaviy dunyo insoniyatga cheksiz imkoniyatlarni taqdim etishi bilan bir qatorda, davlatlar xavfsizligiga yashirin tahdidlarning paydo bo‘lishi, transmilliy jinoyatlar hamda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishining keskin ortishi, iqtisodiyot asoslariga qarshi qaratilgan jinoyatlar hamda kiberjinoyatlarning yangidan-yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi kabi salbiy xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda.

Birlashgan millatlar tashkilotining jinoyatchilik va odil sudlov sohasidagi tadqiqotlar instituti ma’lumotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha sodir etilayotgan jinoyatlarning 60-65 foizini o‘g‘rilik jinoyatlari tashkil etadi.

Criminology Journal nashrida keltirilishicha, Yevropada umumiy jinoyatchilikning 45-50 foizini, AQShda 40-45 foizini, Osiyo davlatlarida 55-60 foizini, Afrika davlatlarida 65-70 foizini o‘g‘rilik jinoyatlari tashkil etadi.

The British Journal of Criminology tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarida o‘g‘rilik jinoyatlarining 70 foizi jabrlanuvchilarning ehtiyotsizligi va beparvoligi tufayli sodir etilayotganligi qayd etilgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kibero‘g‘riliklarning salmog‘i ham ortib bormoqda. Harvard Law Review ma’lumotiga ko‘ra, so‘nggi 5 yilda an’anaviy o‘g‘riliklar 15-20 foizga kamaygan bo‘lsa-da, kibero‘g‘riliklar 45-50 foizga oshgan.

Respublikamizda 2024 yilda jami 132 298 ta jinoyatlarning 80 foizi *(105 592 ta)* 6 ta jinoyat turi, ya’ni:

- axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar *(58 800 tasi yoki 44,4 %, shundan 21 036 tasi yoki 35,7 % kiberfiribgarlik, 36 444 tasi yoki 61,9 % kibero‘g‘rilik, boshqa jinoyatlar 1 320 ta yoki 2,2 %)*;
- giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi *(12 278 ta yoki 9,3 %)*;
- o‘g‘rilik *(11 931 ta yoki 9 %)*;

- yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlar *(9 365 ta yoki 7,1 %)*;
- firibgarlik *(8 216 ta yoki 6,2 %)*;
- qasddan badanga shikast yetkazish *(6 322 ta yoki 4,8 %)* jinoyatlariga to‘g‘ri kelgan.

Respublikamiz miqyosida sodir qilinayotgan jinoyatlarning asosiy qismini o‘g‘rilik jinoyatlari tashkil qilayotganligi, oldi olinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar orasida o‘g‘rilik jinoyatlarining salmog‘i yuqoriligicha qolayotganligi, jumladan, 2024-yilda oldi olinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning asosiy ulushini 41,3 foizini, 2025-yilning 3 oyida 46,4 foizini, 2025-yilning 6 oyida 29,3 foizini o‘g‘rilik jinoyatlari tashkil etganligi buning yaqqol misolidir.

2024-yil davomida o‘g‘rilik jinoyati sodir etgan shaxslarning asosiy salmog‘ini ya’ni 9,7 foizini 18–30 yoshli ishsiz yoshlar hamda 4,4 foizini mastlik holatidagi shaxslar tashkil etgan.

Shuningdek, probatsiya hisobida turgan shaxslar tomonidan 452 ta o‘g‘rilik, profilaktik hisobda turgan shaxslar tomonidan 315 ta o‘g‘rilik jinoyatlari sodir etilgan.

2025 yilning 3 oyida esa sudlanganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 21,2 foizi, mastlik holatida sodir etilgan jinoyatlarning 23,5 foizi, probatsiya hisobida shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 53 tasi, shuningdek, joriy yil 3 oyida profilaktik hisobda turgan shaxslar tomonidan 38 ta, yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning har uchinchisini, ayollar tomonidan 113 ta, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning har ikkinchisini o‘g‘rilik jinoyatlari tashkil etishi bu turdagi jinoyatlarining asl omillarini ilmiy yondashuv asosida o‘rganish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqishda zamonaviy yangicha innovatsion metodlar orqali kurashish lozimligini taqozo qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, Respublika miqyosida oldi olinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar orasida o‘g‘rilik jinoyatlari sodir qilinish tendensiyasi yuqoriligi, o‘g‘rilik jinoyatlariga qarshi kurashish va uni barvaqt oldini olish, o‘g‘rilik jinoyatlarini sodir qilishi mumkin bo‘lgan shaxslar *(muqaddam sudlanganlar, profilaktik hisoblarda turganlar, o‘g‘rilik jinoyatini sodir qilishga moyillar va h.k)*, hamda ushbu jinoyatdan jabrlanishi mumkin bo‘lgan shaxslar bilan manzilli profilaktik ishlarni sun’iy intellekt yordami va baholashi asosida amalga oshirish, shuningdek,

o‘g‘rilik jinoyatlarini oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni hududlar kesimida monitoring qilib, tegishli chora-tadbirlarni o‘z vaqtida belgilab borish maqsadida, “YE-O‘g‘rilik” elektron tizimini yaratish va amaliyotga keng joriy etish taklif qilinadi.

“YE-O‘g‘rilik” elektron tizimida quyidagi ma’lumotlarni shakllantirish ko‘zda tutilmoqda:

- oldin o‘g‘rilik jinoyati bilan sudlangan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- o‘g‘rilik jinoyati sodir qilishga moyil bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- o‘g‘rilik jinoyati sodir qilishga moyil bo‘lgan shaxs – o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli o‘g‘rilik jinoyati sodir etish ehtimoli holatida bo‘lgan jismoniy shaxs;
- o‘g‘rilik jinoyatidan jabrlanganlar va jabrlanishi mumkin bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- hududdagi ishsiz fuqarolar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- o‘g‘rilik jinoyati bilan sudlanganlar va ushbu turdagi jinoyatlarni sodir qilishga moyil bo‘lgan shaxslarning joylashuv xaritasi;
- o‘g‘rilik jinoyatlarining profilaktikasi bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar:

Misol uchun: kamera o‘rnatilishi kerak bo‘lgan joylar, obyektlar, hududdagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan obyektlarning qo‘riqlash pultiga ulanish holati, targ‘ibot-tashviqot ishlari, o‘g‘rilik jinoyati sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga berilgan ogohlantirish xatlari va h.k.

Tadqiqotimiz davomida o‘g‘rilik jinoyatlarining profilaktikasiga ham ta’rif berib o‘tishni lozim deb topdik.

O‘g‘rilik jinoyatlarining profilaktikasi – o‘g‘rilik jinoyatlarilarini aniqlash, ularga barham berish, shuningdek, ushbu jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir.

“YE-O‘g‘rilik” elektron tizimini yaratish va ishga tushirish aynan o‘g‘rilik jinoyatlariga qarshi kurashish va uni oldini olish borasidagi

ishlarni yaxshilash, o‘g‘rilik jinoyatlarining kamayishiga, shuningdek, muqaddam o‘g‘rilik jinoyati bilan sudlangan, o‘g‘rilik jinoyati sodir qilishga moyil bo‘lgan, ushbu jinoyatdan jabrlangan va jabrlanishi mumkin bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning hududlar kesimida elektron bazalari shakllanishiga hamda o‘g‘rilik jinoyatlarining profilaktikasi bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi natijasida ushbu turdagi jinoyatlarning kamayishiga zamin yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida jinoyatlarga qarshi kurashning noan’anaviy usullarini qo‘llash, xususan, kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan ma’lum bir hudud va uylarning atrof-muhitni obodonlashtirish orqali jinoyatlarni oldini olish masalalariga e’tibor qaratildi.

Misol uchun, Tokio shahrining ko‘p qavatli uylar, xonadonlar zich joylashgan hududlarida 2023-yili 1700 ta xonadon o‘g‘riligi qayd etilgani politsiya va hukumatni jinoyatning mazkur turini oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha bosh qotirishga majbur qilgan. Boshqa hududlarning ilg‘or tajribasi o‘rganilganda obodonlashtirilgan, gullar ekilgan, bog‘lar barpo etilgan hududlarda jinoyatlar kam sodir etilganligi namoyon bo‘lgan. Ushbu hudud mas’ullari keng jamoatchilikni jalb qilib, hududni obodlashtirishga katta e’tibor qaratganlari natijasida umumiy jinoyatchilik 50 foizga, xonadon o‘g‘irligi esa 80 foizga kamayishiga erishilgan. Darhaqiqat 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qaror ijrosini ta’minlash bo‘yicha Toshkent viloyatida o‘tkazilgan ilmiy o‘rganishlar davomida viloyat hududida sodir qilingan jinoyatlarning aksariyati ovloq, tashlandiq, yoritilmagan joylarda sodir qilinganligi ma’lum bo‘ldi.

Tokio tajribasining O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi jinoyatlarni oldini olishda samarali usullardan biri hisoblanishi mumkin.

Bundan tashqari, hozirgi kunda O‘zbekistonda zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan yangi turdagi o‘g‘riliklarga qarshi kurashish uchun innovatsion yondashuvlar zarur:

- o‘g‘rilik jinoyatini oldini olish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilishi lozim, jumladan, kriptovalyuta o‘g‘riligiga qarshi kurashishda blokcheyn monitoringi tizimi joriy etilmagan, kriptobirjalar faoliyatini nazorat qilishning aniq tartibi mavjud emas, shubhali tranzaksiyalarni

aniqlash tizimini yaratish davr talabi bo‘lib bormoqda, vaholanki hozirda dunyo bo‘ylab pul ko‘chirishning payqab bo‘lmas usullari soni tobora ortib bormoqda;

- shaxsiy ma’lumotlar o‘g‘riligiga qarshi kurashishda biometrik autentifikatsiya tizimlarini rivojlantirish lozim, amaldagi holat esa 20 yillik usullardan biri hisoblanadi. Kiberxavfsizlik bo‘yicha aholi xabardorligini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar yetarli emas;
- elektron to‘lovlar tizimidagi o‘g‘riliklarga qarshi kurashishda tranzaksiyalarni monitoring qilish, ularni kuzatish amaliyotini takomillashtirilgan usullarini joriy etish lozim. Amaldagi tizimda ko‘pdan-ko‘p elektron to‘lovlar orqali o‘tkazilgan tranzaksiyalar o‘g‘rilik, firibgarlik yo‘llari bilan qo‘lga kiritilmoqda. Biroq bu tranzaksiyalar g‘oyib bo‘lishi, ularni kuzatish imkoni cheklanganligi boshqaruv sohamizda yangi islohotlarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, kibero‘g‘riliklar asosan quyidagi 4 usulda sodir etilmoqda:

- zararli havola va dasturlar yuborish orqali bank karta yoki mobil qurilma boshqaruvini qo‘lga kiritish;
- soxta *(SIP)* qo‘ng‘iroq orqali aldov yo‘li bilan bank karta va mobil ilovalardagi akkauntlarning boshqaruvini “Tasdiqlovchi SMS-kod”ni qo‘lga kiritish;
- shaxs nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish;
- banklar va to‘lov tashkilotlarining texnik zaifliklari sababli amalga oshirilgan.

Soxta *(podmena)* qo‘ng‘iroqlar orqali aldovlar bilan bank karta hamda mobil ilovalardagi akkauntlar boshqaruvini “Tasdiqlovchi SMS-kod”ni qo‘lga kiritish yo‘li bilan sodir etilayotgan kibero‘g‘irlik jinoyatlari to‘liq bartaraf etish uchun manzilli choralar ko‘rilmayotganligi sababli ular yildan-yilga ko‘payishi kuzatilmoqda.

Dunyo bo‘yicha soxta qo‘ng‘iroqlar orqali o‘zganing mulki va shaxsga doir ma’lumotlarini qo‘lga kiritish huquqbuzarliklari oshib bormoqda *(yilda qariyb 30 % foydalanuvchilar shunday qo‘ng‘iroqlarni qabul qilishadi)*.

Jinoyatchilar xorijdan turib, soxta *(SIP)* telefon raqamlar orqali *(go‘yoki milliy operatorlar abonent raqamidan foydalanib amalga oshiril-*

gandek ko‘rsatib) qo‘ng‘iroq qilib, o‘zini bank yoki HMQO xodimi sifatida tanishtirishi hamda vahimali *(nomiga onlayn kredit olinayotgani, kartasidagi yoki omonatdagi puliga kiberhujum bo‘layotganligi haqida)* aldovlar bilan fuqarolarning bank karta va to‘lov ilovasidagi akkaunti boshqaruvini egallashmoqda.

Ushbu jinoyatlarning oldini olish uchun respublikadagi barcha milliy operatorlar xorijdan Internet tarmog‘i orqali amalga oshirilgan soxta qo‘ng‘iroqlarning oldini olish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha amaliy ishlarni yo‘lga qo‘yishlari lozim.

Xorijiy tajriba tahlili, soxta *(podmena)* qo‘ng‘iroqlar orqali firibgarlik va fuqarolarning shaxsga doir ma’lumotlarini egallash holatlari barcha davlatlarda kuzatilayotganini hamda ularning oldini olish bo‘yicha asosan 3 ta chora qo‘llanilayotganini ko‘rsatmoqda:

1. Ayrim davlatlar *(XXR, BAA, Saudiya Arabistoni, Eron)*da firibgarlik va o‘g‘riliklarning oldini olish, milliy operatorlarni qo‘llab-quvvatlash hamda davlatning to‘liq nazoratini ta’minlash maqsadida IP telefoniya xizmatlari to‘liq taqiqlangan;

2. Aksariyat *(AQSH, YEI davlatlari, Hindiston, J. Koreya va boshqa)* mamlakatlarda IP telefoniya orqali soxta qo‘ng‘iroqlarga yo‘l qo‘yganlik yuzasidan mobil operatorlarning shaxsiy javobgarligi qonun bilan belgilangan, shuningdek zamonaviy texnik yechimlar joriy etilgan;

3. IP telefoniya – bu ovoz, video va ma’lumotlarni raqamli shaklda internet orqali uzatish;

4. Telefon stansiyalari o‘rniga serverlar va softfonlardan foydalanish;

5. Uy telefonlari, IP telefonlar, kompyuter, smartfon yoki garnitura orqali qo‘ng‘iroq qilish imkoniyati.

3. Mobil operatorlar sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali shubhali qo‘ng‘iroqlarni aniqlash va avtomatik bloklash yoki qabul qilinuvchini ogohlantirib, bloklash masalasini uning o‘zida qoldirish xizmatlarini ko‘rsatmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, soxta *(podmena)* qo‘ng‘iroqlar va ular orqali sodir etilayotgan o‘g‘riliklarning oldini olishga quyidagi omillar to‘sqinlik qilmoqda:

- IP telefoniya orqali soxta raqamlar orqali qo‘ng‘iroqlarni amalga oshirish qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan va unga qarshi

kurashish tizimi *(mas'ul muassasalar, majburiyat va javobgarliklar)* shakllanmaganligi;

- IP telefoniya xizmatlaridan foydalanishga ruxsat berilgan bo‘lsa-da, ular orqali soxta qo‘ng‘iroqlar amalga oshirishning oldini olish bo‘yicha texnologik mexanizmning mavjud emasligi;
- sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha xalqaro va ikki tomonlama hamkorlikning zamon talabida emasligi;
- fuqarolarda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha “Kibermadaniyat” va huquqiy ong yetishmasligi. Hududlarda bu boradagi profilaktik chora-tadbirlarni yetarlicha tashkil etilmaganligi, xususan, fuqarolarda onlayn to‘lovlardan foydalanishda xavfsizlikni ta’minlash, kibermakonda shaxsga doir ma’lumotlarni muhofaza qilish va shu kabi boshqa masalalarda tushunchalar yetishmaydi;
- profilaktika inspektorlarida kiberjinoyatlarning oldining olish borasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarining yetarli emasligi. Ushbu holatlar fuqarolar bilan soha bo‘yicha profilaktik ishlarni tashkil etishda uslubiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda;
- hududlarda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyatlarini aniqlash va barvaqt oldini olishga qaratilgan avtomatlashtirilgan tezkor-axborot tizimlarining mavjud emasligi.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga keng joriy etilishi bu turdagi jinoyatlarning oldini olishda muhim turtki bo‘lib hisoblanadi deb o‘ylaymiз.

O‘G‘RILIK BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISHNING MUHIM JIHATLARI

Jurayev Zoxidjon Ashurovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya instituti
mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi

Annotatsiya. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jazo tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiyaviy tasir choralarini qo‘llash, shuningdek, muayyan darajada tibbiy xarakterdagi majburlov choralarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi. Bularning barchasi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tergov va sud amaliyotida jinoyat qonunlarini qo‘llashning asosiy, fundamental, markaziy va tayanch qismi – uning o‘zagi ekanligini ta’kidlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: kvalifikatsiya, guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, jazo tayinlash

Annotation. The qualification of crimes provides for punishment in the form of imprisonment, imprisonment and punishment in the form of imprisonment for up to three years, as well as forced labor in the form of imprisonment for up to three years. All these concepts, including qualifications and legal proceedings, are the basis, foundation, labeling and support of justice – it makes it possible to judge exactly what happened.

Keywords: qualification, executions, victims, humanism, retribution, punishment

Jinoyat huquqi qonunlarini qo‘llash – davlat huquqni muhofaza qiluvchi organlarining turli masalalarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan serqirra faoliyatidir. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- qilmishga jinoyat-huquqiy baho berish;
- jazo tayinlash;
- javobgarlikdan va jazodan ozod qilish;
- voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiyaviy tasir choralarini qo‘llash;
- tibbiy xarakterdagi majburlov choralarini qo‘llash.

- qilmishga jinoyat-huquqiy baho berish esa ikki komponentdan iborat;
- jinoyatni jinoyat bo‘lmagan qilmishdan ajratish;
- jinoyat deb topilgan qilmishni kvalifikatsiya qilish, ya’ni jinoyat kvalifikatsiyasini belgilash.

Amaliyotda o‘zgalar mol mulkini talon taroj qilish bilan bog‘liq jinoyat qonunlarini qo‘llashda bu ikki komponent bir butun holda namoyon bo‘ladi. Lekin, jinoyat huquqi nazariyasida ular shartli ravishda ajratib o‘rganiladi.

Bunday ajratishning ahamiyati shundaki, agar qilmish jinoyat deb topilmasa, jinoyat huquqining boshqa masalalarini hal qilishga hojat qolmaydi. Agar u jinoyat deb topilsa, bu masalalarni hal qilish zaruriyati paydo bo‘ladi va, avvalo, jinoyatni kvalifikatsiya qilish – ya’ni sodir yetilgan qilmishning aniq jinoyat tarkibi belgilariga mosligini aniqlash – birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

O‘g‘irlik bilan bog‘liq jinoyatlarini kvalifikatsiya qilish – barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar: surishtiruv, tergov, prokuratura va sud tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir. Masalan, jazo tayinlash faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud tomonidan amalga oshirilishi esa bu faoliyatni ushbu organlar va sudni bir xil vazifalar va majburiyatlar bilan bog‘lab turuvchi umumiy faoliyat sifatida tavsiflaydi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida jinoyat huquqining turli-tuman muammolari turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, jinoyat qonunidagi bo‘shliqlar va zaif joylar, nazariy konsepsiyalardagi noaniqliklar aniqlanadi va hokazo.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning mohiyati, uning jinoyat huquqidagi o‘rni va rolini obrazli tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin: agar jinoyat-huquqiy normalar va ulardagi tushunchalar, belgilari, definitsiyalari va h.k. shohmatdagi figuralarning turlari, ahamiyati, ularning doskadagi joylashuvi va yurish qoidalariga qiyoslansa, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish esa – shohmat o‘yinining o‘ziga o‘xshaydi. Bu o‘yinda kombinatsiyalar jinoyat sodir etilgan faktik holatlarni tahlil qilish va ularni jinoyat-huquqiy normalar bilan taqqoslash asosida

belgilanadi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy qoidalarini – ya'ni jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasini – bir tomondan, amaliyotdagi, ya'ni tergov va sud amaliyotidagi kvalifikatsiyadan – ikkinchi tomondan farqlash muhimdir. Nazariy qoidalar jinoyat turlarining jinoyat-huquqiy normalardagi tavsifi va ularning odatdagi sodir etilish holatlari doirasida umumlashtirilgan ifodada aks etadi. Amaliyotdagi kvalifikatsiyada esa sodir etilgan qilmishning barcha istisnosiz aniqlangan va isbotlangan faktik holatlari, uning individual ko'rinishdagi xususiyatlari, nozik jihatlari va e'tiborli jihatlari inobatga olinadi.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi ushbu farq shunga olib keladiki, o'g'irlik bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasi real jarayonda sodir etilgan har bir alohida jinoyat uchun "tayyor retsept" berish imkoniga ega emas. Chunki turli hayotiy vaziyatlarda sodir etiladigan jinoyatlarning faktik holatlarida uchrashi mumkin bo'lgan xususiyatlar soni aqliy tasavvur qilish qiyin bo'lgan darajada beqiyos va cheklanmagandir, ularni oldindan hisobga olishning esa imkoni kamroq.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasi jinoyat sodir etilgan qilmishlarga huquqiy baho berishning ilmiy asosini tashkil etadi, bunday bahoning metodologik jihatdan aniq va asosli jihatlarini o'z ichiga oladi, obrazli aytganda, uning "ko'paytirish jadvali" vazifasini bajaradi. Agar abstrakt – falsafiy darajadagi qiyoslashga murojaat qilsak va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasini jinoyatlarni huquqiy baholashning nazariy usuli, amaliyotdagi kvalifikatsiyani esa bunday bahoning amaliy usuli sifatida shartli ravishda qabul qilsak, ularning o'zaro munosabatini (aniqki, shartli va nisbiy tarzda, chunki qiyoslanayapgan usullar turli kategoriyaviy maydonlarga tegishli) mantiqiy va tarixiy bilish usullarining o'zaro munosabatiga o'xshatish mumkin.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish – bu "sodir etilgan qilmish belgilari bilan jinoyat-huquqiy normada nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilari o'rtasida aniq muvofiqlikni aniqlash va yuridik jihatdan mustahkamlash"dir.

Keltirilgan ta'rif milliy jinoyat huquqi nazariyasida umume'tirof

etilgan bo‘lib, jinoyatni kvalifikatsiya qilish tushunchasining mazmunini keng ochib berish uchun asos hisoblanadi.

“Jinoyatni kvalifikatsiya qilish” va “jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish” iboralari (ya’ni “jinoyat” so‘zining birlik yoki ko‘plikda kelishi) yuridik adabiyotlarda sinonim sifatida qo‘llaniladi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish to‘rtta tarkibiy qismdan iborat bo‘lgan tushuncha hisoblanadi.

Birinchisi shundan iboratki, jinoyatni kvalifikatsiya qilish jinoyat hisoblangan qilmishga – ya’ni jinoyat tarkibining barcha belgilari, hatto kamida bittasi mavjud bo‘lgan qilmishga – huquqiy baho berishdan iboratdir. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish o‘sha paytda mavjud bo‘ladi, agar sodir etilgan qilmishga huquqiy baho berish jarayonida uning jinoyat va jinoyat bo‘lmagan qilmishdan ajratilishi natijasida sodir etilgan qilmishning, uning aniq tarkibi belgilangan-etilmaganidan qat’i nazar, jinoyat ekanligi aniqlansa.

Sodir etilgan qilmishga huquqiy baho berish uning jinoyat emasligi, ya’ni Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan birorta ham jinoyat tarkibi belgilari mavjud emasligi haqidagi xulosaga olib kelgan hollarda. Bunday baho “jinoyatni kvalifikatsiya qilish” tushunchasiga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki bunday qilmishni O‘zbekiston Respublikasi JK Maxsus qismidagi biror moddaga muvofiq kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Bunday vaziyatlarda go‘yoki jinoyatni kvalifikatsiya qilishning salbiy, yoki tugallanmagan shakli mavjud bo‘ladi. Ammo, bu hol jinoyatni kvalifikatsiya qilish tushunchasi bilan mos kelmaydi, zero jinoyatni kvalifikatsiya qilish – bu ijobiy va tugallangan huquqiy bahoni nazarda tutadi; bunday vaziyatlarda esa jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun huquqiy asos bo‘lmaydi va sodir etilgan qilmishning jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi istisno etiladi.

Sodir etilgan qilmishga huquqiy baho berish uning jinoyat emasligi haqidagi xulosaga olib keladigan holat bilan, aksincha, sodir etilgan qilmish jinoyat deb topilib, uning kvalifikatsiyasi amalga oshiriladigan holat o‘rtasidagi farq faqat aqliy, nazariy tarzda amalga oshiriladi. Amaliyotda – huquqni qo‘llash faoliyatida, ilmiy va pedagogik jarayonlarda – sodir etilgan qilmishga huquqiy baho berish, u jinoyat emasligi xulosasiga olib kelishidan qat’i nazar yoki uni jinoyat deb topish va tegishli ravishda uni kvalifikatsiya qilish bilan tugashidan qat’i

nazar, yagona, bir butun tafakkur jarayonidir. Bu jarayonda bir vaqtning o‘zida ham qilmishning jinoyat emasligi aniqlanadi, ham, agar u jinoyat deb topilsa, jinoyatning kvalifikatsiyasi amalga oshiriladi.

O‘g‘irlik bilan bog‘liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish – subyektiv kategoriya hisoblanadi. U jinoyatni kvalifikatsiya qiluvchi shaxsning ongida, avvalo, sodir etilgan qilmishning belgilari, ikkinchidan, jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilari va uchinchidan, ularning o‘zaro mos kelishi haqidagi tasavvurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois jinoyatni kvalifikatsiya qilish aniq bo‘lishi uchun jinoyatni kvalifikatsiya qiluvchi shaxs jinoyat huquqini – ham JKni, ham mazkur sohaning nazariy ilmini – yaxshi bilishi, shuningdek quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘lishi zarur: bir tomondan, sodir etilgan qilmishning belgilariga oid faktik holatlarni aniqlay olish, ikkinchi tomondan, ushbu belgilani jinoyat tarkibi belgilari bilan solishtirish va mantiqiy qoidalarga qat’iy rioya qilgan holda ularning mos yoki nomos kelishi haqida xulosa chiqarish. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish sur’ati, tezligi jinoyatni kvalifikatsiya qiluvchi shaxsning jinoyat huquqini qay darajada puxta bilishi va ushbu ko‘nikmalarning qay darajada shakllanganiga bog‘liq.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning ikkinchi komponenti – bu sodir etilgan qilmishning belgilari. Ular sodir etilgan qilmishning faktik holatlarida ifoda etilgan belgilardir. Shu sababli “sodir etilgan qilmish belgilari”, “sodir etilgan qilmishning faktik belgilari”, “sodir etilgan qilmishning faktik belgilari” kabi iboralar terminologik jihatdan bir xil ma’noga ega bo‘lib, sinonim hisoblanadi.

Amaliyotda – tergov va sud faoliyatida – mazkur belgilalar jinoyat ishi *(jinoyat ishlari)* materiallarida aks etadi. Bundan tashqari, ular quyidagi manbalarda ham ifodalanishi mumkin:

- o‘quv jarayonida – jinoyat huquqi bo‘yicha masalalar mazmunida;
- adabiyotda – voqeada sodir etilgan yoki mualliflar tomonidan o‘ylab topilgan jinoyat qilmishlarining tasvirida;
- san’atda – sahnadagi spektakllarda, kinoekranlarda bunday jinoyatlar syujetlarining namoyishida va hokazo.
- sodir etilgan qilmishning faktik belgilari jinoyat ishi materiallarida, shuningdek boshqa manbalarda ham quyidagicha aks etadi:
- ular real hayot sharoitida – joyi, vaqti va boshqa holatlari aniqlangan holda – aniq voqelik tarzida namoyon bo‘ladi;

- ular boshqa faktik holatlardan ajralgan holda emas, balki o‘sha holatlar bilan birga va ular bilan bog‘liq holda, ya’ni qilmish sodir etilgan paytdagi, ungacha bo‘lgan va undan keyingilar bilan uzviy aloqada ifodalanadi;
- ular isbot manbalarida – guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar ko‘rsatmalarida, ekspert xulosalarida, ashyoviy dalillarda, tergov va sud harakatlari bayonnomalarida va boshqa hujjatlarda aks etadi;
- bularning katta qismi o‘zi subyektiv ravishda sodir etilgan qilmishning faktik belgilari va unga bog‘liq holatlarning aks ettirilishi hisoblanadi.

Shuning uchun jinoyat ishi materiallarida aks etgan sodir etilgan qilmishning faktik belgilari ochiqdan-oydin ko‘rinib turmaydi, ular “o‘zi-o‘zidan” yuzaga chiqmaydi. Ularni aniqlash fikriy jarayon orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda, avvalo, ushbu belgilarni boshqa barcha faktik holatlardan ajratib olish, ya’ni ularni alohida qilib yechib olish talab etiladi; ikkinchidan esa – ularning mohiyatini ajratish orqali, ya’ni ularning mazmuniga ta’sir qilmaydigan konkretlashtirish va detallashtirish elementlaridan “tozalash” orqali – jinoyat tarkibi belgilari bilan solishtirishga yaroqli ko‘rinishga keltirish zarur. Obrazli aytganda, ularni jinoyat tarkibi belgilari bilan “bir xil hisob”ga keltirish kerak bo‘ladi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning uchinchi komponenti – jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilari.

Keltirilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish ta’rifi tarkibidagi ushbu komponent “jinoyat-huquqiy normada nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilari” deb atalgan. Biroq jinoyat tarkibi belgilari jinoyat-huquqiy norma tomonidan nazarda tutiladi degan ko‘rsatma aniq emas, chunki u to‘liq tushuncha bermaydi. Buning sababi shundaki, jinoyat tarkibi belgilari jinoyat-huquqiy normaning faqat bittasi – xususan, JKning Maxsus qismi moddasidagi normaning o‘zi bilangina nazarda tutilmaydi.

JK Maxsus qismi moddasidagi normalarda jinoyat tarkibining barcha belgilari emas, balki uning obyektiv tomonini tavsiflovchi belgilari, shuningdek uning boshqa elementlariga oid ayrim belgilari, va eng asosiysi – ushbu jinoyat tarkibini boshqa jinoyat tarkiblaridan

farqlovchi belgilari keltirilgan xolos.

Jinoyat tarkibi moddasida mavjud bo‘lmagan, barcha jinoyat tarkiblariga yoki ularning aksariyatiga, yoki muayyan turkumiga taalluqli bo‘lgan belgilar esa JKning Umumiy qismi normalarida, shuningdek Maxsus qismning bo‘lim va boblari nomlarida o‘z aksini topgan.

Motiv va maqsad – jinoyatning subyektiv tomonining fakultativ belgilari hisoblanadi.

Jinoyat motivi deganda inson faoliyatining ichki turtkisi, ya’ni uni harakatga keltiruvchi sabab tushuniladi.

Jinoyatning maqsadi esa shaxs o‘z faoliyati natijasi sifatida tasavvur qiladigan holat, ya’ni ideal natiqdir.

Har qanday qasddan sodir etilgan jinoyat ma’lum bir motiv va ma’lum bir maqsad bilan sodir etiladi. Biroq har bir jinoyat tarkibi motiv yoki maqsad bilan belgilangan bo‘lavermaydi.

Yuridik adabiyotlarda har qanday qasddan jinoyat ma’lum bir motiv yoki maqsad bilan sodir etiladi deyilganda, bunda ularning ijtimoiy-huquqiy yoki kriminologik ma’nosi nazarda tutiladi. Agar motiv va maqsad subyektiv tomonning fakultativ belgilari sifatida *(ya’ni ular har bir jinoyat tarkibiga xos emasligi)* tilga olinsa, bu holda ularning jinoyat-huquqiy ahamiyati, ya’ni jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’siri nazarda tutiladi.

Motiv va maqsad – quyidagi shartlardan biri mavjud bo‘lganda ayrim jinoyat tarkiblarining subyektiv tomonining majburiy belgilariga aylanadi:

Birinchi shart: motiv yoki maqsad JKning Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida bevosita ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Masalan, motiv haqida JK da manfaatdorlikdan kelib chiqib; yovuz niyatda; qasd olish va boshqalar aytilgan. Bu modda og‘irlashtiruvchi holatlar bilan sodir etilgan odam o‘ldirish uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Maqsad haqida esa, masalan, JK 169-moddasida aytiladi, u talonchilik uchun javobgarlikni belgilaydi (maqsad – mulkni talon-toroj qilish). Boshqa moddalarda ham shunga o‘xshash ko‘rsatmalar mavjud.

Ikkinchidan, motiv yoki maqsad muayyan jinoyat tarkibi subyektiv tomonining majburiy belgilari hisoblanadi, agar ularning mavjudligi

mazkur konkret jinoyat tarkibi huquqiy tabiatidan kelib chiqsa. Bu tabiat JK Maxsus qismida nazarda tutilgan ushbu jinoyat tarkibi normasi mazmunini, yaqin turdagi jinoyat tarkiblarini nazarda tutuvchi boshqa Maxsus qism normalari bilan solishtirish natijasida aniqlanadi. Masalan, boshqalarning mulkini ochiq ravishda egallash – masalan, boshqaning qalpog‘ini o‘g‘irlab olish va uni o‘zlashtirish maqsadida olish – bu talonchilik hisoblanadi va uning uchun javobgarlik O‘zbekitson Respublikai JK 169-moddasida belgilangan. Agar esa shu mulkni faqat uni yo‘q qilish maqsadida (o‘tga yoqish, daryoga tashlash) olish, jabrlanuvchiga qasos ko‘rish motivi va unga zarar yetkazish maqsadi bilan amalga oshirilsa, bu jinoyat tarkibi jinoyat sifatida mulkni qasddan yo‘q qilish yoki shikastlashni tashkil qiladi va O‘zbekitson Respublikai JK 169-moddasida nazarda tutilgan. Xulosa qilib aytganda, bir xil obyektiv belgilari bo‘lgan qilmish, agar u bezorilik motividan kelib chiqsa, bezorilik tarkibiga kiradi va O‘zbekitson Respublikai JK 277-moddasida belgilangan.

Mayda bezorilik tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 183-moddasida berilgan bo‘lib, uning mazmuniga ko‘ra, ushbu huquqbuzarlik jamoat joylarida uyatli so‘zlar aytish yoki shunday so‘zlar bilan so‘kinish, behayo qiliqlar ko‘rsatish yoxud odamlarga nisbatan haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqdan-ochiq mensimaslik harakatlarida ifodalanadi.

Shu kabi solishtirishlar orqali muayyan jinoyat tarkibiga muayyan motiv yoki maqsad xosligini aniqlash mumkin, agar ular Maxsus qism normasida ochiq ko‘rsatilmagan bo‘lsa albatta.

Agar motiv va maqsad muayyan jinoyat tarkibi subyektiv tomonining majburiy belgilari hisoblansa, ularning sodir etilgan qilmishda yo‘qligi ushbu jinoyat tarkibini istisno qiladi.

Maqsadni “xohish”ning tarkibiy qismi sifatida – qasdning irodaviy momenti sifatida va maqsadni jinoyatning subyektiv tomonining mustaqil belgisi sifatida ajratib qarash lozim. Birinchisida maqsad obyektiv tomonning aks ettirilishi bo‘lib, Maxsus qism moddasi dispozitsiyasida ko‘rsatilgan belgilarida moddiy obyektiv ifodasiga ega

bo‘ladi.

Bundan farqli ravishda, maqsad jinoyatning subyektiv tomonining mustaqil belgisi sifatida bunday moddiy ifodasiga ega emas. U ayblanuvchining oqibatlarga psixik munosabatini tasvirlaydi, ya’ni jinoyat tarkibi hududidan tashqaridagi, ya’ni mazkur konkret jinoyat tarkibi uchun Maxsus qism moddasida nazarda tutilgan belgilariga kirmaydigan oqibatlarga nisbatan munosabatini ko‘rsatadi.

Motiv va maqsadning mavjudligi va mazmuni, ayb va uning shakllari kabi, har bir konkret jinoyatda sodir etilgan qilmishning barcha holatlari tahlil qilingan va baholangan asosda aniqlanadi. Bu holatlar jinoyat ishi materiallarida aks etgan bo‘lishi kerak va jinoyat-tergov qonunchiligida belgilangan qoidalarga muvofiq isbotlangan bo‘lishi shart.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Juraev, Z.A., Kriminologicheskaya xarakteristika kraj i sovershenstvovanie ix profilaktiki. “Yurisprudentsiya, pravosudie i gosudarstvo aktualnie voprosi teorii i praktiki” sbornik statey VII Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii sostoyavsheysya 25 iyulya 2025 g.

2. Jurayev, Z.A., O‘g‘rilik – salbiy ijtimoiy hodisa sifatida”, “Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali” (2181-3477) Jild: 04 Nashr: 10 (2025)

3. Jurayev, Z.A., O’g’rilikning kriminologik tavsifi va uning oldini olishni takomillashtirish. Oriental journal of history, politics and law issn: 2181-2780, Current Issue – Vol. 5 No. 11 (2025): Vol 05, Issue 11, 2025

4. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni //URL: http://www.lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimi takomillashtirishchora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3827-son qarori // URL: http://www.lex.uz

6. Yemelьkina, N.L., Juraev, Z.A., Prichini i posledstviya pribitiya trudovix migrantov iz Uzbekistana v Rossiyskuyu Federatsiyu s nesovershennoletnimi detimi, Nauka i praktika: aktualьnie voprosi, dostijeniya i innovatsii sbornik statey IV mejdunarodnoy nauchno-

prakticheskoy konferentsii, sostoyavsheysya 15 dekabrya 2024 g.

7. 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilishto‘g‘risida” Qonuni;

8. Juraev, Z.A., Biologicheskaya xarakteristika nekotorыx lekarstvennыx rasteniy, proizrastayuщix vo flore uzbekistana, Mejdunarodnыy sentr nauchnogosotrudnichestva“naukaiprosveщenie”,Naukaiprosveщenie mejdunarodnыy sentr nauchnogo sotrudnichestva teoriya i praktika sovremennoy nauki sbornik statey XIV mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, sostoyavsheysya 20 dekabrya 2024 g.

9. Astanov I. R. Zo’rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar va ularni tergov qilishning o’ziga xos jihatlari: O’quv qo’llanma. –T., TDYuU, 2015. – B. 139.

10. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. – B. 163;

11. Predostavlenie uslug politsii, chastь mejvedomstvennogo reagirovaniya na gendrenoe nasilie. Standartnыe operativnыe protsedurы. 2015/ UNFPA, East European Institute for Reproductive Health

12. Жураев, З.А., Роль и значение геополитики в современных международных отношениях и образование: актуальные вопросы, достижения и инновации сборник статей V международной научно-практической конференции, состоявшейся 7 октября 2022 г.

13. Жураев, З.А., Анализ клинико-фармакологических характеристик некоторых психотропных средств, применяемых в медицинской практике, *Наука, образование, общество: актуальные вопросы, достижения и инновации* сборник статей VI международной научно-практической конференции, состоявшейся 17 ноября 2023 г.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA QONUNCHILIKNING O‘RNI: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MISOLIDA

Mansur Mirkomilovich Magrubov

Ichki ishlar vazirligi MOMB Maxsus tayyorgarlik o‘quv markazi xodimi

Annotatsiya. Bugun jahonda yuz berayotgan turli notinchlik hamda ommaviy tartibsizliklar ularning natijasida yuz berayotgan keskinliklar davlatlar tinchligiga putur yetkazish bilan bir qatorda, xalqlarning o‘zaro do‘stligiga va osoyishtaligiga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Manfaatdor ayrim davlatlar tomonidan bunday harakatlarning moliyalashtirilayotganligi hamda ularni tashkil etish uchun maxsus tayyorlangan shaxslarning jalb etilayotganligi bunday qilmishlar uchun mavjud normativ huquqiy hujjatlardagi javobgarlik masalasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Kalit so‘zlar: jinoyat, jamoat xavfsizligi, ommaviy tartibsizlik, dron, uchuvchisiz uchadigan apparat, antidron *(dronga qarshi)* qurilma, javobgarlik, qonun.

Аннотация. Различные беспорядки и массовые волнения, происходящие в современном мире, а также возникающая в связи с ними напряженность не только подрывают мир в государствах, но и крайне негативно сказываются на дружбе и спокойствии народов. Финансированиеподобныхдействийзаинтересованнымигосударствами и привлечение к их организации специально подготовленных лиц требуют переосмысления вопроса об ответственности за подобные деяния в действующих нормативных правовых документах.

Ключевые слова: преступление, общественная безопасность, нарушение общественного порядка, дрон, беспилотный летательный аппарат, устройство противодействия дронам, ответственность, закон.

Abstract. The various unrest and mass unrest occurring in the world today, as well as the tensions arising from them, are not only undermining the peace of countries, but are also having a very negative

impact on the friendship and tranquility of peoples. The fact that such actions are being financed by some interested states and that specially trained individuals are being involved in organizing them requires a reconsideration of the issue of liability for such acts in existing regulatory legal documents.

Keywords: crime, public safety, public disorder, drone, unmanned aerial vehicle, anti-drone device, liability, law.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan so‘ngi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga qaratilgan chora tadbirlar, shuningdek, jamoat xavfsizligi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu bilan birga, sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini hamda erkinliklarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotganligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Nafaqat mamlakatimiz hududida istiqomat qilayotgan balkim xorijiy davlatlarda yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlarini ta’minlash va ularning kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ayrim xorijiy davlatlar bilan ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazosini hamda o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslarning majburiy davolashini mamlakatimizda o‘tashi uchun qabul qilib olish va berish to‘g‘risida bir qator xalqaro shartnomalar tuzilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning xavfsizligini ta’minlash, uning huquqlarini doimiy himoya qilishni ko‘zlab qonunchiligimizga har yili turli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib kelinmoqda.

Jumladan, Jinoyat hamda Jinoyat protsessual kodeksini oladigan bo‘lsak, ilmiy tadqiqotlarimiz va tahlillarimizga tayanib shuni aytishim mumkinki, 1995-yildan 2025-yilning aprel oyiga qadar, Jinoyat protsessual kodeksiga O‘zbekiston Respublikasining 126 marotaba qonunlar bilan turli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. Eng ko‘p o‘zgartirishlar

asosan, 2024-yilda 10 marotaba kiritilgan bo‘lsa, 2021-yilda 11 marotaba va 2019-yilda 16 marotaba kiritilganligi *(ayrim qolgan yillarda ham o‘zgartirishlar kiritilgan)* qonunchiligimizdagi o‘zgartirishlar jinoiy jazolarni yanada liberallashtirishga qaratilayotganlidan darak bermoqda.

Agar ularni yillar miqyosida tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi diagrammada aniq qaysi yilda necha marotaba o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganini ko‘rishimiz mumkin.



Qabul qilinayotgan qonunlarimiz mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat xavfsizligini ta’minlashga, uyushgan jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish tizimini takomillashtirishga hamda jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki mamlakatimiz huquq tizimida jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar doimiy ravishda yangilanib boriladi.

2020-yildan boshlab amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning jarayonida Jinoyat kodeksi va Jinoyat protsessual kodeksilariga bir qator muhim o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2023-yil 11-sentabr kuni tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston—2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 158-son farmonining 96-bandida, “Internet jahon axborot tarmog‘idan to‘siqlarsiz foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni

ta’minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish” kabi vazifalar belgilangan bo‘lib, ularning ijrosi ta’minlanib kelinmoqda.

Jumladan,

Kiberjinoyatchilik— axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi[2];

Ekologik jinoyatlar *(qo‘shimcha moddalar)* – atrof-muhitni ifloslantirish, noqonuniy o‘rmon kesish kabi jinoyatlar uchun jazolarning kuchaytirilishi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish choralari *(205–209-moddalar qayta ko‘rib chiqilgan)* – poraxo‘rlik, mansab imtiyozlarini suiiste’mol qilish uchun jazolarning og‘irlashuvi kabi tushuncha va yangi jinoyat turlari joriy etildi.

Alternativ jazolarning kengaytirilishi *(birinchi marta yengil jinoyatlar uchun majburiy ishlar, ijtimoiy ishlar kabi jazolarning qo‘llanilishi)* va o‘smirlar huquqini himoya qilish *(17 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan qamoq jazosining yumshatilishi)* kabi jazolar tizimidagi islohotlar haqida gapirmasak yoki eslamasak bo‘lmaydi. Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan ushbu turdagi jazolarning isloh qilinishi mamlakatimizda huquq tizimida olib borilayotgan siyosatning naqadar odilona ekanligidan dalolat beradi, menimcha.

Yana bir muhim jihati tergov protsessiga yangi tamoyillarining, jumladan, ayblanuvchining huquqlarini himoya qilish maqsadida, maksimal hibs muddati chegaralari qayta ko‘rib chiqilganligi va raqamli dalillarni to‘plash hamda ularni sudda isbotlash tartiblarining (kibertergov usullari) qo‘shilganligidadir.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1003-son Qonun imzolandi. Ushbu qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga, Fuqarolik-protsessual kodeksiga, Iqtisodiy protsessual kodeksga, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga va Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksga raqamli dalillar tushunchasini, raqamli dalillarni to‘plash, taqdim etish, mustahkamlash, ko‘zdan

kechirish, tekshirish va baholash, ularni saqlash, qaytarish hamda yo‘q qilish tartibini belgilovchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Kodeksdagi elektron dalillarni qabul qilish tartibi ya’ni, videoyozuvlar, elektron xabarlar, ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlar sud jarayonida rasman qaror qabul qilish uchun endilikda asos bo‘lishi mumkinligidir.

Yuqoridagi kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar huquqni muhofaza qiliuvchi organlarda yangi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashuvchi lavozimlarning, sudyalar, prokuror va tergovchilarning malakasini oshirish bo‘yicha yangi dasturlarning joriy etilishiga hamda advokatlik faoliyatining kengayishi aynan, fuqarolarga ishonchli huquqiy yordam ko‘rsatish tizimining takomillashtirilishiga sabab bo‘ldi desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish esa hozirgi kundagi talablardan biri bo‘lib, ularni qo‘llash esa mamlakatimiz huquqni muhofaza qiluvchi organ xodim *(harbiy xizmatchi)*lariga keng imkoniyatlarni yaratishi mumkin.

Ayniqsa, jamoat hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlashni o‘ylab bugungi kunda uchuvchisiz uchadigan apparatlarni ishlatishdagi jazo choralarini yanada liberallashtirilib, jinoiy jazo qo‘llanilishidan oldin ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilishi ushbu sohaga e’tibor kuchaytirilganligidan dalolat beradi.

Endilikda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonunga xilof ravishda uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanganlik uchun birinchi marotaba jinoiy emas ma’muriy javobgarlik belgilandi. Aynan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 1854-moddasida, ya’ni: “Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanganlik uchun (Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish), – uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.” – deb yozib o‘tilgan.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o‘z ixtiyori bilan topshirsa, ma’muriy javobgarlikdan ozod qilinadi.

2024-yil 7-iyun kuni Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Muvofiqlashtirish va monitoring qilish markaziga Muhtaram Prezidentimiz tashrifi chog‘ida: “Bugungi kunda barcha sohalarda sun’iy intellektning o‘rni kengayib bormoqda. Insonlarga qulaylik yaratadigan dasturlar bilan birga kiberjinoyatchilik, firibgarlik usullari ham ko‘paymoqda. Bunday jinoyatlarning oldini olish, aniqlash va fosh etish uchun ichki ishlar xodimi undan-da ilg‘or, ziyrak bo‘lishi kerak.”[5] – deb aytib o‘tgan edilar. Shu bilan birga, Davlatimiz rahbari Ichki ishlar vazirligi tizimida “Uchuvchisiz qurilmalarni qo‘llash bo‘yicha tuzilma tashkil etish” vazifasini qo‘ydilar hamda jinoyatchilik profilaktikasini kuchaytirish, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha topshiriqlarni berdilar.

Shundan so‘ng, jamoat xavfsizligi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining ham uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishi bo‘yicha yagona normativ huquqiy hujjat ishlab chiqish jarayoni davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan yanada tezlashdi.

Yana muhim jihatlaridan biri qonunchiligimizda jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq bir qator o‘zgarishlar ham kiritilib kelinmoqda. Jinoyat kodeksining 244-moddasida ommaviy tartibsizliklar tashkil qilganlik, ularda faol qatnashganlik va fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga omma oldida da’vat qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan edi.

Ammo, ommaviy tartibsizliklar sodir etish maqsadida o‘quvdan o‘tganlik, jumladan, qurol-yarog‘, portlovchi, atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan boshqa buyumlar bilan muomala qilishni o‘rganganlik hamda ommaviy tartibsizliklarni tashkil qilish faoliyatini moliyalashtirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmaganligini inobatga olib 244-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 27-martdagi O‘RQ-1051-sonli Qonuniga asosan jinoiy javobgarlik belgilandi[6].

Ushbu jamoat xavfsizligi sohasida kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar mamlakatimizga tashrif buyurayotgan chet el fuqaro *(turist)*larining xavfsizligini ta’minlash hamda mamlakatimizning turistik salohiyatini yanada rivojlanishiga ham sababchi bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Safety Perceptions Index *(Xavfsizlik nuqtai nazari indeksi)* tomonidan o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston 5 ta yo‘nalish bo‘yicha 121 ta mamlakat orasida eng xavfsiz davlat sifatida e’tirof etilib, birinchi o‘rinni egalladi. Mazkur indeksda *(SPI)* 2021–2023-yillardagi mamlakat va mintaqalar bo‘yicha natija va tendensiyalar e’tiborga olingan bo‘lib, bizning mamlakatimiz hisobotda O‘zbekiston investor va tadbirkorlar uchun qulay imkoniyatli davlat sifatida Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistonini ham ortda qoldirgani alohida ta’kidlangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz mumkinki, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan qonunchilik sohasidagi o‘zgarishlar o‘z samarasini berib kelmoqda. Mamlakatimiz fuqarolarining huquqlarini himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha huquq sohasida qilinayotgan keng ko‘lamli va salomoqli ishlar kelgusida ham davom etib, xalqimiz va mamlakatimizga tashrif buyuruvchi chet el fuqarolarining xavfsizligini ta’minlaydi. Mamlakatimiz qonunchiligi zamon bilan hamnafas bo‘lib, takomillashishdan to‘xtamaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/uz/docs/-6600413 (murojaat sanasi 10.09.2025);
2. O‘zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi O‘RQ-764-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-5960604 (murojaat sanasi 11.11.2025);
3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/raqamli_dalillar_qanday_tartibda_taqdim_etiladi (murojaat sanasi 11.11.2025);
4. https://lex.uz/acts/-97664 (murojaat sanasi 13.05.2025);
5. 2024-yil 7-iyun kuni Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Muvofiqlashtirish va monitoring qilish markaziga tashrifi chog‘idagi so‘zlari. https://president.uz/oz/lists/view/7301 (murojaat sanasi 28.07.2025);
5. https://lex.uz/docs/-111453 (murojaat sanasi 13.05.2025);
6. https://senat.uz/post/post-2453 (murojaat sanasi 13.11.2025);

O‘ZBEKISTONDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH: HUQUQIY ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

SH.S.Qosimov

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarning o‘sish dinamikasi, ularning jamiyat va davlat xavfsizligiga solayotgan tahdidlari hamda ularga qarshi kurashish borasida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati va huquqiy islohotlar har tomonlama tahlil qilingan. Xususan, 2025 yil 30 aprelda qabul qilingan PQ–153-sonli Prezident qarori asosida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida joriy etilgan yangi huquqiy mexanizmlar, vakolatli organlar faoliyati, profilaktika tadbirlari, bank-moliya tizimidagi mas’uliyat va javobgarlik choralari yoritib berilgan. Shu bilan birga, ushbu jinoyatlarning oldini olish, kiberxavfsizlikni ta’minlash va huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha aniq, amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: axborot texnologiyalari, moliya tashkilotlari, kiberjinoyatchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, huquqiy islohotlar, jinoyatlarni oldini olish. profilaktika, PQ-153, kiberxavfsizlik, raqamli xavfsizlik.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the growing dynamics of crimes committed through information technologies, the threats they pose to public and national security, and the state policy and legal reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan to combat such crimes. In particular, it examines the new legal mechanisms introduced under Presidential Decree No. PQ–153, adopted on April 30, 2025, the activities of authorized bodies, preventive measures, as well as the responsibilities and accountability of the banking and financial sector. The article also puts forward specific and practical proposals aimed at preventing such crimes, ensuring cybersecurity, and improving the legal framework.

Keywords: information technologies, financial institutions, cybercrime, law enforcement agencies, legal reforms, crime prevention, prevention measures, PQ–153, cybersecurity, digital security.

Jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi internet tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, raqamli dunyoning yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda. Bu jamiyatning barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirib, ko‘plab qulayliklar yaratayotganligi yaxshi albatta. Biroq shu bilan birga raqamlashtirish jarayonini tezlashishi natijasida yangi turdagi xavf-xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Xususan, nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyoda axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan kiberjinoyatlarni soni ortib, fuqarolar, davlat va jamiyat xavfsizligiga jiddiy xavf solmoqda.

O‘zbekistonda mazkur jinoyatlarga qarshi kurashish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish maqsadida qator huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hukumat qarorlari, qonunchilikdagi yangiliklar, vakolatli organlar faoliyati va jamoatchilikni jalb etgan holda amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar ushbu sohadagi samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, rasmiy raqamlarga nazar tashlasak kiberjinoyatchilikning jiddiy muammo ekanini yaqqol namoyon etmoqda. Jumladan, 2020–2024-yillar davomida kiberjinoyatlar soni 68 barobarga oshgan. Kibermakondagi huquqbuzarliklar yuzasidan kelib tushayotgan murojaatlar 34 barobarga ko‘paygan va fuqarolarga 1 trillion 909 milliard so‘mdan ortiq moddiy zarar yetkazilgan. 2019-yilda 18 turdagi 863 ta jinoyat qayd etilgan bo‘lsa, 2024-yilda 62 turdagi 58 800 ta jinoyat ro‘yxatga olingan. 2023-yilda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 6,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 44,4 foizga yetgan. Ulardan 98 foizi bank kartalari bilan bog‘liq kibero‘g‘rilik va kiberfiribgarlik jinoyatlaridir.

Tahlillar va statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda kiberjinoyatlar ortidan keladigan yillik global zarar 11,4 trillion dollarga teng bo‘lgan, 2026-yilda 120 foiz o‘sib, 25,8 trillion dollarga yetishi bashorat qilinmoqda. Ayrim manbalarda ta’kidlanishicha, 2026-yilga kelib kiberjinoyatlar

global transmilliy jinoyatlarning umumiy sonidan ko‘ra 5 baravar ko‘proq sodir etilishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2030-yilga borib dunyoda kiberjinoyatlarga qarshi kurashuvchi tuzilmalar davlat va xususiy serverlar, bulutli ma’lumot markazlari, shaxsiy kompyuter va qurilmalarda saqlanadigan jami 2 ming zettabaytlik *(ikki trillion terabayt)* ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlashi lozim bo‘ladi. Chunki, kiberjinoyatchilikning avj olishi oqibatida istalgan korxona-tashkilotning ma’lumotlar bazalari kiberhujumga uchrashi ehtimolini rad etib bo‘lmaydi.

Ushbu ma’lumotlar kiberjinoyatlarning oldini olish, ulardan fuqarolarni himoya qilish, kiberhujumlarni aniqlash va oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Bu jarayonda zamonaviy shakl va uslublardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, 2025-yil 30-aprel-dagi PQ–153-sonli “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qara-tilgan chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Ushbu qaror sohadagi ishlarga yangi bosqichda yondashish imkonini beradigan muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Mazkur qaror bilan Ichki ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishida yagona ishlash amali-yotini yo‘lga qo‘yish, bu borada barcha mas’ul davlat organlari va muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda manzilli hamkorligini tashkil etish bo‘yicha vakolatli organ etib belgilandi.

Mamlakatimizda kiberjinoyatchilikning huquqiy tavsifi, uning turlari va javobgarlik choralarini o‘z ichiga olgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi mukammal kompleks qonun hali mavjud emas. Shu sababli qarorda aks etgan vazifaga ko‘ra, endilikda qaror bilan kiberjinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularni fosh etish samaradorligini oshirish bo‘yicha alohida qonun loyihasini ishlab chiqish xususan yaqin orada axborot texnologiyalari vositalari orqali sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun ishlab chiqish va qabul qilish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatildi.

Kiberjinoyatlarni oldini olish hamda fuqarolarni ushbu jinoyatlarni jabrlanuvchisiga aylanib qolmaslik maqsadida aholi orasida huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Qarorda ayni shu masala hisobga olinib, mas’ul davlat organlari, tashkilotlar, banklar, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlariga kiberjinoyatlarning oldini olishga hamda aholining kibermadaniyatini yuksaltirishga qaratilgan barcha zarur choralarni ko‘rish bo‘yicha qat’iy javobgarlik yuklatildi. Yuridik shaxslar tomonidan kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganlik uchun, shuningdek axborot texnologiyalari sohasidagi barcha jinoyatlar yuzasidan javobgarlikni kuchaytirish bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish topshirildi. Banklar, to‘lov tizimlari, to‘lov tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning axborot xavfsizligi va kiber xavfsizlik talablariga rioya etmaganlik natijasida yo‘l qo‘yilgan kiberjinoyatlar oqibatida kelib chiqqan moddiy zararni ular hisobidan undirish tartibi joriy etish belgilandi.

Statistik ma’lumotlariga ko‘ra bank kartalari bilan bog‘liq kiberjinoyatlarning ko‘pchilik qismi boshqa shaxs nomiga rasmiylashtirilgan bank kartalari orqali sodir etilmoqda. Shu sababli, Prezident qarorida o‘z nomidagi bank kartasini kiberjinoyat sodir etish uchun foydalanishga bergan shaxslarga nisbatan ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilanishi nazarda tutilgan. Shuningdek, banklar tomonidan shubhali operatsiyalar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tezkor xabar berish tizimi yo‘lga qo‘yilishi belgilanib Markaziy bank tomonidan esa shubhali o‘tkazmalarni aniqlash mexanizmi ishlab chiqiladi hamda ushbu ma’lumotlar ma’lumot almashish tizimi orqali Ichki ishlar vazirligiga yuborilishi ko‘rsatildi. Ushbu qabul qilinayotgan choralar fuqarolarning foyda olish va’dasiga asoslangan soxta sxemalarga ishonib, moliyaviy zarar ko‘rishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni barvaqt xabardor qilish hamda moliyaviy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, ushbu qaror bilan jinoyatlarni barvaqt oldini olishga qaratilgan bir qator mexanizmlar joriy etilmoqda. Jumladan, har oy yakuni bo‘yicha eng ko‘p kiberhujumlar qayd etilgan banklar va to‘lov tashkilotlari ro‘yxati ommaga e’lon qilinadi. Markaziy bank tomonidan moliyaviy piramidalar faoliyati to‘g‘risida Ichki ishlar vazirligiga tezkor ma’lumot berib boriladi.

Shuningdek, qarorda har yili noyabr oyida “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” o‘tkazilishi ko‘rsatib o‘tildi. Ushbu chora-tadbirlar fuqarolarning kiberxavfsizlik bo‘yicha ongini oshirish, yoshlarda raqamli madaniyatni shakllantirish, sodir etilishi mumkun bo‘lgan ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish, davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchni mustahkamlab jamoatchilikni faol jalb etish orqali kiberjinoyatchilikka qarshi samarali profilaktika vositasiga aylanadi.

Prezidentimizning ushbu qarori tijorat banklari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqib qaror doirasida banklar, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlarining tranzaksiyalari bo‘yicha ma’lumotlar yagona elektron platformaga integratsiya qilinishi belgilab berildi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan amalga oshiriladigan shubhali operatsiyalar haqida ota-onalarni xabardor qilish tizimi joriy etilishi ko‘rsatildi.

Qarorga muvofiq, kiberjinoyatlarni tergov qilish sifatini oshirish maqsadida Bosh prokuratura hamda hududiy prokuraturalarda kiber jinoyatlarga qarshi kurashishda qonuniylikni ta’minlash bo‘limlari tashkil etilmoqda. Mazkur tuzilmalarni asosiy vazifasi kiberjinoyatlarni tergov qilish va fosh etish jarayonlarida qonunlarni bir xilda qo‘llash ustidan prokurorlik nazoratini amalga oshiradi.

Kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashda ilmiy yondashuvni qo‘llash ham muhim ahamiyatga egaligi mazkur qarorda e’tibordan chetda qolmagan.. Xususan, huquqni muhofaza qilish akademiyasi qoshida tashkil etilayotgan Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish va raqamli tergovga ko‘maklashish markazi kiberjinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish, tergov va fosh etish amaliyotidagi muammolarga yechim takliflarini ishlab chiqish, shuningdek, tergov faoliyati samaradorligini oshirish va ta’lim jarayonini takomillashtirishda ilmiy va uslubiy yordam ko‘rsatishga yo‘naltiriladi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 apreldagi PQ-153-sonli qarori sohadagi huquqiy, tashkiliy va profilaktik ishlarga yangi bosqichda yondashish imkonini beruvchi muhim normativ-huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Binobarin, mazkur qarorda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishida yagona ishlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish, bu borada barcha mas’ul davlat

organlari va muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda manzilli hamkorligini tashkil etish bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanligi, joriy yilning yakuniga qadar “Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib Vazirlar Mahkamasiga kiritish topshirig‘i berilganligi hamda kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda sodir etilishi mumkun bo‘lgan ushbu turdagi huquqbuzarlikni oldini olish borasida quyidagicha takliflar ilgari suriladi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PQ-153-sonli qarorining II qismining (Normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish) 5-bandi kichik “g” bandida “jinoyat qonunchiligi bilan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar hamda pul mablag‘lari va boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat uchun belgilangan jazo choralarini kuchaytirish”, mazkur band kichik “d” bandida “jinoyat sodir etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni javobgarlikni hamda jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilash” belgilanganligi sababli ushbu bandlarga taalluqli quyidagicha takliflar beriladi;

Amaldagi Jinoyat kodeksida axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlar turli moddalarda har bir qilmish uchun tarqoq holda bayon etilgani huquqni qo‘llashda muayyan murakkabliklar tug‘dirmoqda. Shu munosabat bilan, axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarni yagona, alohida bo‘limda jamlash;

Sodir etilayotgan kiberjinoyatlarni jinoyatlarni bank xodimlari va IT mutaxasislari tomonidan sodir etilishi yanada ushbu jinoyatni xavflilik darajasini oshiradi. Chunki ushbu turdagi toifa vakillari o‘zlarining sodir etayotgan jinoyatlarini yakunlash uchun bor imkoniyatlarini ishga solib chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladilar hamda o‘z faoliyatlarini texnologik taraqiyotga moslashtirib boradilar. Ular ushbu turdagi jinoyatlardanyashirinishtexnologiyalariniyaxshiegallaganliklarisababli jinoyatlarni uzoq vaqt aniqlanmasdan qolishiga shu bilan birga ularni yangitdan shunga o‘xshash jinoyatlarni sodir etishda davom etishlariga zamin yaratadi. Shuningdek ushbu toifadagi jinoyatchilar o‘zlarining maxsus bilimlari va tizimga kirish imkoniyatlaridan foydalanib, jinoyatni (masalan, ma’lumot o‘g‘irlash, pul o‘tkazish) oson va samarali vosita sifatida ko‘radilar. Misol uchun, IT mutaxassisi tizimdagi zaiflikni topib, o‘zining shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishi mumkin.

Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi_ning 168-moddasining 4-qismiga mazkur moddaning 3-qismi “g” bandida nazarda tutilgan jinoyatni axborot tizimi, axborot texnologiyalari yuzasidan o‘quvdan o‘tgan hamda mas’ul shaxslar tomonidan sodir etilishi bandini kiritib, ushbu holat jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilanishini;

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 168-moddasining 5-qismida yetkazilgan moddiy zararning o‘rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasida jazo qo‘llanilmasligi ko‘rsatilgan bo‘lib agarda shaxs firibgarlik jinoyatini axborot tizimi, axborot texnologiyalari orqali sodir etgan taqdirda istisno tariqasida ushbu qoida amal qilmasligi, faqatgina yetkazligan zararning qoplanishi jazo tayinlanayotganda e’tiborga olinishi, shuningdek axborot tizimidan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarga jazo tayinlayotganda asosiy jazodan tashqari qo‘shimcha jazo sifatida muayyan huquqdan mahrum qilish *(internet tarmoqlaridan foydalanmaslik)* jazo qo‘llanishi.

Mazkur qarorning II qismining *(Normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish)* 5-bandining kichik “ye” bandida “huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bank siriga oid so‘rov va qarorlari ijrosini ta’minlashning aniq muddatlarini belgilashni hamda ularni bajarish mexanizm va talablarini yengillashtirishni nazarda tutuvchi tartibni joriy etish” belgilanganligi sababli ushbu bandlarga taalluqli quyidagicha takliflar beriladi;

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgust kungi “Bank siri to‘g‘risida”gi 530-sonli qonuni_ning 3-moddasida “Bank siri” bank tomonidan muhofaza qilinadigan o‘z mijozlarining (vakillarining) operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma’lumotlardan iborat ekanligi, 9-moddasida Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar prokurorning sanksiyasi bilan prokuratura, dastlabki tergov va surishtiruv organlariga ularning ish yurituvidagi jinoyat ishlari bo‘yicha holatlarni aniqlash, shuningdek yetkazilgan zararni undirishni yoki molmulkni xatlashni ta’minlash maqsadida tergovchining yoxud surishtiruvchining asoslantirilgan qaroriga asosan hamda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ularning ish yurituvidagi tezkor-qidiruv ishlari bo‘yicha o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni

bajarish maqsadida – tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan asoslantirilgan qaror asosida berilishi ko‘rsatilgan. Shu sababli ushbu qonun normasiga bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar prokurorning sanksiyasi bilan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning ish yurituvidagi axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari yuzasidan holatlarni aniqlash, shuningdek yetkazilgan zararni undirishni ta’minlash maqsadida bevosita tergovga qadar tekshiruvini amalga oshiruvchi mansabdor shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan asoslantirilgan qaroriga asosan berish to‘g‘risida qonun normasi qo‘shilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Tezkor qidiruv ishlari-O‘zbekiston Respublikasi Prezdentining 2012 yil 25 dekabr kungi O‘RQ-344-sonli “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni_ga asosan tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun ma’lumotlarni to‘plash va tizimlashtirish, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini tekshirish va baholash uchun ish yurituvga olinadi.

Tergovga qadar tekshiruv hujjatlari Jinoyat protsessual kodeksiga asosan jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni tekshirish, ularni ko‘rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyat izlarini, narsalarni, hujjatlarni va elektron ma’lumotlarni mustahkamlash va saqlashga doir choralarni o‘z ichiga oladi.

- Mazkur qarorning II qismining (Normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish) 7-bandining kichik “a” bandida “Ichki ishlar vazirligi tomonidan har oy yakuni bo‘yicha tizimida eng ko‘p kiberjinoyatlar (zaifliklar va kamchiliklar natijasida yuzaga kelgan) qayd etilgan banklar va to‘lov tashkilotlari ro‘yxatini ommaga e’lon qilish amaliyoti joriy qilinadi”-deb belgilanganligi sababli ushbu bandlarga taalluqli quyidagicha takliflar beriladi;

Bundan tashqari har oy yakuni bo‘yicha eng kam kiberjinoyatlar qayd etilgan banklar va to‘lov tashkilotlari ro‘yxatini ommaga e’lon qilinsa, aholi o‘rtasida ushbu ro‘yxatdan o‘rin olgan banklar va to‘lov tashkilotlariga extiyoj ortadi, mazkur amaliyot aholi orasida kiberjinoyatlarga qarshi samarali himoya tizimiga ega moliya tashkilotlariga nisbatan ishonchni oshiradi, bundan kelib chiqib, moliya tashkilotlari o‘rtasida kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha raqobat

muhiti yuzaga keladi, aholi va tadbirkorlar tomonidan xavfsiz to‘lov tashkilotlarini ongli ravishda tanlash imkoni yaratiladi, ushbu holatlar umumiy kiberxavfsizlik darajasini oshiradi.

Mazkur qarorning III qismining *(Kiberjinoyatlarning oldini olish mexanizmlari)* 7-bandining kichik “v” bandida “Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili aholining kibermadaniyatini yuksaltirishga va kibergigiyenasini shakllantirishga qaratilgan kompleks targ‘ibot-tashviqot dasturi tasdiqlanadi hamda ijrosi qat’iy nazoratga olinadi”-deb belgilanganligi sababli ushbu bandlarga taalluqli quyidagicha takliflar beriladi;

XXI asrda mafkuraviy kurash usul va vositalari an’anaviy qonun-qoidalardan tubdan farq qiladi. Agar ilgari keng jamoatchilik ommaviy axborot vositalari, ya’ni televideniye, gazeta va radio orqali ta’sir qilingan bo‘lsa, bugungi kunda fuqarolar zaruriy axborotlarni olishda asosan internet tarmoqlaridan foydalanmoqda. Jamiyatning ko‘p qatlami uchun internet tarmog‘i asosiy axborot muhitiga aylandi. Shu bois, kiberxavfsizlikni ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash zarur bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda internet tarmoqlaridagi xavf-xatarlardan fuqarolarni himoya qilish uchun an’anaviy usullar yetarli emas. Internet tarmoqlarida faoliyat yuritadigan shaxslar, xususan, keng auditoriyaga ega blogerlar, Facebook, Instagram, TikTok, Telegram kabi platformalarda o‘z sahifalariga ega bo‘lgan ta’sirli shaxslar va kompyuter mutaxasislari bilan hamkorlikda profilaktik-ogohlantiruv ishlarini olib borish samarali natija beradi. Bu shaxslar o‘z auditoriyasiga tez va samarali tarzda ma’lumot yetkazish imkoniyatiga ega. Misol uchun, ushbu shaxslar bilan birgalikda kiberxavfsizlik mavzusida qisqa videoroliklar tayyorlash, mustaqil postlar e’lon qilish yoki ma’lumotli layv-efirlar tashkil etish orqali aholining xabardorlik darajasini oshirish mumkin. Bu usullar internet tarmoqlarining keng qamrovli ta’siridan unumli foydalanishga xizmat qiladi. Fuqarolarda internet tarmoqlaridan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarning jabrlanuvchisiga aylanib qolmaslik yuzasidan xabardorlikni oshirish maqsadida blogerlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng auditoriyaga ega shaxslarni kengroq jalb qilish muhimdir. Bu borada respublika darajasida chellindj o‘tkazish va eng yaxshi profilaktik chiqishlarni mukofotlash tizimini joriy qilish taklif etiladi. Mazkur chellindj doirasida blogerlar va ta’sirli shaxslar

kiberxavfsizlik bo‘yicha qisqa, tushunarli va ta’sirli kontent yaratishlari mumkin. Eng yaxshi ishlar mukofotlanishi esa ularning bu jarayonga qiziqishini oshiradi va kengroq auditoriyaga ma’lumot yetkazilishiga xizmat qiladi. Bu tashabbus nafaqat aholining xabardorligini oshiradi, balki ijtimoiy tarmoqlarda kiberxavfsizlik mavzusining ommalashuviga ham yordam beradi. Profilaktik-ogohlantiruv tadbirlarida adabiycha fikrlash va ilmiy atamalardan qochish muhimdir. Axborot fuqarolar ongiga oddiy va sodda usulda, inson ongiga tez ta’sir qiladigan vositalar orqali yetkazilishi lozim. Masalan, kiberxavfsizlik qoidalarini qisqa va vizual elementlar bilan boyitilgan postlar, memlar yoki animatsiyalar orqali taqdim etish samarali bo‘ladi. Bu usul axborotning tez qabul qilinishi va unutmasligini ta’minlaydi.

Mazkur qarorning III qismining *(Kiberjinoyatlarning oldini olish mexanizmlari)* 8-bandining kichik “b” bandida “kiberjinoyatlarni yangi shakllari va ularni sodir etilishi usullarini inobatga olish”-deb belgilanganligi sababli ushbu bandga taalluqli quyidagicha takliflar beriladi;

Hammamizga ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda kiber-jinoyatchilikka qarshi kurashish yo‘nalishida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberjinoyatlarning ham shakl va usullarini tezkor yangilanishiga olib kelmoqda. Bu esa fuqarolarimizni yangi turdagi firibgarlik sxemalari tuzog‘iga tushib qolish xavfini kengaytirmoqda. Ushbu muammoning oldini olish, ya’ni kiberjinoyatlarning yangi shakl va usullari hududimizga kirib kelishidan oldin ularni aniqlash, tahlil qilish va aholini barvaqt ogohlantirish maqsadida vakolatli organlar tomonidan kiberxavfsizlik sohasidagi xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, yangi tahdidlar, viruslar, fishing sxemalari va jinoiy usullar haqida ma’lumotlarni tezkor qabul qilish va qayta ishlash tizimini joriy etish, qo‘shni Respublikalar bilan axborot almashinuv memorandumlari hamda qo‘shma monitoring dasturlari tuzilishi, Respublikaga kirib kelishi ehtimol bo‘lgan yangi turdagi kiberjinoyatlar, jinoyatchilarning taktik va texnik usullarini tahlil qiluvchi milliy onlayn platforma ishlab chiqilishi, bu platforma ma’lumotlar va sun’iy intellekt yordamida tahdidlarni bashorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi taklifi ilgari suriladi.

Mazkur qarorning IV qismining *(Kiberjinoyatlarni fosh etish mexanizmlari)* 16-bandining kichik “a” bandida “2025 yil 1 sentabrga qadar Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura va Markaziy bank o‘rtasida kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda tezkorlik bilan ma’lumotlar uzatish va kelib tushayotgan murojaatlar bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan choralarni ko‘rish maqsadida elektron ma’lumotlar almashinuv platformasini ishga tushirish”- belgilanganligi sababli ushbu bandga taalluqli quyidagicha takliflar beriladi;

Barcha kiberjinoyatlar, jumladan bank plastik kartalari bilan bog‘liq pul o‘g‘irlish va firibgarlik holatlari yuzasidan kelib tushgan har bir murojaatlarni tezkorlik bilan tekshiruv natijasi bo‘yicha uning qonuniyligi va jazo muqarrarligini ta’minlash maqsadida, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etishga moyil va gumondor shaxslar ro‘yxatining yagona bazasini shakllantirish, ushbu shaxslar to‘g‘risida ma’lumotlarning viloyatlararo almashinuvini va tezkor ishlar olib borilishini yo‘lga qo‘yish, ushbu tizim Markaziy bank bazalariga ulanib agarda moyil va gumondor shaxslar o‘zlarini nomlaridan bank operatsiyalarini amalga oshirsa tezkor xabar berish tizimni ishga tushirish.

Mazkur qarorning V qismining *(Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda ilmiy yondashuvlar)* 18-bandining kichik “a” bandida “Kiberjinoyatlar sodir etilishiga sabab va shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida asoslantirilgan tavsiyalar ishlab chiqish va huquqni qo‘llash amaliyotiga tatbiq etish”- belgilanganligi sababli ushbu bandga taalluqli quyidagicha takliflar beriladi;

Hozirgi kundagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bo‘yicha mutaxasislar tayyorlab berayotgan oliy va o‘rta-maxsus ta’lim o‘quv yurtlari talabalari va ularning bitiruvchilari tomonidan mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olish maqsadida ularni huquqiy ongini shakllantirish, talabalar ongida kiberjinoyatlar sodir etilishi qonunchilik bilan taqiqlanganligi va tegishli javobgarlikni keltirib chiqarishi yuzasidan ilmiy asoslangan yagona o‘quv qo‘llanmalari hamda mafkuraviy yo‘nalish ishlab chiqish shuningdek, O‘zbekistonda bank xodimlari va IT mutaxassislari uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha O‘zbekiston Banklar Assotsiyatsiyasi hamda Davlat Xavfsizlik Xizmati bilan hamkorlikda modulli o‘quv dasturlari ishlab chiqilib qisqa

muddatli kurslar tashkil qilinishini va ushbu kurslarda xodimlar ongida kiberjinoyatlar sodir etilishi qonunchilik bilan taqiqlanganligi va tegishli javobgarlikni keltirib chiqarishi yuzasidan bilimlarni shakllantirish taklifi beriladi.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish murakkab va ko‘p qirrali muammo bo‘lib, u faqatgina huquqni muhofaza qilish organlarining vazifasi bilan cheklanib qolmasdan, butun jamiyatning faol ishtirokini, yuqori malakali mutaxassislarning sa’y-harakatlarini, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni va yaxlit qonunchilik bazasini talab qiladi. Bu jarayonda davlat idoralari, xususiy sektor, ta’lim muassasalari va fuqarolarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, kiberxatarlarni oldindan aniqlash va ularga qarshi tezkor choralar ko‘rish, shuningdek, aholining kiberxavfsizlik borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarur. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashishda muhim omil hisoblanadi.

JINOYATLARNI FOSH ETISHNING ILMIY TASNIFI VA TAHLILI

Sattarov Mansur Abdugafurovich

IIV huzuridagi Tergov departamenti boshlig‘ining o‘rinbosari, polkovnik

Annotatsiya. Maqolada jinoyatlarni fosh etishning ilmiy tasnifi va uning nazariy asoslari qisqacha tahlil qilindi. Jinoyatlarni fosh etish jarayoni kriminologik va kriminalistik yondashuvlar asosida tizimlashtirilib, uning asosiy shakllari va mezonlari yoritildi, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar bayon etildi.

Kalit so‘zlar: fosh etilmagan jinoyat, ochilmagan jinoyat, mol-mulkni talon-toroj qilish, jinoyatni fosh etish mexanizmi, jinoyat ishini tergov qilish, ilmiy tasnif.

Аннотация. В статье кратко анализируется научная классификация раскрытия преступлений и её теоретические основы. Процесс раскрытия преступлений систематизирован на основе криминологического и криминалистического подходов, освещены его основные формы и критерии, а также изложены научно-практические выводы, направленные на совершенствование правоприменительной практики.

Ключевые слова: нераскрытое преступление, нераскрытое преступление, хищение имущества, механизм раскрытия преступления, расследование уголовного дела, научная классификация.

Jinoyatlarni fosh etish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylikni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamiyatda jamoat xavfsizligini mustahkamlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Jinoyatning o‘z vaqtida aniqlanishi, isbotlanishi va aybdor shaxsning javobgarlikka tortilishi bir tomondan jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tiklashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan jinoyatning takrorlanish ehtimolini pasaytiradi, profilaktika

samaradorligini oshiradi hamda aholida adolat va huquqiy himoyaga ishonchni mustahkamlaydi.

So‘nggi yillarda jinoyatchilikning shakli, usuli va “iz qoldirish” mexanizmi sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda: ayrim jinoyatlar yashirin holda, rejali va uyushgan tarzda sodir etilayotgani, moliyaviy-iqtisodiy va raqamli muhitdagi huquqbuzarliklar ko‘paygani, jinoyatchi shaxsning kriminal xulq-atvori yanada murakkablashgani jinoyatlarni fosh etishga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirmoqda. Bu esa faqat amaliyot tajribasiga tayanish bilan cheklanib qolmasdan, jinoyatlarni fosh etish jarayonini ilmiy asosda tizimlashtirish, uning tushunchasini aniq belgilash, fosh etishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish hamda turli ko‘rinishdagi jinoyatlar bo‘yicha samarali taktika va metodikalarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Amaliyotda “jinoyatni fosh etish” tushunchasi ko‘pincha faqat aybdorni topish yoki dalillarni yig‘ish jarayoni bilan tor doirada talqin qilinishi mumkin. Vaholanki, jinoyatni fosh etish – bu aniq tizimga ega bo‘lgan kompleks jarayon bo‘lib, unda tezkor-qidiruv chora-tadbirlari, tergov harakatlari, kriminalistik texnika va taktika, axborot-tahlil ishlari, idoralararo hamkorlik, sud ekspertizalari hamda protsessual tartib-qoidalar o‘zaro uyg‘un holda ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan, jinoyatlarni fosh etishning ilmiy tasnifi (klassifikatsiyasi) uning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash, fosh etish jarayonidagi tipik holatlarni ajratib ko‘rsatish, samaradorlikka ta’sir etuvchi faktorlarni baholash va amaliyot uchun yagona yondashuvni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Kriminalistika nuqtai nazaridan jinoyatlarning kriminalistik tasnifi – bu jinoyatlarning sodir etilishi, ularning izlari, dalillar va fosh etish usullarini o‘rganishga qaratilgan tizimli tahlildir. Shunday ekan, o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatining kriminalistik tasnifi – bu jinoyatning sodir etilishi, uning izlari, dalillar va fosh etish usullarini o‘rganadigan sohadir. Mazkur jinoyatning turi ochiqdan-ochiq mulkni egallab olish bilan tavsiflanadi, ya’ni aybdor shaxs jabrlanuvchi va boshqalarning ko‘z o‘ngida mulkni o‘zlashtiradi. Biroq kriminalistika o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tasnifining elementlari aniq shakllantirilmaganligi bois, tadqiqot tahlillaridan

kelib chiqib, nazariya va amaliyot uchun ushbu jinoyat turlari uchun quyidagicha kriminalistik tasnif elementlari tavsiya etiladi:

Jinoyatni sodir etish usuli: jinoyat qanday amalga oshirilganligi *(masalan, zo‘rlik ishlatish, yashirincha o‘g‘irlash, firibgarlik va boshqalar)*.

Jinoyat joyi: jinoyat sodir etilgan makon *(uy, ko‘cha, ish joyi va h.k.)*.

Aybdor shaxsning shaxsiy xususiyatlari: jinoyatchining yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi va boshqa xususiyatlari.

Jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari: jabrlanuvchining yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi va boshqalar.

Jinoyatni sodir etish vaqti: kunning qaysi vaqtida jinoyat sodir etilganligi.

Jinoyatni sodir etish sabablari va maqsadlari: jinoyatchining niyati va maqsadlari.

Ushbu elementlar jinoyatning fosh etilishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, chunki bu elementlarda tergovchi jinoyatni fosh etishda nimalarga e’tibor qaratishi lozimligi aks ettirilgan.

V.A. Yakubovning fikriga ko‘ra “Fosh etish – jinoyatning to‘liq tasdiqlanishi va unda ishtirok etgan shaxslarning aniqlanishi orqali ijtimoiy adolatni tiklash vositasidir”, agar sodir etilgan har qanday jinoyat fosh etilmasdan qoladigan bo‘lsa jamiyatda shaxsning huquq va erkinliklariga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar yuzaga kela boshlaydi,.

Mamlakatimizda tergov faoliyatida “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani to‘liq ro‘yobga chiqarish, jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etishni tashkil etish tergov organlarining faoliyatini qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta’minlash tamoyili asosida takomillashtirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha respublikada

yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, unda ichki ishlar organlari muhim o‘rin egallaydi.

Sodir etilgan jinoyatlar ish yurituviga olinishi, lekin ish yakuniga yetkazilmasligi yoki boshqa sabablar bilan jinoyatchi shaxsi aniqlanmasligi, aniqlangan taqdirda qidiruvda bo‘lishi yohud boshqa sabablar bilan javobgarlik masalasining ochiqda qolishi jamiyatda shaxsning huquq va erkinliklariga salbiy ta’sirini ko‘rsata boshlaydi. Fosh etilmagan jinoyatlarning shaxs huquq va erkinliklariga salbiy ta’sirini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- adolatsizlik hissining yuzaga kelishi – bunda jabrlanuvchining davlatdagi, sud hokimiyatidagi adolatga bo‘lgan ishonchi sinadi;
- qo‘rquv va psixologik zarba – jinoyat ochilmagani uchun jabrlanuvchi va uning oila a’zolari xavotirda yashashga majbur bo‘ladi;
- shaxsiy daxlsizlikning buzilishi – gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi topilmagani sababli shaxs o‘zini himoyasiz his qiladi;
- mulkiy huquqlarning tiklanmasligi – agar talon-taroj yoki o‘g‘irlik fosh etilmasa, jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar qoplanmaydi, bu esa muayyan holatlarda shaxsning yashash sharoitini og‘irlashtiradi.
- huquqni muhofaza qilish organlariga bo‘lgan ishonchning pasayishi – insonlar huquq-tartibot idoralariga ishonmay qo‘yadi, bu esa fuqarolik jamiyati rivojiga to‘siq bo‘ladi;
- iqtisodiy zararning qoplanmasligi, shaxsiy sha’ni va qadr-qimmatning yerga urilishi – jabrlanuvchi o‘zini jamiyatda tabaqalangan, himoya qilinmagan deb his qiladi;
- qayta jinoyat qurboni bo‘lish ehtimoli – fosh etilmagan jinoyatchi boshqa shaxslarga ham jinoyat qilishda davom etishi mumkin;
- protsessual huquqlardan foydalanolmaslik – jabrlanuvchi sifatida tan olinmagan shaxslar tergov jarayonida o‘z huquqlarini amalga oshira olmasligi;
- jinoyatchilikka qarshi kurashishda jamoatchilik ishtirokining pasayishi – jinoyat fosh etilmaganligi sababli odamlar jinoyat haqida xabar berishdan qochadi, jamiyatda bee’tiborlik kuchayadi.

Fikrimizcha, yuqorida ko‘rib chiqilgan holatlardan kelib chiqib, o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning fosh etilmaganligi oqibatida shaxs huquq va erkinliklariga eng katta salbiy

ta’sirni huquqni muhofaza qilish organlariga bo‘lgan ishonchni pasaytirishi yoki yo‘qotishida va yetkazilgan mulkiy zararning qoplanmasligi sabab shaxs moddiy ta’minotining yedirilishida ko‘rish mumkin.

Fikrimizcha, o‘rganilgan ilmiy-nazariy manbalardan kelib chiqib, jinoyatlarni fosh etilmasligining sabablarini quyidagilarga ajratgan holda tahlil qilish va tergov amaliyotida bularga yechim berib borish lozim:

- o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda tergovchilarning tajribasizligi, narsa va hujjatlarni, elektron ma’lumotlarni yetarlicha to‘plamaslik;
- qo‘rquv, tahdid yoki ishonchsizlik sababli jinoyat to‘g‘risida hech kim xabar bermasligi;
- ayrim jinoyatlar *(masalan, internetdagi firibgarlik)* iz qoldirmasdan amalga oshirilishi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ayrim tergovchilar jinoyatni fosh qilmaslik uchun pora olishligi;
- qidiruvdagi shaxslarni ekstraditsiya qilishdagi xalqaro hamkorlikning yetarli emasligi;
- ayrim holatlarda jinoyatlar jamoatchilikda rezonans keltirmasligi uchun rasman e’lon qilinmasligi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. В.Ю. Яргутов. Современные методы расследования хищений. – Екатеринбург, 2017.
2. Т.Г. Михайлова. Латентная преступность: понятие, структура, методы выявления. – Воронеж, 2018.
3. А.В. Гуськова. Методика расследования мошенничеств в сфере цифровых технологий. – Москва, 2021.
4. А.С. Шабалина. Расследование организованных краж: криминалистический аспект. – Москва: Юстицинформ, 2016.
5. Н.П. Исаева. Механизм сокрытия преступлений и его преодоление. – Санкт-Петербург, 2013.
6. Р.С. Белкин. Курс криминалистики. Учебник. – Москва: Юристъ, 2007.
7. А.Н. Васильев. Расследование неочевидных преступлений. – Москва: Юнити-Дана, 2019.

MILLIY GVARDIYANING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Xo‘jamberdiyev Farrux Komilovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kaferdrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Davlatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli xavfsizlik siyosati, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida qabul qilingan strategik dasturlar asosida Milliy gvardiya faoliyatining rivojlanish yo‘nalishlari yoritilgan. Maqolada jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar, xususan ommaviy tartibsizliklar xususidagi amaliyot va huquqiy asoslar tadqiq etilib, Milliy gvardiyaning vakolatlarini kengaytirish hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Mazkur takliflar Milliy gvardiya faoliyatining ilmiy-nazariy, tashkiliy va huquqiy rivojlanish yo‘nalishlarini kompleks yondashuv asosida shakllantirishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya, jamoat xavfsizligi, davlat xavfsizlik siyosati, ommaviy tartibsizliklar, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi, profilaktika, vakolatlar, xavfsizlik tahdidlari, huquqiy asoslar, takomillashtirish mexanizmlari.

Xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi davlat siyosati O‘zbekiston ichki siyosatining bir qismi bo‘lib, o‘zida muvofiqlashtirilgan va birlashtirilgan siyosiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy, huquqiy, axborot, maxsus va boshqa chora-tadbirlarni mujassam etadi. Bugun jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mustaqilligimizni mustahkamlash, mamlakatimizning hududiy yaxlitligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlash eng muhim vazifa, kerak bo‘lsa, masalalarning masalasi bo‘lib turibdi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi to‘g‘risida” farmoniga muvofiq yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla-yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur Taraqqiyot strategiyasining 2-ustuvor yo‘nalishi sifatida adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish belgilanib, Davlat dasturida jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish alohida maqsad qilib belgilandi.

Shuni ta’kidlash joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida xalqimiz tinch va osoyishta hayot kechirishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi muhim bosqichlardan biri harbiy bo‘linmalarning, xususan Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishdir.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini tashkil etishning yangi mexanizmlari muntazam takomillashtirilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, bu boradagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash va rivojlantirish bo‘yicha qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi; 2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi tizimini rivojlantirish strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi va aholini har qanday tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi[3]. Xususan, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz turizm”, “Xavfsiz uy” tizimlarining joriy etilgani hamda kecha-yu kunduz patrul xizmatining yo‘lga qo‘yilgani aholining adolat va qonun ustuvorligiga ishonchini yanada mustahkamladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Fikrimizcha, qonunchiligimizda amalga oshirilgan islohotlar hamda jamiyatimizda shakllangan mavjud ijtimoiy hayot faoliyati

Milliy gvardiya tizimini isloh qilishning navbatdagi bosqichi yetib kelganligini namoyon etadi. Shundan kelib chiqib, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini rivojlantarish yo‘llarini shartli ravishda uchga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

ilmiy-nazariy rivojlantarish yo‘llari;

huquqiy ta’minlashni rivojlantarish yo‘llari;

tashkiliy rivojlantarish yo‘llari.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan Milliy gvardiya bo‘linmalariga jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida bir qator vazifalar yuklatilgan. Ayni paytda Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy rivojlantarish yo‘llari quyidagi strategik ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozimligini taqozo etmoqda:

Birinchidan, Milliy gvardiya organlari jamoat xavfsizligini ta’minlashda yuklatilgan vazifalariga ko‘ra, asosan, mamlakatda mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan ommaviy tartibsizliklar fitnachilari va faol ishtirokchilarini tarqatib yuborish va hibsga olish bo‘yicha chora-tadbirlarning asosiy kuch vositasi sifatida jalb etishga mo‘ljallangan. Biroq, Milliy gvardiyaning amaliyotdagi vazifalari tezkor-qidiruv faoliyati bilan aloqador bo‘lsa-da, huquqiy vakolat bo‘lmaganligi mamlakatda joriy operativ vaziyat to‘g‘risida faol ma’lumot olishga, jamiyat hayotining turli sohalari hududiy birliklardagi vaziyatlarni prognoz qilishga qaratilgan xizmat faoliyati yo‘nalishining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, jamoat xavfsizligi holati doimiy muammolar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish xavfi mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuviga olib keladigan muammo va xavf-xatarlarga shartli ravishda quyidagilarni kiritish mumkin:

- diniy, siyosiy va ijtimoiy xarakterdagi turli masalalarda jamiyat ichidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi;
- kommunal xizmatlardagi uzilishlar va kamchiliklar;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonun ustuvorligini ta’minlashdagi kamchiliklar;
- turli darajadagi davlat hokimiyati organlari tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ijtimoiy adolat tamoyillari hisobga olinmaganligi;

- davlat boshqaruv tuzilmasining samaradorlik va oshkoralik talablariga, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda fuqarolarning ishtirokiga mos kelmasligi;
- adolatli sudlovni amalga oshirishdagi muammolar;
- ishsizlik, uy-joy va ijtimoiy yordam bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar;
- aholi daromadlarining pasayishi va ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar narxining oshishi bilan bog‘liq iqtisodiy muammolar va boshqalar.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish niyati va salohiyatiga ega bo‘lgan shaxslar, faktlar va omillar to‘g‘risidagi tezkor muhim ma’lumotlarni olish, to‘plash va tahlil qilish bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash, texnik va tahliliy imkoniyatlarni tubdan oshirish choralarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Ta’kidlash lozimki, XXI asrga kelib, ommaviy tartibsizliklar uchinchi kuch (tashqi kuch) hamda nodavlat-notijorat tashkilotlarining ko‘magi va ularning ssenariylari asosida sodir etiladigan globallashuv inqilobiga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi 2020-yil 18-noyabrdagi O‘RQ-647-son Qonunning 3-moddasiga ko‘ra “jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek, terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish; huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish; jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash; qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish; chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish; huquqbuzar-

liklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish” kabi masalalar Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Ushbu Qonunda belgilangan yuqoridagi vazifalarni samarali bajarishda Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan tezkor-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may kunidagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasiga ko‘ra Milliy gvardiya huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

Ikkinchidan, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligiga tahdidlar bo‘yicha aktiv ma’lumotlarni olishga qaratilgan tezkor razvedka faoliyati va ularni zararsizlantirish bo‘yicha qarorlarini qabul qilish uchun boshqaruv amalga oshirilishini O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunida mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvar kunidagi “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-458-son Qonunining “Doktrinaning harbiy-strategik jihatlari” nomli 3-bobi “Qurolli Kuchlarning aholini va obyektlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish bo‘yicha harakatlari” deb nomlangan 4-paragrafi 21-bandiga asosan “Halokat yuz bergan hududlarda va zarba o‘choqlarida muhandislik, radiatsiyaviy, kimyoviy hamda boshqa turdagi razvedka, qidiruv-qutqaruv, evakuatsiya va boshqa shoshilinch ishlarni bajarish, jabrlangan odamlarning hayot faoliyatini birinchi navbatda ta’minlash, obyektlarning faoliyatini tiklash, shuningdek, fuqaro muhofazasiga doir qolgan vazifalarni bajarish oldindan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan qo‘shma rejalarga muvofiq Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy hamda ixtisoslashtirilgan tuzilmalari, fuqaro muhofazasining hududiy va obyektlardagi tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi” deb ta’kidlangan. Ta’kidlash joizki, ushbu normaga muvofiq Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy hamda ixtisoslashtirilgan tuzilmalarining favqulodda vaziyatlarda halokat sodir bo‘lgan hududlarda razvedka, qidiruv-qutqaruv evakuatsiya va boshqa shoshilinch fuqarolar xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni bajarishi belgilab berilgan.

Uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi normalarni tizimlashtirish, shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq munosabatlarni qonunosti emas, balki konstitutsiyaviy talablarni kafolatlashga qaratilgan normalarni qamrab olgan qonun bilan tartibga solish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlarning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy maqomi va asosiy vazifalari, faoliyatining asosiy prinsiplari, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorligi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xizmatchilarining huquq va majburiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim masalalar turli qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan. Fikrimizcha, bevosita jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni qonun bilan tartibga solish, sohadagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali ushbu normalarni kodekslashtirish, xususan “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz *(ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazilganda 180 nafar respondentlardan 105 nafari yoki 58% qabul qilish lozimligini ma’qullaganlar(1-ilova))*. Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarini tartibga solib, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini va jamoat xavfsizligini ta’minlash organlarining faoliyatini tashkil etish tartibi va faoliyatining asoslarini belgilaydi. Qonunda jamoat xavfsizligi tushunchasi va xavfsizlik obyektlari, subyektlari, prinsiplari o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Buning natijasida, inson va jamiyat farovonligi yo‘lida fuqarolarning huquq va erkinliklari, mulkning dahlsizligi, davlat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashi, tabiiy muhitni muhofaza qilishi, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta’minlashi, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlarini kodeks shaklida tartibga solingan hujjatlar bilan almashtirib borish, qonunlar majmuini yaratish, mamlakat huquqiy klassifikatorini takomillashtirish, shuningdek, qonunchilik resurslaridan foydalanish tizimini zamonaviy global elektron axborot tarmog‘i imkoniyatlari bilan ta’minlashga qaratilgan yaxlit, uzluksiz ilmiy-nazariy hamda amaliy faoliyat bo‘lib shakllanishiga erishiladi.

To‘rtinchidan, Milliy gvardiyaning amaliyotda jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni bajarib kelayotganligini inobatga olgan holda, bu vazifalarni O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to‘g‘risidagi Qonuni”da belgilash. Vaholanki, bugungi kunda Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga muvofiq jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar qatoriga kiritilgan.

Shu bois yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to‘g‘risidagi Qonuni”ning 3-moddasi ikkinchi qismi 8-xatboshini “va jamoat xavfsizligini ta’minlash” tahriridagi jumla bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

Buning natijasida, Milliy gvardiya organlarini amaliyotda jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq faoliyati huquqiy tartibga solinib, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini tartibga soluvchi qonun-chilikdagi mavjud huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirilishiga erishilishi mumkin.

Yuqorida bayon qilingan tahlillar jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Bugungi shiddatli globallashuv sharoitida ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan tahdid va xatarlar ko‘lami va xarakterining murakkablashib borayotgani Milliy gvardiya zimmasiga yuklatilgan vazifalarning yanada dolzarblashuviga sabab bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan, avvalo Milliy gvardiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlarni zamon talablari va xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqish hamda yangilash, jamoat xavfsizligiga tahdidlarni erta aniqlash, ularni oldindan prognoz qilish va zudlik bilan choralar ko‘rishga xizmat qiladigan tezkor-razvedka imkoniyatlarini institutsional va tashkiliy jihatdan kengaytirish, jamoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tarqoq normativ-huquqiy hujjatlar doirasida emas, balki yagona kodeks yoki kompleks qonun hujjati darajasida tizimlashtirishga qaratilgan huquqiy islohotlarni izchil davom ettirish, shuningdek, aholi bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, jamoat nazorati institutlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish zarur. Taklif etilayotgan mazkur islohotlar Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni va rolini huquqiy, tashkiliy hamda amaliy jihatdan

yanada mustahkamlashga, natijada davlatimizda tinchlik va osoyishtalikni izchil ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Все реформы и действия осуществим вместе с обществом [Электронный ресурс]. – Режим доступа: www.prezident.uz. Дата обращения: 02.10.2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kunidagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 Farmoni // lex.uz *(murojaat sanasi 02.10.2022.)*.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27 farmoni // lex.uz *(murojaat sanasi 02.10.2022 y.)*.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi” O‘RQ-647- son Qonuni // lex.uz. *(murojaat sanasi 22.08.2022-yil)*.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-may kunidagi “Huquq-buzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” O‘RQ-371-son Qonuni // lex.uz. *(murojaat sanasi 22.08.2022-yil)*.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-458-son Qonuni. // lex.uz *(murojaat sanasi 17.10.2022 y.)*.

JAMOAT TARTIBINI SAQLASHNING KRIMINOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNING ETIMOLOGIK SHAKLLANISH TARIXI

Maxmudov Jasurbek Xamidovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamoat tartibini ta’minlash har qanday demokratik jamiyatda huquq-tartibotni mustahkamlash va jinoyatchilikni oldini olishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarliklar jamiyat xavfsizligiga bevosita tahdid soladi, aholining xulq-atvoriga, psixologik barqarorligiga, hududning ijtimoiy muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois mazkur sohaning kriminologik xususiyatlarini o‘rganish jinoyat profilaktikasining samarali tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: jamoat tartibi, huquqiy tartibga solish, kriminologiya, xavfsizlik, profilaktika, huquqbuzarliklarning oldini olish, ichki ishlar organlari, davlat boshqaruvi, favqulodda holatlar, jamoatchilik nazorati, xalqaro tajriba.

Abstract. this article examines the maintenance of public order as one of the key directions in strengthening the rule of law and preventing crime in any democratic society. Offenses committed in public places pose a direct threat to public safety, negatively affect the behavior and psychological stability of the population, and have an adverse impact on the social environment of the area. Therefore, studying the criminological characteristics of this sphere is of great importance for developing an effective crime prevention system.

Keywords: public order, legal regulation, criminology, security, prevention, crime prevention, law enforcement agencies, public administration, emergency situations, public oversight, international experience.

Jamoat tartibini saqlash tushunchasining kriminologik mohiyati. Kriminologiya jamoat tartibini faqat huquqiy yoki ma’muriy kategoriya sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar

barqarorligini ta’minlovchi kompleks tizim sifatida talqin qiladi. Jamoat tartibi buzilishi odatda ma’muriy huquqbuzarliklardan boshlanib, muayyan omillar ta’sirida og‘ir turdagi jinoyatlarga aylanishi mumkin. Shu jihatdan jamoat tartibi kriminologik jihatdan jinoyatchilikning boshlang‘ich bosqichini belgilab beradigan indikator sifatida qaralishi lozim. jamoat tartibini saqlash tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Jamoat tartibini ta’minlashning huquqiy asoslari, davlat organlari va jamoat tuzilmalarining bu boradagi vazifalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, jamoat tartibini saqlashda profilaktik choralar, huquqbuzarliklarning oldini olish va favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta’minlash masalalari o‘rganiladi. Maqolada jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirish, yangi texnologiyalardan foydalanish va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

XXI asr axborot texnologiyalari asri nomi bilan kirgan bo‘lsa, axborot texnologiyalaridan g‘arazli va buzg‘unchi maqsadlarda foydalanish esa hozirgi kunda zamonaviy tahdidlar terrorizm, ekstremizm, kiber-jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya va ijtimoiy noroziliklar jamoat tartibiga jiddiy xavf solmoqda. Ayniqsa, ommaviy tadbirlar, sport musobaqalari, siyosiy yig‘ilishlar va boshqa ko‘p sonli odamlar to‘planadigan holatlarda jamoat tartibini ta’minlash uchun kuchli nazorat va xavfsizlik choralarini joriy etish talab etiladi. Bunday vaziyatlarda huquq-tartibot organlari faqatgina kuch va resurslar bilan emas, balki zamonaviy texnologiyalar, intellektyal tahlil va fuqarolar bilan hamkorlik orqali myammolarga yechim topishlari zarur.

Jamoat tartibini ta’minlashda profilaktika ishlari katta ahamiyatga ega. Jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklar sodir etilishini minimallashtirish uchun fuqarolar o‘rtasida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish zarur. Huquqiy tarbiya va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytirish jamoat tartibini mustahkamlashda samarali vositalardan biri bo‘lib, bu fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish va ularning jamiyat xavfsizligiga daxldorlik hissini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jamoat tartibini saqlash masalasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan ham bog‘liq. Jamiyatdagi ijtimoiy notenglik, ishsizlik, kambag‘allik va ijtimoiy adolatsizlik kabi myammolar jamoat tartibiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, davlat ijtimoiy siyosatni takomillashtirish, fuqarolar farovonligini oshirish va ijtimoiy

norozilikni kamaytirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish orqali jamoat tartibini mustahkamlashga e'tibor qaratishi zarur.

Jamoat tartibini saqlash bugungi kunda nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki butun jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlat, huquq-tartibot idoralari va fuqarolar hamkorligida amalga oshirilgan tizimli va samarali chora-tadbirlar orqali jamoat tartibini ta'minlashga erishish mumkin. Barqarorlik va xavfsizlikka e'tibor qaratmaslik ijtimoiy beqarorlik, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, jamoat tartibini saqlash va uning samaradorligini oshirish – har bir davlatning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jinoyatlar dinamikasida jamoat joylarining o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlar bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Impulsiv va vaziyatli jinoyatlar ustunligi.

Ko'p hollarda jamoat joylarida qilingan jinoyatlar oldindan rejalashtirilmasdan, affekt va ehtiros ta'sirida amalga oshadi. Bu holat jinoyatlarni profilaktika qilishda tezkor va doimiy patrul xizmatining ahamiyatini oshiradi.

2. Nazoratning yetarli emasligi.

Yoritishning pastligi, videokuzatuv tizimlarining kamligi, politsiya patrul tarmog'ining yetarli yo'lga qo'yilmagani jinoyatlar uchun qulay muhit yaratadi.

3. Ijtimoiy muammolar ta'siri.

Bekorchilik, ichki migratsiya, maishiy qiyinchiliklar, alkogolizm, giyohvandlik, huquqiy madaniyatning pastligi jamoat joylarida tartibbuzarliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Jamoat tartibini ta'minlashda kriminogen omillar.

Kriminologik tahlilda quyidagi omillar jamoat tartibiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida qayd etiladi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

Ishsizlik, kambag'allik, yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy nomuvofiqlik jamoat joylaridagi huquqbuzarliklarning asosiy manbai hisoblanadi.

2. Maishiy-axloqiy omillar.

Talabalar, yoshlar, mehnat migrantlari jamlangan joylarda axloqiy nazoratning pastligi, ommaviy tadbirlarda tartibsizliklar sodir bo‘lish ehtimolini oshiradi.

3. Infrastrukturaning qoniqarsizligi.

Qorong‘i ko‘chalar, tashlab qo‘yilgan bino va hovlilar, nazoratsiz hududlar “qora nuqtalar”ni vujudga keltiradi va jinoyatlar uchun qulay muhit yaratadi.

4. Politsiya bilan jamoatchilik hamkorligining sustligi.

Fuqarolarning politsiyaga ishonch darajasi past bo‘lsa, huquq-buzarliklar to‘g‘risida xabar berish ko‘rsatkichlari kamayadi.

Jamoat tartibini saqlashda profilaktikaning o‘rnini alohida ta’kidlash joiz.

Kriminologiya jamoat tartibini ta’minlashda quyidagi profilaktik usullarni alohida ta’kidlaydi:

1. Patrul va post xizmati.

Tezkor patrullar, hududiy reydlar, jamoat joylarida videokuzatuv tizimlarining keng joriy qilinishi jinoyatlarning oldini oluvchi asosiy mexanizmlardir.

2. “Xot-spot” (qora nuqta) monitoringi.

Jinoyatlar ko‘p sodir bo‘ladigan hududlarni kriminologik tahlil qilish orqali profilaktika choralari xarakteri aniqlanadi.

3. Mahalla-politsiya hamkorligi.

Mahalla faollari, profilaktika inspektorlari bilan birgalikda targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, aholi bilan ochiq muloqot o‘tkazish jinoyat xavfini ancha kamaytiradi.

4. Axborot-texnologik choralar.

“Smart shahar”, dam olish bog‘lari va bozorlarda intellektual kuzatuv tizimlari, mobil ilova orqali tezkor murojaatlar jamoat tartibini saqlashda zamonaviy kriminologik texnologiyalar hisoblanadi.

Jamoat tartibi va ma’naviy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Jamoat tartibini mustahkamlash nafaqat huquqiy, balki ma’naviy va axloqiy muhit bilan ham chambarchas bog‘liq. Quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- Odamlarda huquqiy madaniyat va javobgarlik hissini oshirish;

- Yoshlar uchun sog‘lom psixologik muhit yaratish;
- Madaniy tadbirlar orqali jamoat joylaridagi ijtimoiy faollikni kuchaytirish;
- Mahalla va oila institutlarining profilaktikadagi rolini kuchaytirish.

Jamoat tartibini saqlashning kriminologik xususiyatini o‘rganish tariximizning barcha davrlarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan, xususan Amir Tyemur va Tyemuriylar, o‘zbek xonliklari va undan keyingi davrlarda ham mazkur masalaga eng ustuvor masalalardan deb qaralgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Tyemurning “Tyemur tuzuklari”da keltirilishicha, “...har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, sipoh-u raiyat xavfsizligini ta’min qilsin va kimning biron narsasi o‘g‘irlansa, buning mas’uliyati uning zimmasida bo‘lsin. Va yana buyurdimki, yo‘l ustida kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar. Yo‘l ustida birortasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa kor-xol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo‘lsin”.

Darhaqiqat, Amir Temur va Temuriylar davrida jamoat tartibini saqlashga bo‘lgan yondashuv davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismi bo‘lib, bu Sohibqironning “Temur tuzuklari” asarida aniq ifodalangan. Temur tomonidan kutvol va yo‘l kuzatuvchilarining tayinlanishi, jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan aniq javobgarlik mexanizmlarining belgilab qo‘yilishi huquqiy va ijtimoiy tartibning mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Bu yondashuv jamoat tartibini saqlashda nafaqat davlat idoralarining mas’uliyatini oshirgan, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ham ko‘zda tutgan. Ayniqsa, savdogarlar va yo‘lovchilar xavfsizligini kafolatlash davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu tizimli nazorat mexanizmlari bugungi kunda ham jamoat tartibini ta’minlash tamoyillarini shakllantirishda tarixiy huquqiy asos sifatida katta ahamiyatga ega.

Temur tuzuklaridagi bu qoidalar zamonaviy huquqiy tizimlar uchun ham dolzarb bo‘lib, davlatning fuqarolar xavfsizligini ta’minlashdagi bevosita mas’uliyati tamoyili sifatida o‘rganilishi lozim. Bu holat tarixiy tajribadan kelib chiqib, jamoat tartibini ta’minlashning aniq nazorat va javobgarlik tizimiga asoslangan samarali mexanizmlar yaratilganini ko‘rsatadi.

Tariximizda jamoat tartibini muhofaza qilish bilan bog‘liq bir qator tuzilmalar, lavozim va mavqelarni yaratish hamda buning aniq huquqiy asoslarini belgilashga oid hujjatlar mavjud. O‘rta asrlarda chaqarlar, xojiblar, mufradlar, qorovulbegi, eshikog‘aboshi, mirshab, chuxraboshi, yelnavkar kabi lavozim egalari bevosita jamoat tartibini saqlashga mas’ul bo‘lishgan.

Jamoat tartibini saqlash faoliyatini keng tahlil qilishdan oldin, ilm-fanda va amaliyotda “jamoat tartibi”, “jamoat tartibini saqlash” tushunchalari bilan “jamoat xavfsizligi”, “jamoat xavfsizligini ta’minlash” tushunchalarini ayni bir ma’noda qo‘llash bilan bog‘liq yondashuvlar mavjudligidan kelib chiqib, mazkur tushunchalarni ilmiy tahlil qilib o‘tamiz.

Mazkur tushunchalarni ilmiy tahlil qilishdan oldin, “jamiyat” va “jamoat” so‘zlarini tahlil qilib o‘tamiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra “jamiyat” – (جامات) arabcha so‘z bo‘lib, yig‘ilish, birlashgan, guruh degan ma’nolarni anglatadi va tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblanadi, ““jamoat” – (جامات) arabcha so‘z bo‘lib – birlashma, uyushma”, guruh degan ma’nolarni anglatadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “jamiyat” va “jamoat” tushunchalarining asl kelib chiqishi va ma’nosi aniq ta’riflangan bo‘lib, ularning semantik farqi muhim ahamiyatga ega. “Jamiyat” – ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida myayyan davrda shakllangan, insonlarning umumiy manfaatlar asosida tashkil topgan tizimini anglatsa, “jamoat” – keng jamoatchilik, myayyan guruh yoki birlashmalarni ifodalaydi.

Bu ajratish jamoat tartibini saqlash tushunchasini tushunishda ham muhim: “Jamiyat” – kengroq ijtimoiy tizim bo‘lsa, “jamoat” myayyan ijtimoiy qatlam yoki tuzilmaga xosdir. Shu bois, “jamoat tartibini saqlash” – myayyan bir qatlam yoki keng jamoatchilikka taalluqli bo‘lgan huquqiy va ijtimoiy tartibni saqlashni anglatadi. Bu lug‘aviy tahlil jamoat tartibi va xavfsizligiga oid huquqiy konsepsiyalarni aniqroq anglashda muhim o‘rin tutadi.

A.V. Gotovsevning ta’kidlashicha, agar jamoat tartibining maqsadi faqat fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash bo‘lsa, jamoat xavfsizligi

daxlsizligi va boshqa manfaatlar hamda obyektlar, xususan, odamlar, mulk, jamiyat uchun xavf tug‘diradigan va ortib borayotgan xavf manbalarining xavfsiz ishlashini ta’minlashdir.

Bu yondashuv jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash tushunchalarini tenglashtirish noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Jamoat tartibi – ijtimoiy intizom va qonun ustuvorligini saqlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, jamoat xavfsizligi jamiyatga xavf soluvchi omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish va xavfsiz muhit yaratishni o‘z ichiga oladi.

Bu fikrdan xulosa qilish mumkinki, jamoat xavfsizligini ta’minlash – keng qamrovli davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, u faqatgina huquq-tartibot idoralari faoliyati bilan cheklanmay, xavfsiz muhitni yaratish uchun profilaktik, ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik choralarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham huquqiy va amaliy nuqtai nazardan jamoat tartibini saqlash – jamoat xavfsizligini ta’minlashning bir qismi, biroq uning to‘liq sinonimi emas.

I.I.Veremeyenkoning fikriga ko‘ra, jamoat tartibi deganda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, jamoat xavfsizligi va shaxs xavfsizligini ta’minlaydigan, shu bilan jamiyat hayotining muvofiqlashtirilishi va dinamikligini kafolatlaydigan jamoat joylaridagi munosabatlar tartibi tushunilishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, jamoat xavfsizligi va shaxs xavfsizligini ta’minlash jamoat tartibini o‘rnatish va saqlash maqsadini tashkil etadi.

Bu yondashuvga ko‘ra, jamoat xavfsizligi va shaxs xavfsizligi jamoat tartibini o‘rnatish va saqlashning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Demak, jamoat tartibini ta’minlash – faqatgina huquqbuzarliklarning oldini olish yoki intizom o‘rnatish emas, balki shaxs va jamiyat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy jarayondir.

Bu yondashuv amaliy jihatdan muhim, chunki u jamoat tartibi tushunchasining chegarasini kengaytirib, uni faqatgina huquq-tartibot idoralari zimmasidagi vazifa sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimi va davlat xavfsizlik siyosati bilan bog‘liq jarayon sifatida tavsiflaydi. Shuningdek, bu yondashuv jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi o‘zaro bog‘liq tushunchalar ekanini tasdiqlaydi, biroq jamoat xavfsizligi jamoat tartibidan kengroq qamrovga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Biroq, bu yondashuvning kamchilik tomoni shundaki, amaliyotda jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi har doim ham bir xil huquqiy

mexanizmlar orqali ta’minlanmaydi. Jamoat tartibi ko‘proq ijtimoiy intizom, fuqarolarning qonunlarga rioya qilishi va jamoat joylaridagi odob-axloq qoidalari bilan bog‘liq bo‘lsa, jamoat xavfsizligi turli tahdidlardan himoya qilish, tabiiy ofatlar va texnogen xavflarning oldini olish kabi masalalarni ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, A.Kudelich va A Sapojnikovning yondashuvi nazariy jihatdan jamoat tartibi va xavfsizligini bir butun tizim sifatida tushunishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, amaliyotda ularning farqli jihatlari borligi sababli, bunday yondashuv huquqiy boshqaruv va xavfsizlik chora-tadbirlarini mukammal ta’minlashda cheklovlarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun jamoat tartibi – jamoat xavfsizligining bir qismi sifatida qaralishi maqsadga muvofiq bo‘lib, ularni mutlaqo sinonim tushunchalar deb qabul qilish ba’zi hollarda noaniqliklarga olib kelishi mumkin.

V. Zarubin “jamoat xavfsizligi jamoat tartibini qamrab oladi” – deb ta’kidlab, jamoat xavfsizligi jamoat tartibi mavjud bo‘lgandagina ta’minlanishiga urg‘u beradi.

I. Ismailov va M. Ziyodullauyevlar ham yuqoridagi ta’rifga qo‘shilgan holda jamoat xavfsizligi tushunchasiga “jamoat xavfsizligi – bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa xilof harakatlar, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, zilzila, eridemiya, erizootiya, epifitotiya, katta falokatlar, avariyalar va yong‘inlar natijasida kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan himoyalanganlik holati” deb fikr yuritganlar.

M.Ҳ. Rustambayevning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhida “jamoat xavfsizligiga – jamiyat hayotining xavfsiz sharoiti, ya’ni shaxslarning daxlsizligi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlari, har qanday davlat yoki jamoat birlashmalarining bir meyorda ish olib borilishi ta’minlovchi ijtimoiy munosabatdir” deb ta’rif bergan.

Jamoat tartibini saqlash huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy jihatlarni o‘z ichiga olgan kompleks tushuncha bo‘lib, u davlatning barqarorligi va jamiyat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu tushunchaning o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tahlil qilish mumkin:

birinchidan, jamoat tartibini saqlash davlat tomonidan belgilangan qonunlar va meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda: Konstitutsiya, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodeksi asosida huquq-tartibot organlari faoliyati tartibga solinadi, davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik huquqiy asoslarga tayanadi, shuningdek, jamoat tartibini buzganlik uchun javobgarlik choralari belgilanadi;

ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash ijtimoiy hayotda intizom va muvozanatni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu xususiyat, jamoat joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoatchilik madaniyatini shakllantirish, insoniy munosabatlarda huquqiy madaniyatni oshirish kabi vazifalarni qamrab oladi;

uchinchidan, jamoat tartibini saqlashning asosiy xususiyatlaridan biri fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini kafolatlashdir. Bu jarayonda, huquq-tartibot organlari xavfsizlik choralarini ko'radi, jamoat joylarida video kuzatuv tizimlari joriy etiladi, profilaktik va nazorat tadbirlari orqali jinoyatchilikning oldi olinadi.

to'rtinchidan, jamoat tartibini saqlash nafaqat davlat organlari, balki jamoatchilik va nodavlat tashkilotlari ishtirokida amalga oshiriladi. Bu jarayonda, fuqarolarning jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha aholini jalb qilish hamda volontyorlik va jamoatchilik politsiyasi kabi tizimlarni rivojlantirish nazarda tutiladi;

beshinchidan, jamoat tartibini saqlashda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlari muhim o'rin tutadi. Bunda, ommaviy axborot vositalari orqali jamoat tartibini saqlashga oid tushuntirish ishlari olib boriladi, maktab va oliy ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyaga e'tibor qaratilgan o'quv dasturlari joriy etiladi, profilaktik reydlar va huquqiy targ'ibot tadbirlari tashkil etiladi;

oltinchidan, jamoat tartibini saqlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun'iy intellektdan samarali foydalanish orqali xavfsizlik choralari kuchaytiriladi. Bunda, videokuzatuv va yuzni tanib olish texnologiyalari ishlatiladi, elektron hushyorlik tizimlari *(avtomatlashtirilgan xavf-xatar tahlili)* joriy etiladi, jamoat xavfsizligi monitoringini olib borish uchun raqamli ma'lumotlar tahlil qilinadi;

- jamiyatda jamoatchilik nazorati va profilaktik ishlarga e’tibor qaratilmoqda.

Jamoat tartibini saqlash – huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillarni o‘z ichiga olgan kompleks jarayon bo‘lib, uning samarali amalga oshirilishi davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Jamoat tartibini saqlash tizimi nafaqat huquq-tartibot organlarining vazifasi, balki butun jamiyatning mas’uliyati sifatida qaralishi zarur.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, jamoat tartibini saqlash tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan quyidagi nazariy xulosalarga kelish mumkin. Bularga:

- birinchidan, huquqiy asoslanganlik – jamoat tartibini saqlash qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Konstitutsiya, Ma’muriy va Jinoyat kodekslari, ichki ishlar va huquq-tartibot organlarining qonunlar bilan belgilangan vakolatlari bu jarayonning huquqiy poydevori hisoblanadi;
- ikkinchidan, tartib va intizomni ta’minlash – jamoat tartibi jamiyatda ijtimoiy tartib-intizomni shakllantirish, qonunbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan. Bu omil jamoat joylarida tinchlikni saqlash, jamoatchilik madaniyatini oshirish va insonlar o‘rtasidagi muvozanatli munosabatlarni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi;
- uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash – jamoat tartibini saqlash fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini, mol-mulk daxlsizligini va umumiy ijtimoiy barqarorlikni kafolatlaydi. Huquq-tartibot organlari tomonidan hushyorlik va nazorat choralari amalga oshiriladi, shuningdek, xavf-xatarli vaziyatlarning oldini olish uchun zamonaviy texnologiyalar qo‘llaniladi;
- to‘rtinchidan, davlat va jamoatchilik hamkorligi – jamoat tartibini saqlash faqatgina huquq-tartibot idoralari emas, balki fuqarolar va jamoatchilik institutlari ishtirokida amalga oshirilishi kerak. Jamoatchilik nazorati mexanizmlari, fuqarolik tashabbuslari va nodavlat tashkilotlarning ishtiroki bu borada katta ahamiyatga ega;
- beshinchidan, profilaktika va huquqiy targ‘ibot ustuvorligi – jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlari jamoat tartibini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadda

aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar, ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiya mashg‘ulotlari va targ‘ibot ishlari amalga oshiriladi;

Jamoat tartibini saqlash davlat va jamiyatning barqarorligi hamda xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks jarayon bo‘lib, u huquqiy, ijtimoiy, texnologik va ta’limiy omillarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon faqatgina huquq-tartibot organlari faoliyati bilan cheklanmay, balki fuqarolar, jamoatchilik tashkilotlari va davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanishi zarur. Barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash uchun jamoat tartibini saqlashni tizimli va uzluksiz ravishda amalga oshirish zarur.

O‘ZBEKISTONDA FUQAROLARNING MUROJAATLARINI HAL ETISH MEXANIZMLARI

Murzajanov Shavkatbek Gafurovich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada murojaatlarning tushunchasi, kabul kilingan murojaatlarning davlat organlari tomonidan mas’uliyat bilan o‘rganib, ijobiy yechimini topish, fukarolarning roziligini olish, murojaat kiluvchining shaxsan kabul kilish tartibi, murojaaatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning kiskacha mazmuni, murojaatlar bilan ishlash mexanizimi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Murojaatlar, talablar, murojaatlarni o‘rganish jarayoni, fukarolarning xuquqiy erkinliklari, inson xuquqi, Xalk kabulxonasi, murojaatlarni o‘rganish sifati, ariza, shikoyat, taklif.

Abstract. The article analyzes the concept of appeals, the mechanisms regulating the activities of state bodies in the responsible study and positive resolution of accepted appeals, obtaining citizens’ consent, personal reception of citizens, and the summary of regulatory legal acts in the field of working with appeals.

Key worlds: appeals, requirements, the process of studying appeals, legal freedoms of citizens, human rights, the People’s Reception Office, the quality of studying appeals, statements, complaints, and suggestions.

O‘zbekiston Respublikasi mustakillikka erishganining ilk kunlaridanoq inson huquqlari oliy kadriyat sifatida e’tirof etilib, Konstitutsiya bilan mustahkamlandi. Bu orqali davlatimiz olib borayotgan siyosatining eng muhim talablaridan biri bo‘lgan bu fukarolarimizning huquqiy erkinligini ta’minlash, ularning muammolarini hal etish, ertangi kunga davlatga bo‘lgan ishonchini shakllantirish ishlarining birinchi ko‘rinishlaridan biri bo‘ldi.

Buning uchun barcha davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga kilingan murojaatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shartligi birinchi Konstitutsiyaning 35-moddasida belgilab olindi va 2023 yilda butunxalq referendumi natijasida qabul qilingan Yangi qomusimizda mazkur huquq quyidagicha qayd etilgan.

“Har kim bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart”.

Fuqarolar murojaatlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- ariza – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat;
- taklif – davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan murojaat;

shikoyat – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat;

- elektron murojaat – belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida berilgan, shu jumladan davlat organining, tashkilotning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan murojaat, real vaqt rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda berilgan og‘zaki murojaatlar bundan mustasno;

Oldingi tahrirga qarang:

- takroriy murojaat – ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilayotgan, shuningdek, agar takroriy murojaat kelib tushgan paytga kelib qonunchilikda belgilangan ko‘rib chiqish muddati tugagan bo‘lsa, ilgarigi murojaati o‘z vaqtida ko‘rib
- anonim murojaat – jismoniy shaxsning familiyasi *(ismi, otasining ismi)*, uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki yuridik shaxsning to‘liq nomi, uning joylashgan yeri *(pochta manzili)* to‘g‘risidagi ma’lu-

motlar ko‘rsatilmagan yoxud ular haqida yolg‘on ma’lumotlar ko‘rsatilgan murojaat, shuningdek uni identifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydigan elektron murojaat yoxud imzo bilan tasdiqlanmagan yozma murojaat;

- murojaatning dublikati – ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatining ko‘chirma nusxasi;
- ommaviy qabul – davlat organi rahbarining yoki bu borada vakolat berilgan mansabdor shaxsining jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari bilan ommaviy uchrashuvlarida murojaatlarni qabul qilishga doir harakati.

Fuqarolar ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish, har bir shaxs ushbu konstitutsiyaviy huquqini bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda amalga oshirish mumkin. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart.

Mustaqillik yillarida Konstitutsiyada mustahkamlangan shaxslarning murojaat qilish huquqi “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi *(1994-y.)*, “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi *(1995-y.)*, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi *(2017-y.)* kabi qonunlar orqali amalga oshirildi.

Xususan, 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunida fuqarolarning murojaat qilish huquqini amalga oshirishlarining tartibi keng yoritib berilgan. Aholining davlat organlari bilan munosabatga kirishlarining huquqiy tartibi ushbu qonun bilan belgilanib, ko‘zda tutilgan qoidalar barcha davlat organlari, davlat ishtirokidagi tashkilotlarga va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari uchun birdek amal qiladi.

Fikrimizcha, ushbu Qonun davlat organlari va davlat muassasalariga, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Qonunda murojaatlarning kabul kilish tartibi belgilangan bo‘lib, murojaat etish huquqlarining kafolatlari, murojaatlarni berish va ularni ko‘rib chikish muddatlari xamda ularni ko‘rib chikishda jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari,davlat organlarining majburiyatlari kayd etilgan. Konunga muvofiq, bugungi kunda shaxslarning murojaatlari

qonuniylik, o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqish, murojaatlarga nisbatan talablarning bir xilligi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, murojaatlarni ko‘rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo‘l qo‘yilmasligi, murojaatlarni ko‘rib chiqishda konunchilik talablarini buzganliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo‘lgan javobgarlik hususida kat’iy ogohlantirishlari ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning halqimiz kalbidan chukur joy olgan “Halq davlat idoralariga emas, davlat idoralari halqimizga hizmat kilishi kerak”, “Halqimiz o‘z hayotida ijobiy o‘zgarishlarni ertaga emas, uzok kelajaqda emas, aynan bugun ko‘rishi qeraq”, “Har bir murojaatda – kimningdir taqdiri, ishonchi, og‘riqligi bor. Buni unutish mumkin emas” degan so‘zlari bugun mamalaqatimizda fuqarolarning murojaat qilish huquqining qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi.

Murojaatlarning shakli, turidan qat’iy nazar huquqiy jihatdan teng hisoblanadi. Kelib tushgan murojaatlar tegishli davlat organi tomonidan yoki murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ma’sul shaxs tomonidan ko‘rib chiqiladi. Davlat organlari va tashkilotlarning vakolatli shaxslari tomonidan joylarda sayyor qabullar tashkil etilishi ham majburiy norma sifatida belgilangan.

Xususan, ariza yoki shikoyat 15 kun ichida, qo‘shimcha o‘rganish, tekshirish, yoki qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilgan hollarda bir oygacha muddatda ko‘rib chiqilishi shart. Taklif esa bir oygacha bo‘lgan muddatda o‘rganilib, ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, davlat idoralari rahbarlari tomonidan o‘tkaziladigan sayyor kabullariga puxta tayyorgarlik ko‘riladi, bunda murojaat kilgan fuqarolarning muammolariga taaluklikli mas’ul idora-tashkilot rahbarlari ham taklif etiladi.

Oldindan joylardagi maxalla yettiligi tomonidan fuqarolar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatishda faol ishtirok etadi.

Sayyor kabullarni maxallada o‘tkazilishiga quyidagilarni asosiy sabab deb ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan – murojaat kilgan fukaroning istikomat kilgan maxalla idorasida ushbu tadbir o‘tkazilsa axoliga kulayliklar yaratilgan bo‘ladi;

Ikkinchidan – muammosi mavjud bo‘lgan fukarolarning sansorliklarini oldini olingan bo‘ladi;

Uchinchidan – norozi kayfiyatida yurgan fukarolarning muammolarini tegishligi bo‘yicha kerakli tashkilot rahbari tomonidan joyida o‘rganilib, amaliy yordamlar beriladi, takroriy murojaatlarini oldini olingan bo‘ladi;

To‘rtinchidan – kelib tushgan murojaatlardagi masalasini o‘rganib ijobiy hal etilishida tegishligi bo‘yicha tashkilot rahbarlariga vaqt jihatidan kulayliklar yaratilgan bo‘ladi;

Beshinchidan – muammosi mavjud, lekin sog‘ligi yetarli darajada emas fukarolarimizni muammolarini joyiga chikkan xolda, sifat jihatidan “xonadonbay”, ”fuqarobay” o‘rganilgan bo‘lib, ushbu toifadagi fuqarolarimizni roziligini olish imkoniyati mavjud;

Oltinchidan – sayyor kabulga taklif etilgan tashkilot rahbarlari tomonidan kelgusida murojaatlarida ko‘tarilayotgan muammolarni oldini olish, axoliga sifatli xizmat ko‘rsatilishi yuzasidan, ushbu sayyor kabullar o‘tkazilayotgan maxallada o‘zlariga taalukligi bo‘yicha kolgan muammolarini xam o‘rganib, fukarolarni roziligini olishishga erishiladi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi 7-sonli karori bilan Fukarolarning o‘zini o‘zi boshkarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomni tasdiklangan. (5)

Mazkur Namunaviy nizom fukarolarning o‘zini o‘zi boshkarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlani ko‘rib chikish tartibi, muddatlari, murojaatlarni ko‘rmay koldirish, ko‘rib chikishni tugatish, jismoiniy va yuridik shaxslarning vakillarini xamda ularni video-konferensiya aloka vositasida kabul kilishni tashkil etish, murojaatlarni ko‘rib chikishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va fukarolarning o‘zini o‘zi boshkarish orgaanlari majburiyatlari, murojaatlarning ko‘rib chikilishini monitoring va nazorat kilish, umumlashtirish, tahlil qilish masalalari kayd etilgan.

Xulosa kilib aytganda, fuqarolar murojaatlari instituti – davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi muloqotning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, aholiga o‘z huquq va manfaatlarini ifoda qilish imkonini beradi. O‘zbekistonda bu institut so‘nggi yillarda sezilarli darajada isloh qilinib,

fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlashning mustahkam poydevoriga aylandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси / “Ўзбекистон” Тошкент – 2023, 126 в.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрири) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 977-модда

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд китоби Т: Ўзбекистон-2017.

4. Электрон ресурс: Президент Узбекистана объявил о полной перезагрузке системы народных приёмных – UzDaily.uz

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 5 январдаги 7-сонли карори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.05.2018 й., 09/18/341/1202-сон

KIBERXAVFSIZLIK VA KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDAGI ISLOHOTLAR

Sh.SH.Hasanov

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqola mamlakatimizda kiberxavfsizlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, sog‘lom Internet-muhitiga ega axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish, internet orqali sodir etiladigan barcha turdagi jinoyatlarning oldini olishga qaratilayotgan tizimli ishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Internet-muhiti, profilaktikasi, Internet-muhiti, kiberxavfsizlik, kiberjinoyatchilik, ommaviy axborot vositalari, veb-makon, raqamli iqtisodiyot

Global miqyosida dunyoda kiberxavfsizlikni ta’minlash va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish borasida “raqamli iqtisodiyot”ni rivojlantirish va ahborot-telekommunikatsiya texnologiyalar sohasi taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, kiberxavfsizlik va kiberjinoyatlar sohalariga oid tegishli choralarni ko‘rish, ular borasida profilaktik tadbirlarni samarali qo‘llash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Binobarin, bugungi kunda mamlakatimizda kiberxavfsizlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, sog‘lom Internet-muhitiga ega axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish, milliy saytlarni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Internetda milliy veb-saytlarni yaratishga qaratilgan ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilayotgani, veb-ixtirochilarning moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanayotgani, sog‘lom axborot muhitini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan turli tadbirlar ana shu maqsadga xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, shaxslarni Internet hamlalaridan himoyalash, axborot olish va tarqatish madaniyatini targ‘ib qilish, tarmoq xavfsizligini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali muntazam ravishda Internet tarmoqlaridan foydalanish qoidalari, veb-makondagi xavf va firibgarliklarga qarshi kurashish usullari tushuntirilmoqda.

Ushbu o‘zgarishlar hayot sifatini yaxshilash bilan bir qatorda, jinoyatchilikning yangi shakli kiberxavfsizlikni ta’minlash va kiber-jinoyatlarni yuzaga kelishiga zamin yaratdi hamda hayotimizga “kiberxavfsizlik”, “kiberjinoyatchilik” tushunchasini olib kirdi.

Internet bilan bog‘liq kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha xalqaro Symantec Security tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda har soniyada dunyodagi 12 nafar insondan bittasi Internet hujum qurboni bo‘lmoqda va har yili 556 mln. dan ko‘proq kiberhujum uyushtiriladi va bunda jabrlanuvchilar ko‘radigan zarar miqdori 100 mlrd. AQSH dollaridan ko‘proqdir.

Jahonda “Global axborotlashtirish va kompyuterlashtirish asri”da insoniyat hayotida olamshumul ixtirolar bilan bir qatorda, axborot xavfsizligiga tahdid solayotgan Internet tarmoqlaridan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarni jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini aniqlash, dinamikasini tahlil qilish hamda ushbu turdagi jinoyatchilikning sabab va sharoitlari, jinoyatchi shaxsini o‘rganish va ularni oldini olish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham axborotlashtirish va Internet tarmog‘ini rivojlantirish ishlari keng amalga oshirilgan. Bunda O‘zbekiston mustaqilikka erishgan vaqtda, ya’ni 1991 yili faqatgina elektron pochta uchun birinchi ma’lumotlarni uzatish tizimiga kirish imkoniyati paydo bo‘lgan. 1992–1995 yillarga kelib esa, ilk lokal provayderlar ish boshlagan.

1995 yilning 29 aprel kuni “UZ” domeni ishga tushgan. 1995–2000 yillar Internet tarmog‘i mamlakat doirasida katta tezlikda rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan va hozirgi ko‘rinishga kelgan[2].

Mazkur soha doirasida O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi ham rivojlanib keldi. Xususan, 2012 yilda O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasini tashkil etildi. 2015 yilda esa mazkur davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini sifatida qayta tashkil etildi. Internet tarmog‘ining milliy segmenti yanada shakllantirilishini ta’minlash, mamlakatimizning turli yo‘nalishlardagi zamonaviy veb-resurslarini, shu jumladan, aholining, xususan, yosh avlodning axborotga bo‘lgan va intellektual talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadida tarmoq resurslarini rivojlantirish uchun zarur texnik va

qulay shart-sharoitlarni yaratish Vazirlikning asosiy vazifalaridan biri etib belgilab qo‘yildi. Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda, Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar kiberjinoyatchilikka qarshi yurtimizda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-qarori qabul qilindi. Unga muvofiq 2030 yilgacha noqonuniy pul oqimlarini keskin qisqartirish, o‘g‘irlangan aktivlarni izlab topish va qaytarish bo‘yicha ishlarni jonlantirish, uyushgan jinoyatchilikning barcha shakllariga qarshi kurash olib borish va ekstremizm ko‘lamini jiddiy ravishda qisqartirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yildi. Hozir aynan kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish borasida zarur choralar amalga oshirilmoqda.

Kiberxavfsizlik masalalarini hal qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-sentabr kunidagi PQ-4452-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga binoan kiberxavfsizlik uni tartibga solish sohasida vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati hisoblanadi. O‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasidagi nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi *(Davlat xavfsizlik xizmati tarkibida)* bilan birgalikda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqa tashkilotlar va idoralarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, axborot xavfsizligi holatini nazorat qilish, monitoring qilish, o‘rganish va tekshirishni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, raqamli ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq xavflarning ortib borishi, davlat va jamiyat manfaatlari hamda fuqarolarning shaxsiy huquqlariga tahdid solishi – global raqamli boshqaruv uchun yangi muammolarni keltirib chiqarayotganligi sababli joriy yilning 15-mart kuni “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun prezident tomonidan imzolandi. Hujjat Qonunchilik palatasi tomonidan 25-fevral kuni qabul qilingan, Senatda 17-mart kuni ma’qullagan. 40 ta moddadan iborat mazkur qonun rasman e’lon qilinganidan 3 oy o‘tib, 2022-yil 17-iyuldan qonuniy kuchga kirdi.

Kiberxavfsizlikni ta’minlashdagi asosiy prinsiplar – qonuniylik, shaxs va davlat manfaatlarini himoya qilish, sohaga yagona yondashuv, tizimni yaratishda *(davlat xaridlarida)* mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik berish, xalqaro hamkorlik uchun ochiqlik hisoblanadi.

Ushbu qonunda ham, boshqa ko‘plab hujjatlar kabi O‘zbekiston qo‘shilgan xalqaro shartnomalarda ko‘zda tutilgan boshqacha qoidalarda ustuvorlik berilgan. YA’ni, xalqaro shartnomada “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonundan boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Davlat organlari va tashkilotlari ham kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida vakolatli davlat organidan kibertahdidlar, dasturiy ta’minotdagi, uskunalar va texnologiyalardagi zaifliklar to‘g‘risidagi axborot va maslahatlar olish huquqiga ega. Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari vakolatli organni kiberhujumlar to‘g‘risida ogohlantirishi, kiberhimoya uchun sertifikatlashtirilgan dasturiy ta’minotlardan foydalanishi, sohaga doir normativ va texnik hujjatlarni vakolatli organ bilan kelishishi shart.

Davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari hamda resurslari ma’lumotlarining saqlanishini ta’minlash ma’lumotlarning zaxira nusxalarini yaratish yo‘li bilan amalga oshiriladi, ularning saqlanish muddati oxirgi 3 oydan kam bo‘lmasligi kerak.

Muhim axborot infratuzilmasi obyektlari va milliy axborot resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq muayyan huquqlarga ega yuridik shaxslar, ya’ni kiberxavfsizlik subyektlariga ham ushbu qonun doirasida bir qancha huquq va majburiyatlar yuklatilgan.)

Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertiza majburiy tartibda yoki kiberxavfsizlik subyektlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladi. Quyidagilar kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan majburiy tartibda ekspertizadan o‘tkazilishi lozim *(18-modda):*

- davlat organlarining axborot resurslari;
- davlat organlarining axborot tizimlari;
- muhim axborot infratuzilmasi obyektlari toifasiga kiritilgan axborot tizimlari.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlari hamda resurslarining kiberxavfsizligini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan apparat, apparat-dasturiy va dasturiy vositalar majburiy tartibda sertifikatlashtirilishi lozim *(19-modda).*

Kiberxavfsizlik hodisalari vakolatli davlat organi yoki kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ishchi organning mansabdor shaxslari tomonidan tekshiriladi. Shuningdek, texnik imkoniyatlarga ega bo‘lsa axborot resursining o‘zi ham tekshiruv o‘tkazishi mumkin. Bunda u vakolatli organni natijalardan xabardor qilishi kerak *(22-modda)*.

Shuningdek, qonunning oltinchi bobida muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining kiberxavfsizligini ta’minlash, ularni toifalashtirish va reyestrini yuritish, huquq va majburiyatlari hamda xavfsizlik talablariga doir normalar berilgan .

Davlat xavfsizlik xizmati O‘zbekiston qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq, xalqaro kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish masalalariga doir axborotni chet davlatlarga va xalqaro tashkilotlarga so‘rov bo‘yicha taqdim qiladi. Agar bunday axborot tergov va sud jarayonlariga to‘sqinlik qilmasa hamda kiberhujumlarga barham berishga xizmat qilsa, vakolatli organ uni xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarga oldindan so‘rovsiz ham berishi mumkin *(36-modda)*.

Xo‘sh, “kiberjinoyatchilik” tushunchasining o‘zi nima ekanligi, uning tarkibiy qismlari hamda biz so‘nggi paytlarda tez-tez uchratishga odatlanib qolgan kibermakonga oid iboralarga to‘xtalib o‘tamiz:

Kiberxavfsizlik – axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi[4].

Kiberjinoyatchilik tushunchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko‘plab turdagi jinoyatlarni o‘zida birlashtirgan. Virtual tarmoqda dahshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish *(spam)*, xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami va bank rekvizitlarini o‘g‘irlash *(fishing va farming)* hamda boshqa turli huquqbuzarliklar shular jumlasidandir. Bunday holatlarda jinoyatchilar o‘zlarini qiziqtirgan “obyektlar”ga moddiy va ma’naviy zarar yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Kiberjinoyatchilik va uni sodir etuvchi kimsalar doirasi esa yildan yilga kengayib borayotganini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi[5].

Kiberhujum – *(Cyber attack)* bu shaxsiy yoki uyushgan gurux tomonidan kompyuter tarmoqlari, axborot tizimlari yoki katta AT

infratuzilmasini nishonga olish uchun zararli kodni o‘g‘irlash, o‘zgartirish ushbu turdagi harakatlarning xar qanday afzalliklaridan foydalanish uchunturli xil vositalardan foydalangan xolda ishlatiladigan hujum turlari hisoblanadi.

Ketfishing – *(catfishing)* Internetda yoki butun ijtimoiy tarmoqlardagi guruxlarda emotsional/romantik munosabatlarda odamlarni aldash maqsadida, soxta profil, akkaunt yoki veb-saytidan foydalangan xolda muloqotga kirishib, o‘z maqsadlariga erishishni ichiga olgan jarayon.

Mutaxassislar ketfishing shaxsdagi nafrat, qasos, qiziquvchanlak, yolg‘izlik yoki zerikish natijasida yuzaga kelishini ta’kidlaydilar.

Bu kabi xatti-xarrakatlar mamlakatimiz xududida ham uchrab turibdi, buning uchun Jinoyat Kodeksi 165-moddasiga (Tovlamachilik) ko‘ra javobgarlik belgilangan.

Mayning – bu ko‘pqirrali va aniq tariflanishi qiyin bo‘lgan tushuncha. Mayning tarmoqdagi bitimlarni kuzatish va raqamli imzolarning haqiqiyligini tekshirish, blokcheynni saqlash va yangi bloklarni kuzatish, qo‘shimchalar uchun nomzod bloklarni yaratish, blokni yaroqli holatga keltiradigan kriptovalyutani topish (to‘g‘ridan-to‘g‘ri qazib olish) hamda blokni boshqa ishtirokchilarga e’lon qilish kabi protsedura zanjiridan iborat jarayon sifatida tavsifdanadi. Sodda qilib aytganda maynning kriptovalyuta yaratishga va kriptovalyuta ko‘rinishida mukofot olishga qaratidgan faoliyatdir.

Ushbu sohadagi jinoyatlarning xavfi shundaki, mudofaa, ishlab chiqarish, iqtisodiy, bank va boshqa maqsadlardagi murakkab kompyuter tizimlarining boshqaruv sensorlari bilan bog‘liq harakatlar uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishi, bloklanishi, modifikatsiyasi odamlarning o‘limiga va ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazishi, mulkni yo‘q qilishi, katta miqyosda iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin. Shunday ekan, mamlakatimizda kiberxavfsizlikni ta’minlash axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi samarali mexanizmini takomillashtirish, shaxslarning ga doir ariza, xabarlarini elektron ro‘yxatga olish va natijalarining yagona elektron hisobini yuritish imkonini beruvchi dasturiy modulni yaratish, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ishtirokchilarning huquqiy maqomini belgilash, dispozitiv huquqlarni kengaytirish hamda kiberxavfsizlik va kiberjinoyatlar qarshi kurashishning samarali tartibini joriy etishga doir muammolarning ilmiy va amaliy asoslangan yechimlarini topish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://sud.uz/wp-content/uploads/2021/odilsudlov/5_uz.pdf
2. https://lex.uz/uz/docs/5960604
3. https://lex.uz/uz/docs/5960604
4. Axborot texnologiyalari soxasida, shu jumladan internet tarmog‘ida sodir etiladigan huquqbuzarlik hamda jinoyatlarni aniqlash, barvaqt oldini olish va tergov qilish metodologiyasi//O‘z.Res. IIV Akademiyasi//mualliflar jamoasi//Toshkent-2022 y// 8-bet
5. https://lex.uz/uz/docs/5960604

YANGI TURDAGI KIBERJINOYATLARNING TURLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Choriyev Ulug‘bek Jalol o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi, kapitan

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada kiberjinoyatlarning zamonaviy turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va barvaqt profilaktika choralarini amalga oshirish masalalari kompleks tarzda o‘rganilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatlar sonining 2019-2024-yillarda 68 barobarga oshganligi, so‘nggi uch yilda esa 8,3 barobarga ko‘payganligi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. 2024-yilda jami jinoyatlar ichida kiberjinoyatlarning ulushi 44,4 foizga yetganligi, virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyati 16-23 yosh oralig‘idagi o‘smir-yoshlar tomonidan sodir qilinayotganligi aniqlangan. Maqolada investitsiya firibgarligining asosiy turlari, jumladan Ponsi sxemasi, piramida sxemasi, feyk kriptovalyuta va brokerlar orqali sodir etilayotgan jinoyatlar batafsil tahlil qilingan. Xalqaro tajriba, xususan Singapur, AQSh, Buyuk Britaniya va Xitoy Xalq Respublikasining kiberjinoyatlarga qarshi kurashish dasturlari ko‘rib chiqilgan hamda O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholangan. Tadqiqot natijalari asosida barvaqt profilaktika samaradorligini oshirish yuzasidan kompleks takliflar, jumladan biometrik autentifikatsiya joriy etish, kiberxavfsizlik ta’limini rivojlantirish, yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirish, interaktiv axborot platformalari yaratish va davlat-xususiy sheriklik asosida keng qamrovli targ‘ibot tadbirlari tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatlar, barvaqt profilaktika, investitsiya firibgarligi, Ponsi sxemasi, piramida sxemasi, biometrik autentifikatsiya, kiberxavfsizlik ta’limi, raqamli savodxonlik, kibermakon xavfsizligi, bank kartalari firibgarligi, yoshlar jinoyatchiligi

Abstract This scientific article comprehensively examines modern types of cybercrimes, their specific characteristics, and implementation of early prevention measures. The research analyzes statistical data showing that cybercrime in the Republic of Uzbekistan increased 68-fold between 2019-2024 and 8.3-fold in the last three years. In 2024,

cybercrimes accounted for 44.4% of total crimes, with the majority of virtual offenses committed by youth aged 16-23. The article provides detailed analysis of main types of investment fraud, including Ponzi schemes, pyramid schemes, fake cryptocurrency and broker scams. International experience from Singapore, USA, United Kingdom, and China in combating cybercrime is reviewed and possibilities for adaptation to Uzbekistan conditions are assessed. Based on research findings, comprehensive recommendations for enhancing early prevention effectiveness are presented, including implementation of biometric authentication, development of cybersecurity education, increasing digital literacy among youth, creation of interactive information platforms, and organization of comprehensive awareness campaigns through public-private partnerships.

Keywords: cybercrime, early prevention, investment fraud, Ponzi scheme, pyramid scheme, biometric authentication, cybersecurity education, digital literacy, cyberspace security, bank card fraud, youth crime

Global axborot maydonida kibermakon bilan bog‘liq yangidan-yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Virtual olamdagi hujumlardan himoyalanish masalasi bugungi kunda dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solyapti. Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamlashuv jarayonlarining keng qamrovli bo‘lishi, bir tomondan, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ko‘plab imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan, jinoyatchilikning yangi shakllarini yuzaga keltiradi.

Tahlillarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili 500 milliondan ortiq kiber hujumlar uyushtiriladi. Har soniyasida 12 nafar insondan biri kibermakonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Fransiya, Angliya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiber hujumlar orqali sodir etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu muammo tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ichki ishlar vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi uch yilda kiberjinoyatlar 8,3 barobarga ko‘payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan. 2019-2024 yillar davomida esa

kiberjinoyatlar soni 68 barobarga oshgan. Agar 2019 yilda 18 toifada 863 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 62 toifada 58 800 taga yetdi.

Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o‘zgalarning plastik kartadagi mablag‘larini o‘zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o‘yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko‘payib bormoqda. Achinarlisi, axborot texnologiyalari yordamida huquqbuzarlik va jinoyatga qo‘l urgan shaxslar orasida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etmoqda.

Kiberjinoyatlarning nazariy asoslari va tasnifi

Kiberjinoyatlarning tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari

Kiberjinoyatlar deganda kompyuter tizimlari, tarmoqlari va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan qonunga xilof harakatlar tushuniladi. Kiberjinoyatlarning an’anaviy jinoyatlardan asosiy farqi ularning virtual makonda, geografik chegaralarsiz va yuqori texnologik vositalar yordamida sodir etilishidadir.

Respublikamizda virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyati 16-23 yosh oralig‘idagi o‘smir-yoshlar tomonidan sodir qilinmoqda. Bu ko‘rsatkich yoshlar orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari yuqori bo‘lsa-da, kiberxavfsizlik bilimlarining yetishmasligini ko‘rsatadi.

Kiberjinoyatlarning asosiy turlari va usullari

Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazining tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda kiberjinoyatlar asosan quyidagi usullar orqali sodir etilmoqda:

⇒ zararli havolalar va dasturlarni yuborish orqali bank kartasi yoki mobil qurilmaga nazorat qilish – 60 foiz;

⇒ turli firibgarlik sxemalari orqali bank kartasi va mobil ilovalardagi akkauntlarni boshqarishni tasdiqlovchi sms kodni olish – 16 foiz;

⇒ jismoniy shaxs nomidan onlayn kredit rasmiylashtirish – 4 foiz;

⇒ onlayn savdo platformalarida firibgarlik – 11 foiz;

⇒ turli firibgarlik sxemalari orqali fuqarolarning mablag‘larini talash – 9 foiz.

2021-2024-yillar davomida kiberjinoyatlar natijasida fuqarolardan 1,909 trillion so‘m *(148,9 million dollar)*dan ziyod mablag‘ o‘g‘irlangan, shundan faqat 2024-yilda 603 milliard so‘m *(47,3 million dollar)* zarar yetkazilgan. Ushbu jinoyatlarning 97,7-98 foizi plastik kartalarga bog‘liq bo‘lib, kiber o‘g‘irlik va internet firibgarligi orqali sodir etilgan.

INVESTITSIYA FIRIBGARLIGINING ZAMONAVIY TURLARI

Ponsi sxemasi *(Ponzi Scheme)*

Ponsi sxemasi – bu yangi sarmoyadorlardan tushgan mablag‘lar avvalgi sarmoyadorlarga to‘lanadigan firibgarlik tizimidir. Ushbu sxema nomini 1920 yillardagi italiyalik firibgar Charlz Ponzi nomidan olgan bo‘lib, u investorlarga pochta kuponlari savdosi orqali 50 foiz daromad kafolatlaydi deb va’da bergan edi.

Xalqaro statistikaga ko‘ra, 2024-yilda AQShda iste’molchilar firibgarlikdan jami 12,5 milliard dollar yo‘qotishgan, shundan investitsiya aldovlari 5,7 milliard dollarni *(oldingi yilga nisbatan 25 foiz ko‘p)* tashkil etgan. Eng mashhur misol – Berni Madoffning qariyb 20 yil davom etgan sxemasi bo‘lib, u investorlarni milliardlab dollarga aldagan.

“Ponsi” sxemasining belgilari:

⇛ kafolatlangan foyda va’dalari;
⇛ hech qanday tavakalchilik yo‘q deb da’vo qilish;
⇛ cheklanmagan daromad imkoniyatlari;
⇛ haqiqiy investitsiya yo‘q, faqat pul aylantiriladi.

Piramida sxemasi *(Pyramid Scheme)*

Piramida sxemasi Ponsi sxemasiga o‘xshash bo‘lsa-da, uning strukturasi biroz farq qiladi. Bu sxemada yangidan qo‘shilgan sarmoyadorlardan tushgan mablag‘lar yuqori darajadagi a’zolarga to‘lanadi va har bir yangi ishtirokchi yangi odamlarni jalb qilishi kerak.

Buyuk Britaniya Harakat firibgarligi (Action Fraud) markazi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda piramida va Ponsi sxemalari haqidagi xabarlar soni 27 foizga oshgan. Politsiyaning ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi uch yil davomida piramida va Ponsi sxemalaridan jami 450 million funt sterlingdan ortiq zarar yetkazilgan.

Piramida sxemasining belgilari:

⇛ haqiqiy mahsulot yo‘q;

⇒ faqat odam jalb qilish orqali daromad va’da qilinadi;
⇒ ko‘p darajali marketing (MLM) strukturasi;
⇒ yangi ishtirokchilarni topish uchun ko‘p miqdordagi referal to‘lovlar.

Kriptovalyuta firibgarligi

Kriptovalyuta texnologiyalarinig rivojlanishi bilan firibgarlar yangi imkoniyatlarga ega bo‘ldilar. 2024 yilda AQSh Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) NovaTech kompaniyasiga qarshi da’vo qo‘zg‘atib, ularning kriptovalyuta piramida sxemasi orqali butun dunyo bo‘ylab 200 000 dan ortiq investorlardan qariyb 650 million dollar to‘plaganliklarini aniqlagan.

Kriptovalyuta firibgarligining asosiy turlari:

⇒ feik ICO (Initial Coin Offering) loyihalari;
⇒ qalbaki kriptovalyuta birjalari;
⇒ avtomatik savdo botlari yolg‘oni;
⇒ kriptomayning firibgarligi.

Fishing *(Phishing)* va shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash

Fishing – bu firibgarlar sarmoyadorlarning shaxsiy ma’lumotlarini (bank kartalari, hisob parollari) o‘g‘irlab, mablag‘larini tortib olishidir. Bu usul orqali 2024 yilda O‘zbekistonda kiberhujumlarning katta qismi amalga oshirilgan.

Fishingning belgilari: yolg‘on veb-saytlar, elektron pochta orqali aldab o‘tkaziladigan xabarlar, zararli havolalar yuborish, rasmiy bank yoki davlat organlari nomidan qilingan qalbaki so‘rovlar.

KIBERJINOYATLARGA QARSHI XALQARO TAJRIBA

Singapur Respublikasining kompleks yondashuvi

Singapurkiberjinoyatlargaqarshikurashishdayetakchidavlatlardan biri bo‘lib, 2016-yilda Milliy Kiberjinoyatlarga qarshi harakat rejasini ishlab chiqqan. Ushbu reja to‘rt asosiy ustunga asoslangan: aholini ta’lim berish, kurashish salohiyatini oshirish, qonunchilik bazasini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Singapur politsiyasining Kiberjinoyatchilik bo‘limi profilaktika ishlarini jamiyatning turli zaif guruhlari uchun moslangan tarzda olib boradi. SG Cyber Safe dasturi orqali xususiy sektor uchun kiberxavfsizlik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha treninglar tashkil etiladi. Singapur

ASEAN Kiberjinoyatchilik bo‘yicha ko‘chiruvchi davlat sifatida ASEAN tashabbuslarini fasilitatsiya qiladi va eng yaxshi amaliyotlarni ulashishga qaratilgan bir necha ASEAN Plyus Uch kiberjinoyatchilik seminarlarini tashkil etadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining institutsional tizimi

AQShda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bir necha federal agentliklar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Davlat xavfsizligi departamenti, Adliya departamenti va Davlat departamenti o‘zaro hamkorlikda to‘rt yo‘nalishda faoliyat yuritadi: xalqaro hamkorlarga ma’lumot berish, xorijiy huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kiber treninglar o‘tkazish, texnik yordam ko‘rsatish va salohiyat qurish dasturlari.

AQSh Yashiriqa xizmati Elektron jinoyatlar bo‘yicha ishchi guruhlarini tashkil etgan bo‘lib, ular xalqaro kiberjinoyatchilarni, bank firibgarliklari, ma’lumotlar buzilishi va boshqa kompyuter bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va qidirishga qaratilgan. Immigratsiya va bojxona nazorati idorasining Kiberjinoyatlar markazi jinoyatlarga oid tergovlarni qo‘llab-quvvatlash uchun kompyuterga asoslangan texnik xizmatlar ko‘rsatadi.

Buyuk Britaniyaning tajribasi

Buyuk Britaniyada kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda Harakat firibgarligi *(Action Fraud)* markazi asosiy rol o‘ynaydi. 2024-yilda piramida va Ponsi sxemalari haqidagi xabarlar 27 foizga oshgan. Politsiya 4 083 ta piramida va Ponsi sxemalari haqidagi xabarlarni qabul qilgan, bu oldingi yildagi 3 220 tadan ko‘p.

Moliyaviy xizmatlar agentligi *(FCA)* litsenziyalangan brokerlar va investitsiya platformalari ro‘yxatini yuritadi va fuqarolarga onlayn investitsiya qilishdan oldin qattiq tekshiruvlar o‘tkazishni tavsiya qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasining targ‘ibot strategiyasi

Xitoy Xalq Respublikasi kiberxavfsizlik sohasida unikal yondashuvni amalga oshirmoqda. Davlat tashkilotlari bilan bir qatorda, milliy operatorlar va provayder tashkilotlari tomonidan doimiy targ‘ibot ishlari olib boriladi. “Din Dong” nomli multiplikatsion qahramon kiberxavfsizlik “ramzi” sifatida e’tirof qilingan bo‘lib, bu aholining, ayniqsa bolalar va o‘smirlarning, kiberxavfsizlik masalalariga qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘ZBEKISTON UCHUN KOMPLEKS TAVSIYALAR

Biometrik autentifikatsiya tizimini joriy etish

Bank kartalari bilan bog‘liq jinoyatlarning yuqori darajasi *(97,7 foiz)* biometrik autentifikatsiya tizimlarini joriy etishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Xalqaro tajriba, xususan 2024-2025 yillarda banklarning 40 foizi jismoniy biometriyani qo‘llaganligi, ushbu texnologiyaning samaradorligini isbotlaydi.

Taklif: Elektron to‘lov tashkilotlari va banklarning mobil ilovalariga akkauntni ilk bor rasmiylashtirishda hamda mavjud akkauntga boshqa qurilma orqali kirish jarayonida Face ID texnologiyasidan majburiy o‘tkazilishini joriy etish. Yuz biometrik tekshiruvi foydalanuvchilarni 2 soniyadan kam vaqt ichida 99 foiz aniqlik bilan autentifikatsiya qilish imkonini beradi.

Kutilayotgan natija: Ushbu turdagi jinoyatlar sodir etilishi barvaqt oldini olinadi, bank kartalariga ruxsatsiz kirish holatlari 60-70 foizga kamayadi.

Shaxsiy ma’lumotlarni berish uchun javobgarlik belgilash

Hozirgi vaqtda o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni *(plastik karta rekvizitlari, fuqarolik pasporti ma’lumotlari)* o‘zgaga taqdim etganlar uchun aniq javobgarlik belgilanmagan. Bu esa jinoyatchilar tomonidan ijtimoiy muhandislik usullari *(16 foiz holatlarda qo‘llaniladigan SMS kod olish)* orqali fuqarolarni ma’lumotlarini berish imkoniyatini yaratadi.

Taklif: O‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni o‘zga shaxsga taqdim etganlarga nisbatan ma’muriy javobgarlik choralarini Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritish. Bu fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi mas’uliyatini oshiradi.

Yoshlar orasida kiberxavfsizlik ta’limini rivojlantirish

16-23 yosh oralig‘idagi o‘smir-yoshlar virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyatini sodir etishlari ta’lim tizimiga kiberxavfsizlik fanlarini kiritishning zarurligini ko‘rsatadi. BMTning Inson xavfsizligi bo‘limining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda yoshlar, ayniqsa ta’lim yoki ish bilan band bo‘lmagan fuqarolar kiberjinoyatlarga nisbatan eng zaif guruhni tashkil etadi.

Taklif: Umumta’lim muassasalariga kiberxavfsizlik mavzularida o‘quv darsliklarni kiritish. Darsliklarda quyidagi mavzular qamrab olinishi kerak:

⇒ raqamli savodxonlik asoslari va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish;

⇒ fishing va ijtimoiy muhandislik hujumlarini aniqlash;

⇒ parollarni xavfsiz boshqarish va ikki faktorli autentifikatsiya;

⇒ ponsi, piramida va kriptovalyuta firibgarliklarini tushunish;

⇒ ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz muomala qilish.

Interaktiv axborot platformasini yaratish

AQShning “Center for Development of Security Excellence” vebsayti misolida ko‘rinib turganidek, interaktiv raqamli platformalar fuqarolarga kerakli ma’lumotlarni oson va qulay shaklda olish imkonini beradi.

Taklif: Respublika miqyosida interaktiv sozlama va menyulardan iborat bo‘lgan yagona veb-sayt yaratish. Platformada quyidagilar bo‘lishi lozim: sodir etilayotgan jinoyat fabulalarining tavsifi, savol-javob tarzidagi interaktiv testlar (quiz), ma’lumot plakatlari va bukletlar, videoroliklar, mutaxassislar bilan vebinarlar, “102” raqamiga qo‘ng‘iroq qilmasdan onlayn maslahat olish.

“Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish oyligi”ni tashkil etish

Xalqaro tajribada AQShning “Kiberxavfsizlik bo‘yicha ogohlik oyligi” (oktyabr oyi) muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu oylik davomida barcha o‘quv muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa tashkilotlarda keng ko‘lamli targ‘ibot tadbirlari o‘tkaziladi.

Taklif: Yilning bir oyini “Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish” oyligi deb belgilash va respublika darajasidagi barcha tashkilot, davlat organlari va xususiy sektor vakillari hamkorligida kompleks tadbirlar dasturini amalga oshirish.

Vizual identifikatsiya va targ‘ibot materiallarini yaratish

Xitoy tajribasi “Din Dong” animatsion ramzi yaratish orqali aholining kiberxavfsizlik masalalariga qiziqishini sezilarli darajada oshirganligini ko‘rsatadi.

Taklif: O‘zbekiston madaniyati elementlarini aks ettiruvchi animatsion kiberxavfsizlik ramzini ishlab chiqish va uni barcha targ‘ibot materiallarida, televizion eshittirishlarda va ta’lim dasturlarida qo‘llash.

Ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibotni kuchaytirish

Taklif: Televideniye va ommaviy axborot vositalarida kiberxavfsizlik bo‘yicha keng targ‘ibot ishlarini amalga oshirish. Aholi tomonidan

televizion ko‘p kuzatiladigan vaqtlarda videoroliklar namoyishini tashkil etish. Yirik telekanallarda kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus dasturlar ochish.

FUQAROLAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR

Investitsiya firibgarligidan himoyalanish qoidalari

Buyuk Britaniya va AQSh tajribasi ko‘rsatishicha, investitsiya firibgarligidan himoyalanish uchun avvalo investorlarning raqamli savodxonligi va firibgarlik belgilarini tan olish ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qoidalar:

⇒ har qanday sarmoya imkoniyatini tahlil qiling – kompaniya, platforma yoki fond haqida ma’lumot oling;

⇒ litsenziya va regulyatsiyani tekshiring – broker yoki investitsiya platformasining litsenziyasi borligini aniqlang;

⇒ juda yuqori foyda va’da qilgan platformalardan ehtiyot bo‘ling – haqiqiy investitsiyada 100 foiz kafolatlangan foyda yo‘q;

⇒ litsenziyali brokerlar va investitsiya platformalaridan foydalaning;

⇒ hisob ma’lumotlaringizni himoya qiling – ikki bosqichli autentifikatsiyani yoqing.

Kiber xavfsizlik bo‘yicha asosiy ko‘nikmalar

⇒ faqat rasmiy veb-saytlardan foydalaning;

⇒ yolg‘on elektron pochtalar va telegram guruhlariga aldanmang;

⇒ hech qanday broker sizdan shaxsiy ma’lumotlaringizni so‘ramaydi;

⇒ “bonus” yoki “to‘lov qilish uchun kartangizning raqamini yuboring” degan xabarlarga ishonmang;

⇒ notanish havolalarga bosmang va zararli dasturlarni yuklamang.

Firibgarlik qurboni bo‘lgan taqdirda choralar

Agar siz investitsiya firibgarligi yoki kiberjinoyat qurboni bo‘lgan bo‘lsangiz:

⇒ darhol bankingiz bilan bog‘lanib, mablag‘larni qaytarish choralarini ko‘ring;

⇒ ichki ishlar organlariga murojaat qiling *(“102” raqami)*;

⇒ agentlik organlariga shikoyat qiling *(O‘zbekistonda – kapital bozori agentligi)*;

⇒ firibgarlikni ijtimoiy tarmoqlarda oshkor qilish va boshqalarni ogohlantiring.

Kiberjinoyatlarga qarshi barvaqt profilaktika zamonaviy jamiyatning eng dolzarb vazifalaridan biridir. O‘zbekistonda kiberjinoyatlar sonining 2019-2024-yillarda 68 barobarga, so‘nggi uch yilda 8,3 barobarga oshganligi va ulardan kelgan iqtisodiy zararning kattaligi *(jami 1,909 trillion so‘m)* kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, 16-23 yosh oralig‘idagi o‘smir-yoshlar virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyatini sodir etishlari raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik ta’limini rivojlantirishning muhimligini isbotlaydi. Investitsiya firibgarligining turli shakllari, jumladan Ponsi sxemasi, piramida sxemasi va kriptovalyuta aldovlarining keng tarqalishi xalqaro tajribani o‘rganish va qo‘llashning zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajriba tahlili, xususan Singapur, AQSh, Buyuk Britaniya va Xitoyning kiberjinoyatlarga qarshi kurashish dasturlari ko‘rsatishicha, profilaktika choralarining samaradorligini oshirish quyidagi yo‘nalishlarga ustuvor ahamiyat berishni talab qiladi:

⇛ biometrik autentifikatsiya, xususan face id texnologiyasini bank ilovalarida majburiy qilish orqali bank kartalari bilan bog‘liq jinoyatlar *(97,7 foiz)* sonini 60-70 foizga kamaytirish;

⇛ shaxsiy ma’lumotlarni o‘zgaga berish uchun javobgarlik belgilash orqali ijtimoiy muhandislik hujumlarini *(16 foiz holatlar)* kamaytirish;

⇛ ta’lim tizimiga kiberxavfsizlik fanlarini kiritish va yosh avlodni kibermakondagi xavflarga, jumladan ponsi, piramida va kriptovalyuta firibgarliklariga ongli ravishda qarshilik ko‘rsatishgaa tayyorlash;

⇛ interaktiv axborot platformasi yaratish va aholiga fuqarolik jinoyatlari haqida onlayn maslahat berish imkoniyatini ta’minlash;

⇛ davlat-xususiy sheriklik asosida yillik “kiberjinoyatlarga qarshi kurashish oyligi”ni tashkil etish va barcha davlat organlari, ta’lim muassasalari hamda xususiy sektor vakillarini jalb qilish;

⇛ xitoy tajribasidan kelib chiqib, animatsion kiberxavfsizlik ramzi yaratish orqali jamoatchilik ongini, ayniqsa bolalar va o‘smirlar orasida kiberxavfsizlikka qiziqishni oshirsh;

⇛ ommaviy axborot vositalari, jumladan televizion eshittirishlar orqali targ‘ibot ishlarini kuchaytirish va aqshning “itprotv” kabi maxsus telekanallar yaratish imkoniyatlarini o‘rganish.

Singapur, AQSh, Buyuk Britaniya va Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda hukumat tashkilotlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi faol hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida ushbu hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro tajribani milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda qo‘llash barvaqt profilaktikaning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish – bu nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki butun jamiyatning vazifasi. Faqat kompleks yondashuv, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish, xalqaro hamkorlik va barcha tomonlarning faol ishtiroki bilangina raqamli makonning xavfsiz va ishonchli muhitini yaratish, jamiyatimizni yangi turdagi kiberjinoyatlardan himoya qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 apreldagi “Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Creating a Safe Cyberspace by Combating Cybercrime. Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. 2025. URL: https://gov.uz/en/iiv/news/view/52319

3. Cybercrimes in Uzbekistan increase 68-fold in five years. Gazeta.uz. May 31, 2025. URL: https://www.gazeta.uz/en/2025/05/31/cybercrime/

4. National Cybercrime Action Plan (NCAP). Ministry of Home Affairs Singapore, 2016. URL: https://www.mha.gov.sg/docs/default-source/media-room-doc/ncap-document.pdf

5. Global Programme on Cybercrime. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). 2024. URL: https://www.unodc.org/unodc/en/cybercrime/home.html

6. Combatting Cyber Crime. Cybersecurity and Infrastructure Security Agency (CISA). USA, 2024. URL: https://www.cisa.gov/combatting-cyber-crime

7. High Numbers of Smaller Investors Hit by Ponzi & Pyramid Schemes, Costing Brits Millions. TLW Solicitors, September 4, 2024.

URL: https://www.tlwsolicitors.co.uk/2024/09/04/investment-scams/
8. What is a Ponzi Scheme? EisnerAmper, November 10, 2025. URL: https://www.eisneramper.com/insights/litigation-services/ponzi-schemes-1115/
9. Crypto Ponzi Schemes Surge: How to Spot and Report Fraud. National Law Review, 2024. URL: https://natlawreview.com/article/how-report-crypto-ponzi-scheme-and-earn-sec-whistleblower-award
10. Biometrics in Banking: Facial Recognition for App Security. EPAM Startups & SMBs, March 11, 2024. URL: https://startups.epam.com/blog/biometric-in-banking
11. Strengthening Resilience of Youth to Cybercrime and Digital Violence in Uzbekistan. UN Human Security Programme, May 3, 2025. URL: https://www.un.org/humansecurity/hsprogramme/strengthening-resilience-of-youth-to-cybercrime-and-digital-violence-in-uzbekistan/
12. Public-private partnerships on cybercrime. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), 2024. URL: https://www.unodc.org/documents/NGO/PDF/CSU-CyberCrime-240807-WEB.pdf.

KIBERJINOYATLARGA QARSHI BARVAQT PROFILAKTIKA: O‘ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA

Jo‘rayev Alimardon To‘ymurodovich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi, mayor

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyatlar sonining 2019-2024 yillarda **68 barobarga** oshganligi, 2024-yilda jami jinoyatlar ichida ularning ulushi **44,4 foizga** yetganligi tahlil qilingan. Xalqaro tajriba, xususan **Singapur, AQSh va Xitoy Xalq Respublikasining** kiberjinoyatlarga qarshi kurashish dasturlari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston sharoitida barvaqt profilaktika samaradorligini oshirish yuzasidan amaliy takliflar, jumladan, biometrik autentifikatsiya joriy etish, kiberxavfsizlik ta’limini rivojlantirish, interaktiv axborot platformalari yaratish va keng qamrovli targ‘ibot tadbirlari tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berish dolzarb vazifalardan biri bo‘lmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kompleks yondashuv asosida jamiyatning barcha qatlamlarini jalb qilgan holda amalga oshirilgan profilaktika choralari kiberjinoyatlar darajasini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: *kiberjinoyatlar, barvaqt profilaktika, biometrik autentifikatsiya, kiberxavfsizlik ta’limi, raqamli savodxonlik, kibermakon xavfsizligi, bank kartalari firibgarlik, Face ID texnologiyasi.*

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamlashuv jarayonlarining keng qamrovli bo‘lishi, bir tomondan, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ko‘plab imkoniyatlar yaratsa, ikkinchi tomondan, jinoyatchilikning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Kiberjinoyatlar bugungi kunda global xavfsizlikka tahdid solayotgan muhim muammolaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu muammo tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Tahlillarga o‘ra, 2019-2024-yillar davomida kiberjinoyatlar soni **68 barobarga,** faqat 2023-yilga nisbatan 2024-yilda esa **9,1 barobarga** oshgan. Agar 2019 yilda **18** toifada **863 ta** jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich **62** toifada **58 800 taga** yetdi. Jami

jinoyatlar ichida kiberjinoyatlar ulushi 2023-yilda **6,2 foizni** tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda **44,4 foizga** ko‘tarildi, ya’ni deyarli har ikkinchi jinoyat axborot texnologiyalari vositasida sodir etilmoqda.

2021-2024 yillar davomida kiberjinoyatlar natijasida fuqarolardan 1,909 trillion so‘m *(148,9 million dollar)*dan ziyod mablag‘ o‘g‘irlangan, shundan faqat 2024 yilda 603 milliard so‘m *(47,3 million dollar)* zarar yetkazilgan. Ushbu jinoyatlarning **98 foizi** plastik kartalarga bog‘liq bo‘lib, kiber o‘g‘irlik va internet firibgarlik orqali sodir etilgan.

Bunday holat barvaqt profilaktika choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston va xalqaro tajriba asosida kiberjinoyatlarga qarshi barvaqt profilaktika choralarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Kiberjinoyatlar muammosining nazariy va amaliy jihatlari.

Kiberjinoyatlar deganda kompyuter tizimlari, tarmoqlari va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan qonunga xilof harakatlar tushuniladi. Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazining tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonda kiberjinoyatlar asosan quyidagi usullar orqali sodir etilmoqda. Jumladan:

⌘ *zararli havolalar va dasturlarni yuborish orqali bank kartasi yoki mobil qurilmaga nazorat qilish* – ***60 foiz;***

⌘ *turli firibgarlik sxemalari orqali bank kartasi va mobil ilovalardagi akkauntlarni boshqarishni tasdiqlovchi SMS kodni olish* – ***16 foiz;***

⌘ *jismoniy shaxs nomidan onlayn kredit rasmiylashtirish* – ***4 foiz;***

⌘ *onlayn savdo platformalarida firibgarlik* – ***11 foiz;***

⌘ *turli firibgarlik sxemalari orqali fuqarolarning mablag‘larini talash* – ***9 foiz.***

2024-yilda Kiberxavfsizlik markazi tomonidan 12 milliondan ortiq kibertahdid urinishlari qayd etilgan bo‘lib, bu 2023-yildagi 11 million nisbatan oshganligini ko‘rsatadi. Firibgarlik holatlari 34 foizga oshgan, firibgarlik bilan bog‘liq shikoyatlarning **35 foizi** plastik kartalar bilan bog‘liq aldovlarga tegishli bo‘lmoqda.

Kiberjinoyatlarning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari.

Kiberjinoyatlarning iqtisodiy zarari faqat bevosita moliyaviy yo‘qotishlar bilan cheklanib qolmaydi. Special Eurasia analitik tashkilotining bahosiga ko‘ra, kiberjinoyatlarning keng tarqalishi O‘zbekistonning ichki

xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va kengroq ma’noda modernizatsiya maqsadlariga tahdid solmoqda.

Jahon miqyosida kiberjinoyatlardan yillik zarar 2024 yilda **11,4 trillion dollarga** yetgan va 2030-yilga kelib **25,8 trillion dollarga** yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ko‘rsatkich raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan bir qatorda, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish strategiyalarini doimiy takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy jihatdan kiberjinoyatlar fuqarolarning raqamli xizmatlarga ishonchini pasaytiradi, raqamli inklyuziyaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va aholining elektron xizmatlardan foydalanishdan voz kechishiga olib keladi.

BMTning Inson xavfsizligi bo‘limining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda yoshlar, ayniqsa ta’lim yoki ish bilan band bo‘lmagan **14-30 yoshdagi** fuqarolar kiberjinoyatlarga nisbatan eng zaif guruhni tashkil etadi.

Kiberjinoyatlarga qarshi xalqaro tajriba.

Singapurda kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda yetakchi davlatlardan biri bo‘lib, 2016 yilda Milliy Kiberjinoyatlarga qarshi harakat rejasini *(National Cybercrime Action Plan – NCAP)* ishlab chiqqan. Ushbu reja to‘rt asosiy ustunga asoslangan. Xususan:

⌘ *aholini kibermakonda xavfsiz qolish bo‘yicha ta’lim berish va ularga imkoniyatlar yaratish;*

⌘ *kiberjinoyatlarga qarshi kurashish salohiyatini oshirish;*

⌘ *qonunchilik bazasini mustahkamlash;*

⌘ *xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.*

Singapur politsiyasining Kiberjinoyatchilik bo‘limi profilaktika ishlarini jamiyatning turli zaif guruhlari uchun moslangan tarzda olib boradi. Bunda kiberxavfsizlik xabardorligini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar, jumladan, SG Cyber Safe dasturi, xususiy sektor uchun kiberxavfsizlik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha treninglar tashkil etiladi.

AQShning kiberjinoyatlarga qarshi kompleks yondashuvi.

AQShda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bir necha federal agentliklar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Davlat xavfsizligi departamenti *(Department of Homeland Security – DHS)*, Adliya departamenti va Davlat departamenti o‘zaro hamkorlikda xalqaro sheriklar bilan axborot almashinadi va xorijiy huquqni muhofaza qiluvchi organlarga treninglar o‘tkazadi.

AQSh Kiberxavfsizlik va infratuzilma xavfsizligi agentligi *(CISA)* tomonidan yuqori ta'sirchan jinoiy tergovlar olib borish, texnik mutaxassislarni tayyorlash, standartlashtirilgan usullarni ishlab chiqish va kiber hujumlarga javob berish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar va vositalarni keng miqyosda ulashish yo'lga qo'yilgan. AQSh Yashiriqa xizmati *(U.S. Secret Service)* Elektron jinoyatlar bo'yicha ishchi guruhlarini tashkil etgan bo'lib, ular xalqaro kiberjinoyatchilarni aniqlash va qidirishga qaratilgan.

Xitoy Xalq Respublikasining targ'ibot tajribasi.

Xitoy Xalq Respublikasi kiberxavfsizlik sohasida unikal yondashuvni amalga oshirmoqda. Davlat tashkilotlari bilan bir qatorda, milliy operatorlar va provayder tashkilotlari tomonidan doimiy targ'ibot ishlari olib boriladi. Ahamiyatli jihati shundaki, "Din Dong" nomli multiplikatsion qahramon kiberxavfsizlik "ramzi" sifatida e'tirof qilingan bo'lib, bu aholining, ayniqsa yoshlarning, kiberxavfsizlik masalalariga qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning hamkorligi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi idorasi (UNODC) tomonidan ishlab chiqilgan Kiberjinoyatchilikka qarshi global dastur to'rt asosiy ustunga asoslangan: **huquqiy baza, salohiyatni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik va profilaktika.**

Dastur hukumatlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, prokurorlar, sudyalar, raqamli kriminalistika mutaxassislari va fuqarolik jamiyati vakillarini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston uchun tavsiyalar va takomillashtirish choralari.

Bank kartalari bilan bog'liq jinoyatlarning yuqori darajasi **98 foiz** bo'lib, biometrik autentifikatsiya tizimlarini joriy etishning dolzarbligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba, xususan 2024-2025 yillarda banklarning **40 foizi** jismoniy biometriyani qo'llaganligi, ushbu texnologiyaning samaradorligini isbotlaydi.

Elektron to'lov tashkilotlari va banklarning mobil ilovalariga akkauntni ilk bor rasmiylashtirishda hamda mavjud akkauntga boshqa qurilma orqali kirish jarayonida Face ID texnologiyasidan majburiy o'tkazilishini joriy etish zarur. Bu tizim yuzning alohida xususiyatlarini tahlil qilgan holda raqamli tasvir yaratadi va texnologiyalari bilan birgalikda ishlaydi, bu esa fotosurat, video orqali aldashning oldini oladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, yuz biometrik tekshiruvi foydalanuvchilarni 2 soniyadan kam vaqt ichida **99 foiz** aniqlik bilan autentifikatsiya qilish imkonini beradi. Biroq, biometrik ma’lumotlar Yevropa Ittifoqining va AQShning BIPA standartlariga muvofiq **“sezgir axborot”** sifatida kvalifikatsiya qilinadi, shuning uchun foydalanuvchilarning aniq roziligini olish va xavfsiz saqlash zarur.

Shaxsiy ma’lumotlarni berish uchun javobgarlikni belgilash.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni *(plastik karta rekvizitlari, fuqarolik pasporti ma’lumotlari)* o‘zgaga taqdim etganlar uchun aniq javobgarlik belgilanmagan. Bu esa jinoyatchilar tomonidan ijtimoiy muhandislik usullari orqali fuqarolarni ma’lumotlarini ko‘chirmasiga oshiq yoki bexabar holda berish imkoniyatini yaratadi.

O‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni o‘zga shaxsga taqdim etganlarga nisbatan ma’muriy javobgarlik choralarini Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritish lozim. Bu chora fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi mas’uliyatini oshiradi va ijtimoiy muhandislik hujumlarining samaradorligini kamaytiradi.

Kiberxavfsizlik ta’limini rivojlantirish.

Yoshlar orasida kiberxavfsizlik bilimlarining yetishmasligi BMT tomonidan ta’kidlangan muhim muammolardan biri. Ta’lim tizimiga kiberxavfsizlik fanlarini kiritish uzoq muddatli profilaktika strategiyasining asosiy qismi hisoblanadi.

Toshkent shahri umumta’lim muassasalariga kiberxavfsizlik mavzularida o‘quv darsliklarni kiritish va boshqa viloyatlarga kengaytirish lozim.

Darsliklarda quyidagi mavzular qamrab olinishi kerak: *raqamli savodxonlik asoslari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, fishing va ijtimoiy muhandislik hujumlarini aniqlash, parollarni xavfsiz boshqarish, ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz muomala qilish* muhim ahamiyatga ega.

Bu orqali, voyaga yetmagan shaxslar orasida kiberjinoyatlarga qarshi immunitet shakllantirish, raqamli savodxonlik darajasini oshirish va kelajak avlodni kibermakondagi xavflarga ongli ravishda qarshilik ko‘rsatishga tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Interaktiv axborot platformasini yaratish.

Aholiga kiberxavfsizlik bo‘yicha axborot yetkazishning samarador usuli – interaktiv raqamli platforma yaratish muhim bo‘lmoqda. AQShda ishlab chiqilgan “Center for Development of Security Excellence”

vebsayti misolida ko‘rinib turganidek, bunday platformalar fuqarolarga kerakli ma’lumotlarni oson va qulay shaklda olish imkonini beradi.

Respublika miqyosida interaktiv sozlama va menyulardan iborat bo‘lgan, axborot texnologiyalari bo‘yicha yagona veb-saytni ishga tushirish. Platformada quyidagilar aks etishi lozim: *sodir etilayotgan jinoyat fabulalarining tavsifi va ulardan qutulish yo‘llari; turli ko‘rinishdagi savol-javob tarzidagi interaktiv o‘yinlar (quiz); ma’lumot plakatlari, flaer va bukletlar; dasturlashgan uchrashuv va brifinglar videoyozuvlari; ta’lim videoroliklari; mutaxassislar bilan o‘tkazilgan vebinar va konferensiyalar arxivi*, bu orqali “102” raqamiga qo‘ng‘iroq qilmasdan onlayn maslahat olish imkonini beradi.

“Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish oyligi”ni tashkil etish.

Xalqaro tajribada, jumladan **AQShda “Kiberxavfsizlik bo‘yicha ogohlik oyligi”** muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu oylik davomida barcha o‘quv muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa tashkilotlarda keng ko‘lamli targ‘ibot tadbirlari, seminar va treninglar o‘tkaziladi.

Yilning bir oyini **“Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish”** oyligi deb belgilash va respublika darajasidagi barcha tashkilot, davlat organlari va xususiy sektor vakillari hamkorligida kompleks tadbirlar dasturini amalga oshirish lozim. Bunga davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan konferensiyalar, treninglar, yarmarkalar, tanlovlar, televizion eshittirishlar va ommaviy aksiyalar kiritilishi mumkin.

Animatsion ramz va targ‘ibot materiallarini yaratish.

Xitoy tajribasi ko‘rsatganidek, “Din Dong” kabi animatsion kiberxavfsizlik ramzi yaratish aholining, ayniqsa bolalar va o‘smirlarning, mavzuga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Vizual identifikatsiya kiberxavfsizlik xabardorligini tan olingan va esda qoladigan qiladi.

Bu borada, O‘zbekiston madaniyati elementlarini o‘zida aks ettiruvchi kiberxavfsizlikni e’tirof etuvchi animatsion ramzni ishlab chiqish va uni barcha targ‘ibot materiallarida, ijtimoiy tarmoqlarda, televizion eshittirishlarda va ta’lim dasturlarida qo‘llash lozim.

Ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot kuchaytirish.

Televideniya va boshqa ommaviy axborot vositalari kiberjinoyatlarga qarshi profilaktika ishlarida muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro tajribada AQShning “ITPROTV” kabi maxsus telekanallari mavjud bo‘lib, ular kiberxavfsizlik mavzulariga bag‘ishlangan.

Televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida kiberxavfsizlik sohasi to‘g‘risida keng targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, aholi tomonidan televiziya ko‘p kuzatiladigan vaqtlarda *(kechki soat 18:00-21:00)* kiberxavfsizlik videoroliklari namoyishini tashkil etish. Yirik telekanallarda kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus dasturlar va haftalik rubrikalar ochish lozim.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatlarga qarshi barvaqt profilaktika zamonaviy jamiyatning eng dolzarb vazifalaridan biridir. O‘zbekistonda kiberjinoyatlar sonining 2019-2024 yillarda **68 barobarga** oshganligi va ulardan kelgan iqtisodiy zararning kattaligi kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, profilaktika choralarining samaradorligini oshirishda quyidagi yo‘nalishlarga ustuvor ahamiyat berish zarur:

⌘ biometrik autentifikatsiya, xususan Face ID texnologiyasini bank ilovalarida majburiy qilish orqali bank kartalari bilan bog‘liq jinoyatlar sonini kamaytirish;

⌘ ta’lim tizimiga kiberxavfsizlik fanlarini kiritish va yosh avlodni kibermakondagi xavflarga ongli ravishda qarshilik ko‘rsatishga tayyorlash;

⌘ aholi uchun qulay va interaktiv axborot platformasi yaratish;

⌘ davlat-xususiy sheriklik asosida yillik “Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish oyligi”ni tashkil etish;

⌘ vizual identifikatsiya vositalari, jumladan animatsion ramz yaratish orqali jamoatchilik ongini oshirish;

⌘ ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarini kuchaytirish.

Singapur, AQSh va Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda hukumat tashkilotlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi faol hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida ushbu hamkorlikni rivojlantirish va xalqaro tajribani milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda qo‘llash barvaqt profilaktikaning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish – bu nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki butun jamiyatning vazifasi. Bunga faqat kompleks yondashuv va barcha tomonlarning faol ishtiroki bilangina **raqamli makonning xavfsiz va ishonchli muhitini yaratish** mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi “Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. Creating a Safe Cyberspace by Combating Cybercrime. Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. 2025. URL: https://gov.uz/en/iiv/news/view/52319

3. Cybercrimes in Uzbekistan increase 68-fold in five years. Gazeta.uz. May 31, 2025. URL: https://www.gazeta.uz/en/2025/05/31/cybercrime/

4. National Cybercrime Action Plan (NCAP). Ministry of Home Affairs Singapore, 2016. URL: https://www.mha.gov.sg/docs/default-source/media-room-doc/ncap-document.pdf

5. Global Programme on Cybercrime. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). 2024. URL: https://www.unodc.org/unodc/en/cybercrime/home.html

6. Combatting Cyber Crime. Cybersecurity and Infrastructure Security Agency (CISA). USA, 2024. URL: https://www.cisa.gov/combatting-cyber-crime

7. Global Cybercrime: Federal Agency Efforts to Address International Partners’ Capacity to Combat Crime. U.S. Government Accountability Office (GAO), 2023. Report GAO-23-104768.

8. Biometrics in Banking: Facial Recognition for App Security. EPAM Startups & SMBs, March 11, 2024. URL: https://startups.epam.com/blog/biometric-in-banking

9. Consider facial biometrics as a cornerstone of banking security. Bank Administration Institute (BAI), February 7, 2024. URL: https://www.bai.org/banking-strategies/consider-facial-biometrics-as-a-cornerstone-of-banking-security/

10. Strengthening Resilience of Youth to Cybercrime and Digital Violence in Uzbekistan. UN Human Security Programme, May 3, 2025. URL: https://www.un.org/humansecurity/hsprogramme/strengthening-resilience-of-youth-to-cybercrime-and-digital-violence-in-uzbekistan/

11. Rising Cybercrime Alarms Uzbekistan’s National Security. Special Eurasia, June 3, 2025. URL: https://www.specialeurasia.com/2025/06/03/cybercrimes-uzbekistans/

12. Public-private partnerships on cybercrime. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), 2024. URL: https://www.unodc.org/documents/NGO/PDF/CSU-CyberCrime-240807-WEB.pdf

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASI KONTEKSTIDA KIBERJINOYATCHILIK: TAHDIDLAR VA QARSHI KURASH MEXANIZMLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Kaxarova Nilufar Rajab qizi

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ijtimoiy munosabatlarning raqamlashtirilishi va aholining transmilliy harakatchanligi ortib borayotgan sharoitda mehnat migrantlari orasida kiberjinoyatchilik muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardan bandlik, muloqot hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadlarida faol foydalanayotgan ayol migrantlar kiber makondagi jinoyatchilikning yangi shakllari oldida eng zaif ijtimoiy guruhlardan biriga aylanmoqda. Mazkur maqolada ayollar migratsiyasi kontekstida kiberjinoyatchilikning sotsiologik jihatlari ko‘rib chiqilib, raqamli tahdidlarning asosiy shakllari, ijtimoiy va strukturaviy zaiflik omillari tahlil qilinadi, shuningdek migratsiya jarayonlarining gender xususiyatlarini hisobga olgan holda kiberjinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatchilik, ijtimoiy tarmoqlar, ayollar migratsiyasi, raqamli zaiflik, migratsiya sotsiologiyasi, gender tahlili, ijtimoiy nazorat.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi o‘zaro ijtimoiy munosabatlar xarakterini tubdan o‘zgartirib, ijtimoiy faollikning yangi makonlari – raqamli va virtual muhitlarni shakllantirdi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi, jumladan mehnat migrantlari uchun ham. Ayol migrantlar uchun raqamli onlayn kanallar ko‘pincha ish topish, oila bilan aloqani saqlash, axborot olish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhim manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqaro tashkilotlar Markaziy Osiyodan kelgan migrantlarga yo‘naltirilgan onlayn ishga jalb etish sxemalari va firibgarlik asosidagi ish takliflari soni ortib borayotganini qayd etmoqda.[1] Ayrim holatlarda bunday sxemalar majburiy ekspluatatsiya va “skam-markaz-

[1] https://kazakhstan.iom.int/news/central-asian-governments-unite-combat-online-recruitment-fraud-targeting-migrant-workers

lar”ni tashkil etish bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bu holat mintaqadagi ishchi kuchi donor mamlakatlari uchun ayniqsa, dolzarb hisoblanadi.

Biroq, imkoniyatlarning kengayishi bilan bir qatorda raqamli muhit kiberjinoyatchilik tarqalishi bilan bog‘liq yangi xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Firibgarlik, odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya, shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy yig‘ish va psixologik zo‘ravonlik holatlari tobora ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar va onlayn servislar orqali amalga oshirilmoqda.[2] Shu munosabat bilan kiberjinoyatchilikni aynan ayollar mehnat migratsiyasi kontekstida tahlil qilish alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi, chunki gender, migratsiya va raqamli omillarning kesishuvi murakkab ijtimoiy zaiflik maydonini shakllantiradi. Mazkur maqolaning maqsadi ayol migrantlar orasida kiberjinoyatchilikni sotsiologik tahlil qilish, raqamli tahdidlarning asosiy shakllari va omillarini aniqlash, shuningdek migratsiya jarayonlarining sotsiokulturniy va institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda profilaktika va qarshi kurashish yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari: Ayollar migratsiyasi sharoitida kiberjinoyatchilikning sotsiologik tahlili migratsiya nazariyalari, gender sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor sotsiologiyasini birlashtiruvchi fanlararo yondashuvga asoslanadi.

Migratsion tarmoqlar nazariyasi *(D. Massey, E. Li)* nuqtayi nazaridan ijtimoiy aloqalar va raqamli kommunikatsiyalar migratsiya oqimlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Migratsion tarmoqlar nazariyasiga ko‘ra, migratsiya migrantlar, ularning oilalari va qabul qiluvchi hamjamiyatlar o‘rtasidagi barqaror ijtimoiy aloqalar orqali qo‘llab-quvvatlanadi[3]. Raqamlashtirish sharoitida ushbu aloqalar tobora ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn platformalar orqali amalga oshirilmoqda. M. Kastels “tarmoqli jamiyat” sharoitida raqamli kommunikatsiyalar ijtimoiy integratsiyaning muhim mexanizmiga aylanishini, biroq bir aqtning o‘zida ijtimoiy risklarning yangi shakllarini ham yuzaga keltirishini ta’kidlaydi[4].

Mazkur tadqiqotda kiberjinoyatchilik ayol migrantlarning raqamli migratsion tarmoqlarga jalb etilganligining oqibati sifatida ko‘rib

[2] International Organization for Migration (IOM). World Migration Report. – Geneva, 2022.
[3] Lee, 1966; Massey et al., 1993
[4] Castells, 2010

chiqiladi, bunda ishonch va axborot asimmetriyasi jinoyatchi subyektlar tomonidan suiiste'mol qilinishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat moslashuv resursi, balki tahdidlarning qayta ishlab chiqarilishi kanali sifatida ham namoyon bo'ladi. Gender yondashuvi ayol migrantlar ko'pincha norasmiy bandlik sektorida va huquqiy nazorat cheklangan sharoitlarda faoliyat yuritishini belgilovchi strukturaviy tengsizliklarni aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy zaiflik va viktimizatsiya nazariyalari jinoyat qurboniga aylanish xavfi nafaqat individual xususiyatlar, balki, ijtimoiy mavqe, xabardorlik darajasi, huquqiy himoyalanganlik va institutsional resurslarga kirish imkoniyatlari bilan ham belgilanadi, degan g'oyani ilgari suradi. Raqamli makonda ushbu omillar yanada kuchayib, ayol migrantlarning "raqamli viktimligi" fenomenini shakllantiradi[5].

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida miqdoriy va sifat jihatdagi usullarni uyg'unlashtiruvchi "triangulyatsiya prinsipi" qo'llanildi. Bu yondashuv ayollar migratsiyasi sharoitida kiberjinoyatchilik fenomenini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot doirasida quyidagi usullardan foydalanildi:

- O'zbekistondan bo'lgan ayol mehnat migrantlari o'rtasida sotsiologik so'rov;
- Ayol migrantlar o`rtasida fokus-guruh muhokamalari;
- Ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan ishga joylashish bo'yicha raqamli e'lonlarning kontent-tahlili elementlari.

1-Jadval: Ayollar mehnat migratsiyasini o'rganishda triangulyatsion yondashuv darajalari

Triangulyatsiya turi	Metodlar	Tadqiqotda qo'llanish shakli	Ilmiy ahamiyati va natija
Metodik triangulyatsiya	Miqdoriy *(anketali so'rov)*, sifatli *(chuqur intervyu, kontent-tahlil)*	Miqdoriy so'rov orqali umumiy tendensiyalar aniqlandi; intervyu va kontent-tahlil yordamida shaxsiy tajriba, hissiy holat va madaniy omillar o'rganildi	Empirik natijalar o'zaro verifikatsiya qilinib, ishonchlilik oshirildi; subyektivlik kamaytirildi

5 Thomas W.I., Znaniecki F. The Polish Peasant in Europe and America. – Chicago: University of Chicago Press, 1918.

Nazariy triangulyatsiya	Migratsiya nazariyalari *(neoklassik, yangi iqtisodiy, tarmoq)*, gender sotsiologiyasi *(feministik, konstruktivizm, rollar nazariyasi)*	Migratsiya va gender nazariyalari integratsiyasi orqali ayollar migratsiyasi ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida tahlil qilindi	Ayollar migratsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qatlamlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida yoritildi
Ma’lumotlar triangulyatsiyasi	Rasmiy statistika, sotsiologik so‘rov, intervyu, media kontent tahlili	Turli hudud, yosh va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi ma’lumotlar solishtirilib, umumiy qonuniyatlar aniqlandi	Ma’lumotlarning reprezentativligi va natijalar ishonchliligi ta’minlandi

Empirik tadqiqot 2024–2025-yillarda o‘tkazilib, xorijda ishlash tajribasiga ega bo‘lgan yoki migratsiyaga tayyorgarlik bosqichida bo‘lgan O‘zbekistondan chiqqan ayol mehnat migrantlarini qamrab oldi. Tadqiqot doirasida 18 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan **N = 420 nafar ayol** o‘rtasida anketaviy so‘rov o‘tkazildi. So‘rov anonim tarzda onlayn shakl hamda yuzma-yuz intervyular orqali amalga oshirildi.

Anketa quyidagi masalalarni aniqlashga qaratilgan savollar bloklarini o‘z ichiga oldi:

- ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan foydalanish darajasi;
- kiberjinoyatchilik bilan to‘qnash kelish tajribasi;
- bo‘sh ish o‘rinlarini izlash kanallari;
- raqamli va huquqiy xabardorlik darajasi.

Fokus-guruh muhokamalari:

Qo‘shimcha ravishda har birida 8–10 nafar ishtirokchi bo‘lgan 4 ta fokus-guruh tashkil etildi, ular tarkibiga:

- muvaffaqiyatli migratsiya tajribasiga ega ayollar;
- aldov yoki ekspluatatsiyaga duch kelgan ayollar;
- potensial migrant ayollar *(xorijga chiqishga tayyorgarlik bosqichida bo‘lganlar)* kiritildi.

Fokus-guruh muhokamalari kiberjinoyatchilikning latent shakllarini aniqlash hamda ayollarning raqamli muhitdagi subyektiv xulq-atvor strategiyalarini chuqurroq tushunish imkonini berdi.

Empirik tadqiqot natijalari: So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 82%i xorijda ish topish bo‘yicha asosiy axborot manbai sifatida ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan foydalanadi. Eng ommabop platformalar **Telegram, Facebook va Instagram** hisoblanadi. Shu bilan birga, ayollarning atigi 29%i ish beruvchi haqidagi ma’lumotlarning ishonchliligini rasmiy manbalar orqali tekshiradi, bu esa norasmiy raqamli kanallarga bo‘lgan ishonch darajasining yuqoriligidan dalolat beradi.

So‘rov ma’lumotlariga ko‘ra: respondentlarning 41%i onlayn firibgarlik holatlariga *(soxta bo‘sh ish o‘rinlari, oldindan to‘lov talab qilinishi)* duch kelgan. **18%** respondentlar shantaj yoki psixologik bosim o‘tkazishga urinishlar haqida xabar bergan. **12%** esa shaxsiy ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish holatlariga duch kelgan.

Fokus-guruhlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab ayollar bunday vaziyatlarni jinoyat sifatida qabul qilmaydi, balki, ularni “omadsiz tajriba” yoki “migratsiyaning odatiy xatari” sifatida baholaydi. Sifatli ma’lumotlar tahlili ayol migrantlar ko‘proq quyidagi holatlarga duch kelishini aniqladi:

- yollash jarayonining ekspluatatsiyalashgan shakllari;
- yengil ish va yuqori daromad va’dalariga asoslangan manipulyatsiyalar;
- O‘zbekistondagi qarindoshlarga shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilish bilan tahdid qilish.

Jamoatchilik tomonidan qoralash va obro‘-e’tibor yo‘qotishdan qo‘rquv ayollarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishga bo‘lgan tayyorligini sezilarli darajada kamaytiradi.

Olingan ma’lumotlar ayollar migratsiyasi sharoitida kiberjinoyatchilik tizimli xarakterga ega ekanini va ayol migrantlarning ijtimoiy mavqei bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi. Raqamli muhit bir vaqtning o‘zida ham ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash funksiyasini, ham migratsiya jarayonlarining kriminallashuvi kanalini bajaradi. Migratsiyaga tayyorgarlik bosqichida yuzaga keladigan institutsional bo‘shliq

alohida ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shu davrda ayollar yetarli huquqiy va axborotiy yordam bo‘lmagan sharoitda raqamli makonda mustaqil ravishda yo‘l topishga majbur bo‘ladilar.

Ayol migrantlar muhitida kiberjinoyatchilik shakllari: Sotsiologik tahlil ayollar migratsiyasi uchun eng xos bo‘lgan kiberjinoyatchilikning bir nechta asosiy shakllarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Birinchidan, eng keng tarqalgan holatlardan biri bandlik sohasidagi onlayn firibgarlik hisoblanadi. Ayol migrantlar ko‘pincha yolg‘on ish e’lonlari, qalbaki agentliklar va yolg‘on shartnomalarga duch keladilar, bu esa moliyaviy yo‘qotishlar va mehnat ekspluatatsiyasiga olib keladi.

Ikkinchidan, odam savdosi va jinsiy ekspluatatsiyaning raqamli shakllari alohida xavf tug‘diradi. Ijtimoiy tarmoqlar yollash, ishonchli aloqalarni o‘rnatish va keyinchalik qurbonlar ustidan nazoratni amalga oshirish uchun foydalaniladi, bu esa jinoyatlarni an’anaviy usullar bilan aniqlashni qiyinlashtiradi.

Uchinchidan, raqamli zo‘ravonlik shakllari – tahdidlar, roziliksiz intim materiallarni tarqatish, kiberbulling keng tarqalgan. Ayol migrantlar uchun bunday zo‘ravonlik shakllari deportatsiya qo‘rquvi, stigmatizatsiya va qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi sababli yanada og‘irlashadi.

To‘rtinchidan, shaxsiy ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish holatlari kuzatiladi, jumladan hujjatlarni, bank ma’lumotlarini va akkauntlarga kirish huquqlarini o‘g‘irlash. Bu holatlar raqamli savodxonlik va huquqiy xabardorlik darajasining pastligi bilan bevosita bog‘liq.

Xulosa: Ayollar migratsiyasi kontekstida kiberjinoyatchilik raqamli, gender va migratsion jarayonlar kesishmasida shakllanadigan murakkab ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Ayol migrantlar kiber makonda eng zaif ijtimoiy guruhlardan biri bo‘lib, bu holat strukturaviy tengsizlik, huquqiy himoyaning cheklanganligi va raqamli kommunikatsiyalarga yuqori darajada bog‘liqlik bilan izohlanadi.

Sotsiologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash faqat texnik yoki jinoyat-huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ijtimoiy profilaktika, raqamli savodxonlikni oshirish, institutsional qo‘llab-quvvatlash hamda genderga yo‘naltirilgan himoya mexanizmlarini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan tizimli yondashuv zarur. Sifat va miqdoriy usullarga asoslangan keyingi empirik tadqiqotlar ayollar migratsiyasida kiberjinoyatchilikning ko‘lami va xususiyatlarini

yanada chuqurroq ochib berish hamda ijtimoiy javob choralarining yanada samarali strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну. – М.: Прогресс-Традиция, 2000.
2. Бойд М. Женщины и международная миграция // Гендерные исследования. – 2015. – № 2. – С. 45–60.
3. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – М.: ГУ ВШЭ, 2010.
4. Ли Э. Теория миграции: факторы “толкания” и “притяжения” // Социологические исследования. – 2006. – № 3. – С. 11–21.
5. Хиршман А. Выход, голос и лояльность. – М.: Новое издательство, 2009.
6. Thomas W.I., Znaniecki F. The Polish Peasant in Europe and America. – Chicago: University of Chicago Press, 1918.
7. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
8. Boyd D., Ellison N. Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship // Journal of Computer-Mediated Communication. – 2007. – Vol. 13*(1)*. – P. 210–230.
9. Wall D. Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age. – Cambridge: Polity Press, 2007.
10. UN Women. Gender and Migration. – New York: United Nations, 2020.
11. International Organization for Migration *(IOM)*. World Migration Report. – Geneva, 2022.
12. United Nations Office on Drugs and Crime *(UNODC)*. Cybercrime and Gender. – Vienna, 2021.
13. OECD. Women in the Digital Economy. – Paris, 2018.
14. Floridi L. The Ethics of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
15. European Union Agency for Fundamental Rights. Violence against Women: An EU-wide Survey. – Luxembourg, 2019.

HARAKATDAGI SHAXSNING YUZ QIYOFASI VA HARAKAT BURCHAKLARIDAN TANIB OLISH MUAMMO VA YECHIMLARI

Atoyev Lochinbek Azimovich

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi
O‘MIB tezkor vakili, mayor

Biometrik tanib olish tizimlari sohasida, harakatdagi shaxsning yuz qiyofasi va harakat burchaklaridan tanib olish muammosi muhim o‘rinni egallaydi. Bugungi kunda bu soha tez rivojlanmoqda va ishonchlilligi yuqori bo‘lgan tanish tizimlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Harakatdagi insonni avtomatik ravishda aniqlab olish va tanishning ahamiyati xavfsizlik, jinoyatchilik, monitoring, tibbiyyot va robototexnika kabi turli sohalarda ko‘rinib turmokda. Shu bilan birga, yuz ko‘rinishining o‘zgarishi, yorug‘lik shartlari, kiyin burchaklar, fon orqasi va panjaraning mavjudligi kabi ko‘pgina muammolar mavjud. Ushbu maqolada harakatdagi shaxsning yuz qiyofasi va harakat burchaklaridan tanib olishning muammolari va yechimlari xorijiy olimlar nazariyalari asosida tahlil qilinadi.

Harakatdagi shaxsni tanish tizimlari an’anaviy statik tanish tizimlariga nisbatan ko‘proq muammolarga duch keladi. Yuzning turli burchaklardagi ko‘rinishi, yorug‘lik sharoitining o‘zgarishi, moslashuvchan olgoritmlarni ishlab chiqish va vaqt o‘tishi bilan yuzning o‘zgarishi kabi omillar tizim ishonchlilligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, haqiqiy vaqtda ishlaydigan tizimlar uchun hisoblash resurslari cheklanganligi muammoni yanada murakkablashtirmokda.

Yuz qiyofasini tanib olishning asosiy muammolari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Yorug‘lik sharoitining o‘zgarishi. Yorug‘lik sharoitining o‘zgarishi yuz tanish tizimlari uchun eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shunni ko‘rsatadiki, bir xil shaxsning yuzi turli yorug‘lik sharoitlada tizim tomonidan turli, shaxslardek, qabul qilinishi mumkin. Yorug‘lik yo‘nalishi, intensivligi va rangining farq qilishi yuzning geometrik va tekstura xususiyatlarining aynishshaqligiga olib keladi.

Geometrik normalizatsiya va gistogramma tenglashtirish kabi usullar yorug‘lik sharoitining ta’sirini kamaytirish uchun keng qo‘llanilmokda. Ayniqsa, teran o‘rganish asosida ishlaydigan modellar turli yorug‘lik sharoitlarida samarali ishlash uchun moslashtirilgan. Bunday modellar keng mikyosdagi ma’lumotlar bazasida tayyorlangan bo‘lishi va turli yorug‘lik sharoitlarini o‘z ichiga olganligi lozim.

Harakat yo‘nalishining o‘zgarishi. Harakatdagi shaxsning yuzi turli burchaklarda ko‘rinishi mumkin, bu esa an’anaviy yuz tanish tizimlari uchun juda katta muammodir. Frontal *(old)* ko‘rinishda yuqori aniqlikka ega bo‘lgan tizimlar profayl *(yondoma)* ko‘rinishida ishlamasligi mumkin.

5D va 3D yuz modellari ko‘rinishlarning o‘zgarishi muammosini yechishda samarali usul hisoblanadi. Bu modellar orqali bir nechata ko‘rinishdan olingan ma’lumotlar birlashtirilib, yuzning uch o‘lchovli modeli yaratiladi. Shuningdek, poza invariant xususiyatlarni o‘rganish orqali turli burchaklardagi ko‘rinishlarda o‘xshash xususiyatlarni ajratib olish mumkin.

Vaqt o‘tishi bilan yuzning o‘zgarishi. Yuz ko‘rinishi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi - yosh oshishi, soqol o‘stirish, ko‘zoynak kiyish, makiyaj va boshqa omillar ta’sirida. Bu tanish tizimlarining ishonchlilligini uzok muddatda saqlab qolish uchun muhim muammo hisoblanadi.

Ko‘p muddatli yosh modeli va adaptiv o‘rganish usullari bu muammoni yechishda ko‘mak beradi. Tizim vaqt o‘tishi bilan yuzning o‘zgarishini hisobga olgan xolda, o‘z modellarini yanada takomillashtirib bora oladi. Transfer o‘rganish usullari esa bir vaqtda olingan ma’lumotlarni boshqa vaqt uchun moslashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, obyektni harakat burchaklaridan tanib olishning o‘ziga xos xususiyatlarini sanab o‘tish lozim. Harakat burchaklari inson harakatlarini taxlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Inson skeleti modellari orqali bugin burchaklarini aniqlab olish va ularni harakat namunalariga ko‘ra tasniflash imkoni mavjud. Bu esa insonning harakatini tanib olish va uning niyatini baholash imkonini beradi.

“OpenPose” va “AlphaPose” kabi keng tarqalgan vositalar inson buginlarini aniqlab olishda yuqori aniklikka ega. Bu vositalar orqali olingan ma’lumotlar insonning harakat namunalarini tasniflashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Rekurrent neyron tarmoqlari *(RNN)* va “Long Short-

Term Memory (LSTM)” arxitekturalari esa vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadigan harakat namunalarini o‘rganishda samarali usul hisoblanadi.

Harakat burchaklari faqat insonning jismoniy holatinigina emas, balki uning emotsional holati, xatto kasbiy faoliyati haqidagi ma’lumotlarni bera oladi. Masalan, churrada o‘tirish burchagi, qo‘l harakatlari, boshning egilgani kabi omillar orqali shaxsning niyati va kimligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tadqiqotlar shunni ko‘rsatadiki, harakat burchaklarini tahlil qilish orqali insonning kayfiyatini aniqlash mumkin. Masalan, depressiya holatida bo‘lgan shaxslarning yurishi va doimiy pozalari soglom odamlarga nisbatan farq qiladi. Xuddi shuningdek, yolg‘on gapirayotgan shaxsning noyorkin harakatlari uning so‘zlaridan farq qilishi mumkin.

Integrallangan tanib olish tizimlarini ham ko‘rib chiqish, ushbu mavzuning yana bir muhim tarkibi hisoblanadi.

Xususan, yuz va harakat ma’lumotlarini birlashtirish orqali tanib olish tizimlarining anikligi va ishonchlilligini oshirish mumkin. Ikkala usulning kuchli tomonlarini birlashtirib, yagona tanish tizimi yaratish mumkin. Bu esa, ayniqsa, murakkab sharoitlarda *(past sifatli suratlar, yopiq yuz ko‘rinishlari)* juda foydali.

Moslashgan og‘irlik usullari va kaskadli qaror qabul qilish tizimlari butun tizimning samaradorligini oshiradi. Masalan, avvalo yuz tanish tizimi ishga tushirilib, agar u ishonchli natija bermasa, harakat tanish tizimi faollashtirilishi mumkin. Bayessian tarmoqlari esa ikkita ma’lumot manbaidan kelgan natijalarni birlashtirib, yagona va ishonchli xulosa chiqarish imkonini beradi.

Vaqtincha tartibda integratsiya. Yuz va harakat ma’lumotlarini vaqtincha tartibda birlashtirish tanib olish tizimlarining ishonchlilligini yanada oshishiga olib keladi. Bu usulda fakat bir vaqtdagi ma’lumotlargina emas, balki vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadigan ketma-ket ma’lumotlar ham hisobga olinadi.

3D konvolyusiya neyron tarmoqlari vaqtincha tartibdagi ma’lumotlarni o‘rganishda juda samaralidir. Bu arxitektura kadrlar ketma-ketligidan fazoviy va vaqtincha xususiyatlarni o‘rganish imkonini beradi. Dvunapravlennыy LSTM arxitekturasi esa o‘tmish va kelajakdagi ma’lumotlarni bir vaqtda hisobga olish imkonini ta’minlaydi.

Bu borada xorijiy olimlar nazariyalari va tadqiqotlari bilan yaqindan tanishish lozim.

Teren o‘rganish asosidagi nazariyalar. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda teran o‘rganish usullari asosida yuz va harakat tanish tizimlarini ishlab chiqish alohida urniga ega. Konvolyusiya neyron tarmoqlari *(CNN)* yuzning murakkab xususiyatlarini o‘rganishda juda samarali bo‘lib, ular turli yorug‘lik sharoitlarida va pozalardagi yuzlarni tanish imkonini beradi.

“Generative Adversarial Networks *(GAN)*” modellari esa sintetik ma’lumotlar yaratish orqali tanish tizimlarini yanada takomillashtirish imkonini bermokda. Bu modellar orqali turli yorug‘lik sharoitlaridagi, burchaklardagi va yoshlardagi yuzlarni yaratib, tanish tizimlarini yanada keng mikyosdagi ma’lumotlar asosida tayyorlash mumkin.

Harakatdagi nishonlarni tanish nazariyasi. Harakatdagi nishonlarni tanish nazariyasiga ko‘ra, inson harakatlarining ayrim namunalari mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish orqali shaxsni tanib olish mumkin. Bu nazariya asosida ishlaydigan tizimlar insonning yurishi, qo‘l harakatlari, boshning egilishi kabi omillarni tahlil qilish orqali uni tanib oladi.

Markov modellari va yopiq Markov modellari bu nazariya asosida ishlaydigan tizimlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu modellar orqali harakat namunalarining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini modellashtirish va ularni tasniflash mumkin.

Muammolar va kelajakdagi yo‘nalishlar. Makbul ma’lumotlar yetishmasligi. Harakatdagi shaxsni tanish tizimlarini ishlab chiqishdagi eng katta muammolardan biri - maqbul ma’lumotlar yetishmasligidir. Teren o‘rganish modellarini tayyorlash uchun ko‘p mikyosda va sifatli ma’lumotlar zarur. Ammo, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qonunlari va maxfiylik talablari tufayli ma’lumotlar to‘plash qiyinlashmokda.

Bu muammoni yechish uchun sintetik ma’lumotlar generatsiyasi va transfer o‘rganish usullari taklif etilmokda. Sintetik ma’lumotlar orqali xaqiqiy dunyo sharoitiga o‘xshash, ammo shaxsiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olmagan ma’lumotlar bazasini yaratish mumkin. Transfer o‘rganish esa bir sohada tayyorlangan modelni boshqa sohaga moslashtirish imkonini beradi.

Hisoblash resurslari cheklanganligi. Haqiqiy vaqtda ishlaydigan tanish tizimlari uchun hisoblash resurslari cheklanganligi yanada

muhim muammo hisoblanadi. Yuqori aniklikdagi teran o‘rganish modellari ko‘pchilik hollarda yuqori darajadagi protsessor va GPU talab qiladi.

Bu muammoni yechish uchun model siqish, privilegirovan o‘rganish va samarali arxitekturalar taklif etilmokda. Model siqish usullari orqali katta modellarni sig‘adigan va tezrok ishlaydigan kichik modellarga aylantirish mumkin. Privilegirovan o‘rganish esa kichik modellarga katta modellarning bilimini o‘tkazish orqali ularning ishonchlilligini oshirish imkonini beradi.

Kelajakdagi yo‘nalishlar. Kelajakdagi tadqiqotlar ko‘p modalli tanish, federativ o‘rganish va tavsiyanaviy tizimlarga qaratilgan. Ko‘p modalli tanish tizimlari yuz, harakat, ovoz va boshqa biometrik ma’lumotlarni birlashtirib, yanada ishonchli tanish tizimlarini yaratish imkonini beradi.

Federativ o‘rganish esa ma’lumotlarni markazlashtirilgan xolda to‘plash, turli manbalardagi ma’lumotlarni o‘rganish imkonini ta’minlaydi. Bu esa maxfiylikni saqlab, katta mikyosdagi ma’lumotlarni o‘rganish imkonini beradi. Tavsiyanaviy tizimlar esa tanish tizimlarining noanik sharoitlarda ham to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Xulosa.

Harakatdagi shaxsning yuz qiyofasi va harakat burchaklaridan tanib olish muammosini yechish uchun turli usullar va texnologiyalar taklif etilgan. Yuz tanish tizimlari uchun yorug‘lik sharoitining o‘zgarishi, harakat burchaklarining farq qilishi va vaqt o‘tishi bilan yuzning o‘zgarishi kabi muammolarni yechish lozim. Harakat burchaklaridan tanib olish esa insonning jismoniy va emotsional holati haqida qimmatli ma’lumotlar bera oladi.

Ikkala usulni birlashtirish orqali yanada ishonchli tanish tizimlarini yaratish mumkin. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda teran o‘rganish, GAN modellari, vaqtincha taxlil usullari kabi ilg‘or usullar keng qo‘llanilmokda.

Kelajakdagi tadqiqotlar maqbul ma’lumotlar yetishmasligi, hisoblash resurslari cheklanganligi kabi muammolarni yechishga va ko‘p modalli tanish, federativ o‘rganish kabi yangi yo‘nalishlarga qaratilishi kutilmoqda. Bunday tadqiqotlarning natijasida harakatdagi

shaxsni tanib olish tizimlarining anikligi, ishonchlilligi va samaradorligi yanada oshishi kutilmokda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zhao, W., Chellappa, R., Phillips, P. J., & Rosenfeld, A. (2003). Face recognition: A literature survey. ACM Computing Surveys, 35(4), 399-458.

2. Jain, A. K., Ross, A., & Prabhakar, S. (2004). An introduction to biometric recognition. IEEE Transactions on Circuits and Systems for Video Technology, 14(1), 4-20.

3. Simonyan, K., & Zisserman, A. (2014). Two-stream convolutional networks for action recognition in videos. Advances in Neural Information Processing Systems, 1, 568-576.

4. Goodfellow, I., Pouget-Abadie, J., Mirza, M., Xu, B., Warde-Farley, D., Ozair, S., ... & Bengio, Y. (2014). Generative adversarial nets. Advances in Neural Information Processing Systems, 27.

5. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. N., ... & Polosukhin, I. (2017). Attention is all you need. Advances in Neural Information Processing Systems, 30.

6. Cao, Z., Hidalgo, G., Simon, T., Wei, S. E., & Sheikh, Y. (2018). OpenPose: realtime multi-person 2D pose estimation using Part Affinity Fields. IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence, 43(1), 172-186.

7. Carreira, J., & Zisserman, A. (2017). Quo vadis, action recognition? A new model and the kinetics dataset. Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition, 6299-6308.

8. Krizhevsky, A., Sutskever, I., & Hinton, G. E. (2012). ImageNet classification with deep convolutional neural networks. Advances in Neural Information Processing Systems, 25.

9. LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep learning. Nature, 521(7553), 436-444.

10. Redmon, J., Divvala, S., Girshick, R., & Farhadi, A. (2016). You only look once: Unified, real-time object detection. Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition, 779-788.

MUNDARIJA:

Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i, polkovnik *B.E. Berdialiyevning* kirish so‘zi 3

Sh.O. Azim. Kiberjinoyatchilikka qarshi axborot xavfsizligini ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlarni xalqaro huquq normalari asosida milliy qonunchilikni tartibga solish 5

O.M. Allanov., M.M. Murodov. Fuqarolar ma’lumotlarini himoya qilishda kiberxavfsizlikni ta’minlash va kriptoaktivlardan oydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish . 13

I.I. Husanova. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda profilaktikaning ahamiyati 21

M.A. A’loxonov. Zamonaviy kriminologiya: fanning mustaqil sohaga aylanishi va institutsional shakllanishi 27

U.E. Ashurov. Вопросы изучения криминологического аспекта киберпреступлений, совершенных организованными группами 38

J.B. Maxmudjonov. Kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyat ishlarini tergov qilishda xalqaro hamkorlik 52

I.S. Allambergenov. Теоретические аспекты кибермошенничества: понятие, правовая природа и виды 58

M.A. Sattarov. O‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni fosh etish tushunchasi va tasnifi 67

I.A. Umarov. Intellektual texnologiyalar va yo‘l harakati xavfsizligi nazariy asoslari 73

M.Sh. Xolmirzayev. Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida hududlarning kriminogen vaziyatini baholash va prognoz qilishning innovatsion texnologiyalari: nazariya, amaliyot va takomillashtirish yo‘nalishlari 79

U.R. Rajabov, N.O‘. Ochilov. Профилактика экономических преступлений (международно-правовой и зарубежный опыт 87

E.E. Isayev. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati va jamoat xavfsizligiga ta'siri 96

D.Sh. Nashbandova. Raqamli asrda psixologik muvozanat: salbiy ta'sirlar 115

A.A. Dustmurodov. Dastlabki tergovda axborot texnologiyalarini tartibga solish yuzasidan yondashuvlar: amaliy muammolar va yechimlar 119

M.A. A'loxonov. Zamonaviy kriminologiyada ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalari o'tkazishning tizimli tahlili 131

D.M. Mavlonov. Kiberjinoyat tushunchasi 138

B.N. Normurodov. Raqamli kontentlar orqali aholining kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish masalalari 141

H.O. Abdullayev. Международный и зарубежный опыт предупреждения экономической преступности 149

A.A. Tashqo'lov. Kiberjinoyatchilikda botnetlarning tahdidi va yechimlari 158

D.A. O'rinova. Ayollar tomonidan axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan o'g'irlik va firibgarlik jinoyatlariga qarshi kurashishning dolzarbligi 162

M.A. A'loxonov. Zamonaviy kriminologik ta'lim jarayonining amaldagi holati va mavjud muammolar 170

Sh.E. Xasanov. O'g'rilik jinoyatlarining oldini olishni takomillashtirishda zamonaviy innovatsion metodlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari 179

Z.A. Jurayev. O'g'rilik bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning muhim jihatlari 187

M.M. Magrubov. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda qonunchilikning o'rni: raqamli texnologiyalar misolida 197

SH.S. Qosimov. O‘zbekistonda axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish: huquqiy islohotlar va zamonaviy yondashuvlar 204

M.A. Sattarov. Jinoyatlarni fosh etishning ilmiy tasnifi va tahlili 216

F.K. Xo‘jamberdiyev. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishning ayrim masalalari 221

J.X. Maxmudov. Jamoat tartibini saqlashning kriminologik xususiyatlari va uning etimologik shakllanish tarixi 229

Sh.G. Murzajanov. O‘zbekistonda fuqarolarning murojaatlarini hal etish mexanizmlari 240

Sh.Sh. Hasanov. Kiberxavfsizlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishdagi islohotlar 246

U.J. Choriyev. Yangi turdagi kiberjinoyatlarning turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari 253

A.T. Jo‘rayev. Kiberjinoyatlarga qarshi barvaqt profilaktika: O‘zbekiston va xalqaro tajriba 265

N.R. Kaxarova. Ayollar mehnat migratsiyasi kontekstida kiberjinoyatchilik: tahdidlar va qarshi kurash mexanizmlarining sotsiologik tahlili 273

L.A. Atoyev. *Harakatdagi shaxsning yuz qiyofasi va harakat burchaklaridan tanib olish muammo va yechimlari* 280

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

“ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYADA KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMOLAR, ILG‘OR TAJRIBA VA ILMIY-AMALIY YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami
(2025-yil 27-noyabr)

Mas’ul muharrir:
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik Sh.O. Azim

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
100187, Toshkent sh., Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243.